

B4(7)
934



YOSHLAR
KUTUBXONASI

O'Genri

Ishbilarmon kishilar



**Kitob shu yerda ko'rsatilgan muddatdan
kechiktirilmagan holda topshirilishi shart**

ilgarigi berilmalar miqdori _____

| | |
|--|--|
| | |
|--|--|



YOSHLAR
KUTUBXONASI

O'Genri


Ishbilarmon kishilar



YANGI ASR AVLODI

TOSHKENT

2018



UO'K: 821.512.133

KBK: 84(7)

G-34

Genri O'

Ishbilarmon kishilar: hikoyalar. / O'Genri. – T.: Yangi asr avlodi, 2018. – 256 b.

ISBN 978-9943-27-563-8

Asli ismi Uilyam Sidney Porter (1862 – 1910) bo'lgan O'Genri dunyo adabiyotiga Amerikaning eng mashhur hikoyanavis adibi sifatida tanilgan. U o'zining qisqa umri davomida sermahsul ijod qildi, uch yuzga yaqin hikoyalar yozib qoldirdi. Bu hikoyalarida O'Genri Amerika hayotining rang-barang jihatlarini, inson qalbi va xarakterini turfa obrazlar timsolida turlicha bo'yoqlarda mahorat bilan tasvirlab bera oldi.

Aziz kitobxon! Mazkur kitobga kirgan O'Genrining eng sara hikoyalari rus va ingliz tillaridan o'zbekchaga tarjima qilinib, hukmingizga havola etilmoqda. U sizlarga manzur bo'ladi degan umiddamiz.

UO'K: 821.512.133

KBK: 84(7)

ISBN 978-9943-27-563-8

© O'Genri, «Ishbilarmon kishilar». «Yangi asr avlodi», 2018.

Ingliz tilidan
Qandilat Yusupova
tarjimasi

ISHBILARMON DALLOLNING SEVGI QISSASI

Pitcher, ishbilarmon dallol Xarvi Maksvelning eng ishonchli xodimlaridan biri, soat to'qqiz yarimda boshlig'i bilan uning yoshgina stenografisti jadal idoraga kirib kelgan paytda odatdagiday beg'am qiyofada, xotirjam chehrada ish joyida o'tirardi. Uning xo'jayini bo'lmish janob Maksvel Pitcherga shoshilibgina: «Xayrli tong, Pitcher», – deb salomlashdi-da, shamoldek tezlikda ish stoli tomon uchib bordi va o'sha ondayoq uni kutib turgan bir uyum telegramma va xatlar ichiga sho'ng'ib ketdi.

Janob Maksvel bilan kirib kelgan yosh stenografist ayol bu idorada qariyb bir yildan buyon ishlab kelmoqda edi. Uning husni shunchalar g'ayrioddiy va betakror ediki, ko'rinishidan sirayam stenografistlarga o'xshamasdi. U har qanday zeb-ziynatdan voz kechgan holda, nihoyatda kamtarlik bilan kiyinar, na qo'lida va na bo'ynida yoki qulog'ida biron-bir bezak topish amrimahol edi. Bu ayol huda-behudaga to'yu tomoshalarga ketaveradigan tarallabedod xonimchalardan yuz chaqirim berida yashardi. Qizning egnidagi ko'ylagi ham juda oddiy, biroq uning

durkun qomatiga vazminlik hamda salobat bilan chippa yopishib tushgan, xonimning ko'rkini yana-da ochib yuborgan, boshidagi qop-qora, ozoda shlyapasi ustiga yashil to'tining bir dona patini qadab olgandi. Ayni shu tong ayol negadir boshqacha, nimadandir behad xursand edi. U ishxonaga bamisoli nurga cho'milgandek yorug' yuz bilan kirib keldi. Chiroyli, shahlo ko'zlarida g'aroyib bir shavq nuri chaqnar, yonoqlariga yurgan nim qizillik ham undagi cheksiz baxtiyorlikni tasdiqlab turardi.

Pitcher, o'z stolida hardamxayol bo'lib o'tirgan boqibeg'am stenografistlarida shu tongda g'alati bir o'zgarish yuz berganini ayolning orzularga berilgan xayolchan nigohlaridan sezib turardi. To'g'ri ish stoli oldiga borish o'rniga ayol shu kun qo'shni xona tomon viqor bilan kirib ketdi va u yerdan hadeganda chiqa qolmadi. Stenografist xonim idoraga kelganini janob Maksvelga yanayam bildirib qo'yish uchun ataylab uning xonasida ko'rinish berib qo'yay, degandi.

Ammo janob Maksvelning stenografistning bu yerda bor-yo'qligi bilan ishi yo'q, u bamisoli to'xtovsiz mashinaday o'z yumushlari orasida bir soniya ham dam olmay, nihoyatda band, qo'li-qo'lga bir lahzaga ham tegmasdi.

– Xo'sh, nima gap? Menda ishingiz bormidi? – dedi ishbilarmon dallol o'ta keskin ovozda. U bir dunyo qog'oz uyulib yotgan stoli yonida qandaydir bir xatni o'qish bilan band edi, shuning uchun u xonimga hatto qiyo ham boqib qo'ymadi. Nihoyat, qo'lidagi xatni o'qib bo'lib, sabrsizlik bilan qarshisida jilmayib turgan stenografistga boqdi.

– Yo‘q, hech narsa, – deb qo‘ydi yosh xonim hamon jilmayib turarkan.


– Janob Pitcher, – Pitcherning stoli oldidan o‘tib ketarkan, xonim bir dam to‘xtab, unga murojaat qildi, – mabodo sizga kecha janob Maksvel idorasiga yangi stenografist olish to‘g‘risida ma‘lum qilmadimi?

– Ha, rostdan ham u shunday degandi, – deb javob berdi Pitcher, – boshqa stenografistni ishga olish to‘g‘risida aytib edi. Kecha kunduzi maxsus agentlikka men ham xabar yuborgandim, ular bugun ertalabga bironta yangi xodimni jo‘natishni va‘da qilishgandi. Lekin soat mana, to‘qqizdan oshibdi hamki, hali-beri birontayam nomzod ishxonamizga o‘rmlagani yo‘q.

– Unday bo‘lsa to mening o‘rnimga kimdir-birov kelib joylashgunicha men o‘z ishimni bajarib turaveraman, – dedi yosh xonim.

Shunday dedi-da, ayol o‘zining har doimgi joyiga borib o‘tirdi, boshidan shlyapasini olib, uni odatdagi o‘rniga osib qo‘ydi.

Kimda-kim ishbilarmon dallol janob Maksvelni bir zum kuzatib turganida bormi bu odamning o‘z ishiga mukkasidan sho‘ng‘iganini, bosh ko‘tarmay biznes olamiga butkul ko‘milib ketganini o‘z ko‘zi bilan ko‘rgan bo‘lardi. Ha, qaysidir bir shoir aytganidek, bu manzara xuddi – shonli umrning tig‘iz soatlari edi. Ushbu dallolning nafaqat soatlari, balkim uning har bir daqiqasi-yu onlarigacha tig‘iz holatda kechardi, u bir nafas ham to‘xtamay, har bir kunini turli-tuman idora qog‘ozlari va oxiri yo‘q hujjatlar bilan o‘tkazardi. Uning tashqi hayot bilan aloqasi tamomila uzilgandek edi go‘yo.



Mana, bugun ham Xarvi Maksvelning juda band kuni, bosh qashishga ham vaqti yo'q, oy so'ngiga borib kreditorlar hamda qarzdorlar bilan muomala sur'ati tezlashgan, janob Maksvel stolidagi telefon go'shagiga umrbod yopishib qolgandek edi. U idorada shu kabi asosiy yumushlarni bajarar, qolgan ishchilar esa uning oidiga har xil qog'oz to'plamlarini imzolatish va ko'rsatish bilan bot-bot kirib-chiqib turishardi. Ishxonadagi hamma xodimlar go'yo dengizda bo'ron quturgan paytda hovliqib qolgan dengizchilarday qattiq sarosimaga tushib qolgandi. Shu bugun hatto parvoyi falak Pitcherning-da paytavasiga qurt tushib qolgan, u ham besaranjom o'tirardi.

Bosh xorijiy valyuta tashkilotidan kuchli dovul singari ketma-ket farmoyishlar kelgan, bir dunyo yangi topshiriqlar aytilgan, shuning vajidan ish-bilarmon dallolning idorasida qor ko'chish xavfi kabi yoki otilajak vulqon tahlikasiga o'xshash notinch bezovtalik hukm surardi. Hatto janob Maksvel shu kun ish stolining ham o'rnini biroz o'zgartirib, uni devorga mahkam jipslashtirib qo'ygan, o'zi esa erkinroq ishlashi uchun o'z joyiga qulay o'rnashib olgandi. Ishbilarmon dallol u stoldan bu stolga yeldek g'irillab borib kelar, tashqaridan xuddi tomosha qo'yayotgan masxarabozga o'xshab ko'rinardi.

Avji qizg'in ish pallasida Maksvel malla sochlari peshonasiga gajak qilib tushirib olgan, boshiga tyulen terisidan ishlangan ixcham shlyapasi kiygan, bo'yinlariga qator-qator marjonlar shodasi taqib olgan yoshgina xonimchanning ostonadan kirib kelganiga ko'zi tushdi. Ayol serbezak taqinchoqlari ichida anchagina tannoz bo'lib ko'ri-

nardi. Uni boshliqning xonasiga yetaklab kirgan Pitcher yangi kelgan xonim to'g'risida janob Maksvelga qisqacha izoh berdi:

– Bu xonim Stenografistlar Agentligidan kelibdi, o'z ish o'rnini bilan tanishib qo'yimoqchi.

Maksvel qo'lida bir tutam qog'ozlar bilan Pitcherga ajablanib qaradi.

– Qanaqa o'rin? – deb so'radi u xo'mrayib.

– Stenografist o'rnida, – dedi Pitcher. – Kecha ularga qo'ng'iroq qilib, bironta yangi stenografist yuborishlarini tayinlagan edingiz-ku!

– Siz, Pitcher, esingizni yeb qo'ymaganmiz mabodo? – dedi janob Maksvel achchiqlanib. – Qachon men sizga shunaqa ko'rsatma bergan ekanman? Qayoqdan oldingiz bu gapni? O'zimizning miss Lesli ishini bilib-bilib bajaryapti, undan ko'nglimiz to'ladi. Binobarin, bu joy ham istagan vaqtigacha uniki. Kechirasiz, xonim, ishxonamizda bo'sh ish o'rin yo'q. Agentligingiz bilan o'sha buyruqni o'zingiz bekor qiling endi, Pitcher va illo-billo bu idoraga mening ruxsatimsiz birontasiniyam olib kira ko'rmang!

Mallasoch xonim jahli chiqib, eshikni dang'ilatib yopdi-da, qaltiragan ko'yi zarda qilib, idoradan chiqib ketdi. Pitcher asalariday tinim bilmay ishlayotgan ishbilarmon dallolga qarab, uning kundan-kunga parishonxotir va unutuluvchan bo'lib borayotganligini tushundi.

Chindanam, biznes ishida serg'avg'o yumush yo'q ekan. Har kuni janob Maksvelning ish stoliga yangidan-yangi hujjatlar, ro'yxatlar, qimmatbaho qog'ozlar, bayonnomalar, ish dasturlari dasta-dasta bo'lib tushaveradi. Ishbilarmon dallol esa har kuni o'sha qog'ozlar dunyosiga sho'ng'ib

ketib, hatto o'zini ham unutib yuboradi. Mollarni sotib olish va ularni sotish to'g'risidagi buyruqlar, hujjatlarning to'la ijrosi bilan shug'ullanish – hamma-hammasi janob Maksvelning gardanida. Lekin odam shu taxlit dam olmasdan faqat ishlayversa, faqat ishlayversa va yana ishlayversa, oqibatda asabiy bo'lib, o'ziga-o'zi kasallik orttirib olarkan. Janob Maksvelning idorasi bamisoli moliya olamiga aylangandi, bu yerdan tashqariga birontayam eshik yo'q edi.

Oxiri, soat tushlik vaqti uchun bong urdi. Idoradagi ari g'o'ng'illashiday shovqin shu paytda sal tinchib qolganday bo'ldi.

Bir to'p telegramma bilan bayonotlar ro'yxatini hovuchlab olgan janob Maksvel, nihoyat, kursidan tushdi, u qulog'i orqasiga avtoruchkasini qistirib olgan, to'zg'igan sochlari peshonasi ustiga betartib yoyilib tushgandi. Xonasining ochiq turgan derazasidan unga qandaydir sevikli bo'lgan ifor, xuddi bahor gullari kabi muattar bo'y anqib kirayotgandi.

Ayni shu hid uning eshigi tirqishlaridan ham xona ichiga quyulib oqib kirmoqda edi va u shirin siren isi yanglig' dimoqqa behad xush ifor taratardi. Janob Maksvel bu muattarlik miss Lesliga tegishli ekanligini his qildi. Ha, bu ajib ifor faqatgina undan kelardi.

Xonasi ichida kezinayotgan bu dildor havo janob Maksvelning xayolini oldi. Go'zallik va dilrabolik qarshisida adoqsiz moliya bozori to'satdan taqa-taq yopildi. Bunday qudratga sazovor bo'lish sababchisi janob Maksvelning shundoqqina yonginasida, undan atigi yigirma qadam naridagi qo'shni xonada o'tirardi.

– Oh, Xudoyim! Endi aytmasam bo'lmaydi!
– xitob qildi ishbilarmon dallol o'ziga o'zi. – Ha, hozirning o'zidayoq borib aytaman unga. Ajabo, nega avvalroq shu ishni qilmagan ekanman?

Shu zahoti janob Maksvel birdaniga qo'shni xona tarafga ildam kirdi-da, stenografist xonim o'tirgan stol tomon to'g'ri bostirib bordi. Latofatli miss Lesli ilkis boshini ko'tarib, boshlig'iga qaradi va shu ondayoq yonoqlariga mayin qizillik yugurdi. Uning ko'zlari shunchalar kahrabo va shunchalar suyukli ediki! Janob Maksvil miss Leslining stoli ustiga iyagini tirab suyandi. U haliyam avtoruchkasini qulog'i orqasiga qistirib olganicha, ikkala qo'lida ham hilpiragan qog'ozlarni changallab turardi.

– Lesli xonim, – dedi u shosha-pisha. – Mening bir daqiqagina sizga ajratadigan vaqtim bor. Ayni shu daqiqada bir og'iz gapni aytib qo'ygani kirdim: Menga turmushga chiqasizmi? Siz bilan sevishib yurgani mening ortiqcha vaqtim yo'q, ammo sizni chin dildan sevishim rost. Iltimos, faqat tez ayting – idoramda kutib turgan qog'ozlar bilan ishchilar meni tayoq bilan urib o'ldirishadi bo'lmasa, juda shoshilyapman.

– Voy, nimalar deyapsiz siz? – qattiq xitob qilib yubordi yosh xonim. U oyoqqa qalqib, bor ko'zlari bilan boshlig'iga tikildi.

– Nima, tushunmadingizmi? – dedi janob Maksvel qiziqqonlik bilan. – Menga turmushga chiqishingizni xohlayman. Men sizni sevaman, miss Lesli. Avvalroq aytmoqchi bo'lgandim, ammo bir daqiqayam vaqtimni ajratolmasdim. Bugun sizni yo'qotib qo'yish xavfi tug'ilgandek bo'ldi – shuning uchun besh-o'n lahzagina vaqtimni siz-

ga bag'ishlayman. – Janob Maksvel nihoyatda tez gapirar, so'zlayotganda nafasi og'ziga tiqilgudek bo'lib ketardi. – Ana, meni yana telefonga chaqirishyapti. Menga qarang, hoy, Pitcher, ularga bir daqiqaga kutib turishlarini aytib turing! – deb qichqirdi u o'sha zahoti berigi xonaga bo'ynini cho'zib. Keyin tag'in stenografistining chehrasiga yuzlandi.

– Xo'sh, miss Lesli, nima deysiz?

Stenografist kutilmaganda g'alati bir qiliq qildi. Dastlab u ich-ichidan bostirib kelayotgan kuchli hayratni yengib ko'rmoqchiday bo'ldi, lekin ajablangan ko'zlaridan duv-duv yosh dumaladi. Ana shu yig'i ichida xonim ajib tabassum qildi. Uning nozik bilaklari ishbilarmon dallolning terlab ketgan bo'yni atrofiga chirmashdi.

– Endi bildim, – dedi miss Lesli mayin tovushda. – Mana shu bitmas-tuganmas biznesing seni aqldan ozdirib, miyangdan vaqt hisobini ham chiqarib tashlabdi. Jon-ponim chiqib ketay dedi-ya! Nima, o'zingning esingda yo'qmi, Xarvi? Axir biz o'tgan oqshom roppa-rosa soat sakkizda muyilishdagi kichkinagina ibodatxonada nikohdan o'tgandik-ku!

Ingliz tilidan
Qandilat Yusupova
tarjimasi

XIYOBONDA

Har kuni ayni shom boshlanishi arafasida o'sha sokin va kichkinagina xiyobonning jim-jit muyilishida kulrang libosdagi bir qiz har doimgiday yana paydo bo'lardi. U tanish o'rindig'iga yaxshilab joylashib olardi-da, boshqa hech qanday ishi yo'qday berilib kitob o'qiy boshlardi.

Yana takroran aytaman: qizning libosi kulrangda bo'lib, uning qomati va kiyinish uslubidagi har qanday nuqsonni yashira olish darajada bejirim qilib tikilgandi. Katta to'rli ro'moli qizning dum-dumaloq shlyapasi ustidan epchillik bilan tang'ib olingan, shlyapasi ostidan esa qizning chiroyli yuzi benazir husn va latofat taftidan yal-yal yonib turardi. U bu yerga o'tgan kuni ham xuddi shu soatda kelgan, undan oldingi kuni ham ushbu holat takrorlangan va qizning bunday odatini shu yerdagi sirli bir odam har kech kuzatib yurardi.

O'sha sirli odam kelishgan, yoshgina yigit bo'lib, necha kundan beri o'z omadini kutib, doim sal narida qizni poylab turardi. Shu kun yigitchaga taqdir kulib boqqandek bo'ldi, qiz o'qib o'tirgan kitob to'satdan qo'lidan tushib ketdi-da, bir-ikki qadam nariga uchib tushdi. Uddaburon yigit o'sha zahoti kitobga chang soldi-da, uni sohibjamol qizga cheksiz umid, oliyjanoblik hamda hur-

mat ila tutqazdi. Kitobni qizning qo'liga berayotgan damda fursatdan foydalanib, kechki havo haqida muloyim ovozda bir-ikki og'iz gap qistirib qo'ydi. Odatda, ob-havo mavzusi qismatlar yo'lini tutashtiruvchi, bir dunyo tole taqdim etguvchi ilk tanishuv debochasi yoki aksincha baxtsizlikning boshlanishi hisoblanadi.

Shu paytda qiz ham unga ziyraklik bilan zehn solishga ulgurdi, yigitning odmigina, lekin top-toza, g'ubori yo'q ko'yligidan uni sofdil yigit bo'lsa kerak, deb xayol qildi.

– Agar istasangiz, o'tirishingiz mumkin, – dedi qiz bag'ri kenglik qilib, – bermalol tortinmay o'tiravering. Bu yer kitob o'qish uchun ancha qorong'ilik qilyapti. Yaxshisi, suhbatlashganim ma'qulroqqa o'xshaydi.

To'satdan kelib qolgan omadni boy berishni istamagan baxt izlovchisi qizning yoniga mamnuniyat bilan o'tirdi.

– Ishonasizmi, – deya gap boshladi yigit biroz rasmiy ohangda, – siz men dunyoda uchratgan eng jozibali qiz bo'lasiz! Mana bu chiroyli, porlab turgan ko'zlaringiz bilan bir odamni anchadan buyon xayolini o'g'irlab qo'yganingizni o'zingiz ham bilasizmi?

– Nimalar deyapsiz? Kimsiz o'zi? – birdan qizning jahli chiqib ketdi. – Esingizda bo'lsin: men oliynasab yosh xonim bo'laman. Og'zingizga kelgan har qanday gapni gapiraverasizmi? Mayli, hozirgina qilgan iltifotli ishingiz uchun bu gapingizni kechirdim ham deylik, ammo faqat kitobni olib berganingiz uchungina kechiraman, bilib qo'ying. Sizga o'tira qoling, deganim bu sizga

menga bermalol murojaat qilishga ijozat berganim emas. Garchi siz shunday deb qabul qilgan bo'lsangiz, u holda aytgan so'zimni qaytib oldim.

– Ming bor uzr, juda xijolatdaman, meni kechiring, – dedi yigit astoydil yolvorib. Uning mamnuniyat to'la ko'zlari pushaymonlik va kamtarlik ifodasi bilan almashdi. – Oldingizda katta gunoh qildim, ma'zur tuting. Men o'ylabmanki, xiyobonga kelib turadigan qizlar, albatta... siz bilasizmi, bilmaysizmi, ehtimol...

– Mavzuni o'zgartirsak, iltimos sizdan, – dedi qiz gapni cho'rt kesib. – Albatta bundan xabardorman. Ammo men to'g'rimda bo'lmag'ur o'ylarga aslo bora ko'rmang. Yaxshisi, siz menga hamma yoqda g'uj bo'lib, yo'lakchalarda u yoqdan bu yoqqa shoshilib o'tib turgan odamlar haqida gapirib bering. Bu odamlar o'zi qayerga ketishyapti? Nega bunchalik shoshilib yurishadi? Ular aslida baxtli odamlarmi?

Sal oldin mulzam bo'lib qolgan yigit endi kalandimog'lik qiyofasini tashlab, biroz mulohazakor odamga aylanib qolgandi. U hadeb bo'lsa-bo'lmasa gap suqavermasdan, faqat gapirish navbati yetib kelgunicha miq etmay, kutib o'tirgandi.

– Ularni tomosha qilish maroqli hol, – deb javob berdi u, qizning kayfiyatini o'zicha baholab. – Hayotning g'aroyib tomoshasi bu. Qarshingizdagi odamlarning ba'zilari kechki ovqatga, ba'zilari bo'lsa... Yana boshqa-boshqa joylarga ketyapti. Kim bilsin, ularning har bittasining taqdiri qanday ekan?

– To'g'ri aytasiz, buni hech kim bilmaydi, – dedi qiz, – men tergovchi emasman, bema'ni savollar bergan bo'lsam, to'g'ri tushuning. Men bu yerga

shunchaki toza havoda o'tirib, yengil nafas olish uchungina kelaman, zotan faqat shu sokin xiyo-bondagina insonning yurak zarblarini xotirjam va teran his qilishing mumkin. Biroq baxtga qarshi mening jamiyatda tutgan o'rnimda ana shu hissiyotni, qalb olamini hech qachon tinglay olmay-siz. Siz mening nima deyayotganimni tushun-yapsizmi, janob?

– Janob Parkensteker, – deya qizning gapini to'ldirdi yosh yigit. Shunday deb u yana umid va hayajon to'la ko'zlarini qizga tikdi.

– Yo'q, – dedi qiz ingichka barmog'ini o'ynagancha, biroz kulimsirab, – siz mendagi holatni darrov tushuna olmaysiz. Axir kimnidir ko'ngli-ni anglay olish bir lahzalik ish emas-ku! Hatto odamning ko'rinishidan ham uning ichki dun-yosini bilib olish mushkul ish. Oqsochim tang'ib qo'ygan mana bu ro'mol bilan shlyapa go'yo boshimdagi butun o'y-xayollarimni-da berkitib qo'yganday. Hatto har doim sizni mashinada olib yuradigan haydovchingiz ham har kuni ko'zla-ringizda miltirab turgan mungni payqay olmaydi. Ochig'ini aytganda, kimlargadir yuqori tabaqaga mansub kishilar toifasidan bo'lish ulkan baxtday bo'lib tuyuladi. Ammo ularning hammasi ham baxtli emas... Men sizga gapiryapman, janob Stekenpot?

– Parkensteker, – deb qizning xatosini to'g'rilab qo'ydi yigit kamtarlik bilan.

– Kechirasiz, janob Parkensteker, – qiz uzr so'rab, yana gapida davom etdi. – Bilasizmi, men har doim chinakam inson – omonat mol-dunyo jimjimasiga uchib, o'zligini buzmagan, haqiqiy odamiylik qiyofasini unutib, manfur va yulg'ich

kimsaga aylanib qolmagan, qaysidir ma'noda hayotdagi eng ulug' toifaga munosib asl inson bilan dardlashib o'tirgim keladi. Oh! Siz mening bu yarog'siz boylik ohanjamasidan qanchalar charchaganimni bilmaysiz! O'zingiz ham ko'ring, bu hayotda hamma narsa pul, pul, faqat pul! Hatto oqshomgi bazmlarda ham bir-biridan qolishmaslik uchun ataylab har xil soch turmagi bilan kelishadi. Buning bari jonimga tegdi! O'sha zeb-u ziynat, o'sha sayr-u sayohat, o'sha tillolarga chulg'angan jamiyatning kibor toifasi – hamma-hammasi g'ashimni keltirayapti! Men nihoyatda bezib ketdim!

– Menda esa aksincha, – yigit ancha ikkilanib o'zicha tavakkal qildi, – ya'ni, menda hamisha shunday fikr bo'lgan: pul bu juda yaxshi, nihoyatda ajoyib narsa bo'lishi kerak.

– Chindanam yaxshi va ajoyib, chin yurakdan orzu qilinadigan narsa bu – iste'dod! Million-million pulingiz bo'lsa-yu, ozginagina iqtidoringiz bo'lmasa, boyligingizning hech qanday ahamiyati bo'lmaydi! Qiz umidsiz va tushkun ohangda gaplariga xulosa yasadi. Oradagi biroz jimlikdan so'ng, tag'in so'zlay boshladi. – Hamma narsada bir xillik, zig'ircha o'zgarish yo'q. Mashinalar, kechki ziyofatlar, teatr, tomosha va o'tirishlar. Hammasi keragidan ortiq, bizning ehtiyojimizdan ko'ra ortiqcha darajada mo'l-ko'l. Ba'zida hattoki, shampan vinosi quyilgan stakanimdagi muzning tiringlashi ham asabimga tegib, jinni qilib qo'yay deydi meni...

Janob Parkensteker qizning barcha gaplarini katta qiziqish va zakiylik bilan tinglab o'tirardi.

– Baribir men badavlat odamlar va ularning mol-dunyo orttirish yo'llari to'g'risida eshitishni jon-dilimdan yaxshi ko'raman. Menimcha, o'zgina xudbinroq bo'lsam kerak. Lekin siz bilan suhbatlashib o'tirib, fikrlaringa oydinlik kiritib olyapman. Nazarimda, menga quyilgan shampan vinosi allaqachon sovib qolgan va mening qadahimdagi muz ham allaqachon erib ketgan.

Shu vaqt qiz chin dildan, xushchaqchalik bilan qah-qah otib kulib yubordi.

– Bilasizmi, – dedi u ko'ngilchanlik bilan, – bizlar hech kimga keragi bo'lmagan, o'zimiz istagandek rohat-farog'atni topolmaydigan toifalardanmiz. O'sha shampan vinosi quyilgan qadah va muz solish shunchaki bema'ni bir hoy-u havas, shunchaki oliftagarchilik, xolos. Sizga bitta voqeani aytib beraman hozir. Bir kuni Uolderf degan joyda o'tkazilayotgan bazmga Tortari shahzodasi qadam ranjida qilibdi. Bazmdagilar darrov rasmiyatchilikni, dabdabagarchilikni joyiga qo'yishibdi. Hattoki ular kechki taom dasturxonida har bitta kibor mehmonning likopchasi yoniga bir donadan yosh bolalarning qo'lqopini qo'yib chiqishibdi. Qo'lqop nima uchunligini fahmlayapsizmi? U mehmonlar zaytun yeyayotgan paytlarida og'izlarini artish uchun qo'yilgan ekan.

– Sizni tushunyapman, – deb bosh irg'adi yigit kamtarlik bilan. – Oliymaqom davralarning bunday ko'ngilxushligi oddiy xalq uchun doim g'ayri-oddiy holat bo'lib kelgan.

– Ba'zan, – deya gapini davom ettirdi qiz, ayni chog'da u yigitning e'tirofiga minnatdorchilik bilan boshini egib qo'ydi, – shunday o'ylaymanki,

basharti qismat menga ham muhabbat baxtini in'om etib, kimnidir sevib qolgudek bo'lsam, mening ko'ngil mulkimga quyi tabaqadagi oddiy odam podshoh bo'lib saylanishini tilagan bo'lardim. U oddiygina ishchi bo'lsa ham mayli, lekin tekintomoq bo'lmasin. Ammo tan olish kerakki, ko'ngil istagidan ko'ra boylik qutqusi kuchliroq bo'lar ekan. Menga ham ikki nafar badavlat kishi ko'ngil qo'ygan. Ulardan biri nemis millatiga mansub, qayerdadir direktor bo'lib ishlovchi Grend Dyuk ismli zodagon. Uning qaydadir xotini bor, yo bo'lmasa... qachonlardir bo'lgan, deb o'ylayman. Johilligi va yengiltakligi uchun uni o'ldirib qo'yay deyman. Ikkinchi kishi millati ingliz bo'lgan bir markiz, nihoyatda pulga o'ch va toshyurakki, men hatto undan ko'ra ba'zan berigi nemisni ham afzalroq ko'rib ketaman. Eh, shunaqa savdolar bor mening boshimda! Qiziq, bularni sizga so'zlab berishga meni nima majbur qilayapti ekan, hayronman, janob Parkenteker?

– Parkenteker, – deb to'g'rilab qo'ydi yigit yana muloyimlik bilan. – Bilasizmi, ayni damdagi sizdagi ishonch va jasurlikni men nechog'lik qadrlab o'tirganimni hatto tasavvur ham qilolmasangiz kerak.

Qiz yigitga javoban unga samimiy, mehribon nigohini qadadi.

– O'zingiz nima ish qilasiz, janob Parkenteker? – deb so'radi u yigitdan.

– Bizniki o'ta oddiy, kamtarona bir ish, xonim, – dedi yigit. – Biroq men ham bu olamda yuqoriga ko'tarilib yashashga umid qilaman. Siz boya quyi tabaqadagi insonni sevib qolish xususidagi orzuyingizni jiddiy aytdingizmi?

– Albatta, jiddiy aytdim, – deb javob berdi qiz. – Biroq men «ehtimol» deb aytdim. Axir peshonamda nomzod bo'lib turgan Dyuk bilan markiz borligidan xabaringiz bor-ku. Ha, ammo ko'nglimdagi orzuyim hamon o'sha-o'sha, u darajada quyi bo'lmagan, oddiyroq bir insonni uchratsam, deb yashayapman.

– Men, – deya xitob qildi shu vaqt janob Parkens-teker qizning gapini bo'lib, – kichkina restoranda xuddi siz orzu qilgandek oddiygina bir ishchi bo'lib ishlayman.

Shunda qiz yigitdan biroz o'zini olib qochdi.

– Ishqilib ofitsiant bo'lib emasmi?

– Men hisobchiman, – dedi yigit. – Shu xiyobonning ro'parasida elektr chirog'i yaltiratib turgan – «Restoran» degan yozuvni ko'ryapsizmi? Men xuddi o'sha restoranda hisobchi bo'lib ishlayman.

Qiz yigitning gaplarini eshitish asnosida chap bilagidagi shohona bilaguzuk o'rtasiga o'rnatilgan qo'l soatiga tez qarab oldi-da, shoshib o'rnidan turdi. Tizzasidagi kitobini beli tor qilib tikilgan ko'ylagining yon cho'ntagiga solib qo'ydi. Lekin kitob cho'ntakka arang sig'ib, ko'ylakning yonboshi ancha do'ppayib qoldi.

– U holda nega ishda emassiz, janob Parkens-teker? – deb so'radi qiz.

– Mening navbatim tunda, xonim, – dedi yigit. – Ish soatim boshlanishiga hali ancha vaqt bor. Darvoqe, sizni yana ko'rishimga umid qilib qolsam bo'ladimi?

– Bilmadim, – deb javob berdi qiz o'ychan. – Ehtimol, yana ko'rishib qolarmiz. Mening injiqligim tutib qolmasa, albatta. Endi esa zudlik bilan ketishim lozim. Bugun yana bazm va o'ti-

rishimiz bor. Eh, yana o'sha eski hammom, eski tos! Balki, bu yoqqa kelayotganingizda xiyobon muyilishida turgan avtomobilga ko'zingiz tushgandir? Oq rangdagi?

– Qizil g'ildiraklimidi? – dedi yigit peshonasini tirishtirgancha mulohazasini bildirarkan.

– Ha, o'sha. Men har gal o'sha mashinada kelaman. Haydovchim meni muyilishda kutib turadi. U meni do'kondan u-bu xarid qilib yurgandir, deb o'ylaydi. U yuragimda yuz berayotgan holatni aslo tushunmaydi. Qayerda bo'lmaylik, hayotning dabdabalari ko'pincha istaklaringizga hokimlik qilarkan. Shuning uchun hatto haydovchilarimizni ham aldashga majbur bo'lamiz. Gaplarim cho'zilib ketdi, tezroq keta qolay endi, janob Parkensteker. Xayrli tun sizga.

– Lekin shoshmang, – dedi yigit qizni to'xtatib. – Hozir judayam qorong'i bo'lib qoldi, buning ustiga xiyobon ham bezorilar bilan to'la bo'lsa. Men sizni...

– Agarda mening orzu-umidlarimga nisbatan zarracha hurmatingiz bo'lsa, – dedi qiz shunda qat'iy turib, – men ketganimdan keyin mana shu o'rindiqda o'n daqiqa tek o'tirib turasiz. Taklifingizga e'tirozim yo'q-ku, ammo haydovchim o'z sohibasini bir o'zinimas, yonida qandaydir begona erkak bilan ko'rib qolsa, buning oqibati yaxshi bo'lmasligi mumkin... Yaxshi qoling, janob Parkensteker!

Qiz ildamlilik bilan tez-tez yurib ketdi, uning ulug'vor qiyofasi bir zumda qorong'ilik qa'riga singdi. Yigit esa turgan joyida qizning xiyobon chetidagi yo'lak bo'ylab shoshib ketayotganini zimdan kuzatib turarkan, muyilishdagi mashina

yoniga yetganida birdan qizning shartta to'xtaganini payqadi. Shunda yigit qizning iltimosini buzib, hech narsani o'ylamay, uning ortidan chaqqon yurib keta boshladi. Janob Parkensteker qizni ko'zdan qochirmaslik va unga sezdirib qo'ymaslik uchun ataylab butazor va yo'g'on daraxtlarni panalab oldinga yuraverdi.

Shunda yigit qizni muyilishdagi mashinaga chiqmasdan, unga chap berib, ko'chani qoq o'rtasidan kesib o'tganini ko'rib qoldi. O'ziga qulayroq yerga turib oldi-da, yana qizning keyingi xatti-harakatlarini sinchiklab kuzataverdi. Asosiy yo'lakni bosib o'tarkan, qiz tepasida yaltiroq belgi nur sochib turgan restoranga kirib ketdi. Bu restoran boya yigit aytib o'tgan joy bo'lib, bu yerda eng arzon va oddiy taomlar tayyorlanar edi. Xonimlardek viqor bilan kiyinib olgan qiz esa restoranga kirgan zahoti uning orqa xonasiga o'tdi-da, bir zumda boshidagi shlyapasi bilan to'ro'rolini yechib, qaytib chiqdi.

Restorandagi hisobchining joyi bejirim holatda edi. Unda o'tirgan bir mallasoch qiz har doimgiday devordagi katta soatga tez nazar tashladi-da, asta o'rnidan turdi. Uning joyini kulrang libosdagi bizning «xonim»imiz egalladi.

Bu paytda janob Farkensteker ko'chada ikkala qo'lini cho'ntaklariga solib olgan cha yo'lak bo'ylab sekin bosib kelardi. Muyilishga yetib kelganida, uning oyoqlariga yo'l chetidagi chimzor ustida yotgan kichkinagina, qog'ozga o'ralgan nimadir urilib ketdi. Uning yaltiroq va bezakli muqovasidan yigit bu boya qiz o'qib o'tirgan kitob ekanligini tanidi. Uni loqaydlik bilan qo'lga olarkan, janob Parkensteker kitobning sarlavhasiga

asta ko'z tashladi. Bu Stivenson ismli muallif tomonidan yozilgan – «Yangi ming bir kecha» nomli kitob edi. Yigit hafsalasi pir bo'lgandek uni yana o't ustiga tashladi-da, o'zi ham bir-ikki daqiqa chimzor ustida cho'zilib yotdi. Birozdan keyin janob Parkensteker o'rnidan turib, muyilishdagi oppoq, g'ildiraklari qizil mashina yoniga kelib to'xtadi. U mashinaning orqa o'rindig'iga o'zini tashladi-da, momiq, par yostiqlar ustiga yastanib olgancha, haydovchisiga ikki og'izgina so'z aytdi:

– Uyga, Genri...

*Ingliz tilidan
Nodirabegim Ibrohimova
tarjimasi*

TOMIRINGIZNI USHLAB KO'RSAM MAYLIMI?

Xullas, men shifokorga yo'l oldim.

– Oxirgi marta qachon alkogol iste'mol qilgan-siz? – so'radi doktor.

– Oh, ko'p bo'lmadi, – dedim boshimni u tomon tashlab.

Doktor yoshgina ko'rinar, har holda 20 va 40 lar orasida edi. Xuddi Napoleonga o'xshab goliotrop paypoqlar kiyib olgandi. U menga negadir yoqib qoldi.

– Unda, – davom etdi u, – men sizga alkogol qon aylanish tizimiga qanchalar ta'sir etganini aytib o'tsam. Xo'sh, o'zi «aylanish» deyilarmidi? Ehtimol «joylashish» deyilar...

U chap qo'limni tizzasiga qo'ydi va bir shisha viskini menga tutqazib, «iching» deb buyurdi. Chindan ham u tobora Napoleonga o'xshab borardi. Uni yanada yaxshi ko'rib ketdim.

Keyin doktor bilagimni mahkam bog'ladi va barmoqlari bilan pulsini ushlab turdi. So'ng esa termomertga o'xshash apparatga ulangan kauchuk cho'zma bilan bilagimni o'rab siqa boshladi. Haligi termometr ichidagi simob tepa-pastga sakrar, hech to'xtamasdi. Lekin doktorning aytishicha, qon bosimim 200 ga 37 yoki bo'lmasa 100 ga 65, ehtimol boshqacharoq bo'lishi ham mumkin ekan.

– Endi ko‘rdingizmi, alkohol qon bosimiga qanchalar ta‘sir ko‘rsatishini? – so‘radi doktor.

– Juda ajoyib-ku! Lekin sizning-cha, bu yetarli asosmi? Keling, bu qo‘limda ham sinab ko‘ramiz.

Doktor qo‘limni qattiq siqdi. Menimcha, u xayrlashayotgan edi. Yo‘q, unday emas ekan. U keskir igna bilan barmog‘imning uchiga nish urdi va qizil tomchilarni ellik sentlik poker shisha siniqlariga tomiza boshladi.

– Bu gemogloblin testi, – tushuntirdi u, – qoninigizning rangi juda chatoq-ku.

– Xo‘sh, to‘g‘ri, aslida ko‘k bo‘lishi kerak edi. Buning bariga qonlarning aralashuvi sababchi. Ba‘zi ajdodlarim kavaler bo‘lgan, Nantaket orolidagi aholi bilan chatishib, shunga...

– Aytmoqchiydimki, – gapimni bo‘ldi doktor, – uning rangi juda ham to‘q.

– Oh, bularning bari juft tanlashdan kelib chiqqan.

Doktor ko‘kragimning ba‘zi joylarini taqillatib chiqdi. O‘sha payt u nafaqat Napoleon, balki Betling va lord Nelsonga ham o‘xshab ketdi. Men unga darrov o‘n besh dollar to‘ladim.

– Buni (yoki bularning), qaysinisidir (yoki ba‘zilarining) peshonamga yozilgani aniqmi? – har ehtimolga qarshi so‘rab qo‘ydim.

– Hammasi, – javob berdi u bajonidil, – lekin ularni vazifasidan ozod qilsa bo‘ladi. Doimiy e‘tibor va muntazam davolanish orqali siz umringizni sakson besh yoki to‘qson yilga yetkazishingiz mumkin.

Men doktorning hisob-kitobi haqida o‘ylay ketdim. «Menimcha, sakson besh ayni tobida» –

mening fikrim shu edi. Doktorga yana o'n dollar qo'shib berdim.

– Birinchi qiladigan ishingiz, – dedi u qaytadan tug'ilgandek jonlanib, – dam olishingiz uchun qulay bir sanatoriya topish bo'lsin, asablaringiz ancha tinchlanishiga imkon bering. Istasangiz, siz bilan borib, ma'qul bir maskan topardik.

Xullas, doktor meni Katskills tog'larida joylashgan bir ruhiy hastaxonaga yetaklab bordi.

Qip-yalang'och tog' bag'rida siyrakkina tashrif buyuruvchilar zich joylashishgandi. Bu yerda tosh-u shag'al, qor parchalari, to'kilib tushgan qarag'ay daraxtlaridan boshqa narsaga ko'zingiz tushmasligi tayin. Yosh psixolog yoqimtoy va g'amxo'r ekan. U bilagimni cho'zmasi bilan siqmasdan ham qo'zg'atuvchi dori yubordi. Bu payt tushlik mahali bo'lgani uchun biz ham dasturxonaga taklif etildik. Kichkinagina stolchada yigirma kishi tamaddi qilar ekan. Yosh psixolog stolimiz yoniga keldi va dedi:

– Mehmonlarimiz o'zlarini bemor sifatida baholamasliklari bizning shiorimizdir. Faqat charchagan ayollar va erkaklarga dam olishi mumkin. Kalandimog' xonimchalarga esa suhbatga aralashish man etiladi.

Yonimdagi doktorim xizmatchiga baland ovozda menga – bemor uchun limonli to'g'ralgan go'sht, non, blinchik, gaz suv va yo'taltiruvchi choy olib kelishini buyurdi. Uning yo'g'on ovozidan yakkam-dukkan qarag'aylar titrab ketdi. Umuman, bu yerda barcha baqirib gapirardi. «Nevrasteniya!» – degan qichririqni men tiniq eshitdim, u burundor bir kishi ekan, – «Surunkali

alkogolizm». Uni yana qachondir uchratib qolishni umid qilardim. Yosh psixolog bizni tark etdi.

Bir soatlardan keyinmi, ishqilib, tushlik tugagach, psixolog bizni uydan ellik yard naridagi ustachilik sexiga boshlab bordi. Bu yerda biz mehmonlarni yosh psixologning sherigi – uzun oyoqli, ko'k sviter kiygan kishi kutib oldi. Uning bo'yi shunchalik baland ediki, yuzini ko'ra olmadim.

– Bu yerda, – dedi yosh psixolog, – mehmonlarimiz mehnat orqali o'tmishdagi ruhiy azoblardan qutuladilar.

Sexda tokarlik uskunasi, duradgorlik aslahalari, loy qoruvchi asboblari, g'ildirak arqonlari, sinchlar, pastel bilan chizilgan rasm, apparaturalar, temirchilar pechi, umuman hamma narsa bor edi. Menimcha, bular oyparast mehmonlarda qiziqish uyg'otishi lozim edi.

– Anavi xonim devorga loy urayapti, – ovoza qildi psixolog. – U Lula Lulington, ya'ni «Sevgi nega sevadi?» novellasining muallifidir. Mana, u mushkul ishidan qutulish uchun o'ziga yaxshi bir ermak topdi.

Ushbu kitobga ko'zim tushgan edi.

– Nega u ermakni qalamdan ola qolmadi ekan-a? – so'rab qo'ydim.

– Mo'riga suv quyayotgan manavi erkak esa, – davom etdi psixolog, – Uil stritdagi makler edi, yaqinda ishidan ayrilgan.

Men paltomning tugmalarini qaday boshladim.

U ko'rsatgan qolgan odamlar – Nuxning kovchegini o'ynayotgan me'morlar, Darvinning evolyutsiya nazariyasini o'qiyotgan ministrilar, daraxt arralayotgan advokatlilar, qo'llarida chang latta ushlagan zodagon ayollar, zinada uxlab qol-

gan asabiy millioner va devorga qizil vagon rasmini solayotgan atoqli rassom kabilar edi.

– Ko‘rinishingizdan bardamsiz, – so‘z qotdi psixolog menga. – O‘ylashimcha, siz uchun eng maqbul mehnat – shag‘allarni tog‘ yon bag‘riga tashib, yana qaytarib olib kelishdir.

Men doktorimdan yuz yard olisdaydim, xayriyatki, u meni topib keldi:

– Xo‘sh, nima bo‘ldi? – so‘radi u.

– Shu bo‘ldiki, bu yerda qulay aeroplan yo‘q ekan. Shuning uchun men bajonidil ushbu yo‘lakchadan yurib yaqin atrofdagi bekatga boraman-da, shaharga qaytadigan biror avtobusga mingashib olaman.

– Ha, balki haqdirsiz. Sizga mos joyni topish mushkul ko‘rinadi. Lekin darhol dam olmasangiz bo‘lmaydi. Haqiqiy dam va hordiq!

O‘sha tun men mehmonxonaga bordim va kotibaga aytdim:

– Men faqat dam va hordiq olishim zarur. Shuning uchun katta yig‘ma karavotli xona va men dam olayotganda xizmat ko‘rsatuvchi xodim ajratsangiz.

Kotiba tirnoqlaridagi bo‘yoqni o‘chirar ekan, vestibyuldagi baland bo‘yli va oq shlyapadagi kishiga ma‘noli qarab qo‘ydi. Erkak esa yonimga keldi-da, iltifot ila g‘arbiy eshikdagi butazorni ko‘rgan-ko‘rmaganligimni so‘radi. «Yo‘q», javobimni eshitgach esa menga o‘sha butazorni ko‘rsatdi.

– Ko‘rdingiz, deb o‘ylabman, – dedi so‘ng, – menimcha, siz yaxshisi doktorga borishingiz lozim.

Bir haftadan so‘ng doktorim qonimni yana bir bor tekshirdi. U bu safar unchalik ham Na-

poleonga o'xshamasdi. Uning oftobda uniqqan paypoqlari e'tiborimdan chetda qolmadi.

– Sizga kerakli narsa, – dedi u, – dengiz havosi va dilkash suhbatdosh.

– Siz suv parisini nazarda tutayapsizmi...

– Men o'zim sizni Long oroli sohillarida joylashgan Boneyr mehmonxonasiga olib boraman. U yerda o'zingizni tiklab olasiz. Orol tinch, qulay va sizni kuchga to'ldiradigan maskan.

Boneyr mehmonxonasi to'qqiz yuzta hashamatli lyuks xonalar va ajoyib sohilga ega oroli bilan mashhur edi. Tushlikka mos kiyinmagan mehmonlar ichkaridagi ovqatlanish zaliga taklif etilar, faqatgina toshbaqa go'shti va shampan vinosi bilan siylanardi. Ko'rfazga esa badavlat yaxta egasi tomonidan bezak berilgandi. Dengiz qaroqchisi ham biz u yerga yetib borgan kun sohilga langar tashladi. Doktorim Morgan o'sha payt palubada pishloq tamshangancha, ko'zini mehmonxonadan uzmay o'tirardi. Har holda, bu yer baribir ancha qimmat joy ekan. Har kimning ham qurbi yetavermasdi bu yerda tunashga. Yagona yo'li – tunda yuqingizni xonada qoldirib, qayiq o'g'irlab, cheksiz dengizga o'zingizni topshirish, xolos. Bu yerga kelganimga bir kun to'lgach, xizmat ko'rsatuvchi stoldan telegramma oldim-da, barcha do'stlarimga menga qarz yuborishlarini so'rab xat yoza boshladim. Keyin doktorim bilan golf maydonida kriket o'ynadik, so'ng yam-yashil o'tloqda yastanib yotdim. Safarimiz yakunlanib, qaytganimizdan so'ng doktorim so'rab qoldi:

– Aytgancha, o'zingizni qanday his qilyapsiz?

– Rosa yengillashgandekman!

Maslahatchi psixolog boshqacha bo'larkan. U o'ziga men tomonimdan haq to'lanishi aniqmi yoki yo'qligini bilolmagani uchun ehtiyotkorlik bilan ish tutardi. Doktorim uning yoniga yetaklab borganida, u menga g'aribona va g'amxo'rlik bilan nazar tashladi. Bir ko'rishda uni yoqtirib qoldim. U menga ba'zi oddiy mashqlarni qildirib ko'rdi.

– Boshingizning orqasida og'riq sezasizmi? – so'radi u.

Men «yo'q» javobini berdim.

– Ko'zingizni yuming, – buyurdi u, – oyoqlaringizni jamlang va bor kuchingiz bilan turgan joyingizda sakrang.

Sakrash joni dilim bo'lgani uchun toza sakrab berdim. Afsuski, uch qadam naridagi, o'zim ochiq qoldirgan yuvinish xonasi eshigining qirrasiga boshimni urib oldim. Doktorning menga rahmi keldi. Keyin eshikni yaxshilab yopib qo'ydi.

– Endi burningizga o'ng ko'rsatkich barmog'ingizni tirang.

– Qani u? – so'radim ko'zim yumuqligi uchun.

– Yuzingizda turibdi.

– Burnimni emas, o'ng ko'rsatkich barmog'imni aytayapman.

– Oh, uzr... – doktor shunday deb, yuvinish xonasining eshigini qayta ochdi va men qisilib qolgan barmog'imni u yerdan chiqarib oldim. Aytilgan mashqlarni bajarib bo'lgach, gap boshladim:

– Sizni chalg'itish niyatim yo'q, doktor. Chindan ham, boshimda endi qattiq og'riq sezayapman.

Doktor esa yuragimni quloqqa taqadigan asobi bilan asta eshitib ko'rdi.

– Endi, – dedi u, – xuddi otga o'xshab xonada besh daqiqa choping.

Men Medison bog'ida o'rnatilgan ulkan Percheron otining haykalidan ham zo'r namoyish ko'rsatib berdim. Chaqa yig'ishga ham hozirlanib turgandim, doktor ko'kragimga yana quloq tutdi.

– Oilamda pishillaydiganlar yo'q, doktor, – deb qo'ydim har ehtimolga qarshi.

Psixolog ko'rsatkich barmog'ini burnimga uch marta oborib opkeldi.

– Faqat barmog'imga qarang, – buyurib qo'ydi orada. – Xo'sh, endi derazadan tashqariga qarang. Endi barmog'imga. Endi tashqariga. Endi barmog'imga. Endi derazaga. Endi barmog'imga. Endi derazaga, barmog'imga... – u uch daqiqacha gaplarini takrorladi.

Aytishicha, bu miyaning faolligini tekshiradigan sinov ekan. Lekin juda oson ko'rindi menga. Har buyurganida umuman xato qilmadim. U mendan katta tog'amning yelkasida bukrisi yoki jiyanimning to'pig'ida shish bor-yo'qligi haqida so'ragach, bir xulosaga kelish maqsadida ikki doktor yuvinish xonasiga qarab odimlashdi. Men esa olmani paqqos tushirgancha, bir barmog'imga, bir tashqariga qarardim. Doktorlar xuddi mozordan chiqqandek bir alfozda kirib kelishdi. Ular murdadek oppoq edilar. Keyin qo'limga parhez qo'llanmasini tutqazishdi. Ro'yxatda iste'mol qilishim lozim bo'lgan va umrim bino bo'lib eshitmagan mahsulotlar bor edi. Birgina tanish so'z – shilliqqurt edi. Shilliqqurtni sira og'zimga olmagan ekanman.

– Bularga rioya qilishingiz shart, – uqtirdi doktorlarim.

– Agar o'ntasidan birini bo'lsa-da, topa olsam, albatta amal qilaman!

– Keyingi eng muhim davo esa ochiq havo va sayr. Aytgancha, sizga g'oyat foydali bir retsept bor edi...

Shundan so'ng ular shlyapalarini qo'llariga oldilar, men esa oyog'imni eshikdan tashqariga sudradim. To'g'ri dorixonaga kirib, retseptni ko'rsatdim.

– Bir unsiyasi (28.3 gr.) 2.87 dollar bo'ladi, – dedi dorixonachi.

– Balki bir o'ram arqoningizdan berarsiz... – dedim men.

Retseptimni o'rtasidan teshib qo'ydim. Arqonni esa bo'ynimga o'rab tashladim. Hammada biroz bo'lsa-da umid bo'ladi. Mendagi ana shu umid hozirgina so'nib bo'lgandi.

To'g'ri, men o'lar holatda bo'lmasam-da, bari-bir qattiq betob edim. Ishlolmasdim, uxlolmasdim, bir nima yeyolmasdim, icholmasdim. To'rt kundan beri soqolimni ham qirmadim. Hatto kimdir menga «ey, og'ayni, xuddi kekxa qarag'ayning butoqlariga o'xshab qolibsani. Men (AQSH shtati) o'rmonzorida bir ko'ngilxushlik qilsang-chi», desa ham ajablanmas edim.

Birdan toza havo, sayr ham lozimligini eslab qoldim. Xullas, janubga – Jonnikiga yo'l oldim. Jon mening yaqinroq qarindoshim bo'lib, xrezantemali dala hovlida yashovchi, qo'lida kichkinagina kitobini ko'tarib yuruvchi va'zxon edi. Uyi Paynvilladan yetti mil naridagi balandlikda joylashgan qishloqda edi. Jon oltindan ham qimmatli va tiniqroq bo'lgan slyuda yig'ardi. U meni Paynvillada kutib oldi, biz poyezdda uning uyiga bordik. Jonning xonadoni tog'lar bag'rida joylashgan, qo'ni-qo'shnisiz kattakon hovli ekan.

Qarindoshimning chog'roq stansiyasida bizni Jonning oilasi va Amarillis qarshiladi. Amarillis menga biroz g'amgin nazar tashladi. Tepalikda ko'ringan quyon bir sakrab bizni aylanib o'tdi. Men plashimni irg'itdim-da, quyonning ortidan ta'qib qila ketdim. Yigirma yardlik lo'killashimdan so'ng nihoyat, quyonning qorasi o'chgach, yash-yashil dalaga yotib oldim-da, yig'lashga tushdim:

– Men endi boshqa quyon ovlolmayman, – o'kindim, – dunyoga ham sig'may qolibman. Balki o'lib ketsam yaxshi bo'lar...

– Oh, unga nima bo'ldi, hazrat Jon? – men Amarillisning ovozi tanidim.

– Asablari biroz charchagan, – tushuntirdi Jon osoyishtalik bilan, – xavotir olma. Ey, turaqol o'rningdan, quyon ovlovchi, uyga kiraylik, shirinliklar mahtal bo'lib qoldi-ku.

Shom payti edi, ulug'vor tog'lar Morfri xonim tasvirlaganidan kattaroq, salobatliroq tuyulardi.

Kechki ovqatdan so'ng, o'zimni xuddi bir-ikki yil uxlamagan odamdek to'shakka tappa tashlashim buyurildi. Shuning uchun meni katta va sovuq gulxonaga kuzatishdi. Xonamda maysazor kabi keng yotoq ham bor edi. Sal o'tib uydagi shovqinlar tingach, o'tloqqa sukunat cho'kdi.

Necha yillardan beri bunaqa jimjitlikning guvohi bo'lmagandim. Tirsagim bilan yonboshlagancha, sokinlikka quloq tutdim. «Uxla...» – bu so'zlar milt-milt yonayotgan yulduzlar va shitir-layotgan barra maysalarning tovushi edi. Birdan yorug' deraza qarshisida tungi qush paydo bo'ldi. U uyqusiragan ovozi bilan «chip» deb sayrab qo'ydi. Boshimni tashqariga chiqarishga urindim.

– Hoy, bu yerda nimalar bo'layapti? – baqirdi Jon o'z xonasidan turib.

– Oh, bari joyida. Shunchaki boshimni shipga urib oldim.

Ertasiga saharlab ayvonga chiqdim va tog'larga tikildim. Ular taxminan 47 ta edi. Etim jikkancha, zaldan o'tib, mehmonxonaga kirdim. Kitob javondan «Pankost oilasining tibbiyot amaliyotlari» nomli kitobini tanladim-da, o'qishga tushdim. Jon xonaga kirib qo'limdan kitobni olib qo'ydi va tashqariga boshladi. Uning uch yuz akr yerida pichanxona, qo'ylar, dehqonlar va tishlari to'kilgan borona ko'zga tashlanardi. Bunaqasini bolaligimda ko'rgandim va o'shanda yuragim orqaga tortib ketgandi.

– Eh, ha! – dedim, – bu manzara bir qo'shiqda kuylangandi: «Kel, ko'raylik...»

– O't-ajriqlarni... – gapimni bo'ldi Jon, – talabga ko'ra, birinchi mavsumdayoq yulib tashlash shart.

– Bilaman. Bo'lmasa, hamma yoqni o't bosib ketadi.

– To'ppa-to'g'ri. Dehqonchilikdan xabaring bor ekan, hartugul.

– Ba'zi fermerlardan o'rgangandim. Ularni o'roq bilan o'rish kerak.

Uyga qaytayotganimizda yo'lni ajoyib va g'ayritabiiy bir jonzot kesib o'tdi. Unga hayratlanib tikilib qoldim. Jon xotirjamlik bilan sigara tutatganicha meni kutib turdi. O'n daqiqadan so'ng dedi:

– Kun bo'yi shu jo'jalarni kuzatib o'tirmoqchimisiz? Nonushta tayyordir, allaqachon.

– Jo'ja? – takrorladim men.

– Aniqrog‘i, oq ortington tovuqlari.
– Oq ortington tovug‘i? – ularga juda qiziqib qoldim. Bu qushlar juda sekin va xirom bilan qadam tashlashardi. Ularni xuddi bolalarimdek ortimdan ergashtirdim. Besh daqiqacha ular bilan o‘ynaganimdan so‘ng Jon qo‘limdan sudrab uyga olib ketdi.

Bu yerga kelganimga bir hafta to‘lgach, meni xavotir bosa boshladi. Chunki men yaxshi uxlardim, to‘yib ovqatlanardim va hayotdan zavqlanardim. Mendek nochor uchun bu kutilmagan hol edi. Shuning uchun tramvay bekatiga yugurdimda, Paynvillaga ulov yolladim. U meni shaharchaning eng atoqli psixologi tomon eltdi. Bu safar men doktorlarga qanday murojaat qilishni yaxshi o‘rganib olgandim. Shlyapamni qo‘limga olib, tez-tez gapira ketdim:

– Doktor, yuragimda jigar sirrozi boshlangan, arteriya tomirlarimni yog‘ bosgan. Nevrasteniya, nevrit, hazm yo‘lining o‘tkir buzilishi va sog‘ayish holatlari kuzatilayapti. Qattiq dietadaman. Har tong sovuq, tunda esa issiq vanna qabul qilishim lozim. Har kimga tirjayib qarashim va miyamni ezgu fikrlar ila to‘ldirishim shart. Fosforli dorilarni esa kuniga uch mahal qabul qilaman. Shuningdek, turli giyohlardan tayyorlangan damlama ichaman. Aytgancha, xayrli tong!

Shlyapamni kiydim-da, xonani tark etdim. Eshikni yopganimdan so‘ng yana bir muhim gapni aytmaganim esimga tushdi. Qaytishga majbur bo‘ldim. Doktor hamon o‘sha joyida o‘tirar, biroq menga ko‘zi tushib, biroz asabiylashdi.

– Aytishni unutibman... Men mutlaq dam olishim va hordiq chiqarishim zarur.

Dardimni aytgach, ancha yengil tortdim. Miyamni o'zimni umidsiz kasallikka yo'liqqanim haqidagi fikrlar bilan to'ldirgach, oldingidan-da g'amgin yashashimga ishonch uyg'ondi. Nevrasteniyalar uchun sog'lig'ini tiklash va baxtli bo'lish haqidagi o'ylar befoyda.

Jon meni obdan parvarish qilardi. Oq ortington tovuqlariga qiziqishimni ko'rgach, meni o'shalar bilan chalg'itar, ba'zida tunda ham jo'jalarning qo'nog'ini ochiq qoldirardi. Tog'larning musaffo havosi, to'yimli taomlar, har kunlik sayrlar asta-sekin dardimga shifo bo'la boshladi. Biroq men g'oyat baxtsiz va ma'yus edim. Shuning uchun tog'da istiqomat qiladigan qishloq tabibi haqida surishtirdim. Uning yoniga borib, o'tgan bor voqealarni so'zlab berdim. Tabib kulrang soqolli, tinik, ko'kish ko'zlari atrofiga ajin tushgan bo'lib, qo'lda tikilgan jinsi kiyib olgandi.

U menga qo'yilgan tashxis qog'ozlarini o'rgandi, ko'rsatkich barmog'im bilan o'zimga burnimni ushlatib ko'rdi, tizzamga urdi, ko'kragimni tingladi, tilimni chiqarib tomosha qildi. Men esa undan Paynvillada marhumni ko'mish marosimi qanchaga tushishi haqida so'radim.

Doktor trubka chekarkan, menga uch daqiqacha termulib qoldi.

– Uka, – dedi so'ng, – sen hozir noto'g'ri yo'l tutayapsan. Senda barchasini o'zingdan soqit qilish imkoni bor, bu arzimas narsa.

– Nima qilish mumkin? – so'radim toqatsizlanib, – men margimush, oltin, fosfor, jismoniy mashqlar, nuks vomika, gidroterapetik vanna, hordiq, asabiy holat, kodein va ammiakning

xushboʻy spirti kabilardan foydalandim. Farmakologiyada yana nima qoldi oʻzi menga atalgan?

– Mana shu togʻlarning bir yerida senga davo boʻluvchi gulli bir oʻsimlik mavjud. Faqat oʻshagina seni qutqaradi. U xuddi yerimiz kabi qadimiy buta, biroq uni topish juda mushkul. Biz ikkimiz uni qidiramiz. Toʻgʻri, hozir kuch-quvvatim bir oz kamaygan: anchadan beri yolgʻizman, ammo sen bilan albatta shugʻullanaman. Sendan talab shuki, har kuni tush mahali kelib, menga oʻsimlikni izlashga koʻmaklashasan. Shahar doktorlari yangidan-yangi dori-darmonlar haqida yaxshi bilishadi, biroq tabiatning oʻzi insonga davo ekanligini baʼzan unutib qoʻyishadi-da.

Xullas, men bu keksa tabib bilan har kun yagona umidimni izlab togʻ va Blu Rijdagi barcha oʻsimliklarni titib chiqdim. Biz kuzgi barglar toʻkilgan sirgʻanchiq togʻ yoʻllari boʻylab yiqilmaslik uchun butoqlarga tirmashgancha tepaga intildik. Jar va gʻorlarni ortda qoldirib, qirqquloq va dafnalarning boʻyidan simirib, koʻl sohillaridan oʻtib, hindiyalarga oʻxshab qaragʻayzorlarni kezdik, umuman yoʻllar, balandliklar, daryolar, togʻlardagi bari oʻtsimonlarni oʻrganib chiqdik. Tabib aytganidek, unga yetishish juda ogʻir ekan. Lekin biz izlashdan tolmasdik. Kundan-kunga bu moʻjizakor gulni izlab vodiylarni kovlashtirar, balandliklar oʻlchamini olar, yassitogʻliklarda daydirdik. Har doim uyga horib-tolib kelar, koʻzimga uyqudan boshqa narsa koʻrinmasdi va tonggacha dong qotib yotardim. Bu ahvol bir oy davom etdi.

Bir kuni kechki payt olti millik sargardonlikdan qaytib kelgach, Amarillis ikkimiz yoʻl boʻyidagi daraxt ostida biroz aylandik. Biz tun bagʻri-

ga o'zining siyohrang ridosini kiydirgan ko'hna tog'larni tomosha qilardik.

– Ahvolingiz bardamligidan xursandman, – dedi u, – birinchi marta sizni ko'rganimda qo'rqib ketgandim. Judayam og'ir bemor edingiz.

– Haliyam o'shandoq! – qichqirdim men, – yashab qolish uchun mingdan birgina umidim borligini bilasizmi o'zi?

Amarillis menga ajablanib boqdi.

– Nega unday deysiz? Ko'rinishdan juda baquvatsiz, o'n-o'n ikki soat uxlaysiz, ishtahangiz ham chakkimas. Sizga yana nima kerak?

– Aytaymi? Biz izlayotgan sehrli o'simlikkina meni saqlab qolishga qodir, boshqa hech nima! Tabib shunday dedi.

– Qaysi tabib?

– Qora Oak tog'ida yashovchi Tatum ismli kek-sa tabib. Uni taniysizmi?

– Bir vaqtlar gaplashgan edim. Har kuni uning yoniga borasizmi? Demak, sizni rosa horitib, jismoniy chiniqtiruvchi, g'ayratga chorlovchi odam shu ekan-da. Xudo uni yorlaqasin!

Ayni shu dam ko'chada shaloq aravasini imillab mingancha o'tib ketayotgan tabibimga ko'zim tushdi. Men unga qo'limni silkitdim va ertaga har doimgi vaqtda uchrashishimizni aytib baqirdim. Tabib ulovini to'xtatdi va Amirillisni chaqirdi. Ular besh daqiqacha gaplashishdi, men esa jimgina kutdim. So'ng kek-sa do'stim ketdi.

Amarillisning uyiga borgach, ensiklopediyani ochib, bir nimalarni izlay boshladik.

– Tabib aytdiki, – tushuntirdi u, – endi uning oldiga bemorman, deb borishingizga hojat yo'q ekan. Agar do'st sifatida tashrif buyursangiz,

uning boshi osmonga yetarkan. Keyin u aytdiki, sen mening ismimning ma'nosini lug'atdan izlab bilib olishing lozim emish. Ismimning ma'nosi g'aroyib gul nomi bo'lib, qishloq joylarda o'sadi. Tabib nega bunday dedi ekan-a?

– Men bilaman nimaligini... – javob berdim, – endi tushundim!

Bu haqiqiy hordiq va dam olish degani!

Amarillis bilan soya ostida oltinchi sezgi ila suhbatlashishdan, ko'm-ko'k tog'larda aslida mavjud bo'lmagan butani izlashdan boshqa yana qanday shifo bo'lishi mumkin? Aslida Nevrasteniya xonim yonimda ekan-ku! Tabibning so'nggi muolajasi samara berishni boshlayapti...

Ingliz tilidan
Qandilat Yusupova
tarjimasi

OKTYABR VA IYUN

Kapitan chorsiday xonasining eski devoriga osib qo'yilgan qilichiga ma'yus termulib yotardi. Devor yonidagi qizg'ish javon ichida uning rangi uniqib ketgan nihoyatda xarob formasi saqlanar, bu engil-bosh harbiydagi xizmat hamda ob-havo beqarorligi sababli allaqachonlar dog' bosib, pitig'i chiqib ketgandi. Eh-he, o'sha davrlarning o'tib ketganiga ham ancha yillar bo'libdi.

Endi esa o'sha vaqtlari mamlakatning eng ishongan tog'laridan biri bo'lgan oliymaqom va yengilmas kapitan bir ayol kishining mayin nigohlari-yu ishvali tabassumi muhrlangan lablariga asir bo'lib qolgandi. Cheksiz sukunat og'ushidagi nimqorong'i xonasida dilgir o'tirarkan, kapitan yaqindagina undan kelgan xatni qo'llarida asabiy paypaslar, u aynan mana shu xatni deb ich-etini ayovsiz yemoqda edi. U xatning eng halokatli qismini – uning butun umidlarini chilparchin etgan satrlarga qayta-qayta ko'z yugurtirardi: «Katta boshingizni kichik qilib, men kabi ojiz bir zaifa bilan turmush qurishni taklif etganingiz men uchun, shaksiz, oliy sharafdir. Biroq na choraki, sizga o'z dilimdagilarni ro'yi-rost so'zlamasam bo'lmas. Taklifingizga bo'lgan qat'iy e'tirozim, hurmatli janobim, bu yoshlarimiz o'rtasidagi tafovutdir. Albatta, men sizni beni-

hoya-benihoya xush ko'raman, illo baxtga qarshi, qurilajak bu nikoh hech birimizga saodat olib kelmagay. Bularga ishora etganim uchun oldingizda g'oyatda uzrliman, lekin ishonchim komilki, o'z vijdonim oldidagi mazkur majburiyatimni marhamatli janobim xolisanillo qadr etgaylar».

Kapitan boshini qo'llari ustiga qo'yib chuqur xo'rsindi. To'g'ri, ularning yoshi o'rtasida anchagina tafovut bor. Shunday bo'lsa-da, kapitan juda tetik va baquvvat, o'ziga yarasha obro'si hamda mol-davlati bor yirik shaxslardan. O'tday otashin muhabbati, mehr to'la g'amxo'rliги hamda nufuziga qaramay, nahot u o'sha ayolning haliyam yoshlari to'g'risidagi fikrlarini o'zgartira olmadi? Buning ustiga, ayolning ham unga mutlaqo befarq emasligini kapitan juda yaxshi his qilardi.

Shubhasiz, bu erkak hazilakam janoblardan emasdi. Tanida kuch-g'ayrati jo'shgan, hamon epchil va chaqqon, bor jasorati va quvvatini jang maydonlarida sarf etgan oliynasab yigitlardan edi o'ziam. Yo'q, kapitan so'zsiz o'sha go'zal sanamning huzuriga borib, odamgarchilik yuzasidan insof qilib hadeb yoshini vaj etavermasligini o'tinib so'raydi. Eh, yosh! Tavba, muhabbatday buyuk kuch oldida yoshning nima ahamiyati bor ekan?

Ikki soatdan so'ng kapitan ro'parasida unga shay turgan eng qiyin jangga qat'iy kirishish uchun yo'lga otlandi. Mahbubasi yashaydigan eski janubiy ko'chalardan biri bo'lmish Tenesi tomon yo'nalgan poyezdga chiqdi.

U darvozadan ichkariga yo'l solib, mayda shag'al to'kilgan yo'lakchadan bir-bir bosib borarkan, bu asnoda Teodora Deming, ya'ni uning

sevgilisi, hashamdor, ko'rkam imoratning oldi zinalarida o'tirgancha, yoz shomining nasim tarovatidan bahra olib, o'tirganini ko'rdi. Ayol kapitanni samimiy tabassum bilan kutib oldi. Kapitan zina pastida turib, yuqorida turgan mahbubasiga sinchiklab boqarkan, o'z nazdida ularning o'rtasidagi yoshda u qadar ham sezilarli farqni payqamadi. Ayolning qarshisida bo'ydor va kelishgan, yoz oftobida yuzlari bug'doy rangga kirgan, tiyrak nigohli, salobatli erkak viqor solib turardi. O'z navbatida, ayol ham ayollik davri-ning eng gullagan, avji durkunlik pallasida edi.

– Sizni kutmagan edim, – deb hayratlandi Teodora, – lekin basharti tashrif buyurgan ekansiz, qo'lim ko'ksimda, xush kelibsiz degayman. Siz yuborgan maktubimni olmadingizmi?

– Maktubingizni olganman, – deb javob berdi kapitan, – o'sha maktub sababli ham ayni daqiqalarda shu yerdaman. Quloq soling, Teo, kamina-ga bergan javobingiz xususida yana bir bor o'ylab ko'rsangiz bo'lmaydimi? Shunga nima deysiz?

Teodora kapitanga mehr bilan jilmaydi. Kapitan o'zini anchagina durust saqlagandi. Bu ayol haqiqatan ham undagi kuch-qudratni, burgut qarashlarni, chinakam erkakcha shijoatni chindan-da yaxshi ko'rardi. Biroq...

– Yo'q, yo'q, – deya darhol bosh chayqab rad etdi u, – bu haqda ortiqcha gapga o'rin yo'q. Siz menga shak-shubhasiz yoqasiz, ammo turmush o'rtoq sifatida emas, yo'q! Bizning yoshlarimiz... Iltimos, meni bu haqda yana takroran so'zlat-mang, hammasini sizga o'z xatimda bayon etib bo'lganman.

Shu damda kapitanning yuzlarida xijolat alomati aks etdi. U bir muddat soʻzsiz qotdi, qorongʻilik tomon mungli nigohlari bilan tikilib qoldi. Koʻz oldiga uzoq-uzoqlarda qorayib koʻrinib turgan quyuq daraxtzorlar ortidagi keng, katta maydon ichida, koʻm-koʻk dengiz yonida oʻynab yurgan koʻk kiyimli bolalarning shodon chehralari koʻrinib ketdi. O, bu damlarga ham ne-ne zamonlar boʻlib ketibdi! Toʻgʻri, qismat va oliy hakam boʻlmish vaqt uning boshiga qancha qora kunlarni solmadi. Baʼzan, u bilan baxt qushi oʻrtasidagi masofa shunchalar yaqin kelib qoladiki, lekin u sira-sira tutqich bermasdan baribir uchib ketib qoladi!

Mana, uning qattiq, oftobda kuygan qoʻllari ustida Teodoraning mayin, yumshoq barmoqlari siypalanmoqda. Shu soniyalarda navnihol ayol alaloqibat bir tuygʻuni chuqur his etdiki, uning qalbida ham muhabbatga oʻxshash qandaydir oʻtli mayl nafas olib turarkan.

– Gaplarimni koʻnglingizga ogʻir olmang, iltimos, – dedi ayol asta. – Hammasi yaxshilikka boʻlsin. Men bularning barini oʻz aqlim bilan oʻylab, pishitib, undan keyingina xulosalab, soʻng aytdim sizga. Kun kelib, sizga turmushga chiqmaganim uchun hali oʻzingiz mendan minnatdor boʻlasiz ham. Avvaliga bu gʻoyatda ajib, bir muddat cheksiz suyumli holat boʻlishi mumkin, biroq... Biroq oʻz aqlingiz bilan oʻylab koʻring! Shoshilmay mulohaza qiling! Atigi ikki-uch yil-dayoq ikkimizdagi did va layoqatlarning bir-biriga qanchalik nomutanosib ekanligi kundek ravshan boʻladi! Birimiz kamen yonida oʻtirib, mutolaa qi-

lishni xush ko'rsak, boshqa birimizning ko'nglimiz kechki ziyofatlar, oqshom bazmlari uchun sust ketishi mumkin. Yo'q, qadrdonim, yo'q. Bamisoli yanvar bilan may oylari bitta davrda birga kela olmagan kabi, oktyabr bilan erta iyun mavsumlari orasida ham yer bilan osmonchalik masofa bor. Biz bir-birimizga to'g'ri kelmaymiz, janob kapitan, meni ma'zur tuting.

– Teo, – deb sado chiqardi kapitan, uning ovozi adoqsiz, bo'g'iq iltijo ohangi mujassam edi, – Teo, ishoning, men hamma vaqt sizning ko'nglingiz tusagan, qalbingiz amr etgan yumushlarni sidqidilimdan bajaraman. Agar istasangiz...

– Yo'q, bunday qilolmaysiz! – keskin rad etdi ayol. – Avnan, hozir shunday qila olaman, deb o'ylaysiz, lekin qo'lingizdan bu ish kelmaydi. O'tinaman, mendan boshqa hech narsani so'ramang.

Nihoyat, jang tugadi. Ammo oliymaqom kapitan jasur va sheryurak jangchi bo'lgani bilan, baribir bu kurashda yengib chiqolmadi. U oxirgi tilagini so'zlamog uchun og'iz juftlagandi, tillari qotib, tanglayiga yopishib qolganini sezdi – ortiq gapirolmadi u. Kapitan o'sha tunning o'zidayoq shimol tomon yo'l olgan poyezdga chiqib, ortiga qaytdi. Ertasi kuni kechda u yana o'z xonasida devorda ancha vaqtlardan buyon osilib turgan eski qilichiga xomush tikilgan yotardi. Kechki yemak uchun kiyinib, oppoq bo'yinbog'ini hafsa-la bilan bog'lar ekan, ayni chog'da uning xayolida dilbar Teoning go'zal chehrasi qayta-qayta jonlanaverardi.

– Ey, Xudoyim, oxir-oqibat, men baribir Teoning haqligiga ishonaman. Uning qanchalar so-

hibjamolligini hech narsa va hech kim rad etolmaydi. Yoshi esa juda borsa, endi yigirma sakkizga chiqqandir.

Ana endi muhtaram kitobxonga aniq ma'lumotni keltirib o'tmoq joizdir. Latofatli ayolga ko'ngil qo'ygan ushbu kapitan bor-yo'g'i o'n to'qqiz yoshga to'lgan, uning devorda osilib turgan qilichi ham Chatanugada bo'lib o'tgan namoyishdan boshqa hech qayerda ishlatilmagan, kapitanning o'zi bo'lsa ispan-amerika urushida atigi bir martagina qatnashib qo'ygandi, xolos.

Bor gap shu edi.

*Ingliz tilidan
Ma'ruf Abdullayev
tarjimasi*

SO'NGGI YAPROQ

Washington Skverning g'arbidagi kichik bir dahada ko'chalar chalkashib ketgan va «tor ko'chalar» nomini olgan yo'lakchalarga bo'linib ketgan edi. Bu «tor ko'chalar» ajabtovur burchaklar va egri chiziqlar hosil qilgandi. Hattoki, bir ko'cha o'zini-o'zi bir yoki bir necha marta kesib o'tardi. Bir paytlar bir musavvir bu ko'chaning noyob xususiyatini kashf qilgan ekan. Do'kondan kelgan pul yig'uvchi kishi bo'yoq, qog'oz va bo'z uchun to'lov qog'ozlarini qo'lida tutganicha shu ko'chalarni aylanib o'tayotib hisob bo'yicha bir sent ham undirolmay qaytib ketayotganini ko'rib qolishini bir tasavvur qilib ko'ring! Shunday qilib, ajib maskan bo'lmish Grinvich Villij dahasiga shimolga qaragan derazalar, XVIII asr naqshli peshtoqlari, gollandcha qiya shiftli boloxonalar va arzon ijara haqlari ilinjida san'at namoyandalari har tarafdin ko'chib kela boshladilar. So'ngra ular oltinchi avenyudan bir necha qalay krujka va bir yoki ikki dona ovqat pishiradigan cho'g'donlarini olib kelib, bu yerda «san'atkorlar gurungi»ni tashkil qilishdi. Baland bo'lmagan uch qavatli g'ishtin binoning yuqori qavatida Syu va Jonsilarning ustaxonlari joylashgandi. Do'stlari Joannani erkalab Jonsi deb chaqirishardi. Biri Mayn shtatidan, boshqasi

esa Kaliforniyadan kelgan edi. Ular Sakkizinchi ko'chadagi «Delmoniko» oshxonasining tabldoti* atrofida tanishib qolishgan va ularning san'at, sachratqi salati va urf bo'lgan keng yengli ko'ylaklar borasidagi qarashlari shunchalik mos kelgan ediki, natijada ular birgalikda ustaxona ochishga qaror qilishgandi. Bu may oyida sodir bo'lgan edi. Noyabrda esa shifokorlar Zotiljam deb ataydigan kutilmagan sovuq va berahm bir mehmon tashrif buyurdi. U shu turar joylar atrofida kezib yurar va yo'lida uchragan kimsaga rahm-shafqat qilmay ajal iskanjasiga tortardi. Sharqiy hudud bo'ylab bu o'lim xabarchisi hech narsadan tap tortmay ortidan o'nlab qurbonlarni qoldirib shaxdam qadamlar bilan odimlab bordi, ammo baqato'n bosib ketgan o'sha xarob va chalkash «tor ko'chalar»ga kelganda qadami sekinlashdi. Zotiljam degan janobni siz zinhor oliyjanob mo'ysafid kishi deb atamagan bo'lardingiz. Aks holda mushtlari qizargan, hansiroq bu qari galvars Jonsidek azobga umuman bardoshsiz, nimjongina bir ayolni raqiblik uchun tanlamagan bo'lardi. Afsuski, u ayni shu qizni ma'qul ko'rdi. Jonsi esa holsiz-madorsiz ahvolda bo'yalgan temir yotoqqa mixlanib yotib qoldi. U kichkina golland deraza oynasidan tashqariga, qo'shni g'ishtli binoning bo'm-bo'sh devoriga nigohini tikkancha jimgina yotardi. Bir kuni ertalab bezovta bo'lgan shifokor Syuni oqarib ketgan paxmoq qoshlari bilan imlab dahlizga chaqirdi.

– Uning tuzalib ketishini men, aytaylik, o'ndan bir ehtimol degan bo'lardim, – dedi u termo-

* Tabldot – ba'zi bir mamlakatlarda umumiy ovqatlanish stoli.

metridagi simobni silkitarkan. – Shunda ham bu imkoniyat uning yashashga bo'lgan intilishi bilan bog'liq. Agar bemor go'rkovga ishi tushishini shunchalik xohlayotgan bo'lsa, dorishunoslik kitoblarimizdagi ko'rsatmalardan hech qanday foyda yo'q. Xonimchangizning hayotiga bo'lgan qiziqishi so'nib bo'lgan. Uning fikr-u xayolini nima band etgan?

– U bir kun kelib Neapolitan ko'rfazini har xil bo'yoqlarda tasvirlashni diliga tugib qo'ygandi, – dedi Syu.

– Nima? Tasvirlash? Qo'ysangiz-chi! Men haqiqatan ham o'y surishga arziydigan narsa haqida gapiryapman! Masalan, biror yigit haqida o'ylamaydimi?

– Yigit? – dedi Syu, ovozi xuddi chanqovuz kabi jarangdor yangrab. – Nahotki yigitlar bunga arzi-sa... Yo'g'-ey, doktor, hech ham unday emas.

– U holda, bu shunchaki darmonsizlik oqibati bo'lsa kerak, – dedi shifokor. – Men fan vakili sifatida bor mahoratim va ilmimni ishga solib ko'raman. Ammo bemor o'zining janoza marosimi haqida o'ylashni bas qilmas ekan, dorilar shifobaxsh kuchining yarmi yo'qqa chiqaveradi. Agar siz uni qishda qanaqa yangli liboslar urf bo'lishi haqida savol so'rashga qiziqтира olsangiz, uning tuzalib ketish imkoniyatini men o'ndan bir emas, beshdan bir ehtimol deb bemalol aytgan bo'lardim.

Shifokor ketgandan keyin Syu xonasiga kirib ketdi. U yerda yig'layverganidan yaponcha dastromolini ham ho'l qilib yubordi. So'ngra u qaddini tutib, qo'lida molbert bilan regtaym chalgancha Jonsining xonasiga kirib keldi.

Jonsi ko'rpaning tagida bilinar-bilinmas yotar, ko'zlari esa deraza tomon qadalgandi. Syu Jonsini uxlab qolgan deb o'ylab hushtak chalishni bas qildi.

U tezda molbertni hozirladi va oynomadagi bir hikoya uchun siyohda rasm chizishni boshladi. Yosh rassomlar katta san'atga ilk qadamlarini oynomalarda bosiladigan hikoyalar uchun suratlar chizish bilan qo'yishadi, o'z navbatida bunday hikoyalar orqali yosh yozuvchilar adabiyot olamiga kirib kelishadi.

Syu monokl taqqan bashang kiyimdagi aydaholik chavandoz yigit suratini chizayotgan vaqtda qulog'iga shivirlagan bir ovoz eshitildi, so'ngra bu ovoz bir necha bor takrorlandi. U darhol Jonsining yotog'i tomon shoshdi. Jonsining ko'zlari katta ochiq edi. U nigohini derazadan tashqariga qadagan ko'yi sanardi – teskari tartibda sanardi.

– O'n ikki, – dedi u va sal o'tmay, – o'n bir, so'ngra – o'n, to'qqiz, undan so'ng esa – sakkiz, yetti, – deb sanardi u deyarli bir maromda. Jonsi xavotir olganicha derazaga qaradi. U yerda sanaydigan nima bor? Mahzun ko'rinishdagi bo'm-bo'sh hovli va yigirma qadamcha naridagi g'ishtli binoning teptekis devoridan boshqa hech narsa ko'zga tashlanmasdi. Izlaridan chiriq boshlagan, egri-bugri qari pechakgul g'isht devorning yarmigacha chirmashib ketgandi. Kuzning sovuq nafasi uning barglarini ayovsiz to'kib yuborgan, deyarli yalang'och bo'lib qolgan novdalari esa uqalanib ketayotgan g'isht devorga jon holatda tirmashib turardi.

– Nima haqida gapiryapsan, dugonajon? – so'radi Syu.

– Olti, – dedi Jonsi pichirlab. – Ular endi tezroq to'kila boshladi. Uch kun avval ular yuztacha edi.

Sanayverib boshim og'rib ketardi. Endi esa osonroq bo'lib qoldi. Ana, yana bittasi to'kildi. Hozir atigi beshtagina qoldi.

– Beshta nima, azizim? Do'sting Syudiga ayt-sang-chi!

– Barglar. Pechakgul yaproqlari. Ularning so'ngisi to'kilganda, men ham hayot bilan vidolashaman. Men buni uch kundan beri sezib kelyapman. Shifokor senga hech narsa demadimi?

– Bunday bo'lmag'ur gapni birinchi bor eshittishim! – deb javob qaytardi Syu shikoyatomuz ohangda, o'zini dugonasining gaplarini e'tiborga olmagan qilib ko'rsatib. – Qari pechakgul yaproqlarining tuzalib ketishingga nima aloqasi bor? Axir sen u pechakgulni juda yoqtirasan-ku, quloqsiz qizaloq! Bo'ldi, tentaklikni bas qil! Axir bugun ertalab doktor sening tez kunda tuzalib ketishingni ...o'ndan ...hozir, eslab ko'ray ...ha, o'ndan to'qqiz ehtimol deb aytgandi. Bu esa har birimiz Nyu-Yorkda tramvayda ketayotib yoki yangi qurilayotgan uyning yonidan o'tayotib duchor bo'lishimiz mumkin bo'lgan xavf-xatar bilan baravar degani-ku! Sho'rvadan ozgina ichib olgin, o'rtoqjoning Syudiga esa ruxsat ber, u chizayotgan suratini tugatsin va uni muharrirga pullab kasal qizalog'iga portveyn sharobi, o'ziga esa yumshoqqina cho'chqa kotletidan olib kelsin.

– Endi sharob olishingga hojat yo'q, – dedi Jon-si ko'zlarini derazadan uzmasdan. – Ana, yana bittasi tushyapti. Bo'ldi, boshqa sho'rva ichgim kelmayapti. Hozir ular to'rntagina qoldi. Qorong'i tushmasidan oxirgisining tushishini ko'rmoqchiman. So'ngra men ham bu yorug' olamni tark etaman.

– Jonsi, jonginam, – dedi Syu uning tepasida egilarkan, – menga ko‘zlarini yumib derazaga qaramay turishga so‘z berasanmi? Men ungacha ishimni tugatib olardim. Suratlarimni ertaga topshirishim kerak. Menga yorug‘lik zarur, bo‘lmasa pardani tushirib qo‘yardim.

– Boshqa xonada chizsang bo‘lmaydimi? – so‘radi Jonsi sovuq ohangda.

– Oldingda qolsam degandim. Undan tashqari, shu ahmoqona pechakgul barglariga qarashingni xohlamayman.

– Tugatishing bilan menga ayt, – dedi Jonsi ko‘zlarini yumayotib. U mum haykal kabi rangi siniq va harakatsiz yotardi. – Chunki so‘nggi yaproqning tushishini ko‘rmoqchiman. Men kutishdan charchadim. O‘ylayverib ham charchadim. Meni bu dunyoga bog‘lab turgan barcha rishtalardan xalos bo‘lib, o‘sha hayotdan to‘ygan bechora yaproqlar misoli havoda uchgan-cha g‘oyib bo‘lishni xohlayman.

– Uxlashga harakat qil, – dedi Syu. – Bermani chaqirib chiqishim kerak. Unga qarab umrini yolg‘izlikda o‘tkazuvchi konchi suratini chizmoqchiman. Bir daqiqa o‘tmay qaytaman. Kelgunumcha joyingda qimirlamay yotgin.

Qariya Berman pastki qavatda yashaydigan bir rassom edi. U oltmishdan oshgan, Mikelanjelo yasagan Muso haykaliniki kabi jingalak soqoli ixchamgina jussasiga yarashib turardi. Bermanning san‘at sohasida omadi chopmadi. U qirq yil mo‘yqalam surgan, ammo hali-hanuz unga ilhom parisining etagidan tutib qolish nasib etmagandi. Har safar bu musavvir shoh asar yaratmoq uchun shaylanadi, lekin hozirgacha bu

ishni boshlay olmagan ham edi. Mana, bir necha yildirki, ba'zan e'lonlar uchun tirikchilik yo'lidagi o'lda-jo'lda ishlangan rasmlarini aytmasak, arziqli bir ish qilmagan ham edi. U professionalga qurbi yetmagan mahalliy yosh rassomlar uchun tirik manekenlik qilib kun ko'rardi. Ichkilikka mukkasidan ketgan, shunga qaramasdan hali ham yaratajak shoh asari haqida gapirishdan tinmasdi. Umuman olganda esa, ko'ngli bo'sh odamlarni jini suymaydigan, o'zini yuqorida yashovchi ikki rassom qizni himoya qiluvchi qo'riqchi it deb hisoblaydigan badjahl bir chol edi.

Syu Bermanni pastki qavatdagi xira yoritilgan hujrasidan topganida, undan qora archa mevasining hidi anqib turardi. Xonaning bir burchagidagi molbertda esa yigirma besh yildan buyon shoh asarning ilk chizgilarini intiqlik bilan kutayotgan bo'm-bo'sh mato yotardi. Syu unga Jonsining xayolidagilarni, qizning o'zi ham yaproq misoli yengil va nimjon bo'lib qolganini, hayot rishtalari noziklashib qolib, shamoldagi yaproq kabi uchib ketishidan xavotirda ekanini aytib berdi. Qizargan ko'zlari yoshlana boshlagan Berman bunday xayolparastlikdan g'ashi kelib baqirib yubordi.

– Nima? – deb o'shqirdi u. – Hech jahonda la'nati bir pechakgul yaproqlari to'kilgani uchun ham odam o'ladimi? Bunaqasini sira eshitmagan ekanman. Yo'q, sening o'sha ahmoq konchi surating uchun manekenlik qilishni xohlamayman! Qanday qilib bunday bo'lmag'ur fikrlarni uning miyasiga kelishiga indamay qarab turibsan? E-e-eh Jonsi xonim.

– U betob bo'lib ancha zaiflashib qoldi, – dedi Syu, – isitmasi balandligidan alahsirab har xil

be'mani narsalar haqida aljirayapti. Mayli, janob Berman, agar menga manekenlik qilishni istamayotgan bo'lsangiz, sizni ovora qilib o'tirmayman. Ammo nima bo'lganda ham siz jirkanch qari... ezma chol ekansiz!

– Eh, baribir zaifaligingga borasan-da! – qichqirdi Berman. – Manekenlik qilmayman deb senga kim aytdi? Bo'laqol tezroq! Sen bilan boraman. Axir yarim soatdan beri senga shuni uqtiryapman-ku! Xudoyim-ey! Bu yer Jonsi xonimdek qiz uchun kasal bo'lib yotadigan joy emas. Bir kun kelib men albatta shoh asarimni chizaman, keyin biz bu yerdan ko'chib ketamiz. Albatta, bo'lmasam-chi!

Ular yuqoriga chiqishganda Jonsi uxlab qolgan ekan. Syu pardani deraza tokchasiga tushirib, Bermanga boshqa xonaga o'tishga ishora qildi. U yerda ular derazadan pechakgulga xavotir bilan qarashdi. So'ng bir lahza lom-mim demay bir-birlariga tikilib qolishdi. Tashqarida yomg'ir aralash qor to'xtovsiz yog'ardi. Berman o'ngib ketgan ko'ylagida yolg'iz yashovchi konchi o'laroq qoyatosh o'rni bosuvchi to'ntarilgan qozon ustiga o'tirdi.

Ertasi kuni ertalab Syu bir soatlik derazani yopib turgan yashil pardaga qarab turardi.

– Pardani ko'tar, ko'rishni xohlayman, – deb shivirladi u buyruq ohangida.

Syu horg'in holda uning aytganini bajardi.

Ammo ne ajabki, tun bo'yi sharros quygan yomg'ir va esgan kuchli shamolga qaramay g'isht devorda hali ham bitta yaproq ko'rinib turardi! U pechakgul yaproqlarining so'ngisi edi. Poyaga yaqin joylari hali-hamon to'q yashil, arrasimon qirralari esa qurib sarg'aya boshlagan bu yaproq

yigirma futcha balandlikda matonat bilan o'z novdasiga osilib olgandi.

– Bu so'ngisi, – dedi Jonsi. – Uni kecha kechqurun albatta to'kiladi deb o'ylagandim. Shamolni eshitdim. U bugun to'kiladi, shunda men ham o'laman.

– Nafasingni yel uchirsin! – dedi Syu, so'lg'in yuzini yostiq tomon burarkan. – O'zingga joning achimasa, menga rahming kelsin! Mening holim ne kechadi?

Ammo Jonsi javob qaytarmadi. Inson qalbi sirli, olis sayohatga hozirlik qilayotgan bu olamdagi barcha narsaga befarq bo'lib qolarkan. Jonsini do'stlik va hayotga bog'lab turgan rishtalar birma-bir uzilarkan, u o'sha xayoli ta'siriga tobora berilib ketayotganday edi. Yana bir kun o'tdi, g'ira-shira bo'lishiga qaramasdan hali-hamon novdasida osilib turgan o'sha yolg'iz yaproq ko'ziga tashlanib turardi. Qorong'i tushishi bilanoq shimoldan esayotgan shamolning yana jilovi bo'shadi, bu payt yomg'ir ham tinmay derazaga urilib, past golland tarnovlaridan chakillab pastga oqardi.

Tong otishi bilanoq bag'ritosh Jonsi yana pardani ko'tarishni buyurdi.

Pechakgul bargi hali ham o'z joyida edi.

Jonsi unga uzoq vaqt tikilib yotdi. So'ngra gaz plitasida tovuq sho'rvasini aralashtirayotgan Syuni yoniga chorladi.

– Qanchalik zaif bo'lgan ekanman-a, Syudi, – dedi Jonsi. – U so'nggi yaproq ham qanchalik zaiflik qilayotganimni ko'rsatish uchun to'kilmay turishga kuch topa oldi. O'ziga o'lim tilash katta gunoh. Bunday niyat qilganim uchun o'zim-

dan o'zim uyalib ketyapman. Hozir menga ozgina tovuq sho'rvadan bergin, yana portveynli sutdan ham olib kel... Yo'q, shoshma! Avval oynani keltir, yonimga yostiq ham to'shab qo'y, o'tirib ovqat pishirishingni ko'rmoqchiman.

Bir soatdan keyin u dedi:


– Umid qilamanki, bir kun kelib men albatta Neapolitan ko'rfazining rangli suratini chizaman.

Tushlikdan keyin shifokor keldi, u ketayotganda esa Syu bir narsani bahona qilib uning orqasidan dahlizga chiqdi.

– Imkoniyatlar barobar, – dedi shifokor Syuning nozik, titrayotgan qo'llarini siqib qo'yarkan. – Yaxshi qarov bilan kasallikni albatta yengasizlar. Hozir esa men pastki qavatdagi bemorni ko'rishim kerak. Uning ismi Berman ekan. Menimcha, rassom bo'lsa kerak. U ham zotiljamga chalinibdi. Keksayib quvvatdan qolgan, kasali esa juda og'ir. Hech qanday umid qolmagan, baribir kasalxonaga yuborsak tinchroq yotadi. Ertasi kun shifokor Syudiga dedi:

– Uning hayoti xavf ostida emas. Sizlar yengdinglar. Unga yaxshi ovqat berib g'amxo'rlik ko'rsatilsa, tez kunda oyoqqa turib ketadi. O'sha oqshom Syu mamnuniyat bilan to'qiyotgan to'q moviy va umuman keraksiz junli sharfini tutgancha Jonsining yotog'iga keldi, bir qo'li bilan qizni yostiqqa qo'shib bag'riga bosdi.

– Senga bir gap aytishim kerak, mening jajjigina oppoq quyuncham, – dedi u. – Bugun janob Berman kasalxonada zotiljamdan vafot etibdi. U atigi ikki kun betob bo'lib yotibdi. Qorovul uni birinchi kuni ertalab pastdagi xonasiga og'riqdan nochor ahvolda ko'rgan ekan. Oyoq kiyimi va ust-bosh-



lari jiqqa ho'l va sovuqdan muzlab ketgan ekan. O'sha mash'um kechada qayerda bo'lganligini tasavvurlariga ham sig'dira olishmabdi. Undan keyin ular hali ham o'chmagan fonar, joyidan qo'zg'atilgan narvon, bir nechta sochilib yotgan mo'yqalam bilan birga yashil va sariq bo'yoqlarni topishibdi – derazadan tashqariga qaragin, qadrdonim, devordagi so'nggi yaproqqa bir nazar tashlagin. U nega shamolda tebranmayotganiga hech e'tibor berdingmi? Eh, jonginam, bu Ber-
man yaratgan shoh asar – uni u o'sha so'nggi yaproq to'kilgan kechada chizgan ekan!

Ingliz tilidan
Qandilat Yusupova
tarjimasi

G'AYRIODDIY HIKOYA

Bir paytlar Ostin degan yerning shimoliy qismida Smozerslar oilasi istiqomat qilardi. Smozerslar unchalik ko'p emasdi – xonadon oilaboshisi bo'lmish Jon Smozers, uning xotini hamda besh yoshli shiringina qizcha shu oilaning a'zolari edilar. Shunga qaramay, hukumatning qanaqadir rasmiy qog'ozlarida Jon Smozersning uyida olti nafar jon yashaydi, deb ro'yxatga olingandi, aslida esa ular bor-yo'g'i uchta kishi edi, xolos.

Bir oqshom kechki ovqatdan keyin qizchani qattiq yo'tal tutib qoldi, boyaqish anchagina zo'riqib, bo'g'ilganidan holi birdaniga yomonlashib ketdi. O'sha ondayoq Jon Smozers dori-darmon keltirish uchun darhol shaharcha tomon otlandi.

Smozers shosha-pisha shaharchaga ketdi-yu, ammo shu ketganicha uyga qaytib kelmadi.

Qizaloq esa asta-sekin oyoqqa turdi. Yillar bir-birini quvlab, shamoldek zuvillab o'ta boshladi, qizcha ham bu vaqt ichida balog'at yoshiga yetdi.

Smozers xonim shuncha payt erining bedarak ketganidan qattiq ezilib yurdi, bir o'zi ham yolg'izlikdan, ham muhtojlikdan siqilib, axiri yana turmushga chiqdi va yangi oilasi bilan San-Antonio-ga ko'chib keldi.

Bu orada u qizini ham turmushga uzatdi, oradan ko'p o'tmay u ham qizchali bo'ldi.

Smozerslarning qizi o'z oilasi bilan haliyam o'sha otasi doriga deb ketib, keyin qaytib kelmagan qizlik uyida yashab kelardi.

Bir tunda hech kutilmagan paytda besh yoshli qizchada kuchli yo'tal xuruj qilib qoldi, tasodifni qarangi, bundan yigirma yil oldin Jon Smozers ham xuddi shu kuni uydan chiqib ketgandi, agar u hozir tirik bo'lganida sevimli buva bo'lib, oila davrasida o'tirgan bo'lardi, lekin afsuski, u endi yo'q edi...

– Men hoziroq shaharchaga borib, kerakli dorilarni olib kelaman, – deya yo'lga shaylandi Jon Smit (Bu odamga Smozerslarning qizi o'zi ko'ngil qo'yib tekkandi).

– Yo'q, yo'q, aslo, Jon! – deya zorlandi xotini unga. – Sen ham xuddi otamday nom-nishonsiz yo'qolib ketmagin, yana uyga qaytishni esingdan chiqarib qo'ymagin sen ham...

Jon Smit xotining ahvoliga qarab turib ichi achishdi, shaharchaga ketmadi, er-xotin jaji Pensining (ular qizlarining ismini shunday atashardi) boshida nochor qiyofada mung'aygan-cha o'tirib qolishdi.

Birozdan so'ng Pensining holi yanayam og'irlashdi, yana Jon Smit dori topib kelaman, deb oyoqqa turdi, biroq bechora xotini uning ketishiga tish-tirnog'i bilan to'sqinlik qilib, olib qoldi.

Shu vaqt hech kutilmagan voqea yuz berdi: eshik ochildi-yu, oqarib ketgan sochlari yelkasi-gacha o'sib tushgan, munkillab qolgan qari bir chol uyga kirib keldi.

– Oyi, dada, mana, mening buvamlar! – deb yubordi shunda kichkina Pensi xursand bo'lib. Ziyrak qizaloq buvasini hayratdan qotib turgan ota-onasidan ham burun tanib bo'lgandi.

Keksa chol cho'ntagidan bir shisha dori chiqarib, undan bir qoshig'ini Pensining og'ziga tutdi.

Qizcha ko'z ochib-yumguncha o'ziga keldi.

– Ming bor uzr, – dedi keksa Jon Smozers, – ozgina kechikdim, men yo'lda mashina kutaman, deb biroz qolib ketdim.

Ingliz tilidan
Shahnoza Rahmonova
tarjimasi

VAQT QIYMATI

Ota odatdagidek ishdan kech qaytdi. Horg'in, hafsalasiz, pajmurda gavdasini arang sudrab ostona hatladi. Bo'sag'ada uni mijja qoqmay ko'zlari to'rt bo'lib, intiq kutayotgan besh yashar o'g'li qarshi oldi. – Salom, dada! – dedi u quvonchdan ko'zlari porlab.

– Salom, bo'talog'im, haliyam yotmadingmi?

– Yo'q, – deya javob berdi bola va sabrsizlik bilan so'radi:

– Dada, maylimi sizga savol bersam?

– Mayli. Qani eshitaylik-chi, oromingni o'g'irlab, allamahalgacha senginani yo'linga intizor qildirgan qanday savol bo'ldi u?

– Bir soatda qancha pul ishlaysiz? – ko'zlarini pirpiratib bolalarga xos sodda samimiyat ila so'radi bolakay. Favqulodda berilgan bolaning kutilmagan savoli otani tong qoldirdi va turib-turib jahlini chiqardi.

– Bemahalda boshqa bo'lmag'ur savol o'ylab topolmadingmi? Qolaversa, bu sening ishing emas, zumrasha.

– Dada, iltimos, men shunchaki bilmoqchi edim, ayta qoling, bir soatda qancha pul topasiz? – oyoq tirab oldi bolakay. Bolaning hukmi poshshoning hukmidan ustun emasmi, ota qarasa


javob bermasa bo'lmaydigan, jovdirab tikilayotgan pokiza ko'zlar bilan nigohi baqamti kelganida ko'ngli iyidi va: «Bir soatda 20 dollar ishlayman, qo'zim», – deya javob qildi u bolasining boshini silab.

– Yashasin! – qichqirib yubordi kichkintoy.

– Dada, menga 10 dollar qarz berib tura olasizmi?

Bunisi hammasidan o'tib tushdi va darg'azab otaning sabr kosasi to'lib, ortiq jahlini yashirolmadi:

– Iye, tag'in yana nima o'ylab topding. Qayerdagi keraksiz o'yinchoqlarni sotib olishing uchun dadam 10 dollar beradi, deb o'ylasang, chuchvarani xom sanabsan. Qani hoziroq o'z o'rniga borib yot va oxirgi paytlarda qanchalar xudbin bo'lib ulg'ayayotganing haqida bosh qotirib ko'r! Men har kun betinim mashaqqatli mehnat qilaman va jonim halqumimga kelib arang uyga qaytaman. Sening xarxashalaring va injiqliklarini ko'tarishga tobim yo'q! Mo'ltirab tikilib turgan ko'zlarga yosh qalqdi. Bolakay indamay ortiga o'girildi. Charchagan ota dam olgali o'rniga cho'zildi, biroq har qancha horigan, jismonan ezilgan bo'lmasin, hadeganda ko'zlariga uyqu inay demasdi. Asablari dosh bermay, bolasiga baqirgani uchun ko'ngli buzildi. «Tun yarmigacha uxlamay, topgan savolini qarang. Qiziq, 10 dollar unga nega kerak bo'lib qoldiykin?» Shu yo'sinda oradan bir soat o'tdi. Ota u yoniga ag'darildi, bu yoniga ag'darildi, lekin ko'zlari yumilmadi. Bu turishda saharga dovur uxlolmasligini anglab, o'rnidan turdi. Hovuridan tushgan ota sokin o'y surar ekan: «Chindan ham bolam shu 10 dollarga



muhtoj bo'lsa, men jigargo'shamning gapini eshitmay turib, kutganini ham ro'yxotir qilmay urishib berdim», – deya ko'ngli xijil bo'ldi. U o'g'lining xonasi tomon yo'naldi. Eshikni sekingina ochib:

– Uxlayapsanmi, bolajonim? – deb so'radi.

– Yo'q, uyg'oqman, dada.

– Senga nisbatan nohaqlik qildim, qattiqqo'llik qilganimni tushundim. Shuning uchun ko'zimga uyqu inmadi. Mendan ranjimadingmi? Ba'zan kattalar ham xato qiladilar. Mana senga 10 dollar, endi eski ginalarni unutamiz.

Bola pulni qo'lga ham olmay, chopqilab borib yostig'ining ostidan bir dasta g'ijimlangan pullarni chiqardi. O'g'lining harakatlarini sukut saqlab kuzatib turgan ota hayratda edi.

– Shuncha puling bor ekan, mendan tag'in 10 dollar so'raganing nimasi, bo'talog'im?

– Pulim borlikka bor ediku-ya, ammo yetmasdi-da. Mana endi 20 dollarim bor. Dada, men bir soat vaqtingizni sotib olmoqchiman. Erta uyga vaqtliroq keling, birga tushlik qilsam devdim...

YO‘L QIDIRIB...

– Ko‘ylaging o‘zingga loyiq keldimi, Sem? – deb so‘radi Uebber xonim eman daraxti ostidagi o‘zining jonajon tebranma kursisida kitob o‘qib o‘tirarkan.

– Ha, endi soz bo‘libdi, Marti, – deb javob berdi Sem biroz o‘zidan ketib. – Avvaliga men o‘zim tugmalarni joy-joyiga qo‘yib, qaday olmayotgandirman, deb o‘ylagandim, keyin bilsam, teshiklarining o‘zi tugmalar uchun xiyol kattalik qilarkan.

– Ha, mayli. Endi ko‘ngling to‘lgan bo‘lsa bo‘pti, – deb qo‘ydi xotini unga beparvo ko‘z tashlab. – Bo‘yinbog‘ingni ham tang‘ib ol. Ko‘ylagingga juda ham yarashadi.

Sem Uebberning qo‘y ranchosi Nueses bilan Frio o‘rtasidagi eng xilvat yerga joylashgandi. Ikki qavatli bu bino kimsasiz chakalakzor o‘rtasida do‘ppayib turgan yaydoq tepalik o‘rtasida bo‘lib, ranchoning oldida chog‘roqqina maydon-da esa otar o‘tlab yurar, yana shu yon-atrofdagi qo‘ylarning yungini oladigan yungxona ham bor edi. Ranchoning shundoqqina orqasidan esa tikkanli chakalakzor boshlanib ketardi.

Sem yaxshilab boqilgan qo‘ylarning mayin yungidan sotib olish uchun qo‘shni Chepmen ranchosiga borib kelmoqchi bo‘lib yurgandi. Biroq bu safar uchun alohida e‘tibor qaratmasa bo‘lmasdi,

negaki Chepmen ranchosi o'zining aholisi hamda hajmi jihatidan deyarli shaharchaday bo'lib qolgan binoyidek joy edi. Shuning uchun ham Sem bu safariga muvofiq ravishda yasan-tusan qilib olishga qaror qilgandi. U o'zidan mutlaqo yangi, o'zgacha qiyofa yaratishni xayol qilib, o'ng-tusini chiroyliroq qilish harakatida edi. Zarbdor muskullari bilan oftob olgan bo'ynini qo'pollik bilan qisgan oppoq bo'yinbog' uning yuziga noodatiy ifodani bag'ishlab turardi. Yaxshilab o'nglanmagan maykasi ustidan tugmalari chala yarim qadalgan ko'ylagi notekis hilvirar edi. Semning baquvvat adl qomatini tuzukkina yashirib turgan tayyor qo'ldan olingan kulrang kostyum bu qo'ysevar cho'ponning har doimgiday yurishiga ancha monelik qilardi. Balki engil-boshidagi shuncha noqulaylikni debmi, Semning qoraygan yuzlarida xuddi qamoqda begunoh jabr tortayotgan mahbusnikiday qayg'uli manzara qotib qolgandi. Uydan chiqar ekan, Sem hovlida o'ynab yurgan uch yoshli o'g'li Rendining boshini silab o'tdi-da, darvoza oldida uning chiqishini kutib turgan oti – Mexiko tomon shoshildi.

Tebranma kursida bamaylixotir o'tirgan Marta qo'lidagi kitobining o'qiyotgan sahifasiga barmog'ini belgi qilib qo'ydi-da, erining «pardoz-andozi»dan keyin ortida qolgan ivir-sivirlarga muloyim jilmayib qaradi:

– Bu turqi-tarovat bilan Sem, – dedi u gap o'hangini ataylab cho'zib. – Texasning mana-man degan cho'ponidan ko'ra ko'proq o'sha ranchoyingda o'sib yotgan o't-alafga o'xshab ko'rin-yapsan.

Sem beso'naqaylik bilan egar ustiga joylashib oldi.

– Shu gapni hamma gapirsa ham, sen aytmasang yaxshi bo'lardi. Xotanim emish yana, – dedi u kesatib. – Eringning kiyim-kechagiga qarab qo'yish o'rniga qachon qarasa, yalpayib o'tirvolib, qayoqdagi bo'lmag'ur kitoblaringni varaqlaganing-varaqlagan!

– Yaxshi, bo'pti! Ketaqol endi, yo'lingdan qolma, – dedi xotini unga javoban. Missis Uebber kursining tutqichlariga yengilgina urib qo'ydi. – Har doim mutolaamning beliga tepasan. O'qiydigan bir dunyo kitoblarim bor. Buning ustiga men istagan paytimda xohlaganimcha o'qiy olaman. Bu havoyi va tashlandiq qishlog'ingda na gaplashgulik va na eshitgulik bir qiziq odaming bo'lmasa, boshqa yana qanday vaqtichog'lik bor? Hatto sen bilan ham beg'alva gaplashib bo'lmaydi, qachon qarasa, noliganing-noligan, noliganing-noligan, a! Voy, tezroq keta qolgin, Sem, bor, meni o'z holimga qo'y!

Sem tizzalarini otining biqinlariga mahkam tirab oldi-da, qadrdon hamrohini asta turtdi. Ular birozdan so'ng eski, asosiy qishloq yo'li ustiga chiqib olishdi. Vaqt hali erta, soat endigina sakkiz bo'lgan, biroq kun halitdan qizdirishni boshlagandi. Bundan uch soat oldinroq yo'lga chiqsam bo'lar ekan, deb ichida jindek afsuslanib qo'ydi Sem. Aslida Chepmen ranchosi bor-yo'g'i o'n sakkiz mil narida joylashgandi, lekin yo'l juda notekis, ayniqsa, mana shu asosiy yo'lning o'zi uch mil masofa uzunlikda edi. U xuddi bu yo'llardan avval ham bir marta yurgan, shuning uchun ketayotgan yo'li aniq esida qolgandi.

Sem qishloqning asosiy yo'ldan burilib, Kvintenilladagi kichikroq soy yoqalab yo'lida davom etdi.

Ayni shu yerda yo'l torgina so'qmoqchaga aylanib ketar, so'qmoqcha yam-yashil, barra maysalar bilan qoplanib yotar, Mexiko esa bu yo'ldan satang yurish qilib, nozaninday yo'rg'alab borardi. Qarshisidan Yovvoyi Dik suv dambasi chiqib qolganida Sem yana ortiga o'girilib, tikanak qoplab yotgan kichkina tepalik tarafga ko'z tashladi. Shu yerdan boshlab u ortida qoldirib ketayotgan yo'llarining yaxlit qiyofasini yodda tutib tag'in oldinladi. Sem tikanli yirik butazor oldidan o'tayotib nihoyatda qiynalib ketdi, bu chakalakzor qurg'ur ham naq yigirma yarddan kam bo'lmagan hudud ekan, Sem to daraxtlar sharpasi soya solib turgan kengroq joyga chiqib olguncha yuragi siqilib ketdi. U Kvintenilla bilan Pedra o'rtasida qad rostlagan qiya tepalikning nishabligidan asta odimlab o'ta boshladi.

Oradan ikki soatcha vaqt o'tgandan keyin Sem birdan yo'ldan adashganini sezib qoldi. U egri-bugri yo'llarni bosib o'tib, o'zining aniq manzilini yo'qotib qo'ygandi. Sadoqatli cho'pon o'sha zahoti qattiq sarosimaga tushib qoldi, u nima qilishini bilmay, atrofga olazarak qarayverdi. Mexiko bo'lsa egasining notinchligidan halovati buzilib, boshini u yoqdan bu yoqqa burib, o'zini har yoqqa tashlay boshladi. Semning ko'nglidan kechayotgan chigal o'ylar ayni damda Mexikoga ham tinchlik bermasdi.

Na oldindagi manzilni eslatadigan biron-bir belgi ko'rinar, na butun chor atrofda Chepmen ranchosidan darak berguvchi biror nishona ko'zga tashlanardi. Ular alanglay-alanglay, ni-

hoyat qisqagina, ammo hatto quyon ham yorib o'tolmaydigan darajada quyuq bo'lgan butazor ro'parasidan chiqdilar. Chindan-da, odam bolasi-ning qadami yetgan joylarga o'xshamasdi.

Ko'pni ko'rgan chorvador yoki cho'pon uchun-ku bir kechalik yoki bir kunlik bo'lgan bu yo'lda adashib qolish hech gap emasdi. Bunday holatlar bu yerda tez-tez bo'lib turadi. Bir kechalik ovqatdan qolib, shundoqqina egarining ustidagi yumshoq yopinchiqni mayin maysazorlar ustiga to'shab maroq bilan uxlab yotish – tajribali qo'ychivonlar uchun arzimas hodisa. Lekin Semning vaziyati mutlaqo bo'lakcha edi. U umrida hech qachon qoq yarim tunda o'z ranchosidan bir mil ham uzoqqa ketib qolmagandi. Martaning esa chakalakzordagi ilonlarga, zaharli hasharotlarga, hatto selkillama qora qo'ylarga ham toqati yo'q edi. Shuning uchun ham Sem ayolining bir o'zini hech qachon tashlab ketmasdi.

Adashib qolganidan keyin taxminan to'rt soatlar o'tgach, izillab, tentirab qolgan Sem birdan hushyor tortdi. Uning vijdoni qiynalayotgan edi. O'zi bir ahvolda, shalviragan, butun yasan-tusan qilgan kiyimlari kir, shalabbo bo'lgan, bularning bari horigandan ko'ra Semdagi adoqsiz bezovtalik nishonalari edi. Bu paytga kelib u allaqachon Friodagi poyezd yo'lini shartta kesib o'tib, to'ppa-to'g'ri Chepmen ranchosiga kirib boraman, deb umid qilayotgandi. Agarda u yo'ldan chalkashib ketmaganda edi, allaqachon o'z manziliga yetib, bahuzur ko'zlagan ishini ham tamomlab olgan bo'lardi. Sem hozir o'z uyidan ellik mil nariga ketib qolganday, o'zini juda ham yolg'iz his etdi. Basharti u yangi ot bilan yo'lni so'roqlab-

so'roqlab ortga qaytgan taqdirdayam sevikli Marta bilan shirintoy o'g'lining yoniga qaytish uchun tun bo'yi yo'l bosishiga to'g'ri kelardi.

– Mana, o'zimdanda ketganimning jazosi!

Semni cheksiz pushaymonlik tuyg'usi qurshab oldi. Uning tomog'iga yong'oqdek narsa tiqilib qolgandi. Kitobsevar ayoliga aytajak so'zlari xayolidan o'tarkan, sodiq cho'ponning ko'zlarida yosh halqalandi. To'g'risiyam, Semning tuturiqsiz haqoratlariga dosh berib, gadoytopmas, vahimali o'sha ranchoda yashash xotiniga ham oson emasdi. Sem shuncha vaqtdan beri mutolaaga mayli bor xotinining ustidan kulib, u o'qiyotgan semiz-semiz romanlarni mensimasdan, qilgan qiliqlarini eslab, juda uyalib ketdi, o'zini o'zi ayovsiz la'natladi.

– Uning bor ovunchog'i ana o'sha romanlari bo'lsa, bechora chindan ham nima qilsin, – deb xo'rsindi Sem. Mexikoning quloqlariga bo'lsa uning bu xo'rsinig'i negadir g'ayritabiiy, o'ta boshqacha bo'lib eshitilib ketdi. – Menga o'xshagan kallavaram sassiqko'zan bilan yashash ungayam og'ir bo'lsa kerak. Faqat pishir-kuydir, kir yuv, ovqat qil, qo'ylarning kalla-pochasini tozala, yana ustiga-ustak erining ma'nisiz xo'rlashlariga chidab yashash! Rostdanam, undan ko'ra bir bet kitob o'qish zavqliroq-da!

U xayolida Martani ilk dafa uchratgancag'i holatni ko'z oldida jonlantirib ko'rdi: durkun, dildor va g'ururli go'zal! Qora mehnat va yillar soyasi tufayli yuzi jigari tus olishdan avval Martaning yonoqlari nim pushti rangda yal-yal yonib turardi. Doimiy sukunat cho'mgan quyruq chakalakzorlar orasida osmono'par orzu-xayollarga burkanib yashagan xayolparast va soddadil qiz!

«Agar shunaqa dag'al muomalam va qo'rs gaplarim bilan ichimdagi sevgi izhorimni tilimga ko'chirganimda bormi, meni hatto yovvoyi mushuk ham tilka-pora qilib tashlagan bo'lardi», o'yladi Sem.

Qahramonimiz ana shunday g'urbatli o'ylari bilan qaysi yo'lda ekanligini ham aniq idrok qilolmasdan hatto o'zi ham bilmaydigan manzil tomon ketib borardi. U faqat o'zining nechog'lik insofsizligini, Martaga qilgan qilguliklari to'g'risidagina o'ylar va ezilar edi. U endi nima qilishini bildi. Nima qilib bo'lsa ham Martani xursand qilishni o'ylardi. U yung olib-sotadigan og'aynilari Garsiya bilan Jons va San Antonioga ham birvarakayiga xat yozadi. Semning kallasida bundan boshqa yana yangidan-yangi rejalar tug'ila boshladi. U o'zining bir xonasida yaltirab turgan kichkinagina qop-qora pianinoni ko'z oldiga keltirdi. Butun oila kechki ovqatdan so'ng pianino atrofiga jam bo'lib olgancha o'g'ilchasi Rindo chalayotgan ajoyib kuyni tinglab o'tirganlari Semning ko'z oldida yaqqol namoyon bo'ldi.

Ammo shuncha tuzgan g'aroyib rejalari hamda ularni amalga oshirish istagi Semning Marta bilan o'g'li Rendi o'tkazadigan vahimali tun qayg'usini yengillatib qo'yolmasdi. Uzzukun nuqul adi-badi aytishib, g'alva-g'ishava qo'zg'aganlari bilan Marta baribir har tun Semning kuchli qo'llari ustiga asta boshini qo'yar, bor qo'rquvini yashirgancha, Semning yurak urishini tinglab yotar, butun vujudini mamnunlik va shukronalik hissi qamrab olardi. Aslida-chi, Martaning qo'rquvlari chindan ham asossizmidi? Sem elma-el kezib, bosqin-

chilik qilib yurgan bezori meksikaliklarni xayoliga keltirdi. Rancholarga pusib boradigan tungi yovvoyi mushuklar, tili uzun silliq ilonlar, mingoyoqlar va yana bir olam xavf-xatarlar borasidagi o'y cho'ponning yuragini g'ash qildi. Ehtimol Marta hozir qo'rqqanidan, jazavaga tushib o'tirgandir. O'g'li Rendi bo'lsa yig'lab, dadasining tezroq kelishini yalinib so'rayotgandir balki.

Ketma-ket cho'zilib, bir-biriga ulanib ketgan butazorlar-u o'simliklarning hech adog'i ko'rinay demasdi. O'ydin-chuqur yerlar, nishablik ketidan tag'in boshlanib ketadigan nishabliklar, jarliklarning hammasi bir-biriga farqlanmas darajada o'xshab ketardi, boz ustiga ular faqat takrorlanib boraverardi, sira-sira o'zgarmas va yo tugamas edi. Xudoyim-ey, qaniydi, tezroq biror tanish yerdan chiqa qolsaydi!

Hayot juda qiziq-da yoki tabiatning o'zi o'yin qilishni xush ko'radi. Oddiy odamning hayoti aqlli diplomatnikidan ko'ra qiziqarliroq kechishi ham mumkin hatto. Qorlarda yo'qolib qolgan kishilar to hushdan ketgunga qadar bitta doira ichida aylanib yurganlarini anglay olmaydilar. Yoxud donishmand sayohatchilar turli aqliy jarayonlarda aylanib-aylanib keyin yana eng boshlang'ich nuqtasiga qaytib kelishlarini o'zlari ham tushunmaydilar.

O'ziga ishonch bilan hamon jadal yo'rtib borayotgan Mexikoning quloqlari tagida horg'in, afsuslangan Semning chuqur-chuqur xo'rsinishi jaranglar edi. Ular yana tik qoya nishabligidan yonbag'irlab ketgan o'n yoki yigirma fut balandlikdagi qalin butazor oralab keta boshladilar.

– Endi chiday olmayman, Mex, – deb yubordi Sem otiga iltijo bilan qarab. – Mana shu yerga

kelganda tamomila holdan toydim. Axir sen o'zing ham o'lgudek charchab ketding-ku, og'ayni. O, Xudoyim-ey, nima balo, bu yorug' dunyongda biron-tayam kulba-kapang ham qolmaganmi?

Sem faryod qilib, tovoni bilan yana Mexikoning biqinlariga turtdi.

Ot bunga javoban norozi ohangda pishqirib qo'yarkan: «Yaqin atrofda o'sha kulbang bo'lganda ham bizga nima foydasi bor bo'lardi? Axir uyga tezroq yetib olishimiz kerak-ku», – deb qo'ygandek edi go'yo.

Shunga qaramay, Mexiko yurishini yanada tezlatdi, hatto yo'rtgancha chopib ham ketdi. Ulkan, qop-qora chakalakzorni aylanib o'tarkan, Sem bir nafasga to'xtadi. U qo'lidagi otining tizginlarini yerga tashladi-da, ko'zlariga ishonmasdan turgan joyida o'tirib qoldi. Sem o'z uyidan nari borsa o'n yard narida turar edi.

Sadoqatli Marti yuvosh va beozorgina bo'lib, eshik oldida, o'zining qadr-don tebratma kursisida hamon kitob o'qib o'tirar, bolajon Rendi esa yerga o'tirib olgancha kichkinagina o'yinchoq mashinasini g'izillatib yurgizish bilan band edi. U bir zum o'yinidan boshini ko'tarib, sal narida turgan dadasiga ko'zi tushdi-yu, lekin uni taniy olmasdan yana o'yinga berildi. Marti esa bu payt qandaydir sharpani sezgandek bo'lib, erinchoqlik bilan orqasiga o'girilib qaradi. U odatdagidek tiz-zasiga qo'yib olgan kitobining kelgan yeriga barmog'ini belgi qilib qo'yib turardi.

Ana shu vaqtda Sem bir seskanib oldi. Xuddi yomon tush ko'rib, birdan uyg'onib ketgan odam-day o'zini g'alati sezdi-yu, sekin egardan tushdi. Qattiq hayajonlanib ketganidan Sem nuqul lab-

larini yalardi. Ammo u o'zidagi noqulay holatni bildirmaslik uchun darrov xotiniga o'shqira ketdi:

– Buni qara, haliyam shu bo'lmag'ur romanlaringni titkilab o'tiribsanmi?! Sendan boshqa kim ham o'qirdi bu semiz kitoblaringni? Qani, yig'ishtir hammasini, tez! Senga aytyapman!

Mana, yana o'sha Sem. Texasning mana-man degan bu cho'poni safari davomida adashib qolib, yo'l topolmay, tazarru qilgan, lekin qaytgan zahoti tag'in o'sha-o'sha baqiroq Semga aylanib qolgan, biroq uning eson-omon qaytib kelganidan sadoqatli Marti behad xursand edi.

Rus tilidan
Amir Fayzulla
tarjimasi

YIGIRMA YILDAN SO'NG

Politsiyachi posbon ko'chadan vajohat bilan o'tib borardi. U yakkam-dukkan uchraydigan yo'lovchilarni hayratga solish uchun ataylab vajohatli ko'rinayotgandir, balki bu unga odat bo'lib qolgandir. Havo nam, hali soat kechki o'n bo'lib ulgurmagan esa-da, qattiq esayotgan shamoldan yomg'ir hidi kelardi, ko'chalar deyarli bo'm-bo'sh edi. Yo'l-yo'lakay eshiklarni tekshirgan, chaqqon va g'alati harakatlar bilan tayoqchasini silkitgan-cha ora-sira o'z mulkining barcha burchaklariga ziyrak nigoh tashlagan ko'yi bo'ydor, baquvvat gavdali, oyoqlarini xiyol kerib yuruvchi politsiyachi jamoatchilik osoyishtaligini ta'minlovchi posbonning ajoyib qiyofasini o'zida mujassam etgandi. Unga tegishli daha ahli allaqachon osuda uyquda. Faqat allaqayerlarda, tamaki do'konimi yoki tungi bardami, hamon chiroqlar miltillaydi. Bu atrofdagi binolarning ko'pchiligini idoralar band qilgan, ular esa allaqachon berkilib bo'lgandi.

Mahallalardan birining yarmiga yetar-yetmas politsiyachi birdan odimini sekinlatdi. Qorong'ilikda, temir buyumlar sotiladigan do'kon eshigi yonida og'zida yondirilmagan sigareta tishlagan bir odam turardi. Politsiyachi unga qarab yurgan zahoti u tez-tez gapira ketdi.

– Hammasi joyida, serjant, – dedi noma'lum kishi xotirjam ohangda. – Oshnamni kutib turibman, bor-yo'g'i shu. Mana shu uchrashuvni u bilan yigirma yil muqaddam kelishib olgandik. Bu sizga sal g'alati tuyulsa kerak, shundaymi? Nachora, istasangiz, buni bir boshdan tushuntirib beray, ko'nglingiz tortarmidi? Hozir mana bu do'kon turgan joyda ilgari «Ota Jo Bredi» restorani bo'lguvchi edi.

– Besh yil oldin, – dedi politsiyachi, – o'sha uyni buzib tashlashdi. Notanish kishi gugurtni «chirt» yoqib, sigara tutatdi. Gugurt alangasida uning yuzi, chorburchak jag'i, o'tkir ko'zlari va o'ng qoshi yonidagi kichkina oq chandiq ko'rindi. Yupqa bo'yinbog'idagi yirik olmos ko'zli to'g'nog'ich charaqlab ketdi.

– Bugun, – so'zida davom etdi haligi kishi. – «Ota Bredi»da mening eng yaxshi o'rtog'im va dunyodagi eng ajoyib yigit Jim Uels bilan birga ovqatlanганиmga roppa-rosa yigirma yil bo'ldi. Ikkalamiz ham shu Nyu-Yorkda tug'ishgan aka-ukalardek birga katta bo'lganmiz. Tong otishi bilan baxtimni qidirib, G'arbga yo'l olardim. Men o'n sakkizga qadam qo'yan, Jim esa yigirma bahorni ko'rgan bo'z yigitlar edik. Jimmini Nyu-Yorkdan sug'urib olib chiqish o'limdan qiyin edi, u bu shaharni yer yuzidagi yagona ma'qul va manzur joy deb bilardi. Xullas, o'sha oqshom biz rosa yigirma yildan keyin uchrashishga kelishdik, hayotimiz qanday kechmasin va taqdir bizlarni har qancha uzoqqa uloqtirmasin, o'sha kun, o'sha soatda uchrashishimizni shart qilib qo'ydik. Biz shuncha vaqt ichida bemalol ahvolimizni o'nglab, baxtimizni qaror toptirib olamiz, deb o'ylagandik.

– Juda qiziq ish boʻlgan ekan-ku, – gap qotdi politsiyachi. – Garchi, nazarimda, uchrashuvlar oraligʻidagi muddat hazilakam boʻlmasa-da. Xoʻsh, nima boʻldi, ajrashganlaringizdan buyon oshnangizdan dom-darak topoldingizmi, ishqilib?

– Yoʻq, dastlabki vaqtlarda bir-birimizga xat yozib turdik. Biroq, bir yo ikki yil oʻtib, bir-birimizni izziz yoʻqotdik. Gʻarbni oʻzingiz bilasiz, oʻziga yetgancha keng yurt, mening esa unda bormagan joyim qolmadi. Ammo bir narsaga imonim komil edi: agar oʻlib ketmagan boʻlsa, Jimmi shartlashilgan joyga, albatta, keladi. Bunday vafodor va subutli doʻstni kunduz chiroq yoqib topolmaysan. Uni esdan chiqarishi mumkin emas. Bu yerga vaqtida yetib kelish uchun necha ming millik yoʻlni bosib oʻtdim, agar Jim ham soʻzida tursa, bundan sira pushaymon boʻlmayman, albatta.

U bashang soatini chiqardi – soatning qopqogʻiga mayda olmos donachalari qadalgan edi.

– Uch daqiqasi kam oʻn, – dedi u. – Biz restoran eshigi oldida ajrashganimizda soat roppa-rossa oʻn edi.

– Nazarimda, Gʻarbda ishlaring yomon ketmagan, shekilli? – oʻsmoqchilab soʻradi politsiyachi.

– Oʻ-hoʻ, boʻlmasa-chi! Agar mening yarim omadim Jimga kulib boqqanida, doʻppimni osmonga otardim. Oʻzi biroz lanjroq boʻlsa-da, bahosi yoʻq yigit. Unga gap uqtirgunimcha naq ona sutim ogʻzimga kelgandi. Nyu-Yorkda esa odam toʻnkalgicha qolib ketadi. Faqat Gʻarb odamni charxlaydi.

Politsiyachi tayogʻini aylantirib, bir qadam olgʻa yurdi.

– Bo'пти, men boray. Ishqilib, do'stingiz aytilgan vaqtda kelsin-da. Juda soniyama-soniya aniq kelishini talab qilmassiz undan?

– Ha, albatta. Ko'pi bilan yana yarim soat kutaman-da. Agar joni omon bo'lsa, shu paytgacha, albatta, yetib kelishi kerak edi. Yaxshi boring, serjant.

– Tuningiz xayrli bo'lsin, ser, – politsiyachi eshiklarni yo'l-yo'lakay ko'zdan kechirgancha kelgan yo'lida davom etdi. Endi yomg'ir maydalab, shig'alab yog'a boshlagandi, o'qtin-o'qtin esib turgan shamol ham bir maromga o'tib, izg'iranga aylangandi. Yoqalarini ko'tarib va qo'llarini cho'ntaklariga suqib olgan siyrak yo'lovchilar ma'yus holda ovoz chiqarmay, shoshib o'tib ketishardi. Necha ming millab yo'l bosib kelgan kishi esa do'stiga bo'lgan qariyb bema'ni va'dasida turmoq uchun sigarasini tortgancha kutib qolaverdi. Yigirma daqiqacha o'tgach, paltosini quloqlarigacha ko'tarib olgan baland bo'yli odam ko'chani shoshib kesib o'tdi-da, do'kon eshigi oldida kutib turgan kishi tomon qarab yurdi.

– Bu senmisan, Bob? – so'radi yangi kelgan odam ishonqiramay.

– Sen Jimmi Uels emasmisan? – o'sha zahoti javob qaytardi unisi.

– Yo Parvardigor! – dedi novcha odam sigarali kishining har ikkala qo'lini qo'llari bilan tutib. – Qara-ya, Bob ekaning kunday ko'rinib turibdi. Agar hali ham yorug' olamda bor bo'lsang, seni bu yerda topishimga zarra shubha qilmagandim. Buni qara-ya! Yigirma yil – hazilakam gap emas. Ko'rdingmi, Bob, restoranimizni buzib tashlabdi. Afsus, o'shanda sen bilan ikkovimiz kech-

ki ovqatni qanaqangi tushirgandik unda. Xo'sh, gapir, do'stim, G'arbda kunlaring ne kechdi?

– Zo'r. U yerda nasibamga nima yozilgan bo'lsa, hammasiga erishdim. Sen esa butunlay o'zgarib ketibsan, Jim. Esimda, sen mendan ikki-uch dyum pastroq eding.

– Ha, yigirmaga to'lganimdan keyin biroz bo'ygaga tortdim.

– Sening ishlaring qalay, Jimmi?

– Chidasa bo'ladi. Shahar muassasalaridan birida xizmat qilaman. Bo'пти, Bob, ketdik. Men bir kunjakni bilaman, ikkovimiz u yerda xumor-dan chiqquncha gaplashamiz, eski paytlarni eslaymiz.

Ular bir-birlarining qo'ltig'idan olib, yo'lga tushishdi. Bob G'arbdan omadi yurishib, ko'zini yog' bosib kelgani, ishdagi muvaffaqiyatlari haqida labi-labiga tegmay hikoya qila ketdi. Boshini yoqasi ichiga birato'la tiqib olgan sherigi esa uni qiziqish bilan tinglar edi. Mahalla burchagida dorixona do'konining chirog'i miltillardi. Yorug'ga yaqin kelib, har ikkala yo'lovchi bir vaqtda bir-biriga qarab burildi-da, bir-birining yuziga ko'z tashladi. G'arbdan kelgani birdan to'xtadi va qo'lini oldi.

– Siz Jim Uels emassiz, – dedi u shartta. – Yigirma yil – uzoq muddat, ammo kishining rimcha burni tugmachadek bo'lib qoladigan darajada uzoq emas.

– Bu muddat ichida ajabtovur odam ham muttahamga aylanadi goho, – javob berdi novchasi. – Gap bunday, Bob, o'n daqiqa bo'ldiki, siz hibsdasiz, Chikagoda xuddi shuni taxmin qilishgandi, siz, albatta, bizning yerlarga kelib-ketish-

ni kanda qilmaysiz, siz bilan suhbat qurishimiz mumkinligini ham xabar qilishgandi. Xo'sh, ortiqcha shovqin-suron ko'tarish niyatingiz yo'qmi, mabodo? Unday bo'lsa, oqilona yo'l tutganingizdan minnatdorman. Endi esa sizni politsiyaga topshirishdan oldin men yana bir topshiriqni bajarishim kerak. Mana bu xatni oling. Uni shu yerda, deraza oldida o'qib ko'rishingiz mumkin. Buni menga Uels politsiya posboni berdi.

G'arbdan kelgan odam uzatilgan bir parcha qog'ozni ochdi. Xatni o'qib bo'lgach, uning qattiq qo'llari xiyol titradi. Xat qisqagina edi: «Bob! Men tayinlangan joyga vaqtida yetib keldim. Sen gugurt chaqqaningda, men Chikago qidirayotgan odamning basharasini tanib qoldim. Men bu ishni o'zim qila olmasdim va seni hibsga olish uchun o'zimizning mahalliy agentlardan birini yubora qoldim.

Jimmi».

Ingliz tilidan
Qandilat Yusupova
tarjimasi

YASHIL ESHIK

Yoshgina pianino sotuvchisi Rudolf Steyner o'lguday sarguzashttalab yigit edi. U atigi ikki-uch oqshomdan buyongina kutilmagan hodisalar izlashdan o'zini tiyib turardi, xolos. Lekin unga negadir hayotdagi eng qiziq hodisalar mana hozir, naq oyog'i ostidan chiqib qoladiganday bo'lib tuyulaverardi. Yigit hamma vaqt yangi-yangi sarguzashtlar to'g'risida xayol surib yurardi.

Bir kuni Rudolf ko'chada hardamxayol bo'lib o'zicha aylanib yurgandi, birdan qandaydir bir dasta qog'ozlarni odamlarga bir-bir tarqatib yurgan bitta habash uning e'tiborini tortib qoldi. O'sha habash Rudolfning qo'liga ham bir tashrifnomani tutqazib ketdi. Yigit qiziqsinib qog'ozni ushlagancha unga ilkis nazar tashladi. Tashrifnomaning bu tomoniga hech nima yozilmagan edi; lekin uning orqa tomoniga ikki donagina so'z yozib qo'yilgandi: «Yashil eshik». Shu payt o'zidan uch qadam oldinda qo'liga habash berib ketgan o'shanday tashrifnomani bir chetga beparvo uloqtirib ketgan erkakka yigitning ko'zi tushdi. Rudolf o'sha qog'ozni ham yerdan engashib oldi. Bu tashrifnomaga ham tish doktorining nomi bilan uning manzili qayd etib qo'yilgandi.

Sarguzashttalab pianino sotuvchisi muyilishga borib ozgina to'xtab turdi-da, o'ylanib qoldi.

So'ngra u ortiga qaytib, yana odamlar oqimiga qo'shildi. Yigit ikkinchi marta habashning yonidan o'tib ketayotganida u yana Rudolfga tashrif qog'ozi berdi. Yigit o'n qadamcha nariroqqa bordi-da, qog'ozni o'zicha tekshirib chiqdi. Birinchi tashrifnomadagi kabi bunisida ham bir xil husnixat ko'rinib turar, bunisiga ham «Yashil eshik» deb yozib qo'yilgandi. Keng yo'lak ustida yana uch-to'rtta o'shanday tashrifnomalar sochilib yotardi. Ularning hammasida tag'in o'sha tish doktorining ismi bilan uning manzili bor edi. Qiziq, bu qog'ozlarda yozilgan so'zlar nimani anglatgan taqdirdayam o'sha habash shuncha gavjum olomon ichidan nima sababdan aynan Rudolfni ikki martalab tanlab oldi ekan...

Bu gal izdihom ichidan sug'urilib chiqib ketdi-da, yosh sotuvchi yigit unga yangi sarguzasht va'da qilib turgan qarshisidagi baland bino tarafga allamahalgacha tikilib turdi. Bino besh qavatdan iborat ekan. Uning birinchi qavati katta do'kon bo'lib, tepasi odamlar yashaydigan uylardan iborat edi. Qunt bilan o'tkazilgan ko'z tekshiruvini nihoyasiga yetkazib, Rudolf o'sha binoning zinalari bo'ylab tepaga dadil chiqib keta boshladi. Uyning kirish qismi nimqorong'i, qavatlar tomon olib chiqadigan zinalar arang ko'rinib turardi. Rudolf tavakkal qilib, o'ziga yaqinroq turgan eshik tarafga nigoh tashladi-yu, eshikning yashil rangda ekanligini ko'rdi. U bir lahza ikkilanib qoldi, so'ngra to'ppa-to'g'ri o'sha eshik tomonga shaxdam bordi-da, taqillata boshladi. Eshik ancha hayallanib ochildi. Ostonada hali yigirmaga ham chiqmagan yoshgina oyimqiz paydo bo'ldi. Qizning yuzi bo'zday oqarib ketgandi,

hatto Rudolfga shunday bo'lib ko'rindiki, u shu onning o'zidayoq hushidan keta boshlayotgandek edi. Chindanam qiz oyoqda turolmay, holsizlanib to'satdan yiqilib tushdi, Rudolf uni darrov ko'tarib oldi-da, xonadagi eski divan ustiga asta yotqizdi. So'ngra eshikni yopib, begona xona ichiga bir qo'r ko'z yugurtirib chiqdi. Ko'rganlaridan ancha batartib, ammo ulkan qashshoqlik in qurgan makon ekan, degan fikrga keldi.

– Hushimdan ketib qoldimmi? – deya ovoz chiqardi notanish qiz arang. – Qo'rqmang, buning hech ajablanarli joyi yo'q. Agar siz ham uch kun ovqat yemay qadam bosishga urinib ko'rsangiz edi, ana o'shanda ko'rardingiz nima bo'lishini.

– O, Xudoyim! Nimalar deyapsiz? – deb baqirib yubordi Rudolf sakrab turib ketarkan. – Shoshmang, siz shu yerda mening qaytishimni kutib o'tiring. U yashil eshikdan quyundek otilib chiqdi-da, yigirma daqiqadan so'ng qo'lida non, saryog', yaxna go'sht, pirog, sut va issiq choy bilan qaytib keldi.

– Och qorin bilan bunaqa ahvolda yurish g'irt ahmoqlikning o'zi-ku. Qaytib bunaqa ish qila ko'rmang, – deya dag'dag'a qildi Rudolf qizga qarab. – Mana, kechki taomingiz ham tayyor bo'ldi.

Og'ziga ozgina u-bu narsa tekkan qiz biroz dadillanib, boshidan o'tganlarini yigitga hikoya qilib berdi. Bu qiz shahardagi millionlab chorasiz g'ariblardan biri sifatida, bu miskin yerda avj olib borayotgan berahmlik va loqaydlikdan tortib ishxonalardagi past moyanalar, oqibatda qiyinalib ketib, oxiri kasal bo'lib yotib qolganigacha bo'lgan voqealarni kuyinib so'zladi. Baxtga qarshi u bor ishidan ham ayrilib qolibdi, umidlari sarob-

ga aylanib, hayotdan umidini uzayotgan bir mahalda xuddi Xizr kabi oliyhimmat bu yosh yigit uning eshigini qoqib kelibdi.

Rudolf qizga achinib qarab turardi.

– Shuncha ko'rgilikni yolg'iz o'zingiz boshdan o'tkazganingizga qaraganda, – deb xitob qildi u keyin, – bu yerda na bir qarindoshingiz va na bir do'stingiz borga o'xshaydi?

– Ha, hech kimim yo'q.

– Aslini olganda, men o'zim ham bu dunyoda butkul yolg'izman, – deb qo'ydi Rudolf biroz jimlikdan so'ng.

– Men bundan xursandman, – deya suyunib ketdi qiz beixtiyor, uning bu so'zlari Rudolfga ham negadir xush yoqdi.

Andak vaqt o'tgach, qiz chuqur xo'rsinib, boshini yostiqqa tashladi va:

– Kechirasiz, lekin meni o'lguday uyqum kelayapti, – dedi.

Rudolf o'rnidan turib, shlyapasini qo'lga oldi. Birdan qiz yana tilga kirib:

– Aytgancha, siz nega aynan mening eshigimni taqillatib kelgandingiz? – deb so'rab qoldi.

– Ha-ya, shu binoda bizning bir pianino sotuvchimiz yashardi. Men adashib ketib, sizning eshigingizni qoqibman.

Qiz bu gapga ishonqiramay yigitga tikildi. Darhaqiqat, yigit aslida o'z yolg'oniga o'zi ham ishon-gandek gapirgandi.

Rudolf eshikni yopib, tashqariga chiqdi-da, nogoh atrofidagi hamma eshiklarning yashil tusta ekanligini ko'rib, karaxt bo'lib qoldi.

Ko'chada u yana tanish habashni uchratdi.

Ingliz tilidan
Nodirabegim Ibrohimova
tarjimasi

SEVGI REJASI

Andi Donavan ko'pdan beri Janob Skottning sihatgohida ishlab kelardi. Bir-biriga o'xshash kunlarning birida boshlig'i uni yangi kasbdoshi bilan tanishtirdi. Jussasi kichikkina, o'ziga yarashiqli jigarrang ko'ylak kiygan yosh va go'zal xonim o'zini Meggi Konvay deya tanishtirdi. Afsuski, qiz ortiqcha suhbatga erk bermadi. U o'z ishiga sho'ng'ib ketdi...

Oradan ikki haftalar o'tib, bunga imkon topildi. Andi sihatgoh qarshisidagi yog'ochga suyanib sigara tutatgancha ancha o'tirdi. Shu payt uning nigohlari eshikdan chiqib kelayotgan Konvay xonimga tushdi. U ixchamgina qora ko'ylak va bejirim qora shlyapa kiygan, tuflari va ko'zoynagi ham shunga monand qop-qora edi. Qizning oltinday tovlanayotgan qalin sochlari va moviy ko'zlari uni yanada jozibali ko'rsatardi. Qiz eshikdan chiqib, bir zum osmonga tikilib qoldi. Andi uning ko'zlari-dagi g'amni sezdi. Va tugab ulgurmagan sigaretini yerga tashladi-da, qiz tomon yaqinlashdi.

– Bugun havo yaxshi-a, miss Konvay?

– Ha... lekin men uchun emas, janob Donavan.

– Oilangizda biror kishi... – Andi duduqlandi.

Qiz biroz sukut saqladi.

– Yo'q, oilamda emas. Lekin beshafqat taqdir yuragimning bir bo'lagiga aylangan insondan

ayirdi. U menga juda, juda aziz edi... Hozir esa bu shaharda, bu dunyoda o'zimni shu qadar yolg'iz sezayapmanki...

Yigit ortiqcha narsa so'ramadi. Shu ko'yi ularning suhbatini yakuniga yetdi. Biroq shundan so'ng yigit qiz haqida ko'proq o'ylay boshladi. O'ylagani sari uni baxtli qilish istagi ortib borardi. Bir kun u to'g'ri qizning ish xonasiga kirib keldi.

– Nyu-Yorkda yolg'izlik juda yomon. Siz o'zingizni bu qayg'udan chalg'itishingiz kerak. Balki... bog'da sayr qilamiz, agar ijozat bersangiz, albatta.

– Rahmat, janob Donavan. Taklifingiz menga ma'qul.

Yo'lka bo'ylab ketisharkan, yigit qizning xotiralarini tinglab ketdi. Marhum yigitning ismi Fernando Mazzini ekan. U italyan graflaridan bo'lib, vatanida katta villa va yeriga ega. Kelasi bahor ular turmush qurishga kelishishgan va Fernando to'ygacha villani tartibga keltirish uchun Italiyaga jo'nagan ekan. Shundan so'ng Meggi Nyu-Yorkdan ish topgan va bu yerga kelgan. Uch kundan so'ng esa qizga Fernandoning aviahalokatda vafot etgani yozilgan maktub kelibdi.

– Shuning uchun qora kiyingandim. Shuning uchun dunyom zimiston. Hech nima bilan qiziqmayman... Istasangiz sihatgohga qaytamiz, janob Donavan?

– Yo'q, hozir emas. Biroz shoshilmang, Meggi. Zinhor yolg'izman, deya ko'rmang. Men sizga hamdardman... Ruxsat etsangiz samimiy do'stlik rishtasini taklif etaman.

– Bilasizmi, menda uning surati bor. Shu paytgacha birovga ko'rsatmaganman. Biroq, siz endi

mening do'stim ekansiz... Shuning uchun sizga ko'rsatsam deyman.

Andi suratga yaxshilab tikildi.

– Xonamda uning katta portreti bor, – davom etdi qiz. – Har kuni unga necha martalab tikilaman. U mening yuragimda bir umr yashaydi.

Ular sihatgohga qaytishgach, qiz yugurib xonasiga kirdi-da, katta portretni ko'tarib chiqdi.

– Kelishgan yigit ekan, – jilmaydi Andi. – U menga yoqdi. Meggi... balki keyingi yakshanba teatrga tusharmiz?

Oradan bir oy o'tgach, Andi va Meggi janob Skottga turmush qurayotganliklari haqidagi xabarni yetkazishdi. Biroq shunga qaramay Konvay qora kiyimini yechmasdi. Kechki payt Andi va Meggi bog'dagi o'rindiqlarda ancha o'tirishdi. Havo musaffo, oynning shu'lalari yam-yashil yaproqlar bag'rida tovlanardi. Hammasi go'zal, ammo Andining qovog'i ochilmasdi. Uning kun bo'yi shu ahvolda yurgani sababini nihoyat Meggi so'rashga ahd qildi.

– Nimalarni o'ylayapsan, Andi?

– Hech narsa, shunchaki...

– Ilgari seni hech bunday kayfiyatda ko'rmandim. Nimadir bo'lgan...

– Aytarli gap yo'q, Meggi.

– Menga aytishing kerak, Andi. Balki boshqa qiz haqida o'ylayotgandirsan? Agar istasang uning oldiga ketishing mumkin.

– Unday emas. Mayli aytaman, Meggi. Mening bir do'stim bor. Ismi Mayk Sullivan. Taniysanmi uni?

– Yo'q, tanimayman. Agar uni deb siqilayotgan bo'lsang tanishni xohlamayman ham.

– U yaxshi do'st, Meggi. Kecha u bilan ko'rishgandim. Ikki haftadan so'ng to'yim bo'layotganini aytdim. U xursand bo'ldi va taklif qilishni unutmashligimni tayinladi. U albatta kelarmish...

– Shunchalik kelishni xohlasa, marhamat.

– Buning jiddiy sababi bor, Meggi. Uni taklif qilolmayman!

– Sababini ayt, Andi. Men bilishim kerak.

– Yaxshi... Meggi, avval ayt-chi, sen meni graf Mazzinini sevganchalik sevasanmi?

Meggi jimib qoldi. So'ng birdan yig'lab yubordi.

– Nima gap, Meggi? Nega yig'layapsan?

– Bilasanmi... – dedi Meggi nihoyat. – Men seni aldagandim. Buning uchun meni kechirolmaysan. Endi menga bo'lgan sevging so'nadi. Lekin hammasini aytmasam bo'lmaydi, Andi. Mening hayotimda hech qanaqa graf bo'lmagan. Shu paytgacha sevgi bilan to'qnashmaganman. Dugonalarim faqat sevgan yorlari va turmush o'rtoqlari haqida gapirishardi. Men esa bu tuyg'uni boshimdan o'tkazmadim. Men ham sevishni, sevilishni istardim. Seni birinchi bor ko'rganimda yuragim jiz etdi, ilgari hech bunday bo'lmagandim. Keyin esa graf rejasini o'ylab topdim. Fotostudiyaga borib u yerdagi bir xushsurat yigitning suratini sotib oldim. Qora libos kiydim... E'tiboringni shu yo'l bilan tortaman, deb o'yladim. Biroq, yolg'on bilan sevgiga erishib bo'lmas ekan. Endi meni tark et, Andi. Men uyatdan ko'zlaringga qarolmayman. Sen hayotimdagi yagona inson bo'lib qolasan.

Andi ohista qizning qo'llaridan tutdi va uni o'ziga qaratdi. Qiz uning jilmayib turganini ko'rib hayratlandi.



- Sen... meni kechirolasanmi, Andi?
- Kechirganman... allaqachon, suratni ko'rganimdayoq. Menga hammasini aytib berganingdan xursandman, Meggi.
- Andi, graf haqidagi gaplaringga ishonmaganmiding?
- Ishonardim-u, biroq... menga ko'rsatgan suratning yaqin do'stim Mayk Sullivanniki edi-da...

Ingliz tilidan
Qandilat Yusupova
tarjimasi

KAKTUS

Vaqt shunday shafqatsiz hakamki, u o'tgan har bir daqiqani o'tmishga va xotiraga aylantirib ketaveradi. Hayot o'zanida misoli cho'kayotgan odam esa har bir qilgan xatosini noiloj tan olmasdan boshqa chorasi ham yo'q. Afsuski, o'tib ketgan xatoliklarni qo'lqopni almashtirgan kabi tag'in qaytadan o'zgartirib bo'lmaydi.


Bo'yoqlik uyidagi stol yonida o'ychan turgan Trisdalning xayolidan ayni chog'da ana shunday o'ylar kechardi. Uning oldidagi stol ustida esa barglari osmonga dadil bo'y cho'zib o'sayotgan bir tuvak yam-yashil o'simlik turardi. Bu o'simlik kaktus gulining turlaridan biri bo'lib, nozik yaproqlari yengil esayotgan shabbodada nafis tebranar, chayqalayotgan barglari bilan go'yo kishini o'zi tomonga chorlab, ishora berayotgandek bo'lardi.

Trisdalning do'sti, ya'ni o'sha kuni to'yi bo'layotgan kelinning akasi, xonadagi javon yonida bir o'zi yolg'iz ichayotganidan norozi bo'lib, zorlangancha gapirayotgandi. Ammo Trisdalning qulog'iga uning gaplari kirmas edi. Har ikkala erkak ham kechki bazm uchun yaxshilab yasanib olishgandi. Qimmatbaho kostyumlarining yaltiroq tugmalaridan chaqnayotgan nur nimqorong'i xona bo'ylab ajib shu'lalar taratardi.

Trisdal asta qo'loqopining tugmalarini yecharkan, ayni damda ko'z oldidan o'tgan oxirgi kunlar lavhalari birma-bir, juda tez tarzda o'ta boshladi. Go'yo hozir ham dimog'iga ibodatxona ichiga bezak sifatida ilingan turli xil gullarning muattar bo'yi urilib turar, quloqlari ostida to'yga yig'ilgan minglab mehmonlarning shodon qichqiriqlari jaranglar, po'rim liboslarning yengil shitirlashi va nihoyat ruhoniyning uning sevgan mahbubasini o'zga yigit bilan nikohlagan duosi tinmay sado berib turardi.

Bir dunyo adoqsiz hasratga botgancha o'y surarkan, Trisdal sevgan qizini qanday qilib qo'ldan boy bergani sababini hech topolmasdi. Murosasiz bir asosni qo'pollik bilan tan olarkan, u o'zining sirli va mag'rur, anchagina dimog'dor va olifta bo'lganiga chin dildan o'kinib ketdi. Mana endi o'sha xudbinligi va takabburligi ortidan kelgan baxtsizlikni ko'rib turibdi. Ammo hozir barcha pushmonlik va nadomat tuyg'ularining bari bekor, ustidagi yaltiroq kiyimlar kabi ko'kzida urib turgan yuragi shodlikdan porlamas edi. Manmanlik va kibru havo! Mana shu betamiz xulqlar Trisdalning eng muhim va yaramas qiliqlari edi. Eh, nahotki, endi Trisdalning ko'ngil qo'ygani boshqaniki bo'lib ketaversa? Axir u doim g'olib bo'lgan edi-ku! Nega...

Kelinchak ibodatxonaning bezatilgan yo'lakchasidan shohona mehrob tomonga purviqor yurib borarkan, Trisdalning yurak-bag'ri kuyib, benihoya ezilib ketdi, u o'ziga o'zi dalda beradigan bironta kuch topa olmadi. Unga avvaliga qizning chehrasi biroz so'lg'inday, jindek ma'yusday bo'lib ko'rindi, u qaylig'iga negadir sovuq qarayotganday bo'lib tuyuldi. Lekin Trisdalning ko'zlari aldayot-



gan edi. U kelinchakning bo'lajak eriga mehr bilan, samimiyat bilan jilmayib boqayotganiga ko'zi tushdi-yu, o'zini tamomila unutilganini tushunib yetdi. Bir payt qizning Trisdalga tushib qolgan nigohi ham bu fikrni tasdiqlab qo'ydi. Chindanam, Trisdalning o'ziga bino qo'yishi orzularini barbod etdi, uning so'ngi tirgagi – ardoqli muhabbati barham topdi endi. Lekin Trisdal munosabatlarining nega ana shunday yakun topganiga hanuz bir yechim topolmasdi. Nega bunday bo'ldi axir? Na bir janjal va na bir tortishuv, g'alvasiz hammasi tugadi-qo'ydi. Qalbi vayron bo'lgan yigit o'z yog'iga qovrilgancha oxirgi kunlar voqealarini ko'z oldida gavdalantirar va sira ularga tayinli javobni topa olmasdi.

...Qiz hamisha Trisdalga nihoyatda iltifotli edi, unga shohona mulozamat ko'rsatar, hurmatini doimo joyiga qo'yardi. Yigitning qoshida shunaqangi latif qiliqlar qilar ediki, Trisdalning mag'rurona qarashlari qizning bolalarcha sodda, itoatgo'y chehrasidan zumda erib ketardi. Trisdal hamma vaqt eng yuqori sifatlar hamda afzalliklar bilan tilga olinar, yuqori baholanar, xuddi suvsagan qaqroq cho'lga yoqqan yomg'irdan so'ng tuyqus ochilgan bir dona gulday tengsiz qadrlanardi.

Qo'lqopining oxirgi tugmalarini bo'shatayotgan paytda Trisdalning avvalgi xudbinlik xislati bilan kechikkan motamsaro kibr-u havosi shu chog'da yana unga qaytib keldi. So'nggi tundagi uchrashuv yigitning xayolida jonlanarkan, uning haqiqatan ham juda boshi qotib qoldi. Shu bilan birga o'sha oqshomgi qizning mayin nigohlari, sochlarining yengil mavj urishi, ko'zlaridagi yumshoq va bokira bir joziba Trisdalning ko'nglini yanada jo'shdirib yubordi. Uning so'zlari yigit-

ning quloqlari ostida hamon jaranglab turardi. Qiz unga shunday gaplarni aytgandi o'shanda:

– Darvoqe, men bitta gap eshitib edim. Kapitani Karuzersning aytishicha, siz ispan tilida xuddi ispanlardek so'zlay olarmishsiz. Nega shunday noyob iste'dodingizni mendan yashirdingiz? Xo'sh, mendan berkitgan yana qanday qirralaringiz bor?

Yo tavba, bu Karuzers jinni-pinni bo'lib qolmaganmi mabodo? Shubhasiz, u Trisdalni g'irt aybdor qilib qo'ygandi, axir Trisdalning chet tillarini u qadar yaxshi bilmasligi, har doim lug'atdan foydalanishini u yaxshi bilardi, shekilli. O'sha Karuzers Trisdalning ozgina qobiliyati va bilimini o'ta oshirib yuborgani aniq.

Ammo, o, Xudoyim-ey, qarshisida gul-gul bo'lib ochilgan hayajondan yengil titrab so'zlayotgan qizning hayrati va tasannosi shu qadar kuchli ediki, Trisdal Karuzersning yolg'on ta'rifi- ni hech bir raddiyasiz qanday qilib qabul qilib qo'rganini o'zi ham bilmay qoldi. E'tiroz bildirish o'rniga u ispanchadan bo'lgan soxta bilimni yanada bo'rttirib ko'rsatishga urindi. O'zicha qizni beshbattar qoyil qilaman, deb noo'rin ishlatgan bu yolg'on tasdig'i keyinchalik Trisdalning o'ziga achchiq tikon kabi kelib sanchildi.

O'sha tun mahbubasi qanchalar suluv va shaffof edi-ya! O'shanda u misoli tuzoqqa tushib qolgan qushchaday potirlar, hayajonlanar, birdan jim qotib tinglar ham edi. Trisdal o'sha oqshom bor mag'rurligini tark etib, qizga dil izhori qilgandi. U sevganining uyalgan, qizaringan chehrasiga boqib turib, qizning hech bir inkorsiz uning sevgisini qabul qilishiga butkul ishongan edi ham.

– Javobimni ertaga aytaman, – deb ketgandi qiz hayo bilan jilmaygan. Uning tabassumi

Trisdalga cheksiz umid payg'omlarini taqdim etgandi o'shanda.

Shu tarzda u ertasi kun sabrsizlanib mahbubasining javobini intiqlik bilan zor kutdi. Peshin payti bo'lganda, qizning uyida otboqar bo'lib ishlaydigan kishi qip-qizil tuvakda g'alati bir kaktus gulini tashlab ketdi. Ustiga qandaydir tilda yozilgan yorliqdan tashqari, gultuvak ichida na bir so'z va na bir xat bor edi. Yigit hayron qolib, yarim tungacha yana kutdi, lekin qizning javobi yetib kelmadi. O'sha damda Trisdalning baland g'ururi va toptalgan manmanligi uni qizni qidirishdan tiydi. Oradan ikki kun o'tgach, ular ittifoqo bir kechki bazmda uchrashib qolishdi. Ko'rishuvlari har doimgiday oddiy, ortiqcha gap-so'zsiz kechdi, ammo qizning ko'zlari nimagadir mushtoq, betoqat va ajablanib boqardi. Trisdal bo'lsa uning kechikkan javobi uchun izoh berishini kutib turardi. Biroq qiz unga tushuncha berish o'rniga yuzini ters o'g'irgancha ketib qoldi. Shu taxlit ular hech bir sababsiz, hech bir izohsiz indamay ajralishdi. Lekin baribir Trisdal sira-sira tushunolmasdi: uning gunohi nima edi? Bu yerda kim aybdor o'zi? Ana endi cheksiz qayg'uga botgancha, o'zining nokerak bo'lgan mag'rurligi orasidan javob axtararkan, Trisdal mushkul ahvolda qattiq azob tortmoqda edi. Agarda...

Birdan javon oldida turgan ikkinchi erkak, kekinning akasining ovozi Trisdalning xayollarini parday to'zg'itib yubordi.

– Menga qarang, Trisdal, namuncha o'ygacha cho'mib qoldingiz? Xuddi bo'yniga ola xurjun ilinayotgan kuyovto'raday qovoq-tumshuq qilib olibsiz. Siz bor-yo'gi bir ishtirokchisiz-ku bu to'yda, do'stim. Bilasizmi, men bugun g'oyatda

suygan, ardoqlagan jon-u jigarimni uzatyapman. O'zi bittagina singlim bor edi, endi mana, uyam ketayapti. Ha, mayli, baxtli bo'lsin! Qani, keling, bunaqa xomush o'tirmang, ko'nglingizni chog' qiling. Mana, buni oling, birga-birga ichaylik bugun!

– Hozir hech narsa ichgim yo'q, rahmat, – dedi Trisdal boyagiday kayfiyatda.

– Sizlarning mashhur ichimligingiz, – gapini davom ettirdi Trisdalning do'sti, – judayam yoqimsiz ekan. Biror kun bizning taraflarga borib, uyimizdagi ichimliklardan bir totib ko'rsangiz bo'lar-kan. Ana o'shalar ichishga ming karra arziydi.

Bir mahal kelinning akasi Trisdalga hayratomuz kulgancha boshqa gap qotdi:

– Eh-he! Mana buni qaranglar! Bu gul biz tomonlardan-ku! Mana bu kaktusni aytayapman, Trisdal! U sizga qayerdan kelib qoldi?

– Bu sovg'a, – deb javob berdi Trisdal, – bitta do'stimdan. Siz buning turini bilasizmi?

– Bilganda qandoq, – dedi do'sti faxrlanib, – bu kaktus gulining issiq iqlimga moslashgan turlaridan bo'ladi. Siz biz taraflarda bunaqasidan yuzlabini uchratishingiz mumkin. Mana bu yerga gulning nomi ham yopishtirib qo'yilibdi-ku! Siz ispanchani bilmaysizmi, Trisdal?

– Yo'q, – dedi Trisdal achchiq kulimsiragancha, – bu ispanchamidi hali?

– Ha-da. Ispanlar kaktusning bu turi yaproqlarini go'yoki siz tomon qo'llarini cho'zib, nimagadir ishora berayotganday, deb faraz qilishadi. Ular bu kaktusni – «Ventomerme» deb atashadi. Inglizchada qanday ma'no anglatishini bilasizmi siz? «Ventomerme» inglizchada «Kelib, meni olib keting», degani bo'ladi. Ana endi bildingizmi?

Ingliz tilidan
Qandilat Yusupova
tarjimasi

NOMSIZ HIKOYA

Noziktaʼb oʻquvchi ushbu kitobni bir chetga otib yuborishidan oldin men bir gapni taʼkidlab aytmoqchi edim. Mazkur hikoya har qanday gazeta hikoyalaridan mutlaqo farq qiladi. Siz bu yerda na dimogʻdor va kekkaygan noshir bilan va na fermadan quvilgan hovliqma muxbir bilan duch kelasiz. Bu umuman siz kutmagan va oʻylamagan gʻaroyib hikoyadir.

Lekin muhtaram kitobxon menga bir muddat «Tonggi yogʻdu» roʻznomasidagi muxbirlar xonasidagi manzarani tasvirlab berishimga izn bergaysiz. Ammo siz xotirjam boʻling, kamina yuqorida taʼkidlab keltirgan vaʼdamda qattiq turaman.

Xullas, men mana shu «Tonggi yogʻdu» roʻznomasida qoʻshimcha haq ishlab olish uchun ikkinchi ish oʻrnim sifatida ishlab yurgandim. Har kuni muxbirlar xonasining bir chetida uyum-uyum qogʻoz, xatlar va qoʻlyozmalarga koʻmilgancha kunim oʻtardi. Ishim faqat qogʻoz titkilash edi. Yozish tirikchilik manbayim boʻlgani sababli qulogʻimga tushgan gap bormi, mish-mish bormi, nima boʻlsa yozib ketaverar, oʻsha yozganlarim orqasidan bir oz choychaqa ishlab topardim. Topish-tutishim faqat ana shu qogʻoz-qalamgagina bogʻliq edi.

Kunlarning birida Trip ismli bir tanishim ishxonamga kirib keldi. U men oʻtirgan stol qarshisidan

joy oldi. Trip negadir doim qayg'uli qiyofada ko'rinar, yuz-qo'llari hamisha kir-chir bo'lib yurardi. U chamasi endi yigirma beshga kirgan, lekin aftidan xuddi qirq yoshlarga borib qolgan katta kishilarga o'xshab ketardi. Yuzining teng yarim qismini jingalak mo'ylar bosib ketgan edi. Tripning ko'rinishi sog'lom odamlarga o'xshamasdi, har doim ezilgan va tushkun kayfiyatda, ko'ringan odamdan yarim dollar, bir dollar qarz so'rab yurardi. Uning bor orzusi faqatgina bir dollar pul edi. Buning ustiga, uning Milliy Bankdan olgan kredit qarzi ham kundan-kunga oshib borar va Trip ularni hech qachon to'lay olishga qurbi yetmasligini juda yaxshi bilar edi. Faromush holda stolim oldidagi kursida o'ta qashshoq va telbanamo alfozda o'tirarkan, uning qaltiroq qo'llarida tutib turgan bir shisha viskisiga ko'zim tushdi. Bu hayotda Trip bechoravash kimsa edi, xolos, u shu paytgacha hech qachon birovni aldamagan, aldashga urinib ham ko'rmagan edi. Faqat uning eng yomon odati – qulog'igacha qarzga botib yurishi edi.

O'sha kuni men gazetamiz muharririga va'da qilib qo'ygan yozajak yangi hikoyam ustidan hisobchidan yaltiragan besh dollar pulni olib qo'ygandim. Shunday ekan, zimmamdagi topshiriqni bajarish tashvishi bilan notinch o'tirar, tezroq gazetaning keyingi soni uchun biron-bir hikoyani tayyorlab qo'yishim shart edi.

– Xo'sh, Trip, – dedim men Tripga tezda qarab olib, – nima gaplar? Trip ayni shu bugun har qachongidan ham bechoraroq va xarobroq bo'lib ko'rinar, itoatgo'ylardek bosh egib, qarshimda xomush o'tirar edi. Men uni hali bunchalik tush-

kun va ojiz qiyofada ko'rmagandim. Uning shu topdagi o'tirishini ko'rgan odam yurak-bag'ri kuyib-kuyib ketganidan oxiri uni yonidan quvib solgan bo'lardi.

– Puling bormi? – deb so'radi Trip ko'zlarini mo'tillatib. Uning mung to'la ko'zlari yalinchoq itnikidek yaltirab turar, ustara tegmay o'sib ketgan soqoli tutamlasa bo'lgudek holda to'zg'ib yotardi.

– Bor, – deb javob berdim men, birozdan keyin yana ta'kidlab qo'ydim: – Pulim bor. – Bu gapimga ham qoniqmasdan yanada balandroq ohangda Tripga g'ashim kelib qo'shib qo'ydim: – Sen o'ylagandan ko'ra to'rt baravar ko'proq pulim bor. Ammo senga aytsam, o'sha pulimning boshida ancha ishim ham bor. Zudlik bilan bir joyga borib, bitta zarur xabarni yozib kelishim kerak. Judayam zarur bu.

Men ataylab har bir gapimga urg'u berib, go'yo juda muhim ishimni muhokama qilayotganday jiddiy so'zlardim. Maqsadim, bir daqiqa o'tar-o'tmas, xonamda o'tirgan mana bu devonani biror dollar pul so'rab qolishining oldini olish edi.

– Qo'rqma, qarz so'ragani kelganim yo'q, – dedi Trip xuddi ichimdagi gapni o'qib turgandek. Yengil nafas oldim. – Senga ajoyib hikoya yarata oladigan bir voqeani aytib bergani kelgandim, – deb qoldi Trip shu payt. – Juda zo'r hikoya yoza olasan bu hodisadan. Yo'q deganda, ikki sahifalik ijodiy material bo'ladi senga. Agarda men aytadigan hikoyaning ustida yaxshilab ishlasang, topganing tillo bo'lib ketadi, og'ayni, men-ga ishonaver. Qilgan xarajatlaring esa bor-yo'gi bir dollar va yana boshqa xizmatlar evaziga yana

ikki dollarga tushishi mumkin. Mening o'zimga esa ortiqcha hech narsa kerak emas.

Endi ko'nglim ancha joyiga tushgan holda Tripning gaplariga loqaydlik bilan quloq solib o'tirardim. Tripning taklifini avvaldan unga qilgan yaxshiliklarim uchun aytayotgan bo'lishi ham mumkin, negaki bu boyoqish aroqxo'r olgan qarzlarini aslo qaytarib bermagan edi.

– Xo'sh, qanaqa hikoya ekan bu? – deb so'radim men xuddi bosh muharrirlardek qalamimni qo'limda chaqqon aylantirarkanman.

– Hozir senga aytib beraman, – dedi Trip. – Bu bir qiz haqida. Go'zallik haqida. Jannatdagi hur-lardek sohibjamol bir gul haqida. Bamisoli atirgul g'unchalari labiga tomib turgan tonggi shudring yanglig' pokiza bir sanam haqida. O'sha hurliqo yigirma yillardan buyon olis bir orolchada yashab kelib, umrida Nyu-Yorkka qadami tegmagan ekan. Men uni to'satdan o'ttiz to'rtinchi ko'chada uchratib qoldim. U endigina Sharqiy Daryodagi soldan tushib turgan ekan. Yana qaytarib aytaman, qiz nihoyat darajada maftunkor edi. Bir mahal u meni ko'chada to'xtatib olib, qandaydir Jorj Braun degan kimsani qayerdan topishi mumkinligini so'rab qoldi. Buni qara, og'ayni, u mendan Nyu-Yorkday katta shaharda umrimda tanimagan va bilmagan odamimni qanday qilib topish mumkinligini so'radi-ya! Bunisiga nima deysan endi?

Xullas, shu bahona qiz bilan suhbatlashib qoldim. Uning gaplaridan bildimki, kelasi hafta Dod Hiram ismli yosh bir fermerga turmushga chiqayotgan ekan. Ammo o'zi tilga olgan o'sha Jorj Braun hamon qizning qalbidagi eng ardoqli joyni egallab turar, qiz sho'rlik bo'lsa uni sira-sira

unutolmasdan qiynalayotgan ekan. Jorj esa bir vaqtlar qiz kelgan joyda yashagan, kasbi kosibchilik bo'lgan, biroq u yerdagi topish-tutishiga qoniqmasdan, katta shahardan katta pul topish dardida Nyu-Yorkka ketib qolgan ekan. Lekin u shu ketgan ko'yi Grinburgda qaytib qorasini ham ko'rsatmagan, endilikda bo'lsa yosh fermer Hiram qizga xaridor bo'lib turgan ekan. Biroq eng kerakli fursat, ya'ni Adadan rozilik so'rash payti kelgani-da, – ha, aytgancha, qizning ismi Ada ekan, – qiz bechora indamasdan uyidan qochib chiqqan-u otga minib to'g'ri temiryo'l stansiyasiga yetib kelgan. U soat 6:45 da jo'naydigan poyezdga ulgurib qolish uchun nihoyatda shoshilgan, zudlik bilan shaharga ketishni o'ylagan ekan. Jorjni qidiram-an, deb shuncha beboshlik qilganini hali o'zi yaxshi tushunmaydi, ayollarni o'zing bilasan-ku, bir qiziqqan ishlarini oxiriga yetkazmagunlaricha tinchimaydi. Endi Jorjni topaman deb boyoqish ancha sarson bo'ladigan ko'rinadi.

Qizning ahvolini ko'rib turib, uning bir o'zini qarovsiz tashlab ketolmadim, negaki u bu shaharda hali hech kimni tanimas edi. Ko'ringan odamdan so'raydigan gapi faqat bitta: «Siz Jorj Braun degan odamni ko'rmaganmisiz?». Odamlar ham unga turli xil javoblar aytar, biri:

– Qanaqa edi uning ko'rinishi? Moviy ko'zli, bo'yi unaqa baland emasmidi? Ha, ha, xuddi o'shanday kishi bir yuz yigirma beshinchi ko'chada, shundoqqina oziq-ovqat do'konining yonginasida ishlab yuradi. Otlarga egar-jabduq sotadigan qandaydir do'konda hisobchi bo'lib ishlasa kerak.

Ko'ryapsanmi, qiz qanchalar sofdil va beg'ubor. Bilasanmi, qiz kelgan joy ayni qishloqning o'zi, bir

juftgina o'rdak fermasi bor, ammo suvga nihoyatda boy yerlar. U joyga har yili o'nlab sanoatchilar borib kelishadi. Lekin baribir g'irt qishloq joy. Ammo sen, o'sha qizni bir marta bo'lsa ham ko'rishing kerak! Axir mening qo'limdan nimayam kelardi? Cho'ntagimda bir mirim bo'lmasa... Qiz ham oxirgi pulini poyezd chiptasiga ishlatib yuborgan ekan, buning ustiga bir to'plam qilib saqich ham sotib olibdi. Biri tugasa, ikkinchisini sumkasidan olib, tinmay saqich chaynab turibdi. O'ylay-o'ylay, oxiri uni oldin o'zim yashagan o'ttiz ikkinchi ko'chadagi yetimxonaga olib borib, joylab keldim. Hozir o'sha darbadar qizga qayerdan bo'lsa ham bir dollar topib berish juda muhim. Yetimxona boshlig'i keksa Mak Jinnis onaning bir kunlik ish haqi bu. Senga o'sha yetimxonani ko'rsatib qo'yaman.

– Boyadan beri nimalar deb valdirayapsan o'zi, Trip? – birdan jahlim chiqib Tripga o'shqirib berdim. – Birona qiziqarli yo bir mantiqli narsani hikoya qilib berarmikansan, deb o'ylabman. Har kuni Sharqiy Daryodagi o'nlab sollar uzoq orollardan kelgan sen aytgandek qizlardan nechtasini olib keladi. Ma'niliroq gaplardan aytsang-chi, xumpar!

Tripning nochor aftidagi ma'yuslik ifodasi yanayam chuqurlashdi. U qo'llarini ilojsiz qolgan odamdek shalvirab ko'tardi-da, har bir so'zini alohida ta'kidlashga urinib, hijjalab dedi:

– Tushunmayapsanmi, – dedi u, – shu voqea tufayli eng zo'r hikoyani yozib olishing mumkin. Bu ish sening qo'lingdan keladi. Hozir senga gapirib bergan gaplarim – qizning boshidan o'tkazgan sarguzashtlar, qizning o'zi, uning go'zalligi, boqiy va sof muhabbat dostoni – bularning ba-

rini ro'yi-rost yorug' qilib tasvirlash faqat sening qo'lingdan keladi, og'ayni. Mana shu hikoya orqasidan kamida o'n besh dollar pul ishlab topasan. Ketgan xarajating esa atigi to'rt dollar yoki bundanam ko'proq daromad ishlab olishing mumkin.

– Qanaqasiga to'rt dollar pulimni ketkazishim mumkin? – deb so'radim men Tripdan shubha qilib.

– Bir dollar puling yetimxona rahbari Mak Jinnis xonim uchun ketadi, – deb javob berdi u darhol, – ikki dollari esa qizni yurtiga qaytarib yuborish uchun.

– Xo'sh, to'rtinchisi-chi? – dedim men tezda miyamda hisob-kitob qilib.

– Oxirgisi menga bo'ladi, – dedi Trip. – Viski olib ichaman o'sha pulingga. Nima deysan, rozimisan?

Men kinoyali kulimsirab qo'ydim-da, yana o'z ishimga qaytib, yoza boshladim. Biroq miskin, ayanchli va laganbardorlardek tobe odamning qorasi o'chishi qiyin ekan. Birdan Tripning peshonasi yaraqlab, ko'zlari cheksiz yalinchoqlik bilan yoshlanib ketdi:

– Bilasanmi, og'ayni, Adani bugunning o'zida o'z qishlog'iga jo'natib yuborish kerak. Erta ham emas, indin ham emas, shu kun tundayoq Ada o'z uyida bo'lishi shart. Lekin bilasan-ku, mendek aroqxo'rning qo'lidan hech ish olmaydi. Na pulim bo'lsa, na bitta-yarimta tushishim bo'lsa. O'zimcha seni shu sarguzasht hodisadan bironta hikoya qoralab olarsan, cho'ntagingga biroz choychaqa ishlab olarsan, degan o'yda kelgandim. Nima bo'lgan taqdirdayam, birodarim, baxtiqaro va ojiza bir qizni tezda, bugun kechga qolmasdan iziga qaytarib yuborishimiz zarur, tushunyapsanmi?

Tripning zorlanib aytgan o'tinchlaridan yuragim og'rib ketdi. Vijdonim uyg'onib, odamiylik burchim to'g'risida eslatib qo'ydi. Qiziq, nima sababdan odamiylik burchi bunchalik zalvorli bo'larkin? Yo'q, men o'sha bechoragina Ada ismli qiz uchun ketajak bir-ikki so'm pulimga zig'ircha afsuslanmayotgandim, biroq qasam ichamanki, Trip uchun ketadigan pulim qulog'ini ushlab ketishi aniq edi. U men beradigan pulni tungi daydishlari uchun, bema'ni mazaxo'rakligi uchun sarflab yuboradi, albatta. Kallamda shu o'ylar aylanarkan, sovuqqonlik bilan indamasdan paltoyim bilan shlyapamni kiya boshladim.

Ko'chaga chiqqanimizda, Trip o'z-o'zidan nihoyatda itoatkor holda oldinga o'tib, mashina va odamlarning g'ala-g'ovurli shovqini ichida Mak Jinnis onaning makoni tomon yo'l boshlab ketdi. Tabiiyki, ketgan mashinalarimizning haqini men to'lab bordim.

Yetimxona eshigi qo'ng'irog'ini Tripning o'zi jiringlatdi. Lekin ostonada u shunday qaltirab turdiki, xuddi qochishga shay turgan quyondek qulog'ini ding qilganicha qo'ng'iroqqa javobni kutib turdi. Bu telba daydining ahvolini kuzatib turib, uning qanday hayot kechirganini, har kuni katta-katta yer xo'jayinlaridan dakki eshitaverib, qo'rqqoq bo'lib qolganini fahmladim.

– Menga tezroq bir dollarni uzat, tez bo'l! – dedi u tipirchilab.

Eshik qiya ochilib, Mak Jinnis xonimning sarg'imtir yuzi bilan olaygan ko'zlari ko'rindi. U tomog'ining tagidan isqirt pushti ro'molini mahkam o'rab olgandi. Trip bir so'z aytmadan, bekaning bir kunlik xizmat haqi bo'lgan pul-

ni chiqardi va o'sha bir dollar bizlarni ichkariga kirishmizga ruxsat olib berdi.

– U mehmonxonada, – dedi Mak Jinnis xonim ro'molini yanayam mahkamroq tang'ib bog'larkan.

Biz ayolning ko'rsatmasi bilan to'g'ri mehmonxonaga kirib bordik. U yerda, nimqorong'i xona ichida piqillagancha yig'lab, saqich chaynab o'tirgan qizni ko'rdik. Trip to'g'ri aytgan ekan, mehmonimiz benihoya go'zal edi. Hatto yig'i ham uning chiroyini yana-da oshirgan, ko'z yoshi qizning ko'zlarini yashnatib, beshbattar chaqnatib yuborgandi. Ha, bunday ajib go'zallik har qanday ijod kishisi uchun bemisl ilhom pari-si bo'la olardi! Besh-o'n daqiqacha uning yuziga tikilib, qizning yoshini aniqlab olishga urindim va ichimda bu navnihol Ada Loure nari borsa endi o'n to'qqiz yoki yigirma yoshga kirgan bo'lsa kerak, deb o'yladim. Meni tanishtirayotgan paytda, avvaliga Ada Lauri xushlamaygina qarab o'tirdi, biroq asta-sekin g'aroyib bir hasharotga qiziqqanday chanqoq kuzatuvchanlik bilan boshdan-oyog'imgacha bir-bir qarab chiqdi.

Trip stol yonida tik turar, bir qo'lining barmoqlarini yoygancha o'sha stol ustiga qo'yib olgan, xuddi katta marosimlarda ishtirok etayotgan qandaydir rahbar yoki huquqshunos kabi qaddini tantanali holatda g'oz tutib turardi. Lekin uning nigohlari hech qanday amaldornikiga o'xshamasdi. Eskirib, uvadasi chiqib ketgan paltosi ham odamning shunaqangi rahmini keltirardi, o'sha ondayoq unga himmat qilib, xayr-ehson qilgingiz kelib ketadi.

Meni, ayniqsa, Tripning xunuk bo'lib o'sib ketgan soch-soqoli ko'proq tashvishga solardi. Miss

Adaday sohibjamol sanam qoshida o'zimni shunday ivirsiq, go'l va daydi tanishim tomonidan tanishtirilganim uchun izza tortib ketdim. Ammo shunday bo'lishiga qaramay, Trip bunday vaziyatlarda o'zini ancha dadil tutar ekan. U tezda holatni bayon qilib, asosiy mas'uliyatni mening bo'ynimga yuklab qo'ydi. Muhimi, mening gazeta uchun beradigan hikoyamga yaxshigina material topib bergani evaziga bir shisha viskiga ega bo'lib olardi.

– Bu yigit mening do'stim bo'ladi, – dedi u. (Men bu vaqtda zirillagancha titrab turardim). – Janob Challers, – deb davom etdi Trip gapida, – men, miss Louri, sizga bergan va'damning ustidan chiqaman. Mana, qarab turasiz hali. Bu og'aynim muxbir bo'lib ishlaydi, shunday ekan, menga qaraganda u tuzukroq ish bitiradi. Shuning uchun ham do'stimni bu yerga olib keldim. (Eh, Trip, bunchayam vaysaqi bo'lmasang!) Uning aqli har baloga yetadi, – dedi Trip, – qilishimiz eng ma'qul bo'lgan ishni ham yolg'iz u biladi.

Tik oyoqda tursam ham, ayni shu vaziyatda xuddiki omonat kursida o'tirganday hadeb bezovta bo'lardim.

– Demak, haligi... miss Louri, – dedim men Tripning almoyi-aljoyi valdirashlariga g'ashim kelib turarkanman, – kamina sizning xizmatinigzdaman. Ammo hali boyagi... umuman olganda, bo'lib o'tgan voqealardan to'la xabardor emasman. Men... Haligi...»

– O, qo'yavering bu savdolarni, – deya jilmaydi miss Ada bir daqiqa, – bu voqealardan fojia yasashning hojati yo'q, albatta, oddiy bir ko'rgilik, xolos. Bilasizmi, Nyu-Yorkka birinchi marta kelishim. To'g'ri, bir paytlar, judayam yosh pay-

tim – taxminan olti yoshligimda bir marta kelganman. Ammo unisi yaxshi esimda qolmagan. Xullas, bu shaharning bunchalik katta ekanligini yetti uxlab, tushimda ham ko'rmagan edim. Baxtinga, ko'chada janob... janob Snipga duch kelib qoldim, undan bir tanishim haqida so'radim. Janob Snip esa meni shu yerga olib kelib, kutib turishimni tayinladi.

– Miss Louri, sizga maslahatim, – deb qoldi Trip shu payt, – janob Chelmersga nimayiki o'tgan bo'lsa, barini mufassal bayon qilib bering, hech narsani yashirib o'tirmang. U mening haqiqiy do'stim bo'ladi (Men asta-sekin Tripning gaplariga biroz ko'nika boshladim). Men shunga to'la ishonamanki, eng to'g'ri yo'lni sizga janob Chelmers ko'rsatib beradi.

– Voy, nega aytmas ekanman, albatta, aytaman, – dedi miss Ada bolalarcha soddalik bilan, – berkitadigan tayinli gapning o'zi ham yo'q bu yerda. Hammasi kelasi payshanba kuni oqshomda Hiram Dodga turmushga chiqishim belgilangan kundan boshlanib ketdi. Tan olishim kerak, Hiram Dod unaqa yomon odam emas, o'ziga to'q, ikki yuz akrlik yeri bor, qishloqdagi eng sara ferma va mashinalarning egasi. Lekin baribir ko'nglim g'ash edi. Unashtiruvimizning ertasi kuni ertalab shartta otimni egarladim-u stansiyaga qarab uchdim. Mening Danser ismli oppoq otim hozir stansiya atrofidagi bir daraxtga bog'loqlik holda turibdi. Uydagilarga hech narsadan shubhalanib yurmasliklari uchun ularga dugonam Syuzi Adamsnikiga ketayotganligimni aytib qo'ydim. Shubhasiz, oxir-oqibat, katta g'alva bo'lishi turgan gap edi, biroq men parvo qilmadim. Poyezd-

ga chiqdim-u bu yerga, Nyu-Yorkka yetib keldim. Baxtinga, ko'chada janob... janob Flipga duch kelib, undan bir tanishim to'g'risida so'radim. Ya'ni, haligi J...J...ni qayerdan topa olishimni so'radim.

– Menga qarang, miss Louri, ochig'ini gapiravering, – baland ovozda qizning gapini bo'lib qo'ydi Trip shu vaqtda, menda ham qizning ikkilanib so'zlashi shubha uyg'ota boshlagandi, – siz o'sha Hiram Dod degan yigitni yoqtirasiz, shundaymi? U yaxshi bola, sizga ham yaxshi gapiradi, shundaymi?

– Ha, albatta, men uni yoqtiraman, – dedi miss Louri biroz hayajonlanib, – u yaxshi odam. Qolaversa, menga ham binoyidek muomala qiladi. U hammaga ham shunday o'zi.

Miss Adaning beqaror gap-so'zlaridan shuni bildimki, bu oyimqiz uchun atrofidagi hech bir yigit, hech bir odamning yomoni yo'qdek edi. Uning oshiqdari qizning boshi ustiga soyabon tutib, bu go'zallik uchun jon talashib, ancha kuydi-pishdi qilishganini shundog'am fahmlab olsa bo'lardi.

– Lekin, – deb gapida davom etdi miss Louri, – o'tgan tunda xayolimga yana J... Jorj kelaverdi va men...

Birdan qizning maftunkor chehrasi yerga boqdi-da, yelkalari silkingancha yig'lay ketdi. Naqadar go'zal to'fon bo'lmasa bu hol! miss Louri oxiri o'zini tutolmay, yig'lab yuborgandi. Ammo uning hattoki, yig'isi ham juda nazokatli edi. Men jon deb, miss Lourini yupatgan bo'lardim, lekin na iloj, men Jorj emasdim. Baxtinga, Hiram ham emasdim, bunga ham shukr qildim. Nihoyat, ko'z yoshlar do'li tindi. Qiz o'zini iloji boricha qo'lga

oldi-da, siniq jilmaydi. Bu qizdan tengi yo'q rafiqacha chiqqan bo'lardi, hattoki, ko'z yoshning o'zi ham chiroyli ko'zlarini beshbattar yashnatib yuborarkan! Qiz ohista xo'rsinib qo'ydi-da, o'zining qadim va qadrli sevgi dostonini so'zlay boshladi:

– Bilaman, men g'irt telbaman, – dedi u chuqur xo'rsingan ko'yi, – biroq... biroq o'zimni tutib turolmadim. Axir Jorj Braun bilan men juda-juda yoshligimizdan, Jorj sakkiz va men besh yoshda ekanligimizdan buyon bir-birimizni sevardik. Bundan to'rt yil oldin, men endigina o'n yettiga kirgandim, Jorj qishloqni tark etib, katta shaharga ketib qoldi. U mirshab yoki bo'lmasam temir yo'l boshlig'i yoki bironta durustroq kasbi korni ko'zlab ketib qolgandi. Biroq u keyin tag'in mening oldimga qaytib kelishga va'da bergandi. Ammo men Jorjdan u ketganidan beri hech qanday xabar eshitmadim. Lekin... Lekin men uni sevar edim...

Miss Louri yana o'zini tutolmasdan, yig'lay boshladi. Bu orada men Tripni xuddi muz orasiga tiqilib qolgan odamday besaranjom bo'lib, sarosimaga tushib qolganini kuzatib turdim. Men unga endi-endi tushunayotgandim. Trip menga baxtiqaro qizning achchiq va alamli sevgi qissasidan ta'sirli bir hikoya yaratib berishga astoydil chiranayotgan edi.

– Xo'sh, nima deysiz endi, janob Chelmers, – deb qoldi Trip menga yuzlanib, – bu yosh xonimga qanday yo'l ko'rsatasiz? Men Miss Louriga eng to'g'ri qarorni siz chiqarib berishingizni aytgandim. Qanday fikrdasiz endi?

Sekin yo'taldim-da, Tripning gaplarini ma'qullab qo'ygandek bo'ldim. Shunda men o'z burchimni tushundim. Men ayyorlik bilan qo'lga tushgan,

biroq aslida mehr-oqibat yuzasidan bitta savob ish qilish imkoni tug'ilgan edi hayotimda. Tripning tutgan yo'li to'g'ri va adolatliday bo'lib tuyuldi menga. Mehmonimiz zudlik bilan shu kunning o'zidayoq o'z qishlog'iga, Grinburgga jo'natib yuborilishi kerak edi. Eng avvalo qizga yaxshilab tushuncha berish, uni ishontirish, ko'ndirish va nihoyat qo'lga chipta berib, kechiktirmasdan ortiga qaytarib yuborish zarur edi. Ayni damda o'sha Hiramniyam, o'sha Jorjniyam juda yomon ko'rib ketdim, lekin men baribir o'z burchimni bajarishim shart edi.

Kelishilgan to'rt dollar pulning bu yerda hech qanday ahamiyati yo'q, ammo men qiladigan yaxshilikning tom ma'nodagi ahamiyati muhim edi. Bir-ikki soat ichida hamma ishni hal qilib, poyezd yo'nalishigacha belgilab olishim kerak edi.

– Miss Louri, – dedim men imkon qadar ochiq gapirishga harakat qilib, – hayot nihoyatda g'alati bir o'yinxonaga o'xshaydi. – Ovozim o'zimga g'oyatda samimiy va sokin eshitilib ketdi va men miss Louriga ham xuddi shunday tuyulayotgan bo'lishi kerak, deb umid qildim. – Biz, odatda, ilk bora sevib qolgan insonlarimizga kamdan-kam hollardagina yetishamiz. Bizning birinchi muhabbatimiz go'zal yoshligimizning sehrli yog'dusi misol o'tmishda qolib ketadi. Ammo hayot bu – hayot, u baribir davom etaveradi.

Eng oxirgi aytgan so'zlarim xuddi havoda aks sado bergandek jaranglab ketdi.

– O'tmish esdaliklari faqat shirin xotira bo'lib qoladi, – deya davom etdim men keyin, – to'g'ri, ular har doim kelgusi hayotimizda ham biz bilan birga yashab kelishi mumkin, biroq ularni

endi aslo amalga oshirib bo'lmaydi. Axir hayot haqiqatdan iborat, unda xayolotga ortiqcha o'rin bo'lmaydi. Na ilojki, hayot shunday reallikdan iborat bag'ritosh hakamdir. Ko'nglingizga og'ir olmasangiz, sizdan bir gap so'rasam maylimi, miss Louri? Siz o'sha janob... haligi... ismi Dod bo'lgan janob bilan baxtli va farovon umr kechirishingizga ko'zingiz yetadimi? Gaplaringizdan u yomon odamga o'xshamayapti.

– Voy, albatta, u sirayam yomon odam emas, – deb javob berdi miss Louri. – Aytdim-ku, men u bilan yaxshi chiqishaman. U menga hattoki, mashina bilan motorli qayiqda sayohat qildirishniyam va'da qildi. Lekin, baribir, to'y kuni yaqinlashgani sari men haliyam Jorjni o'ylab, uni sog'inishdan o'zimni tiyolmayapman. Jorjga aniq nimadir bo'lgan bo'lsa kerak, aks holda menga hech yo'qsa, bir dona bo'lsayam xat yozib jo'natgan bo'lardi. Ketayotgan kuni Jorj qo'liga bolg'acha bilan iskanani olgandi-da, bitta o'n sentlik tangani qoq ikkiga bo'lib, birini menga, ikkinchisini o'ziga olgandi. Biz o'shanda to qayta ko'rishgunimizcha o'sha tanga bo'laklarini hamisha yonimizda saqlab kelishga so'z bergandik. Mening o'sha tanga bo'lagim hozir uyimda qolgan, kiyim javonimdagi tortma ichidagi qutida turibdi. Jorjni shu yergacha qidirib kelganim endi o'zimga qip-qizil jinnilik bo'lib tuyulayapti. Bu shaharni bunchalik katta ekanligini sira aqlimga sig'dirolmagan edim.

Shu payt Trip odatdagi beo'xshov, telbanamo tarzda kulib qo'ydi, u haliyam tomog'ini ho'llash najoti bo'lgan sadaqa puliday bir dollar ko'yida joni halak bo'lib turardi.

– Eh, bu shaharga kelgan yigitlarning bir tayi tezda kelgan joylarini esdan chiqarib, o'zlaricha shaharlik bo'lib olishadi, – dedi u. – Jorj ham shundaylardan bo'lsa kerak. U allaqachon boshqa qizga ko'ngil qo'yib, o'sha bilan sevishib yurgandir ham. Yo bo'lmasa, ko'cha-ko'yda tentirab, aroqxo'r bo'lib ketgandir. Siz, miss Louri, indamasdan janob Chelmersga quloq tuting va zudlik bilan uyingizga qayting, ana o'shanda eng to'g'ri ishni qilgan bo'lasiz.

Ana endi harakatni boshlaydigan fursat bo'lgandi. Soat millari asta-sekin vaqt peshindan og'ib borayotganini ko'rsatib turardi. Valdirashdan tinmayotgan Tripga xo'mrayib qarab qo'ydimda, miss Louriga imkon qadar muloyimlik bilan uyiga qaytishi zarurligini yotig'i bilan tushuntirdim. Qolaversa, bu majnuna qizga bir zamonlar bedarak bo'lib ketgan omadsiz Jorj bilan kelgusi hayotda to'kin va farovon turmush qurish xayolini haqiqatdan ancha yiroqdagi xom tasavvur ekanligini ham uqtirib o'tdim.

Miss Louri otini stansiyadagi daraxtga bog'liq holda tashlab kelganini yana bir bora esladi. Trip bilan men unga stansiyaga yetib olgan zahoti otini topib, tez orada uyiga kirib borishini qayta-qayta tayinladik. Shunda biz uning uydagilarga qanday bahona to'qishi xususida tashvishlanib qoldik, qiz allaqachon dugonasi Syuzi bilan gapni bir joyga qo'yib olganini aytdi. Adaning shu gapidan keyingina ancha xotirjam bo'lib, ortiqcha to'polon chiqishidan qo'rqmay qo'ydik.

Shunday qilib, miss Lourini so'nggi sayohati – uyiga jo'natib yuborish uchun yo'lga chiqdik. Men hamon bu go'zal qizning husn-u lato-

fatidan ko'z uzolmay, unga mahliyo bo'lib borardim. Ammo juda shoshilishimiz kerak edi, borgan sari kech kirayotgandi. Trip, men va miss Louri daryodan o'tkazadigan sol tomon shoshib bordik. O'sha yerda men Grinburgga ketadigan poyezd chiptasi bir dollar-u sakkiz sent ekanligini aniqlab oldim. Qolgan yigirma sent pulga miss Louri uchun bir dona qip-qizil, chiroyli atirgul sotib oldim. Miss Louri solga o'tirib, mamnun qi-yofada biz bilan xayrlashar ekan, biz uning qo'li-da silkitib ketayotgan ro'molchasining mayin hil-pirashidan ko'z uzolmay, miss Lourining qorasi uzoqlashguncha ancha payt sohilda turib qoldik. Nihoyat, qiz ko'zdan g'oyib bo'lishi bilan, men bilan Trip bir-birimizga yuzlandik. Tripning o'sha miskin va baxtiqaro yuziga ko'zim tushishi bilan xayoliy osmonlarimdan bir lahza ichida yana yerga tushdim.

Hayotda baxt va baxtsizlik orasi bir qadam bo'larkan-da, Tripning kirlagan yuziga qaradim-u miyig'imda kulib qo'ydim. Ayni chog'da u ko'zimga har galgidan ham ko'ra horg'in, yalinchoq va nihoyatda pastkash bo'lib ko'rinib ketdi. Kissam-da qolgan eng oxirgi ikkita dollarimni paypasladim-da, Tripga nafrat bilan qiya qarash qildim. U qarshilik qilayotgandek alfozda kutib turardi.

– Xo'sh, bironta hikoya to'qiy oldingmi? – deb so'radi u xirillagan tovushda, – hikoya bo'lgan-dayam qanday degin, shaxsan o'zing ishtirok etgan hikoya!

– Bir qator ham to'qiyolganim yo'q, – dedim men sovuqqonlik bilan. – Hamma gap faqat pul-damas. Muhimi, biz bir insonga yaxshilik qila oldik. Eng katta mukofot mana shudir.

– Meni kechirasan, – dedi Trip arang ovoz chiqarib. – Sening pulingni sovurdik. Baribir ham bularning barini sen qoyilmaqom qilib yoza olasan.

– Kel, qo‘y shu gapingni, – dedim men qo‘l siltab, – yaxshisi, uyga qayta qolaylik.

Shu paytda ko‘nglimda boshqa bir fikr tug‘ilib qoldi. Men Tripga beradigan pulimni ko‘zim qiymayotganini sezdim. Bu tentak aroqxo‘r ter to‘kib topgan pulimni bekordan-bekorga isrof qilib yuboradi. Shundog‘am, avval olgan qarzlarni haliyam qaytarib bermagan.

Horigan ko‘yi jim ketib borarkanmiz, Trip bo‘shashgancha uvadasi chiqib ketgan paltosining tugmalarini yechib tashladi. Shu vaqt uning paltosi cho‘ntagidan aftidan bir paytlar dastro‘molga o‘xshagan qandaydir latta tushib, uning ichiga o‘ralgan yaltiroq nimadir jiringlagan cha yerda dumaladi. Hayron bo‘lib, yerda yotgan o‘sha yaltiroq narsani qo‘limga oldim. U iskana bilan yarmi kesib olingan yigirma sentlik tanga bo‘lagi edi.

– Nima! – to‘satdan bor haqiqat shuurimda yalt etdi-yu, qattiq baqirib yubordim. Hayratdan katta-katta ochilib ketgan ko‘zlarimni shumshayib turgan Tripga qadadim.

– Ha, shunday, – deya oxiri iqrор bo‘ldi Trip g‘amgin holda. – O‘sha Jorj Braun deganlari hozir qarshingda turgan mana shu baxtiqaro Trip bo‘ladi. Endi bularning nima ahamiyati bor, og‘ayni?..

Boyagina sho‘ring qurg‘ur aroqxo‘rga ravo ko‘rmay turgan yagona ikki dollar pulimni o‘ylab o‘tirmasdan, uning dag‘al va kir qo‘llariga tutqazib qo‘ydim. Unga ich-ichimdan achinib ketgandim.

Ingliz tilidan
Qandilat Yusupova
tarjimasi

ASKAR VA QO'SHIQ

Xiyobon ko'chasining tungi restoranlaridan birida besh-olti chog'li kishi kechki ovqat ustida g'ala-g'ovur qilib o'tirishar edi. Restoran boshqaruvchisi uch marta ataylab ularning yonlaridan o'tib, ogohlantiruvchi nazar bilan qarasa ham, bu qarash janjalkashlarning mojarolarini tobora avj oldiraverdi. Vaqt qoq yarim kecha bo'lgan, restoran esa o'sha tumanda joylashgan teatrdan kelgan mijozlar bilan liq to'la edi. Ularning ayrimlari «Keroll Komediya» tashkilotiga qarashli o'yinchilar hisoblanishardi.

O'tirganlar nari borsa to'rt-besh nafar xo'randalardan tarkib topgandi. Bulardan biri shaharning bir qator teatrlarida durustgina muvaffaqiyat qozongan «Xushchaqchaq tannoz xonim» nomli bir-ikki aktli kichik komediyaning muallifi edi. Stol atrofidan joy olgan oltovlon ham bu safargi tomoshaning nechog'lik ahamiyatsiz o'tgani to'g'risida bahslashar, ularning shovqini butun restoranni tutib yuborguday avjiga chiqardi.

Aktyorlarning bari shovqin-suron solib shu taxlit o'tirishardi. Hammasining ovozi borgan sari balandlab borar, tortishar, faqat ular orasidan birgina kishi mojaroga aralashmay, bir og'iz ham gapirmasdi. Bu aktyor ham «Xushchaqchaq tan-

noz xonim» pyesasining asosiy ijrochilaridan biri edi. Uning yuzida kasbiga hech yarashmaydigan chuqur ma'yuslik hukmron edi.

O'sha aktyordan boshqa hammasining hujumi endigina yulduz bo'lib charaqlay boshlagan Kleris Kerolga qaratilgandi. Boyagi ma'yus aktyordan bo'lak o'tirganlarning barchasi birlashib, ayolga qarshi bor kesatig'-u haqoratlarini to'kib-sochishar, uni pyesaning ayni muhim joyida qilgan xatosi uchun ayovsiz ayblashmoqda edi. Ular ellik martalab aktrisağa:

– Bu sening aybing, Kleris, butun tomoshani barbod qilgan – sen o'zingsan. Xuddi o'sha noto'g'ri ijroying sababli butun boshli tomosha xonavayron bo'ldi. Sening birgina ehtiyotsizligingni deb qancha mehnatimiz singan sketch muvaffaqiyatsiz o'tdi, – deb ayyuhannos solishardi.

Kerol xonim bu to'rtovlonning hech qaysisiga pinagini ham buzmasdi. Biroq jangari nasl-nasabdan bo'lgani uchun asta-sekin yuzida shiddatli g'azab o'ti alangalana boshladi. Ayolning katta-katta ko'zlari qoralovchilarga qarshi kuchli raddiya o'ti bilan to'ldi. Uning nozik, chaqqon qo'llari tinmay stol ustidagi pichoq va sanchqilar tomon ketib qolardi. Saxovatpesha tabiat bu loabar aktrisanı kuchli soprano bilan taqdirlagan, basharti ayol o'sha ovozi bilan chinqirguday bo'lsa bormi, u holda butun restoranni musiqa-pusiqasi bilan qo'shib tindirib qo'ygan bo'lardi. Biroq ayol ortiqcha vasvasaga tushmay, shirin tovushda ayblovchilarning bor e'tirozlarini qayirib tashlar va imkon qadar o'zini bosiq tutardi.

Lekin janjal-suron borgan sari kuchayib boraverdi va oxiri tinmaydigan mojarodan aktrisaning

ham, boyagi g'amgin yuzli aktyorning ham toqati toq bo'ldi. Kleris birdan qoplonday tez harakat bilan o'rnidan ilkis turdi-da, bir zumda o'n-o'n beshta likopchalarni chil-chil sindirdi, u endi atrofidagi tanqidchilariga rostakam hujumga o'tdi. O'tirganlar ham endi o'rinlaridan turishib, beshbattar avjga mindilar. Faqatgina ma'yus komik aktyor indamasdan chuqur xo'rsinib qo'ydi, u tevaragiga yana-da g'amginroq, ammo beg'araz nigoh bilan ko'z tashladi. Bu borada restoran boshqaruvchisi ularning oldiga turtilla-surtilla yetib kelib, shu zahoti tinchlanishlarini talab qildi. Biroz avval boshqaruvchiga restorandagi tortishuv xususida xabar qilishgan va u shamoldek bu yerda hozir-u nozir bo'lgandi. Uning yuz ko'zida kuchli qahr-u g'azab ifodasi aks etardi. Boshqaruvchi kishi bilmas qilib ofitsiantga tashqariga chiqishni buyurdi, u nimanidir zimdan rejalashtirgani aniq edi. Oradan yigirma daqiqa o'tar-o'tmas, janjal ko'targanlarning bari mirshab mahkamasida, soch-soqoli oqara boshlagan salobatli kekxa askar oldida saf tortib turishardi.

– Restorandagi tartibbuzarlik holati, – deb izoh berdi jamoani askarning oldiga boshlab kirgan kichik mirshab.

«Xushchaqchaq tannoz xonim» pyesasi-ning muallifi eshik og'zida turardi. U burniga qo'shko'zoynak qo'ndirib olgan, kechki taom sharafiga did bilan kiyingan, hattoki, oyoq kiyimiga shuncha to's-to'polon ichida ham gard qo'nmay, tip-tiniq yaltirardi.

– Askar janoblari, – dedi u ovozigaga yasama rasmiy tus berib, – men bu qamoqqa olinish aybloviga mutlaqo qarshiman. Qarshingizda turgan aktyor-

lar jamosi men yozgan kichik bir pyesani sahna-ga qo'yishgan va biz, ya'ni, men bilan yana bir do'stimiz shu tomoshani nishonlab kechki ziyofat bermoqda edik. Lekin ozgina beparvolik qilib, pyesa borasidagi munozara ichiga juda chuqur sho'ng'ib ketibmiz, negaki tomoshadagi kichkina bir lavha jindek o'xshamay qolgan ekan, shuni muhokama qilib, sal qizishib ketibmiz.

To'g'ri, bu restorandagi boshqa xo'randalar-ning ham tinchini buzib, chidab bo'lmas darajada shovqin-suron qilgan bo'lsak qilgandirmiz, ammo ayni shu muhokama bizning hammamiz uchun o'ta muhim ahamiyat kasb etadi. Ko'rib tur-ganingizdek, hech birimiz mast emasmiz, biron-tamiz ham ichmaganmiz, o'zidan o'zi urush-jan-jal ko'tarishga suyagi yo'q odamlar xilidan ham emasmiz. Umid qilamanki, serjant janoblari, ushbu masalani u qadar kattalashtirmasdan, bizlarga ketishga ijozat etgaysiz.

– Ayblovni kim qo'ydi o'zi? – deb so'radi keksa askar.

– Men, – jamoaning orqa tarafidan ingich-ka ovoz chiqdi. – Restoranimiz xo'jayini meni bu yerga yubordi. Chunki, bu jinoyatchilar emakxo-namizdagi bir dunyo idishlarimizni sindirdi, usti-ga-ustak butun restoranni vayronaga aylantirishdi.

– Idishlaringiz haqi to'lanadi, – deya restoran ofitsiantining gapini bo'ldi pyesa muallifi. – Ular ataylab sindirilgani yo'q. Aktrisamizning jahli chiqib ketib shunday bo'ldi, negaki biz tomosha-ning muhim bir joyida qilib qo'ygan xatosi uchun unga norozilik bildirib o'tirgan edik.

– Bu to'g'ri emas, ofitser! – Kleris Keroll xonim o'zining tiniq ovozi bilan jon holatda baqirdi. Eg-

nidagi uzun qizg'ish-jigarrang paltosi va boshidagi qip-qizil ukparli shlyapasi bilan u kekxa askarning stoli oldida g'oz turardi.

– Bu mening aybim emas, – deb qichqirdi u yana g'azablanib. – Bunday deyishga sizning qanday haddingiz sig'di?! Aslida, pyesangizning nomini mashhur qilgan menman-ku, tomosha sahnaga qo'yilgandan beri asosiy rolni men bajarib kelayapman, basharti yozgan pyesangiz shon-u shuhrati sababchisini bilmoqchi bo'lsangiz, ana, borib xalqdan so'rang – bari ayon bo'ladi.

– Tan olaman, rost, Keroll xonim bu yerda qisman haq, – dedi yozuvchi. – Mana, besh oydirki, tomoshamiz hech sahnadan tushmay, eng yaxshi teatr zallarida urf bo'lib borayapti. Faqat undagi birgina ko'rinishda Keroll xonim andak tartib buzarlikka yo'l qo'yayaptilar. Ammo mana hozir u bu ayblarini o'zidan yengilgina soqit qilmoqchi bo'layapti. Aktrisamiz tomoshani rejalashtirgandan mutlaqo bo'lakcha usulda ijro etib, butun pyesani barbod etmoqda.

– Bu narsa mening aybim emas, – deb tag'in takrorladi aktrisa.

– Menga qarang, axir qanday qilib, sizning aybingiz bo'lmasin, – deb qizishdi yozuvchi.

– Axir sahnada bor-yo'g'i siz bilan Delmars bor edi-ku!

– Unda bu holat Delmarsning aybi bo'ladi, – deb xitob qildi Keroll xonim. Uning ko'zlarida kuchli nafrat shu'lasini yonardi. Delmars ismli haligi g'amgin chehrali aktyor kekxa askarning stoli ustiga yopilgan nafis matodan ko'z uzmay, boyadan beri boshini xam qilib turardi.

Shu damda mirshab mahkamasida tun shar-pasi kezib, asta-sekin qorong'ilik tushmoqda edi.

Ko'z oldida ro'y berib turgan tortishuvlarga nisbatan askarda ham biroz qiziqish uyg'ondi.

– Sizni eshitib bo'ldim, – dedi u yozuvchiga yuzlanib, keyin u o'sha yerda hozir bo'lgan boshqa bir chiroyli, ma'yus aktrisaga murojaat qildi:

– O'sha buzilgan sahna ko'rinishi haqida siz nima deb o'ylaysiz?

– Bilmadim, men hakam emasman, – deb javob berdi o'sha aktrisa. – Buni hamma biladi. Lekin, aytib o'tishim joizki, Klerisning aynan o'sha lavhadagi xatti-harakati uchun shaxsan men uni ayblay olmayman. U juda mahoratli aktrisa. Faqat sahnaga biroz yovvoyilarcha yondashyapti, xolos. Baribir, men uning iste'dodi oldida bosh egaman.

Endi kekxa askar Delmarsga qaradi.

– Tushunishim bo'yicha, o'sha ko'rinishni talqin etgan aktyorlar sen va Keroll xonim ekan. Biroq ikkalangdan qay biring ijroni to'laqonli ud-dalay olmaganingni so'rayverishning foydasi yo'q.

G'amgin yuzli aktyor Keroll xonimning ko'zlarida chaqnayotgan qahr ifodasini ko'rmaslik uchun yuzini ters o'girdi.

– Bilmayman, janob. Bir narsa deyishga hayronman, – dedi u tufisining uchiga termulib.

– Sen ham aktyorlardanmisan? – o'rta yoshli kaltabaqay bir kishidan so'radi kekxa askar.

– Bo'lmasam-chi! – deb javob berdi o'sha aktyor. – Qo'limdagi nayzani payqamadingizmi? Siz mening baqirganimni eshitmabsiz: «hoy, qaranglar, qirol kelaypti!» Mana shunday deb qichqiraman men. Qolgan aktyorlarning adashib ketmas-

liklari uchun sahnaga yorug'lik yetkazib turuvchi eng kerakli aktyor menman-da.

– Xo'p, sahnadagi mayda-chuyda tashkiliy ishlar sening bo'yingda ekan, unda tomoshada boshdan-oxir qatnashgansan. Xo'sh, unda aytchi, pyesadagi noto'g'ri o'ynalgan ko'rinish kimning aybi – aktrisa xonimimiznikimi yoki janob aktyorimiznikimi?

O'rta yoshli aktyorning peshonasi tirishdi.

– Aytishga ham botinolmayapman, – dedi u afsuslanib. – Aktrisamiz Keroll xonim xuddi o'sha lavhada o'zlarini tutib turolmay qoladi. Tomoshaning qolgan qismida juda yaxshi o'ynaydi, biroq... sizga aytishim mumkinki, janob, u bu lavhani nihoyatda yurakdan ijro etadi – u o'z rolini hammangizdan ham yaxshiroq o'ynay oladi.

Keroll xonim to'liqinlanib ketdi, uning yuzlari qizarib, titroq bosgan holda oyoqqa qalqidi.

– Rahmat, Jimmi! Rahmat senga, qadrdonim. Necha kunlardan beri endi birinchi marta eshitib turgan yaxshi gapim uchun rahmat senga, do'stim, – xitob qildi u. Keyin birdan keksa askarga o'girilib qaradi-da, shiddat bilan gapira boshladi:

– Men hozir sizga barini ko'rsataman, janob, ana undan keyin mening aybdor yoki aybdor emasligimni o'zingiz bilib olasiz. Men bularga o'sha lavhani boshqatdan o'ynab beraman. Qani, janob Delmars, yonimga keling, birgalikda o'sha ko'rinishni ijro etib beraylik.

– Siz bunga ruxsat etasizmi, janob askar?

– Tomoshangiz qancha vaqt oladi o'zi? – deb so'radi askar biroz ikkilanib.

– Bor-yo‘g‘i sakkiz daqiqa, xolos, – deb luqma tashladi pyesa muallifi. – Tomoshaning hammasi uchun esa yarim soat vaqt ketadi.

– Unda boshlayvering, – deb izn berdi askar. – Nazarimda, ko‘pchiligingiz bu kichik xonimga qarshiga o‘xshaysiz. Ehtimol, xonimning o‘sha restorandagi bir-ikkita likopchani sindirishga chindanam haqi bo‘lgandir. Qani, endi ko‘ramiz, shunchalik e‘tirozga yarasha uning qanaqa aybi bor ekan?

Shu orada mahkama hamshirasi anchadan beri davom etayotgan tortishuvga quloq tutib, eshik yonida jim turgandi. U ham tomosha boshlanishidan oldin, serjantga yaqinroq kelib, tuzukroq joylashib oldi. Qolganlar ham pyesani qaytadan ko‘rish uchun uyqusirab-uyqusirab joy-joylariga o‘rnashdilar.

– O‘yin boshlanishidan oldin, – deb so‘z ochib qoldi yozuvchi, – ya‘nikim, bizning «Xushchaqchaq tannoz xonim» pyesamizni to‘liq tomosha qilma-ganimizni hisobga olgan holda, shu o‘rinda men qisqacha, lekin o‘ta zarur bo‘lgan bir kichkinagi-na izohni bildirib qo‘ymoqchi edim. Tomoshamiz musiqali-hajviy komediya hisoblanadi. Nomidan ham ko‘rinib turibdiki, Keroll xonimning roli ush-bu pyesadagi quvnoq, vaqtini chog‘ o‘tkazuvchi, betashvish va bag‘ritosh tannoz xonim qiyofasini talqin etishdir. U pyesaning boshidan-oxirigacha shu qiyofasini saqlaydi. Biroq u hech kutilmagan qiliqlari bilan ko‘rinishni dabdala qilayapti. Xo‘p, mana hozir aktrisa qatnashmaydigan qism «Go-rilla raqsi» ijrosi boshlanadi.

Keroll xonim janob Delmars o‘ynaydigan gorilla raqsi davomida o‘rmon nimfasi libosida namo-

yon bo'ldi. Sahnada tropik o'rmon manzarasi yaratildi.

– Xuddi shu lavha to'rt-besh marotaba takrorlanadi, – deb izoh berishda davom etdi yozuvchi. – Tomoshadagi eng asosiy lavha ham xuddi shu gorilla raqsidir – qariyb besh oydan buyon butun Nyu-Yorkdagi eng qiziq tomosha shu bo'ldi o'ziam. Tropik o'simliklar orasida gorilla, ya'ni janob Delmars bilan o'rmon nimfasi bo'lmish Keroll xonim berkinmashoq o'ynayotgan pallada Delmarsning qo'shig'i ham jarang socha boshlaydi: «Men seni kulbanga olib ketaman!»

– Tushunarli. Xo'p, unda muammo nimada? – deb qiziqsindi keksa askar.

– Gap shundaki, aynan o'sha – eng qiziq lavhamizda Keroll xonim tomoshani buzib qo'yaypti, – dedi pyesa muallifi alam bilan.

O'sha ondayoq aktrisa qo'llarini qanotday keng qilib yozdi-da, mag'lubiyat yoki g'alaba uchun, yo hayot, yo mamot qabilida jangga kirishdi. U yelkasiga tashlab olgan engsiz kiyimini ilkis silkitdi-da, atrofidagi hammani, hatto askarni ham unutilib, sahna ichiga g'arq bo'ldi.

U kechki ziyofat uchun restoranga deb yaxshilab yasan-tusan qilib kelgan, biroq hozirgi mashmasha tufayli engil-boshini birpasda o'zgartirib, o'rmon sehrigar nimfasi qiyofasida bor mahoratini ishga solib, rol ijro etmoqda edi. Uzun, qirqquloq yubkasining etaklari tizzasiga urilib borib-kelar, tinmay hilpirar, ammo aktrisa bami-soli qasoskor qushday sahna ichida u tomondan bu tomonga yengil parvoz etardi.

Shu asnoda u liboslarini hilpiratib, xayoliy raqslardan birini ijro etdi, shunaqangi epchil va olovday bo'lib o'ynadiki, aktyorlar jamoasidagi

boshqa hech kim bu ayolchalik jozibali va erkin rol ijro etolmas edi. Tomoshabinlarning hammasi beixtiyor qarsak chalib yuborishdi.

Belgilangan vaqt yetib kelganida Delmars – gorilla aktrisaning yoniga sakrab chiqdi va maymunga xos beso'naqay, xunuk qiliqlarini shu darajada qoyillatib bajardiki, hatto askarning o'zi ham bexosdan kulib yubordi.

Ana endi tomoshaning eng qiziq onlari – gorillaning ayolga ishq izhor etish soniyalari boshlandi. O'rmon nimfasi – Keroll xonim bu vaziyat davomida ham o'sha avvalgiday sho'x, beparvo, o'yinqaroq va tannoz xonim qiyofasida turishi lozim edi. Gorilla bo'lsa o'zining «Men seni kulbamga olib ketaman» degan qo'shig'ini kuylab turadi.

Uning qo'shig'i xiyla durust edi. So'zlari ma'nodor bo'lmasa-da, musiqasi tinglashga arziguday ajoyib chiqqandi. Buning ustiga Delmarsning tonor ohangida qo'shiqning puchmak so'zlari ham shirali sadolanib chiqardi.

Kuy-qo'shiq mobaynida o'rmon nimfasi lavha uchun tayinlangan g'ayrioddiy qiliqlarni, raqslarni ijro etib turardi. Qo'shiqning ikkinchi qismida ayolning yuzida hamon g'ayrioddiy ifoda qotib turar, u manzarali daraxtzor ichiga xayol bilan termulib qolgandi. Shu payt gorilla qo'shig'ining yakuniy qismida bir sakrab ayolning oyog'i ostiga yiqildi, uning qarshisida chuqur muhabbat ila tiz cho'kib, sevgilisining qo'lini kaftlari orasiga oldi. Darhaqiqat, pyesadagi xuddi shu soniyalar bu bema'ni tomoshadagi eng muhim, olmosdek yarqirab turgan lavha edi.

Qo'shiq va musiqaning sehri o'rmon sehrgar ayoli makridan kuchli keldi, gorillaning dard va

armonga to'la nolasi bag'ritosh nimfani mag'lub etdi. Janob Delmarsning zo'r berib to'xtatishiga qaramay, Keroll xonim o'zini tutib turolmadi, u qo'llari joy olgan Delmars – gorillaning kaftlari orasiga yum-yum yoshlarini to'ka boshlagandi.

– Ana! – deb yubordi yozuvchi shu vaqt berahmlik bilan. – Ana buni ko'rib qo'ying, janob ofitser. Mana, ikki haftadirki, tomoshaning aynan xuddi shu yerida aktrisa pyesamni barbod qiladi. Men Keroll xonimga uning na Ofeliya va na Juletta emasligini necha martalab tushuntirdim, qayta-qayta yalinib so'rayverdim ham, ammo foydasiz. Bizning mojaromiz sababiga endi tushunib yetgandirsiz? Yo, tavba! Gorillaning qo'shig'iga ko'z yosh to'kish! Tomosha o'ldi, tamom bo'ldi!

Bir daqiqaga o'rmon sehrgari ijrosini unutilib, Keroll xonim darhol qahr-u g'azab otiga mindi. U qaltiroq barmog'ini Delmarsga o'qtalib gapira ketdi:

– Bu sizsiz! Bu holga sababchi odam bu sizsiz! – deya qichqirar edi u yovvoyilarcha. – Siz qo'shiqni oxirigacha shu taxlitda kuylashingiz kerak emasdi. Bu – sizning ishingiz!

– Bas, hammasini tugatsak, – deb xulosa qildi kekxa askar nihoyat.

Xuddi shu payt bir burchakda sukut saqlab turgan mahkama hamshirasi joyidan qo'zg'alib, oldinga chiqdi.

– Kekxa bir hamshiraning senga bir-ikki nasihat qilib qo'yishiga qarshi bo'lmaysanmi, qizim? – deb so'radi u Keroll xonimning qo'llaridan tutib. – Ayol zotining qalbi hamisha ishq tomon talpinib turadi, azizam. Nahotki, sen uning qo'shig'ining ilk so'zlaridanoq cheksiz hissiyotini tuymagan

bo'lsang? Muhabbat hattoki, maymunzodani-da sher qilib qo'yadi. Sen bu tuyg'udan qochib, hech qayoqqa ketolmaysan. Buning uchun sen yo kar va yoki ko'r bo'lmog'ing kerak. Ayni shu tuyg'uga dosh bera olmaganing uchun-da sen o'z rolingni ijro etolmayapsan, bolam. Uni sevdimgi, tamom, u hatto bir umr gorilla bo'lib qolishi ham sen uchun ahamiyatsizdir.

Keroll xonim atrofiga gir aylanib qaradi-da, janob Delmarsning qo'llaridan tutdi. Uning nigohlarida so'zsiz ishq iztirobi yonib turardi. g'amgin chehra aktyor – janob Delmars ham asta sevgilisiga yaqinlashdi.

– Siz ham shu gaplarni eshityapsizmi, janob Delmars? – deb so'radi ayol entikib.

– Eshitdim, – dedi aktyor ma'yus ko'zlarini Keroll xonimga tikib. – Bu haqiqat. Men buni foydasi yo'q bir savdo deb o'ylagan edim. Gorillaning qo'shig'i orqali dil izhorimni sizga yetkazishga uringandim...

– Voy, tentag-ey! – deb kuldi kekxa hamshira. – Nega shuni o'zing o'z tiling bilan ayta qolmading?

– Yo'q, yo'q, mayli, – deb qichqirdi Keroll xonim, – uning tutgan yo'li eng yaxshisi. Bilmadim-u, biroq... biroq men dil-dilimdan istagan haqiqiy ishq izhori aynan shunday bo'ladi, Bobbi!

Ayol bamisoli yashil ninachi misol janob Delmars tomon uchdi va o'sha soniyadayoq o'zini aktyorning quchog'ida ko'rdi. Ikki sevishgan bir-birlariga muhabbat to'la nigohlarini qadadilar.

– Xo'sh, sen bu yerda nima qilib turibsani?! Qani, tuyog'ingni shiqillatib qolchi! – nima qilarini bilmasdan, kalovlanib turgan restoran ofit-siantiga qarab o'shqirdi kekxa askar shu payt. – Sen uchun bu yerda hech qanday o'rin yo'q!

Ingliz tilidan
Qandilat Yusupova
tarjimasi

MAKTAB KO'RMAGAN QIZ

1

Keksa Jerom Uorren o'n beshinchi Sharqiy hududdagi elliginchi ko'chada naq yuz ming dollarlik uyda istiqomat qilardi. U shu shaharchalik eski dallollardan edi. Qariya shu qadar boyvachcha ediki, mol-dunyosi bemalol besh-o'nta xo'jalikka oshig'i bilan yetib ortardi. U har kuni ertalab sog'ligi uchun idorasi tomon yayov yo'l yurardi. Bir-ikkita mahallani bosib o'tgandan keyingina yollanma mashina chaqirar edi.

Jerom Uorrenning asrab olgan bir o'g'li ham bor edi, eski og'aynisining Jilbert – Sirel Skot ismli zurriyodi edi bu bola. Yaratgan bu yetim bandasini tug'ma iste'dod bilan siylagandi, u ajoyib suratlar yaratishda tengsiz hisoblanardi. Jeromning oila a'zolaridan yana biri esa uning asrab olgan qiz jiyani – Barbara Boss edi.

Odam bolasining boshida har xil sinov bo'lar ekan-da. Mana masalan, Jerom buva shunchalik boy bo'lsa ham, unga o'z oilasi bo'lishini tabiat ravo ko'rmagandi. Shuning uchun ham qariya boshqalarning g'amini o'z yelkasiga ortib olgandi.

Jilbert bilan Barbara juda yaxshi kelishardilar, biron marta san-manga borishmagan edi. Bu

ikkisi har kech ibodatxonaning gul bilan bezatilgan katta qo'ng'irog'i tagida turib, bir-birlariga so'zsiz, ammo ko'z va nafas bilan dillaridagi kechinmalarni tuygan holda, shavkatli xojalari bo'lmish kekxa Jeromning pullarini ko'payishini, uning boyligini asrab-avaylashini Xudoyimdan astoydil so'rab, iltijo qilardilar. Ammo gap shu yerga kelganida, muhtaram kitobxon, bir chigallikni sizlarga tanishtirib ketmoqlik joiz bo'ladi, deb o'ylayman.

Bundan o'ttiz yil muqaddam, ya'ni kekxa Jeromning yosh yigitlik vaqtlarida uning Dik ismli bir akasi bo'lguchi edi. O'sha akasi g'arbga qarab o'z baxtini va boyligini qidirib ketgan edi. To kunlarning birida Jerom tog'a hech kutilmaganida akasidan bir donagina xat olgan paytga qadar Dikdan boshqa hech qanday xat-xabar kelmagan edi. O'sha maktub tuzlangan cho'chqa go'shti bilan qahva donachalarining hidi anqib turgan odatiy bir xat edi. Yozuv ham juda chalkash, o'qish nihoyatda mushkullik tug'dirardi.

Xatida ma'lum qilishicha, Dik o'zi izlagan baxt-u omadini qidirib topish o'rniga bor-buridan ayrilib, butun mulkini dushmanlariga garovga o'tkazib bergandi. Yozuvidan ham ko'rinib turardiki, Dik bechora bu maktubni yoniga bir shisha viski qo'yib olib, undan bir ho'plab – bir ho'plab turib, nihoyatda ezilgan holatda yozganiga o'xshardi. O'tgan o'ttiz yillik umridan orttirgan yagona topgani bittagina qizi bo'lgandi. Endi hayoti poyoniga yetgach, so'nggi safari oldidan kekxa Dik unga vasiyat qilib, o'n to'qqiz yoshli qizini birodari Jeromga xatlab bermoqchi edi, qiz to tur-

mush qurib, uyli-joyli bo'lib ketgunigacha Jerom uni yedirib-ichirib, ust-boshini butlab, ham tarbiyalab borishni o'z zimmasiga olishi lozim edi. Darhaqiqat, Jerom saxovatpeshalikda misoli Hotamitoy edi.

Deydilarki, dunyo kekxa bir bug'uning shoxlari ustida turar emish. O'sha bug'u esa allazamonlardan beri kichkinagina toshbaqaning tepasida tik turib yashab kelarmish. Xo'p, o'sha bug'uning-ku suyanadigan toshbaqasi bor ekan, biroq zahmatkash toshbaqa boyaqishni suyab turuvchi qanday jonzot bor ekan bu olamda? Ehtimol, o'shanday fidoyi toshbaqaning suyab turishi uchun balki, Jerom tog'aga o'xshagan bag'rikeng insonlarni dunyo yaratib qo'ygandir? Ha, kekxa Jerom Uorren shunday tengi yo'q, tillo odam ed. Modomiki, butun dunyo insoniyati uchun o'rnak bo'lishga loyiq bir zot ko'rsatinglar, deyilganda, shubhasiz, barcha yaxshi odamlar Jerom tog'ani namuna qilib ko'rsatgan bo'lardi.

Shunday qilib, Jerom Uorren akasining xatiga binoan uning qizi Nevadani stansiyada kutib oldi. Nevada joni kichkinagina, yuzlari oftobda qoraygan, istarasi issiqqina, tetik qiz ekan. Uning xatti-harakatlarini kuzata turib, bu qizchani dastlab kalta yubka bilan to'rli paypoqlarda tasavvur qilish mumkin, biroq Nevada aksincha, oddiygina qora, eski yubkasi bilan birinchi tasavvurni chippakka chiqardi. Qo'lida jussasiga yarashmagan zilday og'ir jomadonni bor kuchi bilan ko'targancha, tebranib turarkan, qo'lidagi matohini u yoq bu yoqdan yugurib kelgan hammollarga aslo tutqazishni istamasdi.

– Ishonchim komilki, bizlar eng yaxshi dugona boʻlib qolamiz, – dedi Barbara Nevadaning qattiq, quyosh kuydirgan yonogʻidan oʻpib qoʻyarkan.

– Men ham shunday deb umid qilaman, – dedi Nevada ham.

– Oʻzimning kichkina jiyancham, – dedi keksa Jerom togʻa. – Xush kelibsan, malikam. Oʻzingni xuddi oʻz otangning uyiga kelganday his qilgin, boʻtalogʻim!

– Rahmat, amaki, – deb qoʻydi Nevada suyunib.

– Men esa seni tugʻishgan amakivachcham, deb atayman, maylimi? – dedi Jilbert begʻubor tabassum bilan.

– Sizga malol kelmasa, manavi jomadonni qoʻlimdan olib qoʻyasizmi? – dedi Nevada unga javoban. – Bu jomadon naq million pund kela-di-ya. U menga dadamdan esdalik boʻlib qolgan, – shunday deb izoh berdi keyin Nevada Bar-baraga yuzlanib, – hisoblab chiqsam, bu zambil-day xaltam uni koʻtargan odamning qoʻlini uzib yuborishi aniq ekan, biroq shunday boʻlsa-da, bu yigit uni bemalol koʻtarib keta oladi. Men bunga ishonaman.

2

Bitta erkak bilan ikkita ayol oʻrtasida munosabat oʻrnatish bu gʻoyatda mushkul savdo, yoki bir ayol bilan ikkita erkak orasidagi aloqa ham ana shunday chigallik keltirib chiqaradi, holbuki, bir ayol va bir erkak kishining oʻzi ham bir-biriga mos kelib, til topishib ketishlari uchun ancha vaqt kerak boʻladi. Xullas, uchlik, yaʼni bir erkak va ikkita xonimcha bilan bogʻliq muammolar

har doim yuzaga kelaveradi. Ammo bizning qahramonlarimiz hecham bunday uchlikka o'xshamadilar. Har uchalasi ham bir zumda til topishib, apoq-chapoq bo'lib ketishdi. Nevada Uorrenning tashrifi Jilbert va Barbara Ross bilan bog'liq bo'lgan g'aroyib uchlikni yaratdi. Avvaliga ular qalin do'stlarday bir-biriga mehr ko'rsatib, bir-birlarini ardoqlayotgandek bo'lib ko'rindi, ammo bari-bir bir erkak bilan bir xonim orasidagi ziddiyat bu uchlikka ham asta-sekin o'z ta'sirini o'tkaza boshladi. Sho'rlik Barbara Nevada kelganidan beri ancha qisilib qoldi. U yuzaga kelgan uchlikdagi hech keragi yo'q odamday o'ksiy boshladi.

Bir kuni ertalab qariya Jerom tonggi nonushtadan keyin nihoyatda zerikarli bo'lgan gazetasi ustida ancha imillab o'tirib qoldi. U yangiliklardan xabardor yurish uchun tez-tez gazeta va jurnallarni varaqlab turardi. Ayni chog'da Jerom tog'aning jiyani Nevadadan ko'ngli to'lgan, marhum akasining erkinligi bilan ochiqko'ngilligi qiziga meros bo'lib o'tganidan faxrlanib qo'ydi.

Shu vaqtda oqsoch xotin miss Nevada Uorren nomiga yozilgan qandaydir maktubni keltirib berdi.

– Pochtachi bola buni sizga olib kelibdi, xonim, – dedi u. – U hozir eshik oldida xatning javobini kutib turibdi.

Nevadaning parvoyi falak bo'lib, tishlari orasida qandaydir kuyni xirgoyi qilib chaldi-da, derazadan ko'cha yuzida u yoqdan bu yoqqa g'izillab o'tayotgan mashina bilan ot-ulovlarga ko'z tashladi. So'ngra u oqsoch tutqazgan xatjildni qo'lga oldi. Nevada bu xatni Jilbertdan ekanini bilib qoldi, negaki, xatjildning chetiga kichkinagina palitra bo'yog'i chaplanib qolgandi.

Xatni ochib, undagi satrlar uzra bir qo‘r ko‘z yugurtirib chiqarkan, Nevada bir zum maktub ichiga sho‘ng‘ib ketdi. Birozdan keyin u jiddiy tortdi-da, amakisi o‘tirgan xonaga kirib bordi.

– Jerom amaki, – dedi Nevada amakisining yonida erkalangancha turarkan, – anavi Jilbert yaxshi bola, a? Shundaymi?

– Bo‘lmasam-chi, ha-da, – deb javob berdi qariya, – umridan baraka topsin Jilbert! Jerom tog‘a qo‘lidagi gazetasini buklarkan, yana qo‘shimcha qildi: – Uni o‘zim katta qilganman.

– To‘g‘ri aytasiz. Menga ayting-chi, amaki, u haligi... Hech kimga sirli va yoki xufiya nomalar yozmaydi, a?

– Kim bilsin, bunaqa ishlar uning qo‘lidan kelmas-ov, – deb qo‘ydi Jerom tog‘a gazetasini qaytadan ochar ekan. – Nega bularni so‘rab qolding? Nima uchun?

– Amaki, mana bu xatni menga o‘qib bera olasizmi? Buni u yuboribdi. O‘zingiz uning qanchalar to‘g‘ri va xolis ekanligini bilib olasiz. Bilasiz-ku, amaki, axir men bu yerlik odamlarning fe‘l-atvorlariga hali unchalik yaxshi tushunavermayman.

Keksa Jerom tog‘a gazetasini bir chetga olib qo‘ydi-da, oyoqlarini bir joyga juftlab, Nevada-ning xatini oldi. Avval xatni ikki marta diqqat bilan ko‘zdan kechirdi, keyin yana uchinchi bora uni erinmay o‘qib chiqdi:

– Voy, qizalog‘im-ey, – dedi u kulib. – Sal bo‘lmasa o‘takamni yoray deding-a! Men bu bolaga chin dilimdan ishonaman. Jilbert ayni otasi-ning o‘zginasi. Tilla bola u! U bor-yo‘g‘i sen bilan Barbaradan bugungi o‘tkaziladigan avtomobillar

poygasi uchun soat to'rtida tayyor bo'lib turishlaringizni so'rabdi, xolos. Men bu yerda birorta ham qing'ir fikrni ko'rmadim. Zotan, Jilbertga nisbatan zarracha ishonchsizligim bo'lganida, uni sizlar bilan muomala qilishiga aslo yo'q qo'ymagan bo'lardim.

– Rostdanmi? Biz u yerga borsak bo'laveradimi, amaki? Avtomobillar poygasiga? – deb so'radi Nevada hovliqib.

– Ha, ha! Albatta, qizim, albatta. Nega bo'lmasin? Sizlarni xursand ko'rib boshim osmonga yetadi mening. Boraveringlar. Hech xijolatchilik yeri yo'q buning.

– Buni qarang, amaki, – dedi Nevada uyalinqirab. – Birinchi bo'lib sizdan so'rash xayolimga ham kelmabdi, meni kechiring. O'sha poygaga bizlar bilan birga bormaysizmi?

– Kim? Menmi? Oh, yo'q-yo'q, qizim! Men birgal shunday poygada qatnashib, keyin tavba qilib qo'rganman. Qayta borganim bo'lsin, deganman o'shanda! Lekin, mana, sen bilan Barbara u yerga borsanglar, bu boshqa gap. Sizlar boraveringlar. Ammo mendek qari cholga poygada nima bor?!

Nevada amakisining oldidan uchib chiqdi-da, oqsochga tayinladi:

– Anavi pochtachiga borib ayt: Bizlar boradigan bo'ldik o'sha poygaga. Shoshma, miss Barbaraga bu haqida o'zim aytaman. Sen eshik oldida turgan bolaning oldiga chiq tezroq. Unga zudlik bilan borishimizni ayt. Bo'la qol!

– Nevada, – deb chaqirib qoldi shu payt Jerom tog'a. – Meni ma'zur tutasan, bo'talog'im, biroq Jilbertga shu gapni javob xati qilib yozib yuborsang



yaxshi bo'larmidi, deb o'ylab qoldim. Hech bo'lmasa bir-ikki qator bo'lsa ham yozib yubora qol.

– Yo'q, amaki. Menimcha, buning hojati bo'lmasa kerak, – deb javob berdi Nevada xushchaqchaliq bilan. – Jilbertning o'zi hammasini darrov tushunib oladi har doimgiday. Men umrimda sira mashina haydagan emasman, qalay bo'larkin, a? Lekin bir marta baydarkada eshkak eshgan-dik. Kichkinagina Devil daryosi bo'ylab suzgan-dik o'shanda. Ammo bu poyga o'yini menga baydarkadan ham qiziqroq bo'lib tuyulyapti! Borib ko'ray-chi!

3

Oradan ikki oy o'tdi. Bu vaqt Barbaraga xuddi asrdek cho'zilib o'tganday bo'ldi. U yuz ming dollarlik qimmatbaho uyning kutubxonasida kitob o'qib o'tirar, xayollari parishon to'zg'ir edi. Barbara faqat shu yerdagina o'zini xotirjam his etardi. Ko'p erkak va ayollarning dard-u hasratlarini aritish uchun turli joylarga qochadilar. Go'zallik salonlariga, idoralariga, daryo, dengiz va boshqa-boshqa joylarga boshlaridan g'amlarini quvish uchun ketib qoladilar. Biroq ular qayerga bormasin, yuraklaridagi og'ir yuk toshi ham o'sha yerga ular bilan birga-birga ketishini aslo tan olmaydilar.

G'aroyib uchlikdagi nokerak odam ekanligini tan olish ham odamga benihoya azob beradi. Bu, chindan-da chidab bo'lmas xo'rlik soladi ko'ngilga.

Barbara bir o'zi, tanho o'tirardi. Jerom tog'a bilan Nevada teatrga ketishgan edi. Biroq Barbaraning u yoqqa borishga hushi bo'lmadi. U uyda

qolib, kitob o'qib o'tirishni istadi. Har kuni bir xil tomoshalar, o'yinlar, pyesalar va o'tirishlar bora-bora kishining ko'ngliga uradi. Binobarin, Barbara ham allaqachon bunday bordi-keldilarga qiziqmay qo'ygandi.

U xomush o'y surgancha, kutubxonadagi eman daraxtidan yasalgan stol yonida o'tirar edi. O'ng qo'lini o'sha stol ustiga tappa tashlagancha, Barbara chap qo'li bilan muhrlangan bir xatjildni asabiy aylantirar edi. Bu maktub ham Nevada Uorren nomiga jo'natilgan bo'lib, xatjildning chetida Jilbertning qadrdon palitra bo'yog'i tomchiday bo'lib yopishib qolgandi. Xat Nevada ketganidan keyin taxminan soat to'qqizlarda yetib kelgandi.

Ayni lahzalarda Barbaraning shu xatni o'qishga shunaqangi qiziqishi baland ediki, u mana shu maktubning ichidagi gapni bilish evaziga hatto o'zining eng yaxshi ko'rgan marvarid marjonini ham berib yuborgan bo'lardi. Ammo bechora ming urinib ko'rsa hamki, shu ishning uddasidan chiqolmadi. U ruchkaning uchi, soch to'g'nag'ichi va boshqa xilma-xil usullar bilan sirli maktubni ochishga chirandi, negaki xatjildning shundoqqina o'zini yirtib ochish Barbaraning jamiyatdagi mavqesiga aslo to'g'ri kelmasdi. U yorug' eng ko'p tushgan yerga xatni solib, xatjild orqasidan bir-ikki satr bo'lsa ham o'qib olishga muvaffaq bo'ldi, keyin maktubni goh u tomonga, goh bu tomonga qilib o'qishga tutindi, biroq Jilbert qog'oz tanlashda anchagina didi baland edi. Uning yozgan xatini xatjild ortidan o'qish juda mushkul hisoblanardi.

Soat o'n bir yarim bo'lganida teatrqa ketganlar qaytib kelishdi. Ajib, farahbaxsh tun kechar-

di. Yollangan mashina darvoza oldiga yetib kelgunicha Jerom tog'aning nafasi og'ziga tiqilgudek bo'lib, ko'ngli ag'darilayozdi. U shoshma-shoshar haydovchi bilan tirband ko'chalar ustidan shikoyat qila-qila mashinadan tushdi. Gulday ochilib, pardoz qilib olgan Nevada bo'lsa dadasining kulbasida dovul kezgan kechalar haqida xotirlab ketdi. Bu kezda Barbara yuragiga qil ham sig'may, ichkarida diqqinafas bo'lib o'tirardi.

Jerom tog'a ichkariga kirgan zahoti yuqori qavatga chiqib dorisidan bir qultum ichib olgani shoshildi. Nevada esa kayfiyati chog', qandaydir kuyni xirgoyi qilgancha, kutubxonaga kirib keldi. Katta, tebratma kursiga xotirjam cho'kdi-da, tirsagigacha ko'tarilgan qo'lqopining tugmalarini asta-sekin yecha boshladi.

– Qalay, tomosha zo'r o'tdimi? – deb so'radi Barbara. – Janob Fild mahoratli rejissyor. Darvoqe, jonginam, senga xat keluvdi. Teatrga ketishing bilanoq yana bitta maktub oldik.

– Kimdan ekan? – deb so'radi Nevada hamon tugmalarini yechish bilan ovora ekan.

– Anig'ini bilmadim, go'zalim, – dedi Barbara uyig'ida kulib. – Lekin o'zimcha fahmlab topdim. Modomiki, xatjildning chetida tanish palitra bo'yog'idan dog' qolibdimi, demak, bu Jilbertning ishi bo'ladi. Bu palitra bo'yog'i dog'i menga bami-soli ishq izhorining belgisiday bo'lib tuyulmoqda.

– Qiziq, u yana nega menga xat yozibdiykin? – deb qo'ydi Nevada charchagan tovushda.

– Bilasanmi, biz ayollar barchamiz bir-birimizga o'xshab ketamiz, – dedi Barbara. – Ya'ni, o'ta qiziquvchanmiz. Yuborilgan qandaydir xatni ham xatjildning muhri ustidan bo'lsayam o'qishga

urinamiz. Chidamasdan oxiri qaychi bilan qirqamiz-da, shoshganimizdan xatni pastdan tepaga qarab o'qiy boshlaymiz. Axir bu qip-qizil tentaklik-ku! – Barbara istehzoli kulib qo'ydi. – Mana omonating.

Shunday deb u xatni uloqtirguday qilib Nevada ning oldiga tashladi.

– Eh, yovvoyi mushuklar-ey! – deb yubordi Nevada oxiri. – Barbara, manavi yaramas tugmalarni nima qilsam ekan, a?! Qayoqdan ham shu baloni kiyib olibman. Juda rasvo narsa ekan-da! Voy, juda qiynalib ketdim! – Nevada ohvohlaganicha, qo'lqoplarining tugmalarini uzguday bo'lib harakat qilardi. – Barbara, iltimos, buni o'zing menga o'qib bera qol. Men bu yaramas qo'lqoplarni yechib olgunimcha naq yarim tun bo'ladi chog'i!

– Voy, nega ekan? Axir Jilbert bu xatni senga yozgan-ku! – deb hayron bo'ldi Barbara. – U seniki. Shunday ekan, bu xatni o'zingdan bo'lak hech kim o'qimasligini istarsan, albatta!

Nevada yechishga urinayotgan qo'lqoplaridan ko'zlarini uzib, g'azab bilan Barbaraga tikildi.

– Hech kim menga begona odam o'qishi mumkin bo'lmagan bema'ni xat yoza olmaydi! – dedi u. – Bemalol o'qiyver. Ehtimol Jilbert ertaga ikkalamizni yana avtomobillar poygasiga olib bormoqchidir.

Ayollardagi qiziquvchanlik har balodan ustun keladi-da. Ulardagi rashk hissi ham shu darajada kuchliki, ana shu bedavo dard azobi iskanjasida ular butun dunyoga o't qo'yib yuborishdan ham toymaydilar. Shunday qilib, Barbara ko'ngilchanlik bilan sirli xatni ochdi.

– Mayli, jonim, – dedi u sekin. – Nimayam derdim. Basharti o‘zing o‘qishimni istab turgan ekansan...

U xatjildni yirtdi-da, tez-tez ko‘z yugurtirib, xatni bir qo‘r o‘qib chiqdi. Keyin shoshmasdan yana bir marta o‘qidi. Olamdagi eng qiziqarli mashg‘ulot mana shu qo‘lqoplariday ularga chip-pa yopishib olgan Nevadaga ko‘z tashlarkan, Barbara tag‘in miyig‘ida kulimsirab qo‘ydi.

Oraga besh-olti daqiqalik jimlik cho‘kdi. Barbara esa bu paytda xayolida jonlantirgan g‘aroyib hiylasini yuzlariga chiqardi. Uning chehrasi negadir yorishib ketdi.

Ayol zoti chindanam g‘alati hilqat bo‘ladi. Ular uchun o‘zga ayolning dardi, ichki sir-asrori, yashirin tuyg‘ulari, hatto bir tola sochigacha sirli bo‘lib qolmasligi kerak. Ular ortiqcha shubhalanib o‘tirishni yoqtirmaydi.

Barbara xayol surib, go‘yo ikkilanayotganga o‘xshab turib qoldi.

– Bilasanmi, Nevada, – dedi u hayajonini o‘z-gina bildirishga urinib, – maktubni o‘qishimga yo‘l qo‘ymasang yaxshi bo‘lardi. Men bu xatni tag‘in boshqa birov o‘qib qolishini xohlamagan bo‘lardim.

Nevada bir lahzaga qo‘lqoplarini esdan chiqardi.

– Menga xatni ovozingni chiqarib o‘qib ber, – dedi u. – Modomiki, o‘zing allaqachon bu maktubdan voqif bo‘lgan ekansan, endi sirning nima qizig‘i bor? Xo‘sh? Agarda janob Uorren menga begona kishi o‘qishi man etilgan xat yozgan ekan, men baribir uni boshqalardan berkitmayman.

– Xo'p, yaxshi, – dedi Barbara. – Eshit, xat quyidagicha yozilibdi: «Jonginam Nevada! Bugun kechqurun soat o'n ikkida mening uyimga kel. Iltimos, kech qolma».

Shu payt Barbara o'rnidan turib ketdi, xat Nevadaning tizzasi ustiga uchib tushdi.

– Meni kechir, Nevada. – dedi u. – Men bilmabman. Ammo bu Jilbertning ishi emas. Bu yerda qandaydir anglashilmovchilik bo'lishi kerak. Faqat meni beodob va johil ekan deb o'ylamagin, xo'pmi, asalim? Ketmasam bo'lmaydi, yuqoriga chiqib, damimni olay. Boshim shunaqangi yomon og'riyaptiki... Ishonchim komil, men bu xatga aniq tushuna olmadim. Ehtimol, Jilbertning o'zi buni keyinroq izohlab berar. Men ketdim. Xayrli tun, azizam!

4

Nevada oyog'ining uchida yurib, zalga o'tdi va yuqori qavatdagi Barbaraning eshigi yopilganini eshitib turdi. Kutubxonadagi ulkan miss soat vaqt o'n ikkidan o'n besh daqiqa o'tganini ko'rsatib turardi. Nevada hovliqqancha ko'cha eshik tomon yugurib bordi-da, tashqariga o'zini urdi. Jilbert Uorrenning uyi bu yerdan olti mahalla narida edi.

Ko'chada izg'irin shamol yelardi, tumshaygan Sharqiy daryo tomondan shahar uzra tahlikali bo'ron ovozi tahdid solib turardi. Qor allaqachon yo'lak yuzlarini qoplab bo'lgan, hademay uyum-uyum bo'ladiganday shiddat bilan yog'moqda edi. Shaharcha Pompey ko'chalari kabi jimjit edi. Olisdagi oy nuriga cho'milgan cheksiz ummon

uzra oq qanotli chag'alaylar suron solib uchar, yugurik to'lqinlar haybatli tarzda qirg'oqqa kelib urilar, sal o'tmay yana ortiga qaytib, takroriy safarlarida davom etardi.

Nevada bamisoli quyunday yo'lda yelib borardi. U qor bosgan yo'lkalar, baland tomli imoratlar, tungi chiroqlar xira yoritib turgan ko'chalardan chopqillagancha shoshib o'tdi. U go'yo bu yerlardan bir dunyo osoyish, orom va baxt topganday farahli bir parvozda uchib o'tdi, holbuki, Nevada bu kabi ko'ngil halovatini Jerom tog'asining yuz ming dollarlik uyi ichidan ham kamdan-kam vaqtlardagina topolgan edi.

Ko'cha muyilishida turgan mirshab Nevadani kimgadir o'xshatib yuborib, xitob qildi:

– Salom, Mabel! Yo'l bo'lsin? Shunday bema-halda qayoqqa otlanding?

– Men... Menmi? Dorixonaga shoshayotuvdim.
– Nevada shunday dedi-yu, shipillagancha mirshabning yonidan o'tib ketdi.

Sharq tomonga burilgan paytda ham qizning qadamlari susaymadi. U oppoq qor ustida eg-ru-bugri izlar qoldirganча shoshib ketaverdi. Qarshisida sevikli yorining uyi ko'ringanda, Nevada unga nazokat ila xiyol ta'zim qildi. Bino ichiga kirganda, butun uy cheksiz sukunat qa'rida, hamma yoq orom olib yotardi.

Nevada chiqqan lift o'ninchi qavatga yetganda to'xtadi. Tepadan pastga yana ikki qavatni bosib tushdi-da, yuragi orziqib 39-raqamli eshik qo'ng'irog'ini bosdi. U avvallari ham bu uyga Barbara va Jerom tog'asi bilan birga ko'p marta kelishgan edi.

Eshikni Jilbert ochdi. Uning bir qo'lida rangli qalami bor edi. Nogahon paydo bo'lgan Nevadani ostonasida ko'rib Jilbertning hayratlanganidan og'zidagi sigarasi polga tushib ketdi.

– Kech qolib ketdimmi? – deb so'radi Nevada aybdorlarcha. – Kuchim boricha tezroq kelishga harakat qildim. Amakim bugun meni teatrga olib borgandi. Lekin mana men keldim, Jilbert!

Jilbert tezda o'zini tutib oldi. U Nevadani ichkariga kiritib, paltosi ustidagi qorni qoqib tushirdi. Jilbertning ko'rgazma stendi ustida katta fonar yam-yashil soya sohib turar, rassom u yerda rangli qalam bilan nimanidir eskizini chizib o'tirgandi.

– Kelishimni istagan ekansan, mana keldim, – dedi Nevada soddadillik bilan. – Xatingda shunday deb yozgan ekansan. Nima uchun menga xat yuborganding?

– Xatimni o'qidingmi sen? – ajablandi Jilbert.

– Uni menga Barbara o'qib berdi. Keyin o'zim o'qib chiqdim. «Bugun kechqurun soat o'n ikkida menikiga kelgin, kech qolmagin» debsan. Men seni og'rib qolmadingmikan, deb xavotir oldim, lekin mana ko'rib turibmanki, ko'rinishing bino-yiday, tuzuk ekansan.

– Aha! – deb yubordi Jilbert parvo qilmaslikka urinib. – Hozir senga nega kelishingni so'raganimni aytaman, Nevada. Men senga zudlik bilan, shu bugun tundayoq uylanmoqchiman. Shu arzimas qor quyuni bo'lsa nima qipti, a? Xo'sh, sen nima deysan, rozimisan shunga?

– Buni men ham allaqachon istaganimni o'zing payqab olishing kerak edi, – dedi Nevada quvonchdan ko'zlari yonib. – Bu qor quyuniga

men o'zim ham g'am qilmayapman. Ishonasanmi, hattoki kunduz kungi dabdabali to'ylarni ham yoqtirmas edim. Faqat, Jilbert, to'yimizga guvoh qilib kimnidir taklif qilsang yaxshi bo'lardi. Axir bu bizning dafn marosimimiz emas, shodiyona kunimiz bo'ladi-ku, shunday emasmi?

– To'g'ri aytasan – dedi Jilbert. – Men ham bunday bo'lishiga qarshiman, albatta. Hozir bir daqiqa shoshmay turgin, Nevada, men bitta odamga tez telefon qilib olishim kerak.

Jilbert narigi xonaga kirib telefon go'shagini ko'tardi-da, epchillik bilan raqamlarni tera boshladi.

– Senmisan, Jek? Uyqungni buzmadimmi, og'ayni? Hoy, uyg'onsang-chi! Menman, Jilbertman, eshitsang-chi. Oh, Xudoyim-ey! Menga qara, Jek, eshit, men hozirning o'zida uylanyapman, tushunyapsanmi? Ha, xuddi shunday! Opangni ham uyg'ot, menga gapirmay tur, faqat eshitib tur, xo'p? Opangni ham olib kel! Butun dunyoni suv bosadimi, o't bosadimi – menga baribir! Ikkalang tezda menikiga yetib kel! Ha, ha, Nevada ham shu yerda, kutib turibdi. Biz o'zi allaqachon unashtirilib bo'lganmiz. Qarindoshlar o'rtasida ayrim e'tirozlar sababli shu yo'lni tanladik. Bo'ldi, bo'ldi, boshqa gapga o'rin yo'q! Gap tamom! Kelasanmi? O'zimning do'stimsan-da! Tezroq kelishing uchun senga yollanma mashina chaqirib beraman. Bo'ldi, uyg'on, Jek! Men senga ishonaman, do'stim!

Jilbert Nevada uni kutib turgan xonaga qaytib kirdi.

– Eski qadrdonlarim Jek Peyton bilan uning opasi hozir shu yerga o'n besh daqiqa o'tar-o'tmasdan yetib keladigan bo'ldi, – deb tushuntirdi u.

– Ammo Jek qurmag'ur yomonam tebsa-tebranas-da, tentakvoy! Hozirgina uni shoshiltirib telefon qilib chiqdim. Hash-pash deguncha yetib kelishadi. Bilasanmi, Nevada, men hozir dunyodagi eng baxtli odamman! Bugun senga yuborgan xatimni nima qilding?

– Men ham allaqachon shu qarorga kelib bo'ldim, Jilbert, – deb javob berdi Nevada, shunday deb yigit unga yuborgan maktubni paltosining tagidan sug'urib chiqardi.

Jilbert xatni xatjilddan chiqardi-da, unga diqqat bilan razm solib chiqdi.

– Qoq yarim tunda uyimga chaqirib olganim senga biroz g'alati tuyulmayaptimi? – so'radi u.

– Nega endi? Yo'q, – dedi Nevada, uning ko'zlari samimiyat bilan chaqnab turardi. – Balki senga mening biron bir yordamim kerak bo'lib qolgan-dir, deb o'yladim. Basharti qalin do'stim ekan-san, bu yerda qanday noo'rin harakat bo'lsin? Men hammasini to'g'ri tushundim. Hatto qor gupillab yog'ib turgan bo'lsayam, parvo qilma-dim. Sen to'g'ringda hech qanday yomon xayolga bormadim.

Jilbert qo'shni xonaga uchib kirdi-da, qor-shamoldan himoyalash uchun palto va issiq kiyimlarni ko'tarib chiqdi.

– Mana bu paltoni egningga ilib ol, – dedi u Nevadaga qalin paltoni uzatarkan. – Biz taxmi-nan bir yarim milcha yo'l yurishimizga to'g'ri keladi. Tentak Jek bilan uning opasi ham hade-may kelib qolishadi, – shunday deb Jilbert ham paltolardan birini kiyib oldi. – Oh, Nevada, – dedi u, – esim qursin, anavi kechki gazetamning birin-chi sahifasiga shundoqqina ko'z qiringni tashlab,

unda nimalar yozilganini menga aytib bera olasani? Bu menimcha sen yashagan yer haqidagi xabar bo'lishi kerak, albatta, sen uchun qiziqarli ma'lumot bo'ladi.

Jilbert o'zini xuddi paltosining tugmalarini qadash bilan mashg'ulday qilib ko'rsatib, Nevada-ning harakatlarini zimdan kuzatdi. So'ngra o'girilib qaradi-da, Nevadaning joyidan qo'zg'alolmaganini ko'rdi. Qiz unga g'alati qarash, ta'na aralash nigoh bilan boqib turardi. Uning yonoqlari boyagina ko'chada urgan sovuq va qordan hamon qizarib ketgan, ammo ko'zlari qat'iylik bilan chaqnar edi.

– Jilbert, men senga aytmoqchi bo'lib yurgandim, – dedi u asta, – baribir, bir kunmas bir kun buni o'zing ham bilib olarding, shubhasiz. Gap shundaki, Jilbert, men hamma narsadan oldin, biz turmush qurishimizdan oldin, eng avvalo, bir gapni aytib qo'yishim lozimki, men bir kun ham maktabga borgan emasman. Ha, Jilbert, dadam meni bir kun ham maktabga yubormagan. Shu yoshimgacha men na o'qishni va na yozishni o'rganmaganman, loaqal bitta so'zni ham eplab yoza olmayman. Ana endi agar rozi bo'lsang...»

Nevada gapini tugatar-tugatmas, Jilbert uni eshik tomon boshladi, kutishga vaqt yo'q edi, ular tezroq ibodatxonaga yetib borishlari zarur edi.

5

Marosim o'tgandan keyin, janob Jilbert Uorren bilan Nevada Uorren xonim o'z uylari tomon usti yopiq izvoshda qaytishar ekan, Jilbert xotiniga gap qotib qoldi:

– Nevada, senga bir gap aytaymi endi? Sen chindanam kecha men yuborgan xatimda nima deganimni bilishni istaysanmi?

– Qani, ayt-chi! – deya rozilik bildirdi xotini unga mehr bilan boqarkan.

– Yaxshi, eshitib tur, so'zma-so'z qilib aytaman unda, – dedi Jilbert shunda, – men o'sha xatimda mana bunday deb yozgandim: «Mening ardoqli malikam miss Uorren! Sizning gul bo'yicha fikringiz mutlaqo to'g'ri edi. U rostdanam siren emas, balki gorteziya guli ekan». Bo'ldi. Bundan boshqa gapni yozmagan edim.

– Ha, mayli-da, – dedi Nevada baxtidan gul-gul ochilib, – qo'y, endi, unuta qolaylik o'sha xatni! Baribir, sen u hazilingni menga emas, Barbaraga qilgansan-ku!

Ingliz tilidan
Qandilat Yusupova
tarjimasi

HAYOT O'YINI

Ajrashuv sudining vakili Benaja Uiddap idorasi ostonasida qalin qilib o'ralgan tamakisini tutatgancha o'ylanib o'tirardi. Havо juda isib ketgan, ko'chalarda qilt etgan shamol esmasdi. Dog'-dog' xol bosgan qandaydir bir tovuq katta ko'chada ahmoqona qaqag'lagancha viqor bilan o'tib ketdi.

Shu payt uzoqdan arava g'ildiragi o'qining qarsillagan ovozi eshitilib, uning izidan yo'l ustida ko'tarilgan quyucq chang-to'zon paydo bo'ldi. Kichkinagina izvosh Rensi Bilbro bilan uning xotinini ajrashuv mahkamasi eshigi oldiga keltirib tashladi. Arava to'xtagach, er-xotin izvoshning ikki tarafidan birma-bir tushdilar. Rensi och-sariqdan kelgan, malla sochli, bo'yi pastroq erkak edi. Lekin u misoli tog'lardagi salobat kabi ko'rinishda turardi. Ayol bo'lsa negadir xomush, nomalum g'am ichida hamma yoqqa horg'in nigoh tashlardi. Uning chehrasidagi ana shu betayin hasrat sababli gulday yoshligi ham ayolning butun savlatidan asta-sekin yo'qolib bormoqda edi.

Adolatparvar vakil kelguvchilarning tashrifi uchun tezda oyoqlariga tufisini ildi-da, ularni ichkariga boshladi.

– Biz, ikkimiz ajrashmoqchimiz, – deya gap boshladi ayol, uning ovozi xuddi qarag'ay shox-

lari orasida esib yurgan o'ynoqi shamolning g'uv-g'uiday noaniq eshitilardi. Shunday dedi-yu, ayol Rensiga ilkis qarab oldi, u erining yuzida biron bir norozilik ifodasi yarq etib qolarmikan, degan umidda edi.

– Ha, ajrashmoqchimiz, – deb takrorladi Rensi ham tantanali tarzda bosh irg'ab. – Biz ortiq bu tarzda birga yashay olmaymiz. Bunday turmush ikki juft bir-birini asrab-avaylab, suyib yashash o'rniga g'irt tanholikning o'zidir. Basharti xotin kishi yovvoyi mushukday yoki bo'lmasam g'ingshiydigan boyo'g'liday ro'zg'orning fayzini uchiraverar ekan, er kishi bunday ayol bilan bir daqiqa ham turolmaydi.

– Basharti erkak degani ham, – deb erining gapini ilib ketdi xotini, – o'zining qanchalar takasaltang va beor ekanligini bilmay, faqat daydib, aroqxo'rlik qilib yoki uzzukun yotaverar ekan, u holda uning butun bola-chaqasi egani non topolmay, qiynala-qiynala, oxiri ochidan o'lib ketadi.

– Buni qaranglar, – endi mojaro navbati erga kelgandi, – axir xotin ham faqat erining boshida yong'oq chaqavermasdan, tun-u kun jag'i jag'iga tegmay, nuqul javrayversa, unda er sho'rlik ham nima qilsin? Uning bor topgan tutganini...

– Voy, mug'ambir bo'lmay qolgur-ey! Hali bir tiyin topmay turib, uyalmay-netmay, minnat qilishini qaranglar! Erkakmi, erkaklik vazifasini bajarsin-da!

Shu tobda adolat o'rnatuvchi vakilning ham o'z vazifasi esiga tushib, oxiri ko'rinmaydigan bu dahanaki jangga aralashdi. U arzlanuvchilarning yoniga kursisini yaqinroq surib boshqatdan o'tirdi. Shundan keyin u qaror va qonunlar, tur-

li farmonlar yozilgan katta kitobini ochdi. So'ng ko'zoynaklarini olib artgach, stol ustida turgan siyohdonning o'rmini ham o'zgartirib qo'ydi.

– Ma'lumingizkim, – deb so'z boshladi u rasmiy ohangda, – davlatning har bir qaror va qonunida belgilab qo'yilgan o'z tartib-qoidalari bo'ladi. Shuningdek, ajrashuv bandiga oid qonunda ham tegishli farmonlar qabul qilingan. Davlat konstitutsiyasiga ko'ra, adolat o'rnatuvchi shaxs ikki yoshning turmush qurishini ro'yxatga olar ekan, ularning ajrashish qog'ozini ham o'zi bergusidir. Aynan shu yerda u ajrashuv masalasini tubdan o'rganib chiqadi va keyin oliy sud adolatparvar vakilning xulosasiga binoan oxirgi qarorni beradi.

Adolat vakilining gaplarini o'zicha tushunib yetgan Rensi Bilbro shu payt qo'lini shimining cho'ntagiga tiqib, u yerdan kichkinagina tamaki qutisini chiqardi. Yengil bir harakat bilan o'sha qutisini qoqdi-da, ichidan besh dollar pul oldi.

– Ikki dona tulki terisini sotib topgan bor pulim mana shu, – dedi u. – Qo'limdagi hamma pul shu bo'ladi, – deb ta'kidlab qo'ydi Rensi yana.

– Mazkur hududda, – deya e'lon qildi adolatparvar vakil, – ajrashuv jarimasi besh dollar turadi.

Shunday dedi-da, u stol ustidagi pulni sidi-rib olib, nimchasining yon cho'ntagiga yasama beparvolik bilan solib qo'ydi. Shundan so'ng go'yo juda og'ir mehnatni amalga oshirayotgandek bir varaq qog'ozga qaror yozib chiqdi-da, undan bir nusxa qilib o'ziga ham ko'chirib oldi.

Rensi Bilbro bilan uning xotini adolat vakili qarorni eshittirayotgan chog'da miq etmay tinglab turishdi. Hukm quyidagicha edi:

– Barchaga shuni ma'lum qilib o'tamizkim, ayni damda huzurimda hozir bo'lgan er-xotinlar Rensi Bilbro hamda uning zavjasi bo'lmish Aruela Bilbro shu kundan e'tiboran ortiq rasmiy er-xotin emaslikka ahd qilishdi. Ular shu soatdan boshlab bir-birlarini na sevishga va na bir-birlariga bo'ysunishga, muhimi, mehr-muhabbat bilan yashab ketishlari mumkin emasligini anglab, uzil-kesil ajrashishga qaror qildilar. Ular ushbu qarorga o'z aql-fikrlari bilan, o'zgalarning tahdid va po'pisasisiz erkin holda keldilar. Ushbu e'tiroz hamda vaziyat sabablarini o'rganib chiqqan holda men ularning rasman tuzilgan nikohlarini bekor deb e'lon qilaman. Ilohim, mazkur hukmimizdan o'zing rozi bo'lgaysan, yo Parvardigorim!

Nihoyat, hukmni o'qib bo'lib, adolat vakili uni endigina oila boshi hisoblanmish Rensiga uzatmoqchi bo'lib turgan vaqtda to'satdan Aruelaning qattiq chinqirgan ovozi ularni harakatdan to'xtatib qo'ydi. Yuzma-yuz turib qolgan har ikkala erkak ham ayolga yalt etib qarashdi.

– Hurmatli sudya janoblari, iltimos, erimga shu qog'ozingizni hozir bermay tursangiz. Menimcha, muammo hali to'la hal bo'lgani yo'q deb o'ylayman. Axir men undan hali aliment undirib olishim ham kerak. Erkak kishining o'z xotin, bola-chaqasini qarovsiz tashlab ketaverishi insofdan bo'lmas axir. Ajrashuvimizdan so'ng men Xogbak tog'i yonida yashovchi tog'amnikida yashamoqchiman. Ammo u yerda menga pul kerak bo'ladi. Buning ustiga hozir oyog'imga yangi tufli ham olishim kerak. Basharti Rensining o'zi ajrashish tarafdori bo'lgan ekan, marhamat qilib,

u menga aliment puliniyam to'lashga rozi bo'lsin. Bunga mening to'la haqqim bor deb o'ylayman.

Xotining kutilmagan bu gaplari Rensi Bilbroga chaqmoq zarbidek qattiq tegdi. Avval xotini aliment g'alvasi to'g'risida umuman og'iz ochmagan. Eh, ayollar, doim yo'q yerdan boshog'riq topib yurishadi-ya. Lekin baxtga qarshi adolat vakili Benaja Uiddap ayolning ushbu e'tirozini mutlaqo o'rinli deb topdi. Axir qonunda ham xotin kishi tomonidan aliment so'ralishi haqli deb aytilgan. Benaja shu tobda ayolning oyoqlariga qaradi. Darhaqiqat, uning oyog'idagi tufli tog' yo'li uchun butkul yaroqsiz edi.

– Hurmatli Aruela Bilbro, – deb yuzlandi adolat vakili shunda ayolga, – ajrashishingizdan keyingi ilk oy uchun qancha aliment puli sizni qoniqtiradi?

– Men ko'p pul so'ramayman, – deb javob berdi ayol, – shunchaki yangi oyoq kiyim sotib olishim uchun bor-yo'g'i besh dollargina kifoya qiladi. Aliment uchun besh dollar unaqa ko'p pul bo'lmasa kerak. Nima qilib bo'lsa ham men tog'dagi qarindoshimning uyiga bir amallab yetib olsam bo'ldi.

– Da'vogar so'rayotgan mablag' chindanam u darajada katta emas, – ayolga yon bosdi adolat vakili. – Janob Bilbro, – dedi shundan so'ng u Rensiga yuzlanib, – ajrashuv qog'ozingizni olishdan avval ayolingiz so'rayotgan aliment pulini zudlik bilan to'lab qo'ymog'ingiz erlik burchingizdir.

– Sizga bergan pulimdan boshqa o'zimda bir tiyin ham qolmadi, – dedi Rensi og'ir nafas olarkan, – bor pulimni berib bo'ldim, janob.

– U holda, – dedi janob Benaja Uiddap ko'zoynaklari ortidan jabrdiyda bo'lib turgan Rensiga jiddiylik bilan boqarkan, – ajrashuv qog'ozidan mahrum bo'lajaksiz.

– Yo'q, yo'q! O'tinaman, ertagacha menga muhlat bersangiz, – deb yalina boshladi jon talvasasiga tushib qolgan er bechora, – bir iloj qilib topib beraman o'sha pulni. Faqat avvallari hech xotanim bilan oramizda aliment to'g'risida sira gap bo'lmagandi, shunga...

– Xo'-o'-sh, demak, ish ertagacha qoldiriladi. Har ikkingiz ham bo'ynigizdagi majburiyatlarni bekam-u ko'st ado etgan holda, hech bir muammosiz kelgan paytingizdagina masalangizni oxirigicha ko'rib chiqamiz. Xususan, ajrashuv qog'ozi ham barcha ishlar nihoyasiga yetgandan keyingina qo'lingizga borib tegadi.

Janob Uiddap so'nggi so'zlarini aytganidan keyin, yana tuflilarining bog'ichini bo'shatib, oyoqlarining chigalini biroz yozgandek bo'ldi.

– Bu kech, yaxshisi, Ziax tog'amiznikiga borib tunasak yaxshi bo'lardi, – dedi Rensi xotini bilan tashqariga chiqqanlaridan so'ng. – Tog'amning uyi shu yerga yaqin bir joyda.

Rensi ayolidan anchagina ranjib qolgandi, u ataylab aravaga xotini chiqqan tomondan emas, berigi tarafidan to'ng'illagancha chiqib ketdi. Beozorgina urib qo'yilgan xipchindan yengil tebrangan kichkina ola ho'kiz kelgan yo'liga qayrildi-da, asta yurib ketdi. Arava izidan ko'chalarda yana quyuyq chang g'ubori ko'tarildi.

Tag'in bir o'zi yolg'iz qolgan adolat vakili Benaja Uiddap qalin qilib o'ralgan qadrdon tamakisini so'rgancha, idorasi eshigi oldida o'yg'a

cho'mib o'tirar edi. Kun qoraya boshlagan damda u haftalik ro'znomasini qo'liga oldi-da, to shom qorong'isi borliqni xiralatib qo'yguncha ro'znomasini o'qib o'tiraverdi. Atrof butunlay zimistonlikka cho'mgandan so'ng janob Uiddap o'rnidan turib, moy quyilgan eski chirog'ini yoqdi-da, qayta joyiga o'tirib, to ko'kka oy ko'tarilib, kechki yemak pallasi bo'lgunicha mutolaa bilan band bo'lib o'tiraverdi. Oxiri, oqshom butkul o'z hukmronligini atrofga yoyib yuborgach, janob Uiddap o'rnidan turib, ketishga chog'landi. U ishxonasidan atigi ikki chaqirim narida yashardi. Lekin uyga ketishda janob Uiddap dafna daraxtlari bilan o'ralgan kichkina chakalakzorni bosib o'tishiga to'g'ri kelardi. Shu chog'da qandaydir qora sharpa Uiddapning ortidan sezdimay pusib bordi-da, shartta uning oldidan unga miltig'ini o'qtalغان holda paydo bo'ldi. Quyuq qorong'ilikda bu sharpaning kimligini mutlaqo bilib bo'lmas, u nihoyatda sirli holda kiyingan, boshi ustidagi shlyapasini judayam pastga tushirib olgan va shu vajdan yuzining borini mana shu shlyapasi berkitib turardi.

– Menga pul kerak, – deb ovoz chiqardi qora sharpa tahdid bilan, – g'ing desang o'lasan! Men hozir nihoyatda asabiylashib turibman, barmoqlarim ham miltiq tepkisining naq ustida turibdi.

– Men... menda bor-yo'g'i besh... besh dollargina pul bor, xolos, – deya arang ovoz chiqardi adolat vakili. Shunday der ekan, nimchasining cho'ntagini titroq qo'llari bilan paypaslab qo'ydi.

– Bu yoqqa cho'z pulni, – degan buyruq keldi sharpadan, – yaxshi, mana bu boshqa gap. Shoshma, ana endi pulni qurolning mana bu yeriga ohistalik bilan tiqib qo'y-chi.

Boyagina qo'liga tushib, janob Uiddapni nihoyatda suyuntirgan besh dollar pul hali yap-yangi va qarsildoq edi. Qo'rquvdan dag'-dag' qaltirab turgan janob Uiddap istar-istamay, azbaroyi joni shirinlik qilganidan pulni bezori aytgandek qilib qurolning uchiga qistirib qo'ydi.

– Juda soz. Ishimiz bitdi, – dedi sharpa adolat vakilining harakatlaridan mamnun bo'lib, – endi esa yo'lingdan qolma! Bor, tez jo'na!

Ammo janob Uiddapning tez yurgulik holi qolmagan edi. U ancha paytgacha oyog'ini ham sudramoqqa majoli qolmasdan, uzoq vaqt karaxt bo'lib turib qoldi.

Ertasi kuni kunduzi janob Uiddapning idorasi oldiga yana o'sha tanish kichkina ola ho'kiz qo'shilgan arava kelib to'xtadi. Odatdagidek, janob Uiddap oyoq kiyimlarining bog'ichini yechgan holda, ammo bu safar ancha ma'yus qiyofada o'tirgan edi. U kelguvchilarning istiqboliga chiqish uchun tuffisini oyog'iga ilib, sekin o'rnidan turdi. Lekin u bugun ayni shu tashrifni intizorlik bilan kutayotgan edi. Kecha kelishib qo'yilganidek, Rensi Bilbro adolat vakilining guvohligida xotiniga va'da qilingan besh dollarni tutqazdi. Shu chog'da birdan janob Uiddapning ko'zlari yarq etib, katta ochilib ketdi. Ajrashayotgan erkak tomonidan ayolga berilgan pul xuddi kecha janob Uiddapning qo'liga tushgan besh dollarga judayam o'xshab ketardi. U hatto pulning andak g'ijimlanib, xuddi qurolning uchiga tiqilgandan keyin taxi qayrilib, buklanib qolganday holatda ekanligini ham nazaridan qochirmadi. Biroq janob Uiddap birdaniga bunday xulosa chiqarishdan o'zini to'xtatdi. Oxiri u qarshisida mahtal

bo'lib turgan er-xotinning har biriga ajrashuv qog'ozidan bittadan berib, o'z vazifasini ado etdi. Lekin janob Uiddap bu ikki urushqoq chumchuqlarning ancha ovozi o'chib, shumshayib qolganini, bir-biriga ta'na toshlarini otish o'rniga bosh egib o'ychan turganliklarini ko'rib o'zicha hayron bo'ldi.

Ayol qo'lidagi ozodlik varag'ini mahzun buklab turarkan, ichki bir ilinj bilan eriga tikildi.

– Bilasanmi, esim borida senga bir gapni aytib qo'ymoqchi edim, – dedi u shikasta ovozda Rensiga boqib, – uyga borganingdan keyin tokcha ustidagi qutichada turgan nonni olib yegin, albatta. Uni ataylab sen uchun saqlab qo'ygandim. Keyin o'sha yerda biroz tuzlangan cho'chqa go'shti ham bor edi. Non bilan qo'shib o'shani ham yeb qo'ygin. Ha, aytgancha, hammasidan ham bugun kechqurun soatni vaqtingga to'g'rilab burab qo'yish esingdan chiqmasin, xo'pmi?

– Sen o'zing-chi? – dedi Rensi ham aybdorlarcha ko'zlarini mo'ltiratib so'rarkan, – o'zing qayerga borasan endi? O'sha tog'ning tepasida yashaydigan Ed tog'angning uyigami?

– Aytmoqchi emasdim-u, ammo ular meni unchalik xush kutib olishmadi, biroq boradigan boshqa durust boshpanam yo'q bo'lsa, qayoqqayam ketardim? Mayli, men tezroq keta qolay. Rens, modomiki, bu so'nggi uchrashuvimiz ekan, men... Agar sen qarshi bo'lmasang, senga xayr, demoqchi emasman.

– Bu nima deganing? Men senga qayoqdagi fahmi yo'q hayvonga o'xshab ko'rinyapmanmi? – dedi Rensi yaxshigina achchig'i chiqib, – men nega sening xayrlashishingni istarkanman? Axir

o'zing eding-ku, xuddi shu so'zni betoqatlik bilan qancha paytdan beri kutayotgan odam?!

Aruela jim qotdi. U qo'lidagi besh dollar pul bilan ajrashuv qarorini ehtiyot qilib bukladi-da, ularni ko'krak cho'ntagiga solib qo'ydi. Shu as-noda janob Uiddapning qayg'uli ko'zlari pulning qayerga g'oyib bo'lganini kuzatish bilan band edi.

Biroq adolatparvar vakilning oxirgi aytgan so'zlari hech kutilmaganda unga yana imkoniyat eshiklarini lang qilib ochib berdi.

– Ana endi, janob Rens, bermalol uyingizga borib, oyoq-qo'lingizni uzatib, maza qilib dam ol-sangiz ham bo'ladi, – deb qo'ydi u.

O'z xayollari bilan andarmon bo'lib turgan Rensi Bilbro bu chog'da janob Uiddapning so'zla-rini eshitmayotgandek, musaffo osmon qo'yniga termulgancha qoti'ò turar, u hatto ketishga shay-lanayotgan Aruelaga ham qiyo boqmas edi.

– Odamlarning o'zlari ahmoq bo'lishar ekan...
– biroz sukutdan keyin Aruela tilga kirdi. U hech kimga qaramas, oldidagi yog'och stolga ko'z tik-kancha so'zlar edi. – Ular avji aqldan ozgan soni-yalarda ahmoqona qiliqlarini ko'rsatishar ekan. Ehtimol, ajrashishni istaydiganlarning bari ham esipast kishilar emasdir. Zotan, inson bir o'zi tanho yashashni istab qolishi ham mumkin ekan.

– Ha, mayli, – dedi u birozdan so'ng yana so'zi-da davom etarkan, – yaxshisi, men Ed tog'amni-kiga kech kirmasdan keta qolay.

– O'sha eski soatni sendan boshqa hech kim burab qo'yolmaydi, – dedi Rens birdan jonlanib.

– Sen meni uyga qaytib, sen uchun o'sha soa-timizni burab qo'yishimni xohlaysanmi, Rens? – dedi xotini ma'yus ilinj bilan eriga tikilarkan.

Bu dunyoda favqulodda hech kutilmagan ajoyib hodisalar bo'ladi. Gohida aql quvvati yurakda mavj urayotgan hissiyotlarga qarshi chiqolmay qoladi. Bundan buyon xotinini ko'rolmaslik, undan bir umrga judo bo'lish vahimasida qolgan Rensi qattiq hayajonlanib turgan Aruelaning nozik qo'llaridan mahkam ushladi.

– To'xta! Hech qayoqqa ketma, – dedi u o'tinch bilan, – men ayni shu damda anglab yetdim, men sensiz yashay olmas ekanman. O'sha eski soatimizni sendan boshqa hech kim burab qo'yolmaydi, Aruela.

– Mening qalbim ham o'sha uyda qolgan ekan, Rens, – deb shivirladi ayol ham hislarini ortiq yashirib turolmasdan, – sen bilan birga qolib ketgan ekan yuragim. Men senga so'z beraman, bundan buyon hech qanaqa ahmoqlik qilmayman, so'zimga ishon, Rens. Kel, hammasini boshqatdan boshlaymiz. Yura qol, kun botmasidan uyimizga keta qolaylik.

Qayta topishgan oqqushlarday bo'lib eshik tomon yo'nalgan er-xotinlar o'z tuyg'ulariga g'arq bo'lgan holda, hatto janob Uiddapning ham borligini unutib qo'ygandilar. Adolat vakili o'zini bildirib qo'yish uchun to'satdan rasmiy ohangda xitob qildi:

– Qonun nomi bilan sizni to'xtatishga majburman, – dedi u. – Fahmimcha, siz endi ortiq er-xotin emasligingizni unutgan ko'rinasizlar. Axir boyagina rasman ajrashib bo'lgansizlar. Ushbu xatti-harakatingiz muqaddas qarorimizga nisbatan katta hurmatsizlik hisoblanadi. Qonun burchi fuqarolarda yuzaga kelgan ixtilofni bartaraf etib, masalani bir to'xtamga olib kelishdir. U

sevishgan ikki dilning his-tuyg'ulari bilan qayta-qayta hisoblashavermaydi. Shunday ekan, mulohazakorlik bilan bir qarorga kelib olishingiz lozim edi. Lekin baribir shuni rasman eslatib o'tishim joizki, siz endi rasman er-xotin emassizlar. Sizlar huquqiy farmon bilan allaqachon ajrashib bo'ldingiz.

Sarosimaga tushib qolgan Aruela Rensining qo'lidan yanayam qattiqroq ushladi. Adolat vakilining ushbu so'zlari aynan hozir unga o'z jufti halolini yo'qotib, hayot darsini yana-da chuqurroq o'rgatdi.

– Biroq har narsaning o'z yechimi bor, – deya davom etdi adolat vakili, – ajrashuv qarorini bekor qilish uchun sizlar qaytadan nikohdan o'tib, barcha to'y marosimlarini ham boshqatdan o'tkazishingiz kerak bo'ladi. To'yingiz marosimlarini o'tkazish badali ushbu vaziyatda bor-yo'g'i besh dollarga tushadi, xolos.

Aruelaning ko'zlarida shu zahoti umid uchqunlari porladi. U darhol ko'krak cho'ntagi tomon qo'l suqdi. Boyagina bu yerdan joy olgan besh dollar pul kabutar misol qanot qoqib, janob Uiddapning stoli ustiga uchib tushdi. Erining qo'lga qo'llarini bergancha, qilgan ishidan mamnun holda turarkan, ayolning yuzlari chaqnab, baxtdan gul-gul bo'lib yashnab ketgandi.

Ikki xushbaxt juftlik takror topishganidan boshlari osmonga yetib, tashqariga ozod qushlar kabi yengil yo'l oldilar. Rensi ayoliga aravaga chiqishiga ko'maklashgach, o'zi ham uning yonidan joy oldi. Sevishganlar o'rnashib olishlari bilan kichkina ola buqa ham tog'lar tomon misoli yeldek uchib ketdi.

Adolatparvar Benaja Uiddap tag'in avvalgiday idorasi eshigi oldida odatdagidek tufisini yechib olgancha o'tirar ekan, nimchasining cho'ntagidagi besh dollar pulini olib, yana qaytadan huzur qilib bir sanab chiqdi. So'ng u pulni tag'in joyiga solib qo'ydi-da, qalin qilib o'ralgan qadrdon tamakisini maza qilib torta boshladi.

Xuddi shu asnoda ko'cha yuzida dog'-dog' xol bosgan tanish tovuq ahmoqona qaqag'lagancha, o'zicha viqor bilan uning yonidan sollangancha o'tib ketdi.

Ingliz tilidan
Qandilat Yusupova
tarjimasi

SAN-ROZARIOLIK DO'STLAR

San-Rozario shaharchasi tomon yo'nalgan poyezd o'z vaqtida – roppa-rosa ertalabki soat sakkizdan yigirma daqiqa o'tganda stansiyaga kelib to'xtadi. Qo'lida qalin qora charm hamyon tutgan bir kishi shaharchaning eng asosiy ko'chasi tomon shipillab kela boshladi. San-Rozario stansiyasiga kelib tushgan boshqa yo'lovchilar ham bor edi, biroq ular temiryo'l maydonidagi yemakxonalarga yoki to'ppa-to'g'ri «Kumush Dollar» saloni tarafga yoyilishib, unda-bunda yurgan bekorchixo'jalar to'dasiga borib qo'shilishdi.

Qora hamyonli kishi bir-ikki daqiqa hardam-xayol bo'lib turib qoldi. Uning gavdasi kaltabaqaydan kelgan, ammo shunga qaramay qomati tetik, ixcham qilib qirqilgan sochi silliq, taroshlanganday yuziga nihoyatda bop tushgan, burni ustiga tilla gardishli ko'zoynagini qo'nqaytirib olgandi. U keng tarqalgan sharqona uslubda did bilan kiyinib olgandi. Bu odam ko'rinishidan bosiq bo'lib ko'rinsa-da, biroq o'z haq-huquqi uchun hech narsadan tap tortmaydigan urushqoq kishilar toifasidan edi.

Taxminan uch kvadratcha masofani bosib o'tgandan keyin u shaharchaning biznes markazi hududiga kelib to'xtadi. Bu yerda asosiy ko'chani kesib o'tgan San-Rozarioning qizg'in

hayoti hamda savdo-sanoati gupchagini tashkil etuvchi yana bir boshqa muhim ko'cha ham bor edi. Uning bir burchagidan pochtaxona joy olgandi. Ikkinchi ko'chaning oxirida esa katta kiyim-kechak do'koni qad rostlab turardi. Har ikki ko'chaning burchaklari tutashib ketgan yerda shaharchaning eng baobro' banklari hisoblanadigan Birinchi Milliy Bank hamda Stokmenlarning Milliy Banki joylashgandi. Notanish erkak to'g'ri San-Rozarioning Birinchi Milliy Banki ichiga kirib ketdi, to bank hisobchisining derazasi yoniga kelgunicha ham yurish sur'atini pasaytirmadi. Bank ish tartibi bo'yicha soat to'qqizda ochilishi lozim edi, biroq bank ishchilari allazamondan beri ish kuni uchun to'planib bo'lishgan, har biri kunlik ish rejasi uchun tadorik ko'rmoqda edi. Derazasi oldiga begona mijoz kelganini payqagan paytda hisobchi pochtasini titkilash bilan band edi.

– Bank soat to'qqizgacha ochilmaydi, – keskin va sovuqqina ohangda qat'iy ta'kidlab dedi u. U bu gapni San-Rozarioda tong otar mahalda qushlar chug'urlashiday biyron takrorlashga o'rganib qolgandi.

– Bundan tuzukkina xabarim bor, – dedi tashrif buyuruvchi hisobchinikidan ham sovuqroq tovushda. – Siz marhamat qilib mening qo'limdagi kartochkani olib qo'ya olasizmi?

Hisobchi kichkinagina, ammo ozoda derazasining orasidan qo'l uzatib, mijoz uzatgan kartochkani olib o'qidi:

J.F.S.Netlvik.

Milliy Bank tekshiruvchisi

– Voy! haligi... Buni qarang-a, tanimaganni siylamas, deydilar deb bejizga aytishmaydi-da.

Qani, ichkariga kiring, janob. Siz nega unaqa... tashqarida turibsiz? Bu yoqqa kiring, marhamat qilsinlar, qani, marhamat!

Bank tekshiruvchisi bo'lib kelgan haligi notanish mehmon bir zumda butun bankni ostin-ustin qilib yubordi. U bank hisobchisi o'rta yoshli janob Edlinger tomonidan bankdagi har bir xodimga shoshilmasdan, vazminlik bilan tanishtirildi.

– Biz bankimizga tekshiruvchi bo'lib yana Sem Turner kelarmikan, deb poylayotgandik, – dedi janob Edlinger. – Negaki, to'rt yildan beri bizning bankni Sem akaning o'zlari tekshirardi. Umid qilamanki, ishxonamizdagi holatdan ko'nglingiz to'ladi, janob, Xudo xohlasa. Hozir qo'lda ko'p pulimiz yo'q, ha, endi, o'tga ham, suvga ham shay bo'lib turibmiz-da.

– Janob Turner bilan menga tekshiradigan hududlarimizni o'zgartirishni boshlig'imiz buyruq qilgandi, – dedi nazoratchi hisobchining gaplariga pinagina ham buzmay. – Sizlarning Sem Turneringiz mening avvalgi hududim bo'lmish Janubiy Illinoys bilan Indianaga qarab jo'nadi. Bo'lmasam, menga eng birinchi bo'lib hisob daftarini olib kelsangiz.

Perri Dorser, shu yerda ishlovchi yana bir xodim, allaqachon nazoratchining tekshiruviga deb katta hisob-kitob daftarini stol ustida shay qilib turgandi. U daftardagi har bir raqamdan ko'ngli to'q, negaki ularda qildek ham kamchilik topilmasdi, shuning uchun nazoratchidan zig'ircha ham cho'chimay turar, ammo shunday bo'lsa-da, bankdagi hamma ishchida ro'y berayotgan sarosima unga ham yuqqan va u ham shu sabab-

danmi, ancha hayajonlanib turardi. Yangi kelgan nazoratchida qandaydir muzlik, o'ta sovuq bir ifoda bor ediki, u xuddiki, bankka tekshirgani emas, balki tergovchiday hammani ayblagani kelganday bo'lib ko'rinardi. U nazaridan jindek-kina xatoni ham qochirmaydigan, pashshadan fil yasaydigan noinsof satanglarga o'xshab ketardi.

J.Netlvik, yangi kelgan nazoratchi, o'zining tez, ildam harakatlari bilan dastlab valyuta hisobini qo'lga oldi, erinmasdan har bir pul bog'lamlarini hisoblab chiqdi. So'ngra u yana o'shanday tezlik, lekin puxta harakatda hisob varaqlari bilan tanishdi. Uning ingichka, oppoq barmoqlari qog'ozlar ustida xuddi tajribali musiqachining pianino klavishlari ustida harakatlanayotganday ravon, qushdek yengil borib-kelardi. Navbat tilla zaxiralariga kelganda, nazoratchi bor oltinlarni stol ustiga uydi, tilla tangachalar marmar toshga urilib ketganday jingillagan tovush chiqardi va nazoratchi ularni ham bir xil sur'atda chaqqon barmoqlarining uchlari bilan ilib-ilib, bitta-bitta qo'ldan o'tkazaverdi. Undagi tezlik yarimtalik va choraktalik tangachalarga kelganda ham birday epchillikda davom etdi. Oxirida nazoratchi o'n sentlik va besh sentlik pullarni hisoblab chiqdi. Hamma sanalgan pul va tangalarni bir joyga to'plaganidan keyin, nazoratchining oldiga tarozi qo'yib berishdi, nazoratchi har bir kumush pul solingan qopini diqqat bilan torta boshladi. Shundan so'ng J.Netlvik Dorsini hisob-kitob bayonotidagi aniq raqamlar, mayda-chuyda xatolar, yozuv-chizuvlar kabi qitmir savollarga ko'mib tashladi, u bularning barini nihoyatda mayinlik, ammo o'sha mayinlikning ich-ichida yashi-

rin muzroblik bilan bank xodimiga murojaat qildiki, bechora Dorsining aft-angori qizarib, tili duduqlanib qoldi.

Ha, bu yangi kelgan nazoratchi iblisning o'zi ekan, avvalgisi bundan yuz chandon o'lsa o'ligi ortiq edi. Oldingi nazoratchi Sem Turner har holda odam edi, u bank ichiga hamisha qo'lida yoki og'zida tamakisi bilan kirib kelar, shodon qichqirib, yo'lda uchragan har turli hangomalarni dilkashlik bilan hikoya qilib ketardi. Dorsiga ham qorasi ko'rinishi bilan:

– Ishlar qalay, Perri! Bu olomon bilan ishlab charchamayapsizlarmi, a? Yaxshi, yaxshi, – deb qo'yardi u har gal. Semning hisob-kitoblarni tekshirish usuli ham boshqacha edi. U har bir hisob-kitob bayonnomasini horigan alfozda erinibgina ko'rib chiqar, yerto'laga tushib u yerdagi kumush solingan qoplarni shunchaki oyoq uchida tepib qo'yar va darrov qoniqish hosil qilib qo'ya qolardi. Yarimtalik, choraktalik va yo o'n sentlik pullar uchun Sem Turner boshini og'ritib o'tirmasdi. Bu kabi mayda pullar uning oldiga keltirib qo'yilsa, «Maydalashmaylik, janoblar, – deb keskin rad etardi. – Axir men qishloq xo'jaligining biron-bir tashkilotidan kelganim yo'q-ku», – deb qo'yardi yana bechora. Semning bunday qilishiga sabab u bank xo'jayinining necha yillik qadrdo-ni bo'lib, Dorsini ham go'dakligidan beri besh qo'ldak yaxshi bilardi.

Balo-qazoday bo'lib kelgan mana bu yangi nazoratchi hammaga go'yo shayton malayiday bo'lib ko'rinardi. U haliyam qog'ozlar ichida o'tirar ekan, shu tobda ichkariga bank boshlig'i mayor Tomas B.Kingman, ko'proq – «Mayor Tom» nomi

bilan taniqli kekxa bir kishi kirib keldi. U hisob-kitob varaqalari ichiga sho'ng'ib ketgan nazoratchiga ko'zi tushgani bilan uning ishini bo'lmadi va to'g'ri kelib o'zining «mening shinam molxonam» deb atovchi ish stoli oldiga kelib o'tirdi-da, o'ziga kelgan xatlarni shoshilmay ko'rib chiqa boshladi. Darvoqe, bundan sal ertaroq bankdagilar yangi nazoratchining ko'zini shamg'alat qilib, kichkina bir hiylani amalga oshirishgandi. Nazoratchi qog'ozlarga ko'milib ketgan zahoti, hisobchi o'sha ondayoq shu yerda ishlovchi yoshgina bank axborotchisi Roy Uilsonga ma'nodor ko'z qisib, oldi eshik tomonga qarab imo qilib qo'ygandi. Roy bu ishorani tezda fahmlab olgan, bir qo'lga shlyapasini, bir qo'lga esa kolleksionerlarning kitobini olib bamaylixotir tashqariga chiqib ketgandi. Lekin u tashqariga chiqqani hamon qarshilaridagi ikkinchi bank – Stokmen Milliy Bankiga zipillab kirib ketgan va ularga ofatday bo'lib kelgan yangi nazoratchining tashrifidan ogohlantirib qo'ygandi. Narigi bank ham ochilishga shay bo'lib turar, endi-endi mijozlar o'rmalay boshlagandi.

– Menga qarang, hoy, odamlar! – deb qichqirdi Roy yoshiga xos bo'lgan qiziqqonlik bilan, – tezda harakatingizni qilib qoling! Bizda hozir iblisning urg'ochisiday bitta nazoratchi o'tiribdi. U hatto-ki, besh sentlik tangalarimizgacha iskovich itday titkilab chiqyapti, sho'rlik Perrining paytavasiga qurt tushiryapti. Janob Edlinger menga sizlarni ham bu balodan ogohlantirib qo'yishimni shipshitdilar.

Stokmen Bankining katta yoshli bo'lishiga qaramay, hali ancha tetik, bardam-baquvvat rahbari janob Bakli hamma vaqt xuddi fermerlarga

o'xshab kiyinib yurardi, u orqa tarafdagi shaxsiy idorasida turib Royning baqirig'ini eshitdi-da, uni xonasiga chaqirdi.

– Quloq sol, Roy, boshlig'ingiz hali-beri ishga kelgani yo'qmi? – deb so'radi u yigitchadan.

– Keldi, janob, men chiqishim bilan ular kirib ketuvdi bankka, – deb javob berdi Roy.

– Yaxshi bo'libdi, – dedi janob Bakli xursand bo'lib. – Men senga bitta xat beraman, bolam, bankka kirganing zahoti uni janob Tomning o'z qo'llariga shaxsan berib qo'lasan, uqdingmi?

Janob Bukli shu lahzadayoq o'tirib, nimalardir deb shosha-pisha yoza boshladi.

Roy uning aytganidek qilib bankiga kirishi bilan janob Tomga xatjildni yetkazib qo'ydi. Mayor Tom qo'shni bankdan kelgan rasmiy xatni bir zumda o'qib chiqdi-da, buklab ichki cho'ntagiga solib qo'ydi. Keyin u bir muddat kursining orqasiga boshini tashlab, ko'zlarini yumdi, shu taxlit chuqur mulohaza qilib olganday bo'ldi, so'ng ko'zlarini ochdi-da, yerto'laga tushib ketdi. U yerdan mayor Tom zilday og'ir, eski rusumdagi jomadonni ko'tarib chiqdi, jomadonning ichi liq to'la xatlar edi. Uning ustiga «Bank notalari chegirma qilingan» degan muhr bosilgandi. Mazkur bank notalari bankning o'ziga tegishli bo'lib, belgilangan garov pullari ham shuning ichida saqlanardi. Mayor Tom ularning barini stoli ustiga uydi-da, o'zining beso'naqay harakatlari bilan qog'ozlarning hammasini qaytadan saralay boshladi.

Bu paytga kelib Netlvik ham hisob-kitob tekshiruv ishlarini ancha-muncha yengillatib qo'ydi. Uning qalami u yozayotgan raqamlar ustida misoli osmonda uchib yurgan qaldirg'ochday erkin

parvoz qilardi. U shu asnoda cho'ntagidan qalin hamyonini ham chiqarib, uning ichiga ham allaqanday raqamlar yozilgan qog'ozlarni solib qo'ydi, shu zahoti boshini keskin o'girib, peshonasida turgan Dorsiga g'azab bilan o'qday bo'lib tikildi. Bu qarashi bilan Dorsining yuragiga g'ulg'ula solmoqchi bo'ldi.

– Hisoblarning barchasi to'g'ri, – dedi qarsillagan tovushda nazoratchi.

Keyin u bankdagi har bitta xodim bilan yakama-yakka muzokara olib bordi, oradan hech qancha vaqt o'tmay, bankning katta hisob daftari varaqlarining shamolda hilpirashi, uyum-uyum qog'ozlarning havoda suzib yurishi namoyon bo'ldi.

– Siz bank hisob daftarini oyda necha marta ko'rib chiqasizlar? – deb tuyqus talab qilib qoldi nazoratchi.

– Haligi... Oyda bir marta, – deb kalovlandi hisobchilar.

– Juda soz, – deb qo'ydi yangi nazoratchi. U yana bosh hisobchiga o'girildi-da, uning ishlari ni titkilay boshladi, hisobchining chet el banklari bilan o'rnatgan aloqasi-yu ularning sulh bayonnomalarigacha hammasini bir-bir ko'zdan kechirdi. Baxtga qarshi, bosh hisobchining barcha hujjatlari joyida ekan. Shunda ham nazoratchi ortiga chekinmasdan, kafolat puli guvohnomalarini ipidan-ignasigacha ko'ra boshladi. Eh, bu tinmay ship-ship, tip-tip qilib to'xtamayotgan tekshiruv barchani bezor qilib tashladi!

– Xo'p, yaxshi, bo'ladi. Menga endi qoralama hisob qog'ozlaringizni ko'rsatsangiz. Rahmat. Hm-m-m... Bank imzo chekmagan boshqa hisob bayonnomalarini ham bersangiz. Yaxshi...

Bitta nazoratchiga shuncha jin kuch qayoqdan kelarkin?

Endigi navbat boqibeg'am hisobchi janob Edlingerga keldi. Janob Edlinger xotirjam burnini ishqalab, bexosiyat nazoratchi tomonidan berilajak hisob-kitobga oid savollar otashida ko'zoynaklarini asabiy holda artib, Netlvik bilan yuzma-yuz bo'ldi. U ham bo'linmas foydalar, bankning asl mulki, egalik huquqi, vakolatlari va hokazo savollar bilan toza ezg'ilandi.

Shu chog'da Janob Netlvik orqasida ularning munozaralarini kuzatib turgan oltmish yoshlar atrofidagi, lekin baquvvat va tetik erkak kishi qiyofasini sezib, boshini ko'tardi.

– Haligi... Bu kishi... Bu... bu bizning prezidentimiz janob Mayor Kingman bo'ladilar, haligi... janob Netlvik, – dedi hisobchi tutila-tutila.

Mutlaqo bir-biriga o'xshamaydigan ikki toifa vakillari qo'l berib so'rashishdi. Bularning biri dunyoni o'z holicha, quruqqina ko'rinishda, rasmiy va oddiy nigohlari bilan kuzatsa, boshqa biri esa o'zining erkinroq, kattaroq va mehr to'la ko'zlari bilan ona zaminga boqib yashardi. Tom Kingman butun hayoti mobaynida ming xil ishlarni boshdan kechirgan tajribali va adolatli kishi edi. U yoshligidan cho'ponlik ham, eshikma-eshik yuradigan daydi bo'lib ham, keyin-keyin askar, undan so'ng sherif, tadqiqotchi va katta chorvadorlik ham qilib ko'rgandi. Endilikka kelib bank prezidenti martabasiga ko'tarilgan, ammo janob Tom haliyam o'zining eski do'stlarini, yaylovlarini va qadrdon ot-egarini unutmagan boshqacha odam edi. U Texasda chorvadorlik bilan shug'ullangan paytlarda boyligining eng

ko'p qismini o'sha yerda orttirib oldi, keyin esa San-Rozarioga kelib Birinchi Milliy Bankini tashkil qildi. Gohida shu qadar bag'ri kengligi tutib ketib, u eski ulfatlariga nisbatan ortiqcha saxovatpeshalik ham qilib yuborar, bank gullab-yashnagan davrda ham odamlarga qo'lida borini ayamay sochib tashlardi. Shuning natijasida oxirgi yillarda Mayor Tomning chorva biznesi botqoqlikka kirib keta boshladi, shu bilan barobar bankda zararlar ham paydo bo'ldi.

– Xo'p, endi esa, – dedi nazoratchi keskin ohangda, qo'l soatiga tezda ko'z tashlab olarkan, – eng so'nggi ishimizni bajarsak, ya'ni hozir menga qarzga berilgan pullar hisobotini bersangiz. Qarshi bo'lmasangiz, o'shani ham bir ko'zdan kechirib olsak.

Bu nazoratchi Birinchi Milliy Bank dargohiga misli ko'rilmagan tezlikda, baayni o'laksaxo'r quzg'unday sharpa solib uchib kirdi, shu darajada tez ishlayotgandiki, hatto bir parchagina qog'ozni ham miridan-sirigacha sinchiklab tekshirib chiqardi. Buning ustiga bankdagi har bir ish toza, ishchilar batartib turar, bu esa nazoratchining ishini yanayam osonlashtirardi. U tezroq Birinchi Milliy Bankdagi ishini tugatib, shaharchadagi keyingi bankka ham kirishi kerak edi. U nazorat qiladigan har bir banki uchun hukumat tomonidan yigirma besh dollarlik badal haqi olgan edi. Shunday ekan, nazoratchi hashpash deguncha qarzga berilgan pullar bilan chegirmalarni ham ko'rib chiqib, yarim soatda bu bankdan chiqib ketishi lozim edi. Shunday qilsa, u ikkinchi bankni ham zudlik bilan tekshirib olsa, soat 11:45 da jo'naydigan poyezdga ulgurib

qolardi. Aks holda, shunday zerikarli shaharchada yuragi siqilgan qolib ketishi turgan gap edi. Shuning uchun janob Netlvik orqasidan yov quvganday tezlikda harakat qilayotgandi.

– Qani, men bilan yuring-chi, mehmon, – deb qoldi mayor Kingman. U barcha g'arbliklarga xos bo'lgan chuqur va vazmin tovushda gapirardi. – Bularni birga-birga ko'rib chiqaveramiz, shoshilishning nima hojati bor? Bu bankda hech kim qo'lingizdagi hisob bayonnomalarini menchalik yaxshi bilmaydi. Xodimlarimga ko'pam ishonavermang siz, ularga bir qarang. Biri oyog'ida zo'rg'a chayqalib turgan bo'lsa, ikkinchisi ortiga tamg'a bosib qo'yilganday tipirchilab yuribdi. Shulardan bir ish chiqarmidi, eh!

Shu gaplar bilan mayor Tom nazoratchini ishidan chalg'itdi. Ikkalasi ham boshliqning stoliyoniga o'tirdi. Birinchi bo'lib, nazoratchi yashin tezligida bayonnomalarni tekshirib oldi, keyin ularning umumiy hisobini bankning kundalik daftaridagi qarzdorlar puli bilan solishtirib chiqdi. So'ngra esa u kattaroq qarz pullari qog'ozlarini sinchikladi, keyin garov pullari hamda qarzdorlar ro'yxati holatini ko'rdi. Oxiri u oldida turgan bitta quruq fayldan boshqa hamma bayonnomalarni nariga surib, rasmiy va kichik nutqini aytdi:

– O'rganib chiqdimki, janob, bankingizdagi holat, chorvangizdagi inqirozni nazarda tutgan taqdirimizda ham, juda yaxshi sharoitda ekan. Albatta, bu kabi idoralarda ish aniq va o'z vaqtida ado etilishi zarur. Oxirgi ko'rgan qog'ozimiz o'rtacha miqdorda, birozgina zarar hisobi bilan chiqdi, xolos. Men sizga so'ngi qarzga berilgan pullarni faqatgina oltmish yoki to'qson kungacha

berishingizni tavsiya qilgan bo'lardim. Yana bir narsa ham borki, ayni o'sha ish bilan men ham bu bankdagi ishimi tugatib olsam. Ya'ni, mana bu yerda turgan olti donadan ortiq bayonnomalardagi hisob majmuyi jami 840 ming dollarga yetayapti, vaholanki, ularning jami miqdori 870 ming dollardan kam bo'lmasligi shart edi. Mana shu joyda qog'ozlarda katta kamchilik ketgan. Nazarimda, balki siz ularni yerto'langizda xavfsizroq bo'ladi, deb saqlab qo'ygandirsiz. Keling, bo'lmasa, o'sha kamchilik chiqqan hisob qog'ozlarini yana bir tekshirib olishimga izn bergaysiz.

Mayor Tomning tiniq, moviy ko'zlari ro'parasida o'tirgan nazoratchiga qat'iylik bilan qadaldi.

– Yo'q, janob, – dedi u past, lekin keskin ohangda. – Men bunday qilolmayman. Sababi, siz aytgan o'sha qog'ozlar na yerto'lada va na boshqa bir xavfsiz yerga qo'yilgan. Chunki, ularni men olganman. O'sha qog'ozlarning yo'qligi uchun shaxsan meni javobgar sifatida tutishingiz mumkin.

Netlvikning yuzlarida biroz hayajonlanish alomatlarini ko'rindi. U bunday bo'lishini sira kutmagandi. Izchil ovi davomidagi kutilmagan kuchli zarba edi.

– Eh! – deb yubordi u. Biroz jimlikdan so'ng yana gapini davom ettirdi: – Menga bu holatni aniqroq qilib tushuntirib bera olasizmi?

– Garov pullarini olgan odam menman, – deb takrorladi mayor tag'in. – Ammo ularni men o'z nafsim uchun emas, balki boshiga mushkulot tushib turgan yaqin bir og'aynimni deb olgan edim. Bu yoqqa kiring, janob, shu yerda sizga hammasini hikoya qilib beraman.

Shunday deb mayor Tom nazoratchini orqa tarafdagi shaxsiy idorasiga boshlab kirdi va eshikni yaxshilab yopib qo'ydi. Boshliqning xonasida bitta ish stoli, bitta uzun stol va charm bilan qoplangan o'n ikki chog'li stullar bor edi. Devorda esa o'lik chavandozning bosh haykalchasi osilib turar, oppoq devor boshdan-oxirigacha turli hayvonlarning shoxlari bilan to'lib ketgandi.

Nazoratchiga stul ko'rsatarkan, mayorning o'zi ham o'rniga o'tirdi. U pochtaxona bilan Stokmen Bankining naqshindor binosi ko'rinib turadigan deraza oldiga joylashib oldi. Oraga sukut cho'mdi. Mayor Tom darrov gapira qolmadi, Netlvik shuni his qilib turardiki, go'yo mayorning ovozi chiqquday bo'lsa, u yaqinlashib kelayotgan xavfdan ogoh qilgudek ohangda yangrab chiqardi.

– Sizning gapingizga qaraganda, – deb so'z boshladi nazoratchi rasmiy ovozda, – o'sha mablag'ni o'zingiz o'margansiz, ammo bir narsani bilishingiz kerakki, bu nihoyatda jiddiy vaziyat. Buning ustiga ushbu ish yuzasidan mening qilishim majburiy bo'lgan vazifamdan ham siz yaxshi xabardorsiz. Pirovardida, men hozirning o'zi-dayoq, qo'shma Shtatlar komissariga borishdan avval, tayyorlanishim kerakki...»

-- Bilaman, bilaman, – deya qo'l siltab nazoratchining gapini bo'ldi mayor. – Biroq siz meni Milliy banklar uchun joriy etilgan qonun-qoidalarga bo'ysunmagan holatda bankni boshqargan deb aslo o'ylamang. Siz o'z ishingizni bajaring! Men sizdan bundan bo'lak marhamat tilamayman. Lekin men qadrdon do'stim to'g'risida og'iz ochdim. Binobarin, sizdan eng qalin og'aynim

bo'lmish Bob haqidagi hikoyamni tinglashingizni iltimos qilaman.

Netlvik joyiga tuzukroq o'rnashib oldi. U bugun San-Rozariodan ketolmaydiganga o'xshaydi. U tezda valyutalar bo'yicha boshlig'iga axborot berib, so'ngra mayor Kingmanning hibsga olinishi to'g'risida komissarga bayonot qilish kerak; ehtimol u garovdagi yo'qolgan pullar uchun bankni yopishga buyruq olar. Bu holat nazoratchi oshkor qilgan birinchi ish emasdi. Odamzodning ruhiy kechinmalari oqibatida ro'y bergan shu kabi bir-ikki chigallik nazoratchining tinch ishini loyqalatib, oromini buzib turardi. U nechta-nechta bankirlarni birgina xatosi uchun tiz cho'kib, xotin kishiga o'xshab yig'lab unga yalib-yolvorishganini ko'rgan. Hatto bir marta qandaydir bank hisobchisi uning ko'z o'ngida o'zini o'zi otib tashlagandi. Lekin ularning hech biri qarshisida o'tirgan mana bu kekxa g'arblik singari o'zini baland va mag'rur tutmagan edi. Netlvik sabr qilib, bank boshlig'ining hikoyasini oxirigacha tinglashga ahd qildi. Modomiki, bu qari chol shunchalik gapirishga havasmand ekan va uning tinglashini ham shunchalar xohlab turgan ekan, mayli, miq etmay, eshitganim bo'lsin, deb o'yladi nazoratchi ichida. Kursisiga yaxshilab o'rnashib olarkan, Netlvik o'ng qo'li ustiga uchburchak iyagina qo'ydi-da, Birinchi Milliy Bank rahbarining tavba-tazarruli hikoyasini boshlashini kutdi.

– Erkak kishi do'st tutinsa, – deya gap boshladi mayor nasihatimiz, – qariyb qirq yillar mobaynida suv kechib, o't kechib, yer-u osmon ustidagi jami qiyinchiliklarni birga tortaversa, o'sha insoni uchun o'z jonini ham ayamaydigan

bo'lib qolarkan. (Shu paytda nazoratchi: «U garov pulining o'sha 70 ming dollarlik qismini o'z qorniga yeb ketgan» deya xayolidan o'tkazdi). – Bizlar, Bob va men, abjir kovboylar edik, – mayor ohista va mulohaza bilan so'zlar, xuddi o'tmish voqealarni qaytadan ko'z oldida jonlantirayotganday bo'lib tuyulardi, – bizlar Arizona, keyin yangi Mexiko va yana Kaliforniyaning bir qismida oltin va kumush qidirib, hayotimizni boyitmoqchi bo'ldik. Oltmish birinchi yildagi urushda ham qatnashgan edik Bob bilan, lekin boshqa-boshqa postlarga tushganmiz. Yonma-yon turib hindular va ot o'g'rilariga qarshi kurashgan edik, Arizona tog'laridagi kulba ichida ochlikdan sillamiz qurib necha haftalab yotib qolganmiz, yigirma futli baland qor ichiga ko'milib yurganmiz, qop-qora kechalarda otarni haydab, izg'irinlarda qotib qolganmiz, to eski bir Bar ranchosiga yetib kelgunimizcha qancha dara-yu sahro, tog'-u toshlarda mashaqqat chekkanmiz. Baribir hamisha, hamma vaqt muhtoj kunlarimizda bir-birimizga qo'l uzatishga qat'iy ahd qilgandik. O'sha paytlarda men bu dunyoda do'stdan-da yaqin hamroh, do'stlikdan-da yuqori o'lcham yo'q deb ishonib yashardim. Do'sting uchun hisob-kitob, do'stlik uchun esa narx mavjud emasdi dunyoda. Ehtimol, bir kun u ham sizning tagingizga suv quyib, ilonday zahrini sochib, umringizni bulg'ar, ostingizdagi otingiz bilan qo'lingizdagi qadahga ko'z olaytirar, bilmadim, bilmadim... Ammo men bitta narsani aniq bilardimki, mening do'stim Bob aslo – do'stlardan emas edi. U o'z do'sti uchun hech qanday chegarani bilmasdi.

Bundan yigirma yil oldin men shu shaharchaning sherifi edim va Bobni ham o'zimga bosh o'rinbosar qilib olgandim. O'sha damlarda chorvachilikdagi ishimiz ham baroridan kelib, Bob ikkalamiz ham mo'may daromad oldik. Men sherif bo'lishdan tashqari, kolleksionerlik ham qilardim, xullas, yeganim oldim-da, yemaganim ketimda gulgun hayot kechirardim. Bu orada oila ham qurdim, o'sha voqea sodir bo'lgan paytda olti yoshli o'g'lim bilan to'rt yoshli qizcham bor edi. Eng qimmat jihozlar bilan yasatig'lik shi-namgina uy-joyimda o'tirib olib ham pulni bami-soli supurib olardim. Idoradagi ishlarning ko'pini Bob bajarardi. Ikkalamizning ham boshimizdan ne-ne issiq-sovuq kunlar, ko'p xatarli dam-lar o'tgan edi. Men Bobga qattiq ishonar edim. O'zingiz bir tasavvur qiling-a, yomg'ir tomchilari derazangizga urilib, musiqiy sado bag'ishlagan oqshomlarda issiq va osoyishta oromxonangiz-da xotirjam uyquga ketib, ertalab odamlarning sizni «Marhamatli janob» deb atashlarini ko'rib, qanchalar lazzatga botib uxlashingiz, o, bu nechog'lik ulkan baxt edi! Yanayam ajoyibi, bir-biridan shirin, to'rt muchasi sog'lom farzandlarim, eng ajoyib ayol bo'lmish jufti halolim, muvaffaqiyatimiz mevalarini birgalikda baham ko'radigan chin do'stim bor ekanligidan chandon baxtiyor yashardim. Ha, o'sha damlarda mendan-da baxtliroq inson topilmasdi.

Shu yerda mayor gapdan to'xtab, chuqur xo'rsindi, ayni damda kishi bilmas qilib derazadan tashqariga nazar soldi. Nazoratchi esa o'tirgan joyida bir qimirlab olib, iyagini narigi qo'li ustiga qo'ydi.

– Esimda, bir qish paytida, – deb hikoyasini davom ettirdi mayor, – graflik Soliq pullari shu qadar yog‘ilib kelaverdiki, men ularni bir hafta ichida bankka joylashtirolmay qoldim. Cheklarni tamaki qutisiga solib, pullarni qop ichiga joylagach, ularni sherif idorasiga qarashli katta seyf ichiga berkitib qo‘ydim.

O‘sha hafta tinim bilmay ishladim, oxir-oqibat holdan toyib, kasal bo‘layozdim. Asablarim aniq ishdan chiqqandi, eng muhimi uyqumda hech halovatim yo‘q edi. Doktor mendagi jarayonga ming xil ilmiy atamalar qo‘ydi, u yozib bergan dorilarni qabul qila boshladim. Yana-da achinarlisi shundaki, har kech xayolimda o‘sha pul dardi bilan uyquga yotadigan bo‘lib qoldim. Albatta, bunchalik tashvishga tushishimning hojati ham yo‘qdek edi, negaki pullar tayinli joyda bo‘lib, Bob bilan mendan bo‘lak hech kim uning qanday ochilishini bilmasdi. Juma kuni kechqurun seyfda taxminan olti yarim ming dollar pul bor edi. Shanba kuni ertalab odatdagiday idoraga ketdim. Borsam, seyf o‘shanday qulflog‘lik, Bob esa o‘z joyida ishlab o‘tirardi. Ichimda nimadir tipirchilab, xavotir va hadik bilan seyfni ochdim. Qarasam, pul yo‘q, u g‘oyib bo‘lgandi. Tezda Bobni chaqirdim, hammani oyoqqa turg‘azib, o‘g‘irlik haqida jar soldim. Kallamga yarq etib, pulni Bob olgan degan o‘y keldi.

Oradan ikki kun o‘tdi, men bo‘lsa hamon chuqur g‘amga botib o‘tirardim. Chunki, idoraga qulfbuzarlar tushishi amrimahol edi, negaki seyf ham faqat maxsus yo‘l bilangina ochilar edi. G‘alva ko‘tarildi, odamlar og‘ziga kelganini aytaverishdi. Alisa, ya‘ni mening xotinim bilan bolala-

rim ham yetib kelishdi. Alisa ko'zlari g'azabdan chaqnab, yer tepindi.

– Aldangan bechora Tom, eh, Tom! – deb baqirgancha yig'ladi. Kuyunaverib, oxiri u hushdan ketib qo'limga yiqildi, yuzlarini yaxshilab ishqa-laganimdan keyingina u asta-sekin o'ziga keldi. Ammo u hamon o'zini bosolmay yig'lar, bechora Tom Kingmanning xonavayron bo'lgan nomi va boyligi haqida bo'zlab-bo'zlab ayyuhannos solar-di. Bolalarim Jek bilan Zima ham bu mudhish fa-lokatga alang-jalang bo'lib boqishar, cho'chib ket-gan bir juft kaklikchalarday bir-birining pinjiga g'uj bo'lib olib, jajji tuflichalarini yerga otgancha xarxasha qilishardi. Norasidalarim ilk marotaba hayotning zaharli ta'mini tatib ko'rmoqda edilar. Bob ishlab o'tirgan yeridan turib, bir so'z aytmay tashqariga chiqib ketdi. Bu orada tergov ishlari boshlandi, hamma yoq ag'dar-to'ntar bo'lib ket-di, ish sudga oshirildi. Ertasi kuni ertalab Bob to'g'ri sudyaning oldiga bordi-da, pulni u o'g'ir-laganini bo'yniga oldi. U katta pulni poker o'yini-da yutqazib qo'ygani aytdi. O'n besh daqiqa ichida ular jinoyatni fosh etishib, shuncha yillar mobaynida men uchun jon-u jigarimdan-da aziz-roq bo'lgan insonimni hibsga olish uchun ruxsat-noma so'rashdi.

– Shunday qilishim shart, – dedim men Bob-ga. – Ana mening uyim, ana idoram. Bu yoqqa qarasang Mayne, undan narida esa Kaliforniyaga yo'l turibdi, undan u yog'i bo'lsa bepoyon Flori-da. Mana, mening senga beradigan imkoniyatim. Sud kunigacha senda shu imkon bor, Bob. Sen mening ayblovimdagi odamsan, shunday ekan, bor javobgarlikni o'z bo'ynimga olaman.

– Rahmat, Tom, – dedi u beparvolik bilan.
– O‘zim ham sen meni ozodlikdan mahrum etmassan, degan umid bilan yashayotgandim. Sud kelgusi dushanba kuni, demak, ungacha qolgan vaqtimni idorada o‘tkazsam qarshi bo‘lmaysan. Agar malol kelmasa, sendan yana bir narsani iltimos qilsam. Bolalaring bilan hovlingda maza qilib, bir yayrab-o‘ynab olsam, degandim.

– Nega malol kelsin? – deb javob berdim men uning iltimosiga. – Ular juda xursand bo‘lishadi. Bemalol, uyimga har doimgidek kelib turaver. Ko‘rdingizmi, janob Netlvik, odam do‘sti hatto o‘g‘ri bo‘lib chiqsa ham uni o‘g‘ridek qabul qilolmas ekan.

Nazoratchi lom-mim demadi. Shu lahzada u stansiya yonidan sudralib o‘tayotgan lokomotivning chinqiroq hushtagini eshitib qoldi. Bu janub tarafdin San-Rozarioga yetib kelgan poyezd ovozi edi. Shu tobda mayor ham qulog‘ini bir qoqib oldi-da, bir on tashqariga quloq osdi, so‘ngra qo‘l soatiga qaradi. Poyezd o‘z vaqtida, roppa-rosa soat 10:35 da stansiyaga yetib keldi. Mayor Tom hikoyasini kelgan joyidan davom ettirdi:

– Shunday qilib, Bob bir muddat idora ichida sandiroqlab yurdi, qog‘ozlarni o‘qidi, chekdi. Men uning o‘rniga boshqa o‘rinbosar tayinladim, oradan vaqt o‘tishi bilan bo‘lgan ishlar asta-sekin unutila boshladi.

Kunlardan bir kun ishxonada bir o‘zimiz qolganimizda Bob oldimga keldi. Uning rangi oqarib, xuddi kasalga o‘xshab ko‘rinardi – u avvallari bizlar otar boqib yurgan davrlarimizda xuddi shunaqa bo‘lib ketardi.

– Tom, – dedi u, – bilasanmi, men juda qiynalib ketyapman. Bilasanmi, bu hol misoli qaynoq lava otilib turgan hududda yerga bag'ir bosib yotishdan-da azobliroqdir. Ammo shunday bo'lsa-da, men oxirigacha sabr-toqat qildim. Mening tabiatim qandayligini o'zing yaxshi bilasan. Biroq shunday bo'lsa-da, sen ko'nglim uchun bo'lsayam menga ozgina ishora berib qo'ysang bo'lardi. «Bob, men tushunaman, senga oson bo'lmayapti», – deb bir og'iz aytib qo'ysang, ko'nglim tog'dek ko'tarilib qolardi.

Men hayron bo'lib qoldim.

– Gaplaringga tushuna olmayapman, Bob, – dedim unga hayrat bilan qararkanman. – Albatta, men senga qo'limdan kelgan ko'magimni berdim. Senga imkoniyat ham berdim. Bu gaplaring bilan sen meni o'ylantirib qo'yding.

– Yaxshi, Tom, – deb qo'ydi Bob. Uning bor aytgan gapi shu bo'ldi, xolos. Borib, o'qiyotgan gazetasini qo'lga oldi-da, tamaki tutatdi.

Men uning o'sha kuni nima demoqchi ekanligini sud kunidan bir kun oldingi tunda tushunib yetdim. O'sha oqshom ham men o'sha-o'sha eski asabiy holimda uxlashga yotdim. Qoq yarim kechda birdan uyg'onib ketdim. Qarasam, yarim yalang'och holda yo'lakchada yurib ketyapman. Bir qo'limdan Bob, boshqasidan oilamiz shifokori tutib olgan, Alisa titrab-qaqshagancha, yig'lam-sirab orqamda ketardi. U avvalroq mening bu ahvolimni bilmasdan shifokorga odam yuborgan, shifokorimiz kelib ko'rsaki, men joyimda yo'qman – shundan keyin hammasi birgalashib izlashga tushgan ekan.

– Qattiq uyqusirash natijasi bu, – deb xulosa chiqardi doktor.

Barchamiz uyga qaytib kirdik, shifokorimiz bu kabi holatga tushgan bemorlari bilan bog'liq qiziq-qiziq hikoyalarini aytib, ko'nglimizni biroz ko'targach, uyiga jo'nadi. Tashqariga chiqib qaytganimdan beri o'zimni anchagina sovqotib ketganimni sezdim, etim junjikib kiyim javoni eshigini ochdim-da javon ichiga joylab qo'yilgan katta qavima ko'rpani sudrab tushirdim.

Shu tobda ko'zlarim nimani ko'rdi, bilasizmi?! Bob o'g'irlagan deb gumonsirab yurgan bir sumka pul shundoq qavima ko'rpa ichidan sochilgan-cha tashqariga tap etib tushgandi. Men galvars uni shu yerga qo'ygan ekanman! Eh, kallavaram! Endi nima bo'ladi?! Axir sud ertaga bo'ladi-kul!

– Pul mana ekan! – deb chinqirib yuboribman. Uydagilar hammasi yugurib kirib, hayratdan dong qotib turganimni ko'rishdi. Bob hali ketmagan ekan, u bir soniyadayoq hammasini tushundi.

– Eh, sen esipast eski uyquchi-ey! – deya kulimsiradi u. Bobning yuzlarida menga juda qarddon bo'lgan issiq ifoda aks etib turardi. – Men buni shu yerga qo'yganingni ko'rgandim, – dedi u. – Seni seyfni ochib, pulni olgan kuning orqangdan kuzatgandim. Sen uyingga kelib, uni shu kiyim javoni ichiga berkitib qo'yding, men buni derazadan ko'rib qoldim.

– Eh, Bob! Nimalar deyapsan?! Unda nega bir og'iz menga rostini aytib qo'ya qolmading? Eh, sen quloqsiz kallavaram! Nimaga pulni men oldim, deb aytding bo'lmasa?! Uyatchan cho'pon!

– Chunki, men, – dedi Bob ma'yus tortib, – men sening uyqusirayotganingni bilmagan edim.

Eshik ostonasida turgan ko'z qorachiqularim – Jek bilan Zilaga qaradim-u Bobning menga qilgan muruvvatini his etdim. U ana o'sha xosiyatsiz pullar uchun meni emas, o'zi qurbon bo'lishni istagan, bolalarimning tirik yetim bo'lib qolishini tilamagan edi. O, do'stginam Bob!

Mayor Tom biroz nafasini rostlab oldi va yana derazadan tashqariga ko'z yugurtirdi. U ro'parasida ko'krak kerib turgan Stokmen Bankiga nazar solarkan, oftobning zarrin nurlarida yalt-yult qilib turgan bank derazasi oynalariga qarab ko'zlari qamashib ketdi.

Netlvik kursisida qaddini tik tutib o'tirardi. U kekxa Tomning hikoyasini sabr bilan tinglagan, lekin unga aslida zig'ircha ham qiziqmagan, u ko'proq bu hikoyani bankda yuz bergan ayni damdagi muammo jarayoni uchun qanchalar bemavrid va tuturiqsiz ekanligi xususida o'ylab o'tirardi. «Bu g'arbliklar, – deb xayolidan o'tkazardi u, – hissiyotga o'taketgan beriluvchan odamlar bo'lisharkan. Ular biznes ishiga umuman yaramaydi. Ular faqat o'z ulfatlaridan ehtiyot bo'lishni bilishadi, xolos».

Nihoyat, mayor uzundan-uzun hikoyasini yakunladi. Uning bu hikoyasi bilan nima demoqchi ekanligini nazoratchi tuzukroq anglay olmadi.

– Sizdan bir narsani so'rasam maylimi? – dedi nazoratchi. – Hammasi borib, baribir shu savolga borib taqalyapti-da: Siz yo'qolgan pullarni nima qilgandingiz?

– Yo'qolgan pullar! – mayor Tom kutilmaganda oyoqqa qalqidi, qarshisida o'tirgan nazoratchiga yeb qo'ygudek bo'lib qaradi.

– Nima demoqchisiz o'zi, janob?

Shu payt mayor Tom cho'ntagidan bir bog'lam qilib buklangan qog'ozlarni oldi-da, ularni Netlvikning qo'liga irg'itdi.

– Bor izlaganingiz shumidi, janob? – dedi u achchiqlanib. – Sizning izlaganingiz faqat pul, faqat mablag', faqat qimmatli qog'ozlar, shu faqat! Siz hisobot daftarlarini titkilab, iskayotgan paytingizda bularni ataylab berkitib qo'ygandim. Ana oling, qo'lingizdagi raqamlar bilan solishtirib chiqing!

Shunday deb mayor Tom xonadan chiqib, bankning orqa tarafiga o'tib ketdi. Hayratdan karaxt bo'lib, gangib qolgan nazoratchi nima deyishni bilmay, uning ortidan ergashdi. U birdan bularning barini aniq xiyla ekanligini fahmladi. Bu g'arblik mayor uni yer bilan bitta qilib tashlagan, hattoki nazoratchining rasmiy faoliyatiga ham zig'ircha parvo qilmagan edi. Axir bu borib turgan bema'nilik-ku! Nima bo'lgan taqdirdayam yangi kelgan bu nazoratchi o'zini tahqirlangan va kamsitilgan his qildi, u ilgari sira-sira bunday ko'ygaga tushmagan edi.

Sovuq ko'zlari bilan garov pullarini teshib yuborguday bo'lib, ularni tekshirib chiqarkan, Netlvik hisoblarning hammasi qo'lidagi raqamlarga muvofiq kelganini ko'rdi, oxiri u tund qiyofada qora charm papkasini ko'tarib, jo'nab ketishga chog'landi.

– Aytib qo'yay, – dedi u qat'iy norozi ohangda, uning darg'azab nigohi mayor Kingman tomonga tikilgan edi, – sizning bayonotingiz, ya'ni sizning shu be'mani bayonotingiz biznes ishi uchun hurmatsizlik yoki ochiqdan-ochiq kulgi bo'lib izohla-



nadi. Albatta, mendek oqil kishi bunga o'xshash ahmoqona xatti-harakat va yoki jinnilarcha usullarga aqlim yetmaydi. Bunday qiliqlar faqat sizdek ezma chollarninggina qo'ldan keladi faqat.

Mayor Tom nazoratchiga mayinlik bilan, ammo shafqat tilamagan nigohda boqdi:

– O'g'lim, – dedi qariya, – erkaklar o'rtasida haqiqiy erkakcha odatlar bo'ladi va unday odatlar daralarda yoki cho'l-u biyobonlarda kerak bo'ladi. U odatlarni lekin sen tushunmaysan. Ammo shunga qaramay, men senga menday ezma bir cholning siyqasi chiqqan, zerikarli hikoyasini toqat qilib tanlaganing uchun rahmat aytaman. Baraka top! Biz keksa texasliklar boshimizdan o'tgan hangomalarni, eski do'stlarimiz, eski sarguzashtlarimizni hikoya qilib berishni yaxshi ko'ramiz juda. Uydagilar ham bizning «Bir vaqtlar...» deb boshlanadigan bir xil hikoyalarimizdan bezor bo'lib ketgan. Shuning uchun bironta begona odam ko'rdikmi, darrov yana gapxonamiz darvozasi ochilib ketadi.

Mayor Tomning yuzlariga nim tabassum yoyilib turardi. Nazoratchi Netlvik esa cholning gaplariga miq etmadi-da, unga sovuqqina ta'zim qilib, qo'rslik bilan yurib, nihoyat bankni tark etdi. Bankdagilar uni ko'chani kesib o'tib, Stokmen Banki ichiga kirib, ko'zdan g'oyib bo'lganini ko'rishdi.

Yengil nafas olib stoli oldida bamaylixotir o'tirar ekan, mayor Tom ichki cho'ntagidan ertalab Roy berib ketgan maktubni qo'liga oldi. U xatni bir marta shoshila-shoshila o'qib chiqqandi, biroq hozir maktubni yana o'qiyotgan chog'ida

ko'zlarida nimadir yilt etib ketdi. Xatda shunday so'zlar yozilgandi:

– Qadrdonim Tom! Eshitdimki, Sem tog'aning iskovuch itlaridan biri hozir sening bankingda emish. Mening sendan so'ramoqchi bo'lganim, og'ayni, o'sha yaramasni ichkarida ikki soatcha ushlab tursang. Menga bir yaxshilik qil, do'stim, iltimos sendan! Bizning bankda hozir atigi ikki ming ikki yuz dollar pulimiz qolgan, qonun bo'yicha esa o'zi yigirma ming dollar mablag' bo'lishi kerak. Men kecha Ros bilan Fisherga anavi Jibsonning chorva mollarini sotib olishiga ruxsat berib yubor-gandim. Ular bu chorva mollardan o'ttiz kun ichi-da qirq ming dollar daromad qilishar ekan. Ammo bu holni hech bir insofli bank nazoratchisi bo'lsa ham tushunmaydi. Ayni paytda men boshi berk ko'chaga kirib qoldim. O'sha pullarni joyiga qa-ytarib qo'yib turishimiz uchun ancha vaqt kerak bo'larkan. O'zing bilasan, Pink Ros bilan Jim Fisherning Xudoyimning mo'min bandalari, men ularga butunlay ishonaman. Lekin Jim Fisher menga olgan yigirma ming dollar pulni Sem Brod-shouning bankidan olib, 10:35 da San-Rozarioga kirib keladigan poyezd orqali jo'natib yuborishini aytgandi.

O'zingniyam aqling yetib turgandir, har qan-day nazoratchi ham yigirma ming dollar o'rnida ikki ming ikki yuz dollar pul turgan bankni shartta yopib qo'yishi turgan gap. Shuning uchun, Tom, o'tinaman, o'sha nazoratchini ushlab tursang. Bir amallab o'sha galvarsni ichkarida tutib turgin, og'ayni! Bilmadim, qanday ushlab turasan, uni ar-qon bilan bog'laysanmi, aldaysanmi, nima qilsang ham, boshidan bosib turib bo'lsa ham olib o'tir-

gin. Derazadan 10:35 da keladigan poyezdning hushtak ovozigga quloq tutib tursang bas. Biz o'sha poyezd kelishi bilan pulni olamiz-u ichkaridagi hisob-kitobni to'zg'rilab qo'yamiz. Lekin poyezd yetib kelmaguncha anavi iskovuch itni aslo qo'yib yubormagin. Men senga ishonaman, Tom!

*Sening qadrdon do'sting Bob Bukli
Stokmen Milliy Banki*

Mayor Tom xatni o'qib bo'lganidan keyin uni mayda-mayda bo'lakchalarga yirtdi-da, burchakdagi axlat qutisi ichiga tashladi. Uning yuzlarida mamnun tabassum balqidi:

– Voy, uchiga chiqqan shayton-ey! Voy, sen podachi og'aynim-ey! – derdi u o'ziga o'zi xursand bo'lib. – Bundan yigirma yil oldin sherifning idorasida menga qilgan yaxshiliging haqini mana endi to'lab qo'ydim, aziz do'stim!

Ingliz tilidan
Qandilat Yusupova
tarjimasi

YASHIRIN XAZINA

Bu hayotda turli xil tentaklar uchrab tura-di. Shunday tentakliklardan birini tinglashga hushingiz va vaqtingiz bormi, aziz kitobxon? Agar bor bo'lsa, men hozir sizlarga bitta voqeani hi-koya qilib beraman.

Boyagina o'zim tilga olgan ahmoqlardan biri mening o'zim bo'lsa ne ajab? Butun umri davomida har balo ishlarni boshdan kechirgan, hali u ko'chaga, hali bu ko'chaga kirib-chiqaverib, pulni huda-behudaga sovurib ketaveradigan g'irt ovsarlardan biri ham o'zim bo'laman. Illo, mening tabiatim shunday ediki, bir qiziqqan ishimi oxiriga yetkazgunimcha hech tinchiyolmasdim. Binobarin, yashirin xazina ortidan qilgan qidiruvim ham shular jumlasidan bo'ldi. To'g'ri, ayrimlar uchun bu qabilidagi ishlar biroz nosoz, biroz erish bo'lib tuyuladi ham, ammo beshikdan tekkan kasallik shu bo'lsa, uni harchand uringan bilan sira yo'q qilib bo'lmaydi ham.

Ammo muhtaram kitobxonim, men aytib berajak hikoyani batafsilroq tushunib yetmoqliklari uchun so'zni xazina ortidan qilgan safarimdan emas, yanayam avvalroqdan – sohibjamol miss Martaga ko'ngil qo'ygan damlarimdan boshlay qolaman. Go'zal miss Marta! Ko'zlarimni yumdim deguncha u oppoq farishtaday, beg'ubor nafasli

o'n sakkiz yoshli xushsurat sanamning chehrasi tinmay ko'rinaverar edi. Shunday dilbar jonon Texasning tor va zerikarli, diqqinafas go'shasida istiqomat qilardi. Miss Martaning bor jozibadorligi nimada ekanligini men bechora sira-sira anglab yetolmasdim, yonoqlarining har mahal yoqut misol, qulupnaylar kabi yal-yal tovlanib, ko'rgan odamni beshbattar o'ziga mahliyo qilaverishi siri men uchun hech yechilmas tugunday maxfiy bo'lib qolaverardi.

Anglab turganingizday, har bir oshiq istagi singari men ham sevikligim miss Martaga tezroq yetishib, uni o'zirniki bo'lishini jon-dilimdan qattiq istar edim. O'zimcha, xayolimda shunday manzara ham chizib olgandim: go'yo sohibjamol miss Marta men bilan birga yashaydi-yu, men har kech ishdan horib-charchab qaytganimda, u mening shippaklarimni men topa olmaydigan xilvat bir yerga olib, yashirib qo'yadiganday tarzda shirin xayol qilaverardim. Bu eng lazzatli tasavvurim edi.

Miss Martaning dadasi katta shopmo'ylovli, doim ko'zoynak taqib yuradigan injiqqina kishi edi. U butun hayoti davomida hasharotlar ilmi bilan shug'ullanib, o'rmalaydigan va vizillaydigan nimayiki bo'lsa, barining tili bilan til topishib, o'sha jonzotlar uchun fidoyi bo'lib yashayotgan g'aroyib odam edi. U butun hayotini hasharotlarning so'zsiz zaborini o'rganib, ularga nom qo'yib, o'sha hasharotlarni asrab-avaylash bilan umr o'tkazgandi.

U bilan miss Marta butun bir oila hisoblanardi. Chol qizini behad ko'klarga ko'tarardi, negaki miss Marta anchagina hushyor qizlardan bo'lib, otasining issiq-sovug'idan vaqtida xabar olib tu-

rar, kiyim-kechaklarini o'z vaqtida to'g'rilab qo'yar va hamisha cholning xumorbosti ichimliklarini to'ldirib saqlab turardi. Axir olimlar tabiatan tuzukkina parishonxotir bo'lishadi, ularga miss Martaday epchil yordamchi hamma vaqt kerak.

Darvoqe, yana bir muammoli boshog'rig'im ham yo'q emasdi bu yerda: miss Martaga erishmoqchi bo'lib yurgan mendan bo'lak yana bir oshiq ham bor edi. Uning ismi Gudlu Banks bo'lib, endigina kollejni bitirib, uyiga qaytgan bitta g'o'r bilag'onlardan edi. Biroq mendan yuqori tomoni shunda ediki, u, deyarli barcha kitoblarni – lotin, grek, falsafa va ayniqsa, matematika bilan mantiq ilmini suv qilib ichib yuborgandi.

Binobarin, men uning ilm bo'yicha bahs-munozara ketib, butun bilimni namoyish etgan chog'larida, unga ich-ichimdan havas qilib qo'yardim. Lekin, o'rtada baribir bir to'siq mavjud edi. Muhabbat mojarosi oldida ko'zimga, albatta, bilag'on Gudlu Banks aqli aslo inson sifatida gavalanmas, zotan ikkimiz bir-birini yeb qo'yishga tayyor ashaddiy raqiblar edik.

Har ikkalamiz ham o'z-o'zimizcha sevgilimizga yetishish yo'llarini qidirar, dil izhorlarimizni o'sha lozar qizga qanday qilib yetkazish xususida bosh qotirardik. Yanayam g'ashimni keltiradigan holat shu ediki, yaramas Gudlu Banks mening yonimda miss Martaga bo'lgan hissiyotlarini zig'ircha ham yashirib o'tirmasdi. Raqiblar o'zi shunday bo'ladi, aslida.

Ehtimol, siz chindanam o'sha Gudluning kitob ko'rganligi, madaniyati, yurish-turishi-yu aqllilardek kiyinib yurishlari uchun, uni mendan balandga qo'yayotgandirsiz. Biroq kamtarlik bilan

kezi kelganda aytib o'tishim joizki, kamina ham hech kimdan qolishmaydigan darajadagi mohir chavandoz edim.

Ammo baribir ikki raqib oshna birga o'tirvolib, sevikli miss Marta to'g'risida suhbat qurib o'tirganimizda, na bechora Gudlu Banks va na men sho'rlik oshiq qizning qay birimizni afzal ko'rishini aniqlay olmasdik. Zero, miss Marta ham tabiatan nihoyatda kamgap, sirli-salobatli, uyatchangina qiz edi.

Yuqorida ham aytib o'tgan edim: kekxa chol Mangum ota o'ta parishonxotir odam edi. Kunlarning birida u g'alati bir gap topib oldi. Emishki, unga sevikli kapalaklardan biri qizining boshi ustiga qandaydir ikkita yosh yigit tuzoq qo'ymoqchi bo'lib yurganini, oldindan ehtiyotini qilib qo'yishini maslahat berib qo'yganimish.

Shaxsan men odamovi olimlarning bu kabi g'ayrioddiy gaplarini izohlab yechishga ko'pam aqlim yetavermaydi. Shu holatimni sezgan kekxa Mangum men bilan Gudluni uyi atrofida boshqa izg'ib yurmasligimizni, yo'qsa oxiri voy bo'lishidan ogohlantirib qo'ydi. Yana qiziqchi chol shuni ham gapiga qo'shib qo'ydiki, agar yana bizlarni uyi orqasida aylanib yurganimizni ko'rib qolgudek bo'lsa, bizni naq hasharotlar kolleksiyasiga qo'shib yuborar emish!

Cholning po'pisalaridan hayiqib, biroz tiyildik, besh-olti kuncha bu avji-bo'ronning tinishini kutib turdik. Kunlarning birida yana tarki odat amri mahol deb, sevgilimiz miss Martaning uyi atrofiga yaqinlashganimizda, ne ko'z bilan ko'raylikki, miss Marta bilan uning otasi uylarini allaqachon tark etib, qayoqqadir g'oyib bo'lishibdi!

Ular ijaraga olgan uy yopiq turar, ichida esa jon zoti yo'q edi! Hatto ularning chog'roqqina mol do'koni ham mahkam qilib berkitib qo'yilgandi.

Mazkur holatda Gudlu bilan men, ya'ni ikkalamiz birdek nima qilishni bilmay, butunlay dovdirab qoldik. Negaki, hatto miss Martaning o'zi ham biz tugul, boshqa hech kimga jo'nab ketishlari haqida lom-mim demagan edi. Bu esa bizga juda katta zarba bo'lgandi.

Qariyb ikki oy mobaynida Gudlu Banks va men bir-birimizdan ayro holda g'oyib bo'lganlar izini qidirish bilan ovora bo'ldik.

Biz hamma chipta sotuvchi nozimxonalarni, temiryo'l boshliqlarini, transport tizimi yo'lga qo'yilgan har bir tashkilotni birma-bir so'roqqa tutib chiqdik, lekin afsuski, harakatlarimizning bari samarasiz ketdi.

Boshimizga bir xil musibat tushgach, ikki raqib hamdard og'ayniga va ayni damning o'zida yanayam keskir dushmanlarga aylanib qoldik. Har kuni ishdan keyin Snidersning pivoxonasida to'planib o'tirar, domino o'ynab, qidiruvlarimizdan biron-bir natija chiqqan-chiqqanmaganligini bir-birimizdan so'rab, gap tashlab o'zimizcha dardlashar edik. Raqiblarning odati shunday bo'ladi, aslida.

Gudlu Banksning menga yoqmaydigan jihatlardan biri shunda ediki, u o'zining bilag'onligini istehzoli yo'l bilan boshqalar oldida ko'z-ko'zlab qo'yardi. Ko'pchilik bilan o'tirgan paytlarimizda u ataylabdan ovozini chiqarib:

«Bechora Jeyn Rey, uning qushchasi halok bo'ldi, sho'rlik endi nima qiladi», kabi kitobiy gaplarini aytib, nafsoniyaitimga tegardi. Bi-

roq men Gudluning kollejda olgan chala-chulpa bilimlarini u qadar yuqori o'ringa qo'ymasam ham, doim uning aqliga hech bir ortiqcha gap qilmasdan, hurmatini qilib kelganman. Shunday ekan, uning fisq-u fasod gap-so'zlariga qarshi hech narsa demasdan, o'zimni imkon qadar bosiq tutardim. Holbuki, u miss Marta to'g'risida biron-bir ma'lumot topmasdan qo'ymasdi ham, sevgim haqqi bu maqtanchoq Gudluni o'ldirib qo'ygim kelib turgan bo'lsa-da, g'iq etmay, uning yaramas qiliqlariga sabr qilishga majbur edim.

Kunlarning birida o'rtada tag'in miss Marta xususida so'z ketganida Gudlu menga dafatan shunday deb qoldi:

– Xo'p, qadrdonim Jim, suygan ma'shuqangni topding ham deylik, lekin buning oqibati nima bilan tugaydi? Miss Martaning ham o'z aqli bor axir. Ehtimol so'zlarim hamiyatingga tegar, ammo qiz sen unga berajak narsalardan ham balandroqlarini ko'zlayotgandir. Menga ishonmasliging mumkin, og'ayni, lekin barcha qadimgi va zamonaviy shoir-u yozuvchilarning hayot falsafalarida shunday deb aytilgan. Balki sen miss Martani qidirib bekorga ovora bo'layotgandirsan?

– Mening orzuyim, – deb javob berdim qat'iyat bilan shum raqibimga qarab. – Texasning chog'roq bir go'shasida bo'lsa ham tinchgina sakkiz xonali uyda o'z sevganim bilan baxtli umr kechirishdir. Mehmonxonamda ajoyib pianino tursa, qo'ramda uch ming bosh qo'y-qo'zim bo'lsa, poni otlarim hamisha bog'liq tursa-yu, miss Marta o'zi istaganidek rancho ishlarini o'z bilganicha yuritsa va har kech men ishdan qaytgan vaqtimda shippaklarimni va tamakimni bir chetga olib qo'ysa-da,

men sira ularni topolmay, xunob bo'lsam... Mana shular mening orzularim bo'ladi. Bular sen aytgan har qanday falsafa va mantig'ingdan ko'ra yuqori turadigan eng ezgu tushunchalar bo'ladi, do'stginam!

– Qiz baribir juda yuqori osmonlarda uchib yurgan bo'lishi mumkin, – deb takrorladi yana Gudlu Banks.

– U nimani orzu qilayotganini bilmadim-u, – dedim men unga javoban. – Ammo ayni chog'da miss Marta bilan uning otasida sariq chaqa ham qolmay, tirikchilikdan qiynalib qolganliklari aniq bo'lishi kerak. Endi hech kimning yordami ham kerak emas, bir o'zim qizni topib, olib kelaman, albatta.

– O'yin tugadi, – dedi Gudlu va biz dominoni yig'ishtirib, pivo ichishga o'tirdik.

O'sha voqeadan keyin hech qancha o'tmay, menga tanish bo'lgan bir yosh fermer qo'limga buklangan qandaydir ko'k qog'ozni olib kelib tutqazdi. Aytishicha, yaqinda uning otasi vafot etganmish. Men ko'zlarimdagi yoshni yashirishga urindim, fermer bola bo'lsa gapida davom etib, otasining bu xatni yigirma yildan buyon asrab-avaylab kelayotganini bildirdi. Marhum ota butun mol-muikini oilasiga meros qilib qoldiribdi, ikki dona xachir va ekiladigan bo'sh yerlari marhumning topgan-tutgan bor boyligi edi.

Xat yozilgan qog'oz nihoyatda eski, qadimda ixtilofchilarga qarshi kurashgan isyonchilar davrida ishlatilgan qog'ozlardan edi. «Bu maktub 1863-yilning 14-iyunida bitilgan», – deb imzo qo'yilgandi, eng asosiysi, xatda yozilishicha, bahosi uch yuz ming dollarga teng bo'lgan yashirin

tilla va kumush tangachalarning ko'milgan yeri xususida aytib o'tilgandi. Qarshimda turgan Sem ismli ushbu fermerning Randl ismli buvasi o'sha sirli boylikni ko'p yillar ilgari uning uyida jon bergan bir ispan avliyosi tomonidan berkitib qo'yilganini ham ma'lum qilgandi.

Bu tafsilotlarning barini kekxa Rendl o'z xatida yozib qoldirgan edi.

– Nima uchun otangning o'zi buvang yozib ketgan mana shu xazinani qidirib topmagan ekan? – deb so'radim men Rendldan.

– U bu boylikni izlab topaman deguncha ko'zlari ko'r bo'lib, noiloj bo'lib qoldi, – deb javob berdi yigitcha.

– Unda nega sen o'zing qidirib ko'rmaysan? – deb so'radim men yana.

– Bilasizmi, – dedi u shunda astoydil tushuntirishga o'tib. – Men bu xatdan o'n yil oldin voqif bo'ldim.

Bizda ish ko'p, dehqonchilik... Bilasiz. Dastlab bahor kelgan palladan boshlab yer haydash bilan mehnatimiz boshlanib ketadi, keyin esa yerni begona o'tlardan tozalab, chopiq qilib chiqamiz. So'ngra ekinlarimizni ekib, undan hosil ko'targunimizcha kuz ham bir zumda darrov o'tib ketib qoladi. Undan keyin esa qahraton qish kirib kelib, hamma uy-uyiga biqinadi.

Bizning turmushimiz shu-da, yil ketidan yillar mana shu tarzda o'tib ketaveradi. Qora mehnatdan bo'lak ishlarga hech qachon vaqtimiz bo'lmaydi.

Yigitchaning samimiy ohangda aytgan gaplari menga haqqoniy, ancha haqiqatga yaqin so'zlar bo'lib eshitildi, shunday ekan, yosh Li Randlning bergan taklifini hech e'tirozsiz qabul qila qoldim.

Xatda yozilgan ko'rsatmalar juda oddiy edi. O'sha kekxa ispan avliyosi ko'rsatgan yo'llar xuddi xaritada tekis chizib qo'yilgandek aniq va ravon edi. Qidiruv dastlab katta daryo bo'yidan boshlanib ketar, albatta, tadqiqotimizdan avval ayrim huquqiy idoralardan ruxsatnoma olib qo'yish lozim bo'lardi.

Zotan, qo'limizda huquqiy ijozatnoma bo'lgach, biz hech qanday tekshiruvchiga muhtoj bo'lmas ham edik. Vaholanki, yollangan tekshiruvchi uchun ham ortiqcha chiqim bilan pulning sovurilgani qolardi, xolos.

Shunday qilib, yigitcha Randl bilan men kerakli ko'mak vositalari ortilgan ikki otdan iborat vagonni o'rnatdik-da, tezroq yetib olishni ko'zlayotganimiz bir yuz qirq to'qqiz mil naridagi Chiko degan shaharchaga qarab shoshib yo'lga tushdik. Baribir mashaqqatli qidiruvimizda bizlarga bir nazoratchi kerak bo'larkan. Vaziyat taqozosi bilan grafikdan bitta nazoratchi, ya'ni yo'l ko'rsatuvchini ham o'zimizga hamroh qilib oldik.

Tekshiruvimizning birinchi qadamidayoq besh ming yetti yuz dollardan judo bo'ldik, safar uchun xarajat va qidiruv yo'llarimiz uchun shuncha pul o'z-o'zidan sovurilib ketdi. Chikoga yetib olganimizdan keyin issiq qahva bilan tuzlangan cho'chqa go'shti yeb o'tirarkanman, oldimga xazina chizmasi ko'rsatilgan qog'ozni yoyib, yana sirli boylik yo'llarini sinchiklab kuzatar edim.

Ammo mening aniq ishonchim komil ediki, biz baribir ko'zlagan o'sha katta pulimiz – uch yuz ming dollarni oxir-oqibat qo'lga kiritar edik. Li Randler ushbu mablag'ning faqat uchdan biri-

gagina ega bo'lardi, negaki xarajatlarning hammasini men qoplayotgandim. Yonimga qoladigan ikki yuz ming pul bilan esa men miss Martani qayerdan bo'lsa ham topa olishimga ishonardim. «Yo Xudo, ilohim miss Marta shu yer yuzida hayot yurgan bo'lsin...», derdim ich-ichimdan qattiq qo'rqib. Ba'zan hatto xuddi kekxa Mangum chol singari qanotli do'stlar-kapalaklar bilan ham hasratlashib ketardim. Qaniydi, qaniydi tezroq o'sha xazinani topib olsam edi!

Tuzukroq o'rnashib olaylik deb, Li bilan men xavfsiz bir joyga chodir qurib oldik. Oldimizdan oqib o'tgan ulkan daryoning u tarafida, olis-olislarda bir-biriga aka-ukalarday bo'lib quchoqlashib yotgan azim tog'lar yastanib yotar, ularning tagida yashil ignabargli daraxtlar quloch otib o'sar, lekin bularning qay biri atrofiga sirli xazinamiz ko'milganini aqlimiz bovar qilmasdi hech. Ammo biz ham qaysarlik bilan o'z niyatimizdan qaytmas edik. Axir tashqi qiyofalar aldamchi bo'ladi. Bunday sirli tadqiqot natijasida ko'zimizga har balo ko'rinishi tabiiy, albatta.

Marhum Rendlning yosh nabirasi bilan birga xayolimizga kelgan hamma joylarni, daryo bo'ylari, qiyaliklar, tog' nishabliklari, tekis, yaydoq bo'lib yotgan bo'm-bo'sh yerlar – barini birma-bir qidirib chiqdim. To'rt kunni faqat ana shunday, yer iskab o'tkazdik. Tadqiqotim hech bir samara bermagach, zudlik bilan ot-ulovni yana egarladim-da, bir yuz qirq to'qqiz mil narida qolgan Koncho shaharchasi tomon qaytish uchun yo'lga otladim. Qaytib kelayotganimizda Li Randl hafsalasi pir bo'lganidan yo'lga

ko'p tamaki tortib keldi. Men bo'lsa tinmay otni chuv-chuvlash bilan band edim, chunki nihoyatda shoshayotgandim.

Quruq qo'l bilan ortga qaytishimga qaramay to'ppa-to'g'ri Sniderning pivoxonasida domino o'ynab, ko'ngil ochib o'tirgan raqibim Gudlu Banksning oldiga or qilmasdan kirib bordim. Unga sirli xazina ortidan qilgan tadqiqotim to'g'risida gapirib berdim.

– Agar marhamatli Tangrim meni ham yorlaqab, o'sha uch yuz ming dollarni qo'lga kiritib olsam, – dedim men unga orzu bilan to'lib-toshgancha boqarkanman. – Butun dunyoni ostin-ustin qilib bo'lsa ham sevikli miss Martani qidirib topgan bo'lar edim!

– Eh, qizning xayoli osmonlarda bo'lsa kerak, uni baxtli qila olarmikansiz? – dedi Gudlu eski safsatasini boshlab. – Uni o'zim topaman. Ammo qiziq, siz qanday qilib yer tagiga qachonlardir ko'mib ketilgan o'sha sirli boylik dardiga mubtalo bo'ldingiz? Men Gudluga bor tafsilotlarni ipidan-ignasigacha tushuntirib chiqdim. Unga hatto qariya qoldirib ketgan, xazina chizmasi ko'rsatilgan xatni ham ochib ko'rsatdim.

Gudlu ustomonlik bilan xatga ko'z qirini tashladi-da, bor gavdasini kursisining orqasiga tashlab, istehzoli, kibr to'la kulgisi bilan xaxolab yubordi.

– G'irt jinni bo'lib qolibsən, Jim, – dedi u nihoyat kulgidan to'xtab.

– Hm-m-m... Tushunarli, – dedim men shunda. – Endi bildim. Bu sening o'yining edi! Birozdan so'ng o'zimni bosib, unga yuzlandim:

– Nega jinni bo'larkanman? Axir ilgarilari ham ko'milgan xazinalarni topib olishgani bor gap-kul!

– To'g'ri, bu ham bor gap, – dedi u gaplarimni ayyorlik bilan tasdiqlab qo'yarkan. – Ammo sen daraxtlar atrofida biroz xatolikka yo'l qo'yibsən. Sen Sharqqa emas, g'arb tarafga qarab to'qqiz mil nariga yurishing kerak edi. Menga qalamingni berib turgin.

Gudlu Banks xat jildining ustiga chaqqonlik bilan raqamlarni yozib ketdi.

– Ispan bobomiz chizib bergan ushbu ko'rsatmada masofa Shimoldan Janubga qarab boshlanishi lozim ekan, – dedi u. – Roppa-rosa yigirma ikki mil yo'l. Hikoyangga qaraganda, sen faqat cho'ntak kompassi bilangina harakat qilgansən. Qidiruv olib borgan daryo esa xazina yashirilgan joydan roppa-rosa olti mil-u to'qqiz yuz qirq besh kilometr narida bo'lgan. Eh, qanday tentak odamsən-a, Ed!

– Sen yana qanaqa masofalar va raqamlar haqida gapirayapsən? – deb so'radim men. – Xatdagi raqamlarning hech qachon aldamasligiga ishonaman.

– Men aytayotgan o'zgarish magnit kompassida bo'lib turadi, – deb tushuntirdi Gudlu. – Sen ana shu kompassga aldanib qolgansən.

Shunday dedi-da, u tag'in kekkayib kulishini qildi, biroq shu tobda uning yuzlarida men aytgan sirli xazinaga bo'lgan ochko'zlik va yashirin qiziqish alomatlarini payqab qoldim.

– Gohi paytlarda, – dedi u xuddi bashoratchilarday ohangda. – Bu kabi yashiringan katta pul ortidan izlanishlar samarasiz bo'lib chiqadi. Mana, sen menga xazina o'rni bayon qilingan

xaritani ochib, ko'rsatib qo'yding. Ehtimol, biz ikkimiz birgalashib...

Shu gapdan keyin muhabbatda ashaddiy ikki raqib g'aroyib sayohatda sadoqatli hamrohlarga aylanib qoldik. Eng yaqin temir yo'l shaharchasi bo'lmish Xuntersbergdan yana Chikoga qarab yo'lga tushdik. Chikoga yetib olgach, u yerda ot-vagon bilan tanish nazoratchini yollab oldik. Ammo Gudlu o'sha zahoti tekshiruvni o'zi boshqara olishini ma'lum qilib, nazoratchining xizmatini bekor qildi va shu gapdan so'ng biz uni uyi tomon ravona qildik.

Asosiy manzilga yetib kelganimizda borliqqa zim-ziyo tun cho'kkandi. Men otlarga yem bergach, daryo bo'yiga gulxan yoqib, kechki taom pishirdim. Ovqatni Gudlu ham qilsa bo'lardi, lekin uning oliy ma'lumoti bu kabi ikir-chikirli ishlar uchun unchalik ham bop tushmasdi.

Biroq men kuydi-pishdi qilib yurganimda Gudlu o'zining o'qigan-bilgan voqealarini aytish bilan ruhimni ko'tarib turdi. U o'zicha menda so'na boshlagandek bo'lib ko'ringan umidlarimni uyg'otishga urinardi.

– «Jon kuydirmasang jonona qayda?», – deb shuni aytisharkan-da, a, og'ayni? – derdi u xushchaqchaqlik bilan.

– Bo'lmasam-chi, axir miss Marta samoviy baxtga loyiq qiz, – derdim unga javoban men ham.

– Ajabo, sen unga qanday qilib o'sha samoviy baxtni taqdim eta olarkinsan? Axir o'qimagan bo'lsang? Aksincha, o'qiganlar ustidan masxaralab yursang nuqul, a? Qani, o'zing ayt-chi, agar men o'z bilimim bilan senga qilgan xatoligingni

ko'rsatib bermaganingda, o'sha xazinangni yana qaysi yo'l bilan topishga otlangan bo'larding?

– Eng birinchi bo'lib huv anavi tepaliklar atrofini qarab chiqqan bo'lardik, – dedim men ham bo'sh kelmasdan. – Baribir aytgan xazinamizni izlab topgan bo'lardik. Ammo men haliyam masofalar bo'yicha raqamlarga shubhalanib turibman. Kompasning ham noto'g'ri yo'l ko'rsatishi hech mumkin emas.

Ertasi kuni ertalab ajoyib iyun tonglaridan biri otdi. Biz erta turib, nonushta qildik. Gudluning kayfiyati g'oyatda chog', u men qo'rada cho'chqa go'shti pishirayotgan paytimda bilgan hamma she'rlarini, naqlarini aytib, shinavandalik qilib o'tirdi. Nihoyat, ovqatlanib bo'lgach, daryoni kesib o'tishga shay bo'lganimizda, daryoning u betida o'sib yotgan yashil ignabargli daraxt atrofini qoplagan tepaliklar diqqatimizni tortdi.

– O, Xudoyim-ey! – dedi Gudlu nonushtadan keyin idishlarni yuvayotgan paytimda yelkamga shapatilab qo'yarkan. – Qani, o'sha bizni sehrlab olgan xatingni yana bir ko'rib chiqay-chi. Anavi tepaliklarni qanday tekshirish bo'yicha bu yerda aniq nimadir deyilgan bo'lishi kerak. Yaxshilab qara-chi, Jim, o'sha tepaliklar nimaga o'xshab ketadi? Ilgari sira bunaqa g'aroyib tepaliklarni ko'rmagan ekanman.

– Ma'lumoting bor-ku, o'zing bilib ol, – dedim men ham. – Men bir qarashdayoq ularni nimaga o'xshashini-yu, yoshlari nechada ekanligini darrov aniqlab bo'lganman.

Lekin bu vaqtda Gudlu mening kinoyali gaplarimni eshitmas, u kekxa Randlning maktubiga

ko'z yugurtirarkan, og'zidan eng beadab so'zlar chiqayotgan edi.

– Beri kel, – dedi u xatni quyosh nuriga keng yoygancha tutib turarkan. – Mana bunga qara, – deya u xat yuziga bitta barmog'ini qo'yib ko'rsatarkan. Ajabo, men ilgari sira sezmagani ekanman, ko'm-ko'k qog'oz ustiga oppoq harflar bilan quyidagi raqamlar yozib qo'yilgan ekan: Malvern, 1898.

– Bu nima degani? – deb so'radim men hayratdan dong qotib.

– Suv belgisi bu, – dedi Gudlu. – Bu xat 1858-yilda ishlab chiqarilgan qog'ozga yozilgan. Xatdagi yozuv esa 1863-yilda deb belgilangan. Axir bu g'irt qalloblik-ku!

– Eh! Hech ham bilmagan ekanman! – deb yubordim men qattiq afsus chekib. – Axir Randllar ishonchli va qishloqi halol odamlar edi-ku! Balki qog'oz ishlab chiqaruvchilarda biron xatolik yuz bergandir.

Shundan so'ng Gudlu Banks hech bir tarbiya usuliga mos kelmaydigan eng yovvoyi qiliqlarini ko'rsatdi. U burni ustiga qo'ndirib olgan ko'zoynaklarini yechdi-da, menga o't bo'lib yonayotgan ko'zlarini qadadi.

– Men senga bot-bot aytar edim-a qanchalar ahmoq ekanligingni, – dedi u jahl otiga minib. – Sen bu tentakona sarguzashtlaringni deb aqldan ozding. Pirovardida meni ham yo'ldan urding!

– Qanaqasiga?! – dedim men ham tutaqib ketib, – qanaqasiga men seni yo'ldan urarkanman?!

– Takabburliging tufayli, – dedi u achitib. – Men senga naq ikki marta sayohatingda nuqsonlarni ko'rsatib berdim. Ammo sen baribir tan olmading

sira. Shunda men senga do'stona yordam qo'lini cho'zgim keldi. Lekin men odamgarchilik qilib qo'ydim!

Qo'limda katta qoshiqni o'qtalgancha, Gudluning basharasiga qahrli nigohimni qadab gapira ketdim:

– Menga qarang, hurmatli Gudlu Banks janoblari, – dedim nafrat bilan. – Sizning bir chaqaga qimmat bilimingizga zarracha ham ehtiyojim yo'q edi. Aslida sizning o'zingizda bor o'sha takabburlik! Bu kabi illatlardan men g'oyatda hazar qilaman. Xo'sh, qimmatli aqlingiz sizga nima berdi? Faqat la'nat va yor-u birodarlaringizga bo'lgan malomat, xolos. Jo'nab qoling endi! – dedim shunda yana-da qat'iylashib. – O'sha bema'ni raqamlaringiz-u ahmoqona suv-puv haqidagi belgilaringiz bilan daf bo'ling! Menga ularning tirnoqchalik ahamiyati yo'q! Bu kabi illatlar katta orzuyim yo'lida menga aslo g'ov bo'la olmaydi!

Shunda men jazavaga tushgancha baqrayib turgan Gudlu Banksga daryo ortida turgan kichkina tepalikka ishora qilib aytdim:

– Men xuddi o'sha tog' atroflarini qidiraman, – dedim va yana davom etib aytdim: – Va albatta, izlagan xazinamni topaman! Maqsadingiz qat'iy bo'lgan bo'lsa, ayni daqiqadanoq qaror chiqaring: yo qoling yoki bu yerdan tezda tuyog'ingizni shiqilatib qoling! Aslini olganda-ku, rostakam sayohatchidek holingiz yo'q hech ham. Tez qaror qiling!

Bu asnoda daryo yo'li ustidan oppoq tutun bulutday shaklda osmonga o'rladi. Bu Xesperusdan Chikoga qarab ketayotgan poyezd tutuni edi. Gudlu o'sha poyezdga qarab qo'l silkidi.

– Bo'ldi, men bu kabi qalloblik ishlari uchun ortiq vaqt sarflamayman, – dedi u alam bilan. – Bunaqa qalbaki xatlar uchun faqat tentaklargina bosh qotiradi. Baribir eski gapimni yana qaytaraman: Jim, sen hamisha ahmoq bo'lgansan! Bilganingni qilmaysanmi endi, men ketdim!

Ichidagi bor qahr-u g'azabini sochgach, Gudlu hamma lash-lushlarini yig'di-da, ot-aravaga o'tirib, asabiy holda ko'zoynaklarini yana burni ustiga qo'ndirib oldi-da, shamol tezligida g'oyib bo'ldi.

U ketgach, idishlarni yuvib bo'lib, otlarning oldiga yangi yem-hashak soldim. Daryoning sayoz joyidan ehtiyot bo'lib o'tdim-da, ignabargli daraxtlar qurshab yotgan tepalik tomon odimlab ketdim.

Ajoyib iyun kuni edi. Ilgari umrimda shu bugungi kunda ko'rganimday ko'p qushlar, ko'p kapalaklar, ninachi-yu chigirtkalar va havoda ozod uchib yurgan yana boshqa ko'plab qanotli mavjudotlarni ko'rmagan edim.

Tepalik yoniga yaqinlashib, uning har to'rt tomonini sinchkovlik bilan o'rganib chiqdim. Ammo u yerda sirli xazinadan nishon beruvchi hech qanday alomat yo'qligini ko'rib, ko'nglim cho'kib ketdi. Oxirgi umidim bo'lgan bu tepalik bag'rida na qadimgi daraxtlar qoldig'i, na asriy toshlar bo'lagi va na keksa Randl karomat qilgan uch yuz ming dollardan darak berguvchi hech nima, hech nima yo'q edi!

Oftob pastga og'a boshlagan damda oxiri tepalikdan yerga tushdim. Birdan ignabargli daraxtzor tashqarisida daryo o'zaniga kelib quyiluvchi kichkina irmoq oqib o'tgan bir xushmanzara vodiyya chiqib qoldim.

Ittifoqo, u yerda yovvoyilashib ketgan keksa bir kishiga duch keldim. Soch-soqoli o'sib, to'zg'ib ketgan bu qariya qanotlari olmosdek tovlanib turgan kapalakni quvish bilan ovora edi.

– Bironta daydi telbalardan bo'lsa kerak-da, – o'yladim ichimda, ayni chog'da bu odamzodning ong va madaniyat kabi tushunchalardan qanchalar begona bo'lib ketganiga lol qoldim.

Vodiy ichiga besh-o'n qadam yurishim bilan boyagi kichkina ariqcha bo'yiga qurilgan uzum toklari bilan qoplanib yotgan qishloq uy chasi qarshisidan chiqdim. Shunda... Shunda salgina beriroqdagi o't bilan qoplangan sayhonlikda yovvoyi gullarni yulib yurgan sevikli miss Martani ko'rib qoldim!

Menga ko'zi tushishi bilan qiz ham qaddini rostlab, yuzimga boqdi. Hayotimda birinchi marotaba miss Martaning yuzlariga yaqindan qaradim. Avvallari yangi pianinoning klavishlari kabi oppoq chehra nim pushti rang bilan almashib qizarindi. Men u tomon so'zsiz yaqinlashib boraverdim. Qiz hayratdan karaxt bo'lib qotib qolgan, o'zida emas, hatto qo'lidagi yovvoyi gullari-da bir-bir yerga tushayotganini ham sezmas edi.

– Bir kunmas bir kuni albatta kelishingni bilar edim, Jim, – dedi u dona-dona qilib. – Otam xat yozishimga ham ruxsat bermadi, ammo men... Baribir bir kuni sening kelishingni bilardim. Ha, ha, buni ko'nglim aniq sezar edi!

Bundan keyingi voqealarni ziyrak kitobxonning o'zi-da teran idrok qilib turgandir. Biz dar-yoning u betida qolgan ot-aravam yoniga o'tdik-da, baxtli hayot saroyimizni qurmoqlik uchun o'sha zahoti o'z ona yurtimizga qaytib ketdik.

Men avvallari tez-tez haddan ortiq bilim o'zi foydalana olmaydigan odam uchun nima foydasi bor ekan, deb o'ylardim. Biroq egallangan bilim o'zgaralar baxti uchun xizmat qilsa, unda hamma insonlarning ilmli va tarbiyali bo'lmoqligi muhimdir. Axir yashash mazmuni ham aslida shu emasmi?

Nihoyat, men necha yillik yorug' orzuyimga erishdim: miss Marta bilan turmush qurdim. Xuddi bir paytlar xayol qilganimdek, bir xonasida pianosi bor sakkiz xonali baland imoratda suyuqli ayolim bilan birgalikda yashay boshladik. Yana tilak qilganimdek, naq uch ming boshli chorva molari bilan to'la qo'raga ham erishgandim.

Kechqurunlari esa uyga kelgan vaqtimda shippaklarim bilan tamakim men hech ham topa olmaydigan yerga yashirib qo'yilar va men ham ularni ataylabdan zo'r berib qidirar edim. Zotan ushbu maroqli o'yin asnosida olam-olam baxt tuyg'ularini ich-ichimdan tuyar edim.


- Xo'sh, mening qadrdon shippaklarim bilan sevimli tamakilarim qayerda qoldi? Ularni menga kim topib beradi? Kim?

Ingliz tilidan
Qandilat Yusupova
tarjimasi

ISHBILARMON KISHILAR

Fikri ojizimcha, siz, barchangiz sahna odamlari to'g'risida yetarli darajada yaxshi bilasizlar. Balki, biron akyotr yoki aktrisa bilan tanish-bilishchiligingiz ham bordir yoki ommaviy axborot vositalarida ular to'g'risida berib boriladigan barcha yangilik va ma'lumotlarni ko'zdan sira qochirmasdan kuzatib borishingiz-da, tabiiy holatdir. Aslida, sahna kishilari juda g'ayrioddiy odamlar bo'lishadi. Ular xususida hech qachon tayinli bir gapni aytib bo'lmaydi. Ammo odamlar orasida ular to'g'risidagi haqiqatdan ko'ra ko'proq mish-mishlar oqimi qaynab-gupuradi hamisha.

Mana, masalan, «taniqli bir aktrisaning bit-ta boshiga beshta eri bor emish», deb aytilsa darhol ishoniladi, bu gap og'izdan og'izga o'tib, o'sha zahoti shamol tezligida hamma yoqqa bir-pasda yoyiladi. Ularning hammasining atrofida ham ana shunday shov-shuvli jarayonlar kechi-shi aniq. Lekin xorda ishtirok etuvchi qizlarning boshqa aktrisalardan farqi bor, ular butun shahar bo'ylab tomosha ko'rsatib yursalar-da, atrofida zig'ircha ham ortiqcha g'avg'o qo'pmaydi. Bunday qizlarga esa hamma vaqt talab yuqori bo'ladi. Ammo teatrda hamma ishlar ham joyida emasdi. Aytaylik, mukammal bir sahna asarini yaratish nihoyatda mushkullik tug'dirmoqda edi.



Bizga tanish nufuzli teatrda ham ahvol u darajada qoniqarli emasdi. Misol uchun, asl ismi Boyl O Kelli bo'lmish mahoratli aktyor Kerl Bellouning borgan sari mavqeyi tushib bormoqda edi. Yoki yana bir iste'dodli aktyor Jo Ueber E.h.Souzern-dan anchagina qobiliyatli bo'lsa ham, yoshi o'tib qolgani allaqachon sezilib qolgan va u bu vaziyatda qizg'in tomoshalar yaratishi dushvor edi.

Teatrga kelgan tomoshabinlar ham spektakllarni ko'rishga u qadar havasmand emas, ular butun tomosha davomida bemalol yeb-ichib, joylarini ivirsiq holatda tashlab ketishardi. Hammasidan ham katta teatr zalini meva-cheva-yu, turli oziq-ovqat hidi tutib ketgani eng yomoni bo'lardi.


Shunday gaplar bilan biz oz-moz bo'lsa-da, sahna hayoti va undagi ijrochilarning turish-turmushi haqida yaqindan bilib oldik. Biroq bu kasb biz o'ylagandan ko'ra murakkabroq hamda og'irroqdir. Faqatgina biz, odamlar, sahna hayotidagi ijrochilar taqdiriga ko'z qirimiz bilangina qarashga odatlanib qolganmiz. Holbuki, sahna bu – sahna, hayot esa beshafqat va kuchli girdobdir. Tashqi qiyofalaridan yarqirab, porillab ko'rinayotgani bilan aslida barcha aktyorlarning ham qismati yorug' bo'lavermaydi.

Nazarimda, sahna kishilari to'g'risida ortiqcha darajada ko'p so'zlab yubordim. Asosiy hikoyamizni boshlashdan avval ushbu ma'lumotlarni, ya'ni san'at odamlari hayotiga oid ayrim izohlarni keltirib o'tmoqlikni maqsadga muvofiq ish deb o'yladim. Biroq shu o'rinda yana shuni ham alohida ta'kidlash kerakki, chinakam san'atkor o'z oldiga qanday maqsad qo'ymasin, xoh u katta, xoh kichik bo'lsin, u o'sha maqsadiga san'ati bilan, o'z

mehnati bilan erishishni afzal deb biladi. Zotan, san'atda muqaddas sahnaga fidoyi kishilarni hamma vaqt e'zozlashadi. Xullas, men sizga hikoya qilib bermoqchi bo'lgan voqea ishtirokchilari ikki nafargina ijrochidan tarkib topadi. Siz balki hayron bo'layotgandirsiz bu qanday g'ayrioddiy hikoya bo'ldi ekan, deb? Shoshmay turing, biz bu g'aroyib hodisadan misli ko'rilmagan, shov-shuvli bir ajib hikoyani hosil qilamiz. Buning uchun biz odatda tashqi tarafnigina tomosha qiladigan sahnemizning zalvorli pardasini bir yonga surib, endi parda ortida bo'layotgan jarayonga nazar solishimiz lozim bo'ladi. Ilk ko'rgan manzaramiz go'yo chog'roqqina inida pitir-pitir qilib, tipirchilayotgan mitti qaldirg'ochday o'z pardoixonasida keyingi chiqish uchun tadorik ko'rayotgan miss Cherrining g'oyatda maftunkor chehrasi bo'ladi.

Darvoqe, Cherri hikoyamizning bir qahramonidir, uning yana boshqa ishtirokchisi mehnatsevar Bob Xart janoblari bo'ladi. Bu ikki san'atkor necha zamondan beri birgalikda ter to'kib, vadevil (bir-ikki aktli kichik komediya) ustida qattiq mehnat qilishmoqda. Bularning birga bo'lib qolishlarining o'ziga xos tarixi bor.

Jonkuyar janob Bob Xart qariyb to'rt yildan buyon yozgan asariga munosib ijrochi topa olmay, sirkma-sirk, teatrma-teatr ancha darbadar kezadi. Janob Xartning o'zi qo'shiqning hamma turini-da, qoyillatib maromiga yetkazadigan, monolog va taqlidlarni o'rinlatib bajaradigan mohir aktyor edi. U hatto raqsga tushishni ham boshqalardan ancha a'lo tarzda ijro etardi. Xullas, Bob Xart bor rollarini shu darajada qoyillatib ado etardiki, boshqa hech bir manaman degan



aktyor ham bu borada uning oldida ip esholmay qolardi. Haqiqiy san'atkorning ishi qandaydir mayda-chuyda iste'dodi haminqadar aktyorlar muborak sahnani xo'rlab yotgan bir paytda unga eng shoh asarlarni taqdim etib, bu ulug' sahnani obod etmoqlikdir. Xuddi shu niyat mehnatkash Bob Xartning ko'nglida necha vaqtlardan buyon avj olib, misoli o'tday yurak-bag'rini yondirib yashayotgandi. U uchun qiyinchiliklar cho't emas, u o'tga ham, suvga ham birday chidamli, faqatgina o'ziga munosib bir sherik topib olsa bas edi. Ammo shu muammo Bob Xartning bir talay vaqtini o'g'irladi. Zero, janob Xartday didi nozik san'at kishisiga hamma ham yoqib ketavermasdi.

Kunlarning birida tinib-tinchimas ushbu qahramonimiz anchagina nomdor, jiddiy va qimmatbaho, biroq o'zlarining teatri uchun raqib bo'lgan orkestrga kirish uchun chipta sotib oldi.

Birinchi, ikkinchi va uchinchi ko'rinishlar juda jonsizday bo'lib tuyuldi, Xart deyarli mudrab o'tirdi, u anyi asnoda borgan sari umidsizlikka tushaverdi. Qolgan tomoshabinlar butun zalni boshga ko'tarib, qiyqirib, kulib, olqishlab, tinmay hushtak chalardilar, lekin Bob Xartga bu tomoshaning hech bir la'hasi yoqmadi. U o'z tomoshasini qanday qilib go'zal yaratish xususida o'ylab o'tiraverdi. Boshqalar olqishlar chapak chalayotgan bir paytda Bob Xart xuddi qo'llarida buvijonisi uchun asrab qo'ygan yigirilgan ip g'altagini mahkam qilib ushlab o'tirganday qo'llarini bir marta ham qarsak chalish uchun ishlatmadi, qovog'ini solganicha jim o'tiraverdi.

Ammo sahnada to'rtinchi ko'rinish paydo bo'lishi bilan janob Xart go'yo uyqudan uyg'on-

gandek bo'ldi, u o'tirgan joyiga qaytadan yaxshilab o'rnashib oldi. Ushbu lavha tomoshasini mahoratli yosh aktrisa Cherri Vinona mohirlik bilan ijro etardi. Bu yoqimtoy aktrisaning har bir qiligi Bobning ko'zlarini quvontirardi. Chindanam, Cherri Vinonaning iqtidori bemisl edi.

U dastlab tonggi shabnam qo'ngan yoqimli gullarni saralab yurgan qishloqi oyimqiz qiyofasida sahnasiga chiqdi, u bilagiga ilib olgan savatchasiga ajoyib qoqigullardan terib solgancha qo'shiq xirgoyi qilib bog' ichida shodon kezardi. Qizning bor tavajjuhi, uning harakatlari, nigohlari va hattoki peshbandiga tutib olgan fartugining to'rlarigacha shunchalar nazokatli ediki, tumonat tomoshabinlar o'rtasida o'tirgan Bob Xart qizdan bir daqiqa ham ko'zlarini uzolmay qolgandi. Uning qalbida qancha vaqtdan beri gupurib yotgan tilak yana-da lovillab ketdi. Unda sohibjamol va iste'dodli Cherri Vinonaga tezroq yetishib, u bilan darhol bog'lanish istagi tug'ildi.

Binobarin, bundan keyingi Xartning harakatlari siz o'zingiz ham yaxshi fahmlab turgan bo'lsangiz kerak, muhtaram kitobxon. Bob o'zi anchadan beri qidirib yurgan ideal ijrochi timsoliga Cherri Vinonani yagona munosib vakila bo'ladi, deb qattiq ishondi. U Bob Xart yaratgan ajoyib spektakldagi Yelena Grims obraziga juda bop tushadigan ajoyib aktrisa edi. O, bungacha Bob ne-ne joylarni kezib, sarson bo'lmadi, deysiz? U bormagan o'yingoh, kirmagan orkestr va teatr zallari, sirk tomoshaxonalaridan birontasiyam qolmadi. Nihoyat izlaganini bugun topdi! Bob Xart izlagan ma'budasini oxiri topdi!

Spektakl ssenariysining yozilganiga ancha vaqt bo'lgan esa-da, haligacha Yelena Grims roli uchun loyiq aktrisa topilmayotgan edi. Mana endi Bob Xartning «Taqdir o'yini» nomli pyesasi bitta yaxlit asar shakliga kiradigan bo'ldi.

– Men izlayotgan Yelena mana-ku axir, – deb o'ylardi Bob ichida shirin orzularga berilarkan. – Naq qarshimda turibdi! Jonsarak aktyor tomosha oxirigacha kiprik qoqmay Cherrini kuzatib o'tirdi. Nihoyat spektakl tugab, gulduros qarsaklar zalni tutgan vaqtda u o'ziga keldi.

Minglab tomoshabinlar galasi orasidan sirg'a-nib chiqdi-da, to'g'ri teatrning rahbari ofisi tomon yo'l oldi. U iltifot bilan maqsadini bayon qilgach, teatr direktoridan Cherrining manzilini bilib olish-ga muvaffaq bo'ldi.

Ertasi kuni ertalab soat beshdanoq Bob Xart yosh aktrisaning manzili yozilgan qog'ozni qo'liga oldi-yu, mafunkor Cherri Vinonaning huzuriga oshiqib bordi. Hayajonining zo'ridan sohibjamol aktrisa qoshida turarkan, intiq ko'zlari uning gilosday lablari tomon qadalgan, go'yo asrlik bir hukmni eshitadigandek nihoyatda mushtoq edi.

– Sizni tushundim, janob Xart, – dedi aktrisa Bob uzatgan qog'ozlar to'plamiga diqqat bilan ko'z yugurtirarkan. – Xo'sh, qaysi ijroni bajarib berishimni istayotgandingiz?

– Miss Cherri Vinona, – deb arang tilga kirdi janob Xart. – Men sizning o'tgan tundagi ijroyingizni ko'rdim. Ta'rifga til ojiz, g'oyatda ta'sirlan-dim. Gap shundaki, men ham bir spektakl yozgandim. Bu mening necha yillardan beri us-tida ter to'kib yaratgan shoh asarim hisoblana-di. Ammo bu tomosha bosh qahramonlari faqat

ikki aktryodangina tarkib topadi, xolos. Tilagim, o'sha ikkinchi rolni siz o'ynab bersangiz. Kamina behad shod bo'lardim.

– Hm-m-m... Qani bu yoqqa, mehmonxonaga kiraylik-chi, – deb taklif qildi Cherri janob Xartga yuzlanib. – Avvalo, ishonchingiz uchun tashakkur. Umid qilamanki, men umrim bo'yi mayda-chuyda rollardan ko'ra zalvorliroq ishlarni ham eplab kelganman, deb o'ylayman.

Shu payt Bob aktrisaning gaplaridan nihoyatda ta'sirlanib ketib, beixtiyor cho'ntagidan qadrli asari – «Taqdir o'yini»ning ssenariysini chiqarib, aktrisaning ro'parasida uni ovoz chiqarib o'qib berdi.

– Iltimos, yana bir bora o'qisangiz, janob Xart, – deb so'radi miss Cherri. Shundan so'ng u qo'lyozmaning ayrim joylariga tuzatishlar kiritish lozimligi xususida, ayniqsa, dialoglarni qisqartirib, jummalarni oddiy va ta'sirliroq qilib qaytadan yozishni orzumand aktyorga maslahat berdi. Masalan, ssenariydagi Yelena Grims bilan uning raqibi o'rtasidagi tortishuvda, ya'ni asarning eng avji nuqtasida qahramonlar tomonidan aytiladigan va bajariladigan so'z-harakatlar tamomila yangidan o'zgartirilsa, spektakl bundan-da, mazmunliroq ahamiyat kasb etadi. Miss Cherri Bob Xartga ana shular borasida o'zicha ko'rsatmalar berarkan, aktyor qizning takliflariga hech bir e'tirozsiz ko'nib ketaverdi. Zotan, aktrisa qo'lyozmada yozuvchining eng nozik kamchiliklarini aynan ko'rsatib o'tardi. Bu uning erkaklarda yetishmaydigan ichki ayollik intiutsiyasi edi. Suhbatlari so'nggida ular oqibatda – «Taqdir o'yini»ning qismati qanday yakun topishi, muhimi, uning

qancha tomoshabin yig'a olishi, qanday olqish va tanqidlarga ega bo'lishi, yana eng asosiy-si, mazkur tomoshadan necha pullik daromad tushishi to'g'risida gaplashib oldilar. Bu borada miss Cherri o'z fikrlarini darrov bildiradi qolmadi. U o'zi tabiatan anchayin mulohaza bilan chuqur o'ylar, pirovardida fikrlari ham mantiqli va kerakli bo'lib chiqardi.

– Janob Xart, – dedi u aktyorga qarab. – Men ishonaman, ushbu spektakl misli ko'rilmagan yutuqlarni qo'lga kiritadi hali. U millionlab muxlislar e'tirofiga sazovor bo'la oladi ham. Men buning nechog'lik mashaqqatli azob ekanligini-da bilaman. Ya'ni, sizning orzu va o'ylaringiz, andisha va tahlikali gumonlaringiz borasida so'zlayotirman. Qolaversa, qilgan mehnatingizni ham ko'rib turibman. Shuningdek, o'z rollaringizni qay darajada ado etishingizni-da hozirdanoq aniq tasavvur qila olaman. Biroq ish bu – ish. Janob Xart, meni to'g'ri tushunasiz. Hamma masalaning ham iqtisodga borib taqaladigan tomonlari bo'ladi. Xususan, mana shu ishimiz yuzasidan ham eng avvalo moliyaviy jihatlarni hisob-kitob qilib olsak yomon bo'lmasdi. Siz, o'zingiz, ushbu pyesangiz bilan haftasiga qancha pul ishlay olaman, deb o'ylaysiz?

– Ikki yuz, – deya javob berdi Xart o'sha zahoti.

– Aha, demak, ikki yuz, – deb ta'kidladi sohibjamol miss Cherri ham. Tomoshadan tushadigan pulning miqdorini aniqlab olgach, aktrisa endi o'z talabini janob Xartga ishbilarmon kishilardek ma'lum qildi:

– O'sha ikki yuzdan yuzini menga berasiz. Xo'sh, rozimisiz? Ayol kishi uchun bir hafta-

ga yuz dollar pul bermalol yetib ortadi. Shunday emasmi?

Bir oz sukutdan so'ng miss Cherri so'zida davom etdi:

– Sahna bu – qutlug' dargoh. Men uni sevaman, ammo yuragimda undan-da, ortiq yaxshi ko'rganim va qattiq orzulaganim bor. Ajoyib kunlarning birida qadrdon va osoyish botgan o'z uyim, hovlisida olti dona o'rdakchalar bilan yoqimtoy jo'jalar daydib yurgan xonadonim bo'lsaydi, deyman janob Xart.

Shunday dedi-da, miss Cherri yuksak orzulari osmonidan yana darrov yerga tushib qolgandek bo'lib sergak tortdi. O'rtada hukm surayotgan g'aroyib biznes vaziyati doirasiga qayta kirib, dona-dona qilib gapira ketdi:

– Endi esa, janob Xart, meni yaxshilab eshitib tursangiz. Men qat'iy biznes qiladigan odamman. Basharti spektaklingizdagi partnyorlik rolini men ijro etishimni istar ekansiz, mayli, men buni bajonudil ado etaman. Shu o'rinda yana bitta narsani aytib o'tishni xohlardim: mening ijroyimda hech qanaqa kamchilik bo'lishi mumkin emas. Men doimo o'z rolimni belgilangandek tartibda o'ynayman, haligacha ijroyimdan hech qaysi rejissyor yoki tomoshabin norozi bo'lgan emas. Mulohazasiz, yengiltak aktrisalar bilan bo'lsa bir pullik ishim yo'q. Ular menga hech qachon daxl qilisha olmaydi.

Qisqasini aytganda, mazkur ishda men bilan hamkorlik qilishni istar ekansiz, janob Xart, bu yog'idan endi tashvish tortmay qo'yavering, men siz bilan hamkorlik qilishga roziman. Biroq men o'z haqimga o'ta talabchanman, tushgan

ulushimni tiyin-tiyinigacha hisoblab olaman. Bu jihatimni ham ish boshidanoq bilib qo'yishingizni xohlardim. Bilasizmi, men ayrim tannoz xonimlar singari restoranma-restoran sandiroqlab, o'zimni ko'z-ko'zlab yurishni o'zimga sira ravo ko'rmayman, bundan ko'ra shinamgina xonamda o'tirib, rohat bilan bir choynak ko'k choy ichib o'tirishni ma'qul ko'raman. To shu paytgacha sahnadagi hech bir erkak bilan sira oshiq-ma'shuq bo'lmaganman, har doim nomimni toza saqlashga urinib kelganman. Qolaversa, o'zimga to'q xonimman, desam ham bo'laveradi, nufuzli o'nta bankda topgan mablag'larimni jamg'arib kelaman. Shunaqa gaplar, janob Xart.

– Miss Cherri, – dedi Bob jiddiy, keskinroq ohangda. – Hech narsadan xavotir olmang. Talablaringiz o'z o'rnida qondiriladi. Men ham qat'iy biznes odamiman. O'lda-jo'lda qilinadigan ishlar menga xos narsalar emas. Yoqtirmayman chigal vaziyat keltirib chiqaradigan biznes ishlari. Orzularingizga kelsak, dardimiz bir ekan siz bilan. Mening ham xuddi shunday azaliy bir orzuyim bor, miss Cherri. Olis oroldagi dengiz labida besh xonadan iborat bir qavatli fayzga to'la uyim bo'lishini qanchalar orzu qilaman, bilsangiz agar! Har oqshom faqat shuni tush ko'rib chiqaman. Bir tasavvur qiling-a, miss Cherri, shinam oshxonada o'rdak sho'rva miltillab pishib yotgan bo'lsa, bir tomonda osma gamakda yastanib yotgan, Stenlining «Afrikaga tadqiqotlar» nomli kitobini maza qilib mutolaa qilsangiz. Atrofdagi hech kim bo'lmasa, hamma yoq tinch, sarishta. Ana o'shanday uyni dil-dilimdan orzu qilib ya-

shayman, miss Cherri. Darvoqe, siz hech Afrika zamini sirlariga qiziqib ko'rganmisiz?

– Yo'q, hech ham, – deb javob berdi miss Cherri beparvogina. – Mening birgina yoqtirgan mashg'ulotim bu bankka mo'may pul qo'yish. Shu ishimi bajarish jon-u dilim! Axir banklardan ham oyiga ellik dollardan kirim bo'laversa, o'n yilda chakana daromadim bo'ladimi, janob Xart? Men siz tasavvur qila olmas darajada uddaburron ishbilarmonlardanman!

– Juda soz-da! – dedi Bob ham mamnun bo'lib. – Nima bo'lganda ham menga fikrlaringiz nihoyatda ma'qul kelyapti, miss Cherri, rostdanam uddaburron qiz ekansiz. Men bilgan aktyorlar toifasidan mutlaqo farq qilarkansiz. Ular bor topganlarini xazondek sochib tashlashadi. Boshlariga biron musibat yoki qiyinchilik tushganida ko'rasiz hollarini! Siz bo'lsa bu borada mutlaqo boshqacha ekansiz! Odamda qora kunga deb saqlab qo'yilgan biroz mablag' bo'lishi ham kerak. Biznes bo'yicha oqilonona fikrga ega ekanligingizdan xursandman, miss Cherri. Men ham xuddi sizday o'ylayman. Aslida biz bir-birimizga o'xshab ketarkanmiz. Umid qilamanki, qo'yilajak tomoshamiz siz-u men kutgandan ko'proq foyda olib kelgusidir. Shu spektaklni yuzaga chiqarolsak, mo'mayroq pul ishlab qolardik.

Xullas, bu ishbilarmon juftlik bir-birlaridan qoniqqan holda, shu tarzda suhbatlariga yakun yasadi. Mazkur uchrashuvdan keyin Bob Xart go'yo qanot bog'lab uchayotgandek tezlikda harakatni boshlab yubordi. Zero, endi uning yonida miss Cherriday go'zal va uddaburon sherik paydo bo'lgandi. Ko'pdan rejalashtirilgan ish

zudlik bilan boshlanib ketdi. Avvaliga, ssenariyga tuzatishlar kiritilib, asar yana-da silliqlashdi. Keyin ikki hamkor uni sahnalashtirib, ketma-ket repetitsiyani amalga oshiraverishdi. Pyesaning ayrim joylariga kerakli dialoglarni kiritib, asar ta'sirchanligi va mazmunini oshirishdi. Bir so'z bilan aytganda, asar boshdan-oyoq qayta yozilgandek bo'ldi. Miss Cherriday farosatli va dono qiz bu olamda boshqa bo'lmasa kerak!

Janob Xart bilan miss Cherri avvallari ahyon-ahyonda mehmonxona sifatida foydalanilgan tashlandiq bir maktab binosida spektaklni repetitsiya qilib yurishdi. Ular shu darajada berilib, qat'iy va turg'un tartibda ishlashar ediki, soat belgilangan vaqtga bong urganidagina repetitsiyani to'xtatishardi. Miss Cherri tayinlangan roli Yelena Grims qiyofasini bekam-u ko'st ijro etish uchun jon-jahdi bilan mehnat qilayotgandi.

Ha, darhaqiqat, bu tomosha nihoyatda g'aroyib chiqishi mumkin edi. Spektakl syujeti quyidagicha edi:

Shaharlik Yelena Grims ismli qiz Frenk Dezmon degan bitta yigit bilan telbalaricha sevishib qoladi. U zodagon oiladan bo'lib, otasining kattagina ranchosi bor edi. Frenk esa o'sha ranchoda oddiygina ish boshqaruvchisi bo'lib xizmat qilardi. Uning qiyofasini yaratuvchi aktyor, shubhasiz, bu Bob Xart ekanligini o'zingiz ham sezib turgandirsiz, aziz kitobxon. U bepoyon ranchoda kun bo'yi katta kirza etikni kiyib olganча cheksiz yaylov va dalalarni erkin, orzumand holda kezib yurgan pallalarda Yelena unga ishq to'la ko'zlari bilan termular, xayolan u bilan birga sayr qilib yurganini tasavvur qilaverardi.

Pyesa judayam maroqli voqealarga boy tarzda davom etadi. Qolaversa, unda go'zal tabiat manzaralari, ishq hamda hijron azobidan yara-dor qalblar sadosi to'lgan qo'shiqlar, bir-biridan keskin, ziddiyatli holatlar hamisha asar voqeala-rini zanjir kabi bir-biriga uzviy bog'lab boravera-di, bu esa tomosha sifati va qimmatini yana-da boyitadi.

Sahnalashtirilgan spektaklimiz xususida oz-gina bo'lsa-da bilib oldingiz, qadrli o'quvchi, ehtimol, bu ish u qadar baland darajadagi biz-nes hisoblanmas, biroq noumid shayton, omad qushi qayoqdan uchib kelishini hech kim aytib bera olmaydi, zero, hikoyamiz qahramonlari ham haqiqiy ishbilarmon kishilardir.

Spektaklning asosiy roli bor-yo'g'i ikkitagina edi, binobarin, ijrochilar ham ikki kishi – Xart bilan Cherri edi, xolos. Asarning qolgan qismini sahna manzaralari, bezaklar va musiqa sadolari to'ldirib boradi.

Darvoqe, tomoshada, yana bir qiz ham ishtirok etadi. U ushbu pyesadagi yana bir epizod – boy-vachcha janob Jek Valentin bilan uchrashib yura-digan ma'shuqa bo'ladi. Jek Valentin esa asar-ning avj nuqtasida faollashuvchi qahramonlar-dan biridir. U tomosha davomida o'g'irlanadigan katta miqdordagi pul mojarosi paytida sahnaga chiqadi. Yelenaning tubdan o'zgarishiga aslida ana shu qahramon bilan bog'liq vaziyat sabab bo'ladi. Kunlarning birida Yelena sevgilisi Frenk ranchoda vaqtida u yerga boradi. Aksiga olib pul ham, aynan, o'sha kuni g'oyib bo'ladi. O'sha pul qo'rqishga arzigulik kattagina pul edi, naqd 647 ming dollar boylik nom-nishonsiz qayoqqadir

gum bo'lgandi! Buncha pul borligidan yagona xabardor odam esa Jek Valentin edi. U qancha boylik to'plasa ham, shunchalik yebto'ymas va ochofat zog'lardan edi. Shuning uchun ham Yelena undan gumon qilayotgandi.

– Xudo guvoh, – deya Frenkning yonini oldi uning ma'shuqasi, – men uni besh qo'limdek bilaman, Jek aslo bunday ishni qila olmaydi! Axir insof qilinglar! U o'g'ri emas!

Ana shu gapi bilan qiz ortiq spektaklda ishtirok etmaydi. Tomosha Frenk, Yelena hamda Jek o'rtasida ziddiyatli tusda davom etadi. Axir Yelena o'sha pulning o'g'irlanishida yana kimdan ham gumon qilsin edi? Uning sevgilisi-ku bu ranchoga umuman kelmasa, hech kim bilan ishi bo'lmasa? Undan zarracha ham shubha qilib bo'lmaydi. Boz ustiga u kabi oddiy qizlar bunaqa ko'p pulga hatto qo'l tekkizishga ham yuraklari dov bermaydi. Bu ish aniq Jekning qilmishi edi!

Ammo, shoshmang. Yelenaning asl o'zgarishiga turtki beruvchi hodisalar asarning ikkinchi qismida avj oladi. Yelena gumonsiragan shaxsida qat'iy turib oladi, u Jekning boyligi o'ziga yetarli ekanligiga, oilasi anchayin to'q oila bo'lsa ham umuman parvoyiga keltirmay, uni ayovsiz iskanjaga olaverdi. Xayolida bu olchoq boyvachcha qorniga keragidan ham ortiq ulkan mulkni tusab qolganligi ochiq-oshkor ma'lum, deb tinmay o'ylayverdi. Axir osiy odam bolasi qancha ko'p bo'lsa, yana shuncha deb yashaydi-ku doim!

Tinib-tinchimagan jonsarak Yelena uni shiddatli olishuvga, pul borasida bo'ladigan suhbatga chaqiradi. Shaxsan men o'zim mazkur g'aroyib tomoshaning, aynan, shu lavhasini asarning eng

ta'sirli nuqtasi deb o'yladim. Darhaqiqat, oxirgi ko'rinish spektaklning nihoyatda jo'shqin va qizg'in lavhasi edi.

Yelena pulni baribir Jek olgan, deb tinmay o'ylayverdi. Axir undan bo'lak erkak zoti bo'lmasa bu qishloqda, boshqa kim ham olsin edi? Beozor Frenk chindanam bu kabi yuzaki boylik qutqusiga uchmaydigan asl yigit edi. Yelena unga o'zidan-da ortiq ishonardi.

Har gal tomosha davomida butun orkestr o'z ishini puxta bajarar, pyesaning kamchiliksiz chiqishi uchun sa'y-harakat qilardi, hatto teatr boshliqlari ham spektakl jarayonini kuchli ishqibozlik ila tomosha qilar, hammani aktyorlarning mohirlik bilan o'ynayotgan ijrosi sehrlab olgandi.

Yelena o'sha pul yo'qolganidan beri qattiq talvasa va jazavada kuyib-yonar, hech nima uni bir daqiqa ham tinchitolmasdi. U bor andisha-yu qo'rquvni yig'ishtirib tashlab, noinsof o'g'ri Jek Valentinga g'azab bilan yozg'irmoqda edi:

– Sen uchiga chiqqan o'g'ri va muttaham, qallobsan! Senga ishongan odam aniq xato qiladi, bir umr! Senga yaqin kelgan odam, albatta, xonavayron bo'ladi o'zi! Sengayam boqqan jazo bordir, shaytonning balosi! Xudo jazoyingni bersin!

Yelena ketma-ket la'nat va qarg'ishlari bilan yigitga bir-biridan qaqshatqich zarbalar yog'dirar edi. U xuddi quturgan ona sherday uvillab, hamma yoqni ostin-ustin qilar edi.

– Ammo men senga rahm qilmayman, imonsiz o'g'ri! Seni butun umr tavqi la'nat ichida yashashga hukm qilaman! Shuning o'zi senga eng oliy jazo bo'ladi! Lekin senga hozir o'ldirish qo'limdan qan-

day kelishini ko'rsatib qo'yaman! Qarab tur, seni mana bunday qilib otib tashlashim mumkin edi!

Yelena shunday deydi-da devorda osig'liq turgan qattiq kartonni mo'ljalga olib, unga qarab o'q uzadi. Karton rasmning o'rtasi o'raday ochilib, birdan shirillab yirtilib ketadi va shu payt uning orqasidan... O, Xudoyim! Karton ortida bog'lam-bog'lam bo'lib taxlanib turgan semiz pul dastalari bilan tilla solingan sumkalar ko'rinib turardi! Mana qayerga yashiringan ekan 647 ming dollarlik pul! Bu dahshat edi! Balkim siz ham ishonmayotgandirsiz, ammo pul naq devordagi karton rasm ortiga o'ra qilib kovlangan yerda uyum-uyum bo'lib to'planganicha turardi. Ikki oydan beri Cherri uyining tomiga chiqib olib, qanday qilib mo'ljalga olishni o'rganayotgan edi, avvallari u sira qurol ushlab ko'rmagandi. Mana, qo'li ancha kelishib qolibdi. U har safar biron narsani mo'ljalga olardi-da, ko'zini shartta yumardi-yu, unga qarab o'q uzardi. Boshida qo'llari qaltirab, nishonga to'g'ri urolmay yurgan paytlari ham bo'ldi, lekin asta-sekinlik bilan otishni uddaladi. Qiz dastlab qulay yerga o'rnashib, otadigan narsasini mo'ljalga olishni o'rgandi, so'ng ikkala qo'lga bor kuchini yig'ib, qaltiramasdan qurol tepkisini bosishni uddaladi. Shunday qilib, sekin-sekin Yelena bexato otish ilmini egallab oldi.

Sir ochilgach, ya'ni o'g'irlangan pul joyi oshkor bo'lgach, haqiqat ma'lum bo'ldiki, Jek o'sha puldan faqatgina o'z oyligini olib qo'ygan ekan, xolos. Qolgan pullarning bari o'z joyida to'liq holatda turardi. Biroq baribir unda o'sha pulga egalik qilish xayoli bo'lgan, yo'qsa pul qanday qilib bu yerga kelib qoladi? Axir shuncha payt qidir-

salar ham, na yerdan va na ko'kdan izini ham topolmay, ancha sarson bo'lishdi-ku! Buning ustiga, Jek o'sha gaplashib yurgan qiziga uylanish harakatida edi, to'y uchun ham u o'z boyligiga yanayam ko'proq daromad qo'shish istagida uringan bo'lishi mumkin edi. Yelena nima qilagini bilmay, hayratdan qotib turardi. Qurol qo'lidan tushib ketgan, o'zi qalt-qalt etgancha titrab turardi. Qo'rqib ketgan Jek Valentin ham qizning qarshisida topilgan pul tarafga qarab baqraygancha turar, uning ko'rinishi nihoyatda ajablanarli edi. Oxiri sahnaga halol va mehnatkash yigit Frenk Dezmon chiqadi-da, boylik iztirobidan talvasaga tushgan Yelenani olib ketish uchun chiqib keladi. Ular topilgan pulga hatto qo'llarini ham tekkizishmaydi. Uyat va qo'rquvdan g'alati bo'lib qolgan Yelena shu tobda Frenkning yelkasiga bosh qo'yadi-yu, yig'lab yuboradi. Uning uchun eng ardoqli narsa muhabbat va baxt ekanligini nihoyat chuqur tushunib yetadi. Spektaklning mana shu joyida ma'yus musiqa sadosi jarang socha boshlaydi va kuy asnosida parda tushib, tomosha o'z nihoyasiga yetadi.

«Taqdir o'yini» pyesasining dastlabki chiqishlaridan so'ng Xart bilan Cherrining keyingi ijrolarini bundanam qoyilmaqom tarzda ijro etdilar, ular bor mahorat va iste'dodlarini ishga solib, ketma-ket muvaffaqiyatga erishishdi. Har gal spektakl yakuniga yetganida butun zalni gulduros qarsak ovozi tutib ketar, hamma tomoshabinlar tomoshaning oxirgi sahnasidan yig'lashni boshlar, ko'zlarida shashqator yosh bilan ijrochilarni qizg'in olqishlar edi.

Teatr va o'yinxonalarning chipta sotuvchi bo'limlari tushgan barcha pullarni hisoblab, aktyorlarning qo'liga tutqazganda, ular hayrat va quvonchdan karaxt bo'lib qolishdi. Negaki, daromad ular kutganidan mutlaqo ortiq – haftasiga naq besh yuz dollardan suvdek oqib kela boshlagandi.

O'sha oqshom soat o'n bir yarimda Cherrini uyiga kuzatib qo'ygani bordi va boshidan shlyapasini yechib, eshik oldida u bilan xayrlashdi.

– Janob Xart, – dedi shunda qiz chuqur o'ygacha. – Bir-ikki daqiqaga ichkariga kirsangiz, qilgan ishimizdan ko'rgan foydamizni hisob-kitob qilib olgani hozir imkoniyatimiz bor. Bundan tashqari, yiqqan pullarimizni qanday xarajatlarga sarflash borasida ham kelishib olsak, pulning ketadiganini ishlatib, qolganini ehtiyot qilib saqlab qo'ysak.

– To'g'ri, – dedi Bob Cherrining gaplarini ma'qullab. – Bu biznes, albatta, men bilan bog'liqku. Qolaversa, har birimizning ham o'zimizcha orzu-havasimiz bor edi. Sizning shinamgina, hovlisida jajji jo'jachalar o'ynab yurgan uyingiz, mening esa dang'illama, hech kim xalal bermaydigan sokin go'sham bo'lishini quruq tasavvur qilib qolavermasligimiz kerak axir. Siz to'g'ri gapni aytayotirsiz, miss Cherri.

– Shuning uchun ham hech bo'lmasa, ikki daqiqaga ichkariga kirsangiz, – deya uni yana undadi qiz negadir Bobning harakatlaridan ranjib.

– O'sha o'ylagan niyatlarimizni ro'yobga chiqarish uchun ham bir soatgina o'tirib, qilinadigan ishlarni rejaga solib olishimiz kerak bo'ladi. Axir biz bu biznesni bekordan-bekorga boshlamagan-

dik-ku. Yuring, barini birgalashib rejalashtirib olsak.

Shu suhbatdan keyin ham «Taqdir o'yini» spektakli o'n hafta ichida Nyu-York shahri bo'ylab kutilmagan tezlikda ulkan muvaffaqiyat qozondi; u hatto aktyorlar o'ylamagan baland darajaga chiqdi, hatto bora-bora shahar sirklarida ham qo'yila boshlandi. Bunday kichik pyesaning bor-yo'g'i ikki yil davomida bunchalar tez shon-shuhratga erishishi kutilmagan natija edi.

Sem Pekerd, Nyu-York teatrlaridan birining bosh direktori Xart bilan Cherri qozongan mazkur yutuq xususida quyidagi fikrlarni bayon etdi:

– Bu spektakl butun tomoshabinlarni go'yo-ki sahnaga mustahkam zanjir bilan bog'lab qo'ygandek edi. Ulkan afishalarda ularning nomini ko'rishning o'zi yoqimli holat edi. Og'ir-vazmin va tirishqoq ishchilar, har qanday takabburlikdan xoli bo'lgan, haqiqiy jentlmen bilan aslzodalardek oqila xonim edi ular. Men mazkur kasb ortidan bunchalar e'tibor va e'tirofimni qozona oladigan san'atkorlarni topaman, deb hech kutmagandim.

Darhaqiqat, bu kabi fikr hamda e'tiroflar tez-tez quloqqa chalinib qolar, Bob va Cherri uchun yuksak maqtovlar-u baland olqishlar endi ortiq yangilik bo'lmay qolgandi.

Endi yana spektakl faoliyatiga qaytsak.

Ikkinchi mavsumning oxiriga borib «Taqdir o'yini» pyesasi bir nechta shahar va markaz tomoshagohlaridan qaytib, yana Nyu-Yorkning yozgi teatrlari bag'riga keldi. Odamlar hech og'rinmasdan spektaklga kirishar, negaki chiptalar bahosi tomoshaning mashhurligiga qaramay, sira osmonga ko'tarilib ketmadi.

Qahramonlarimiz Bob Xart bilan maftunkor Cherri Vinona ham o'z niyatlariga erishishdi. Bob o'zi istagandek bir qavatli dang'illama uyga ega bo'ldi. Cherri ham ishonchli bankiga yiqqan pullarini saqlab qo'ydi, uning bu boyligi ustida bir dunyo rejalari bor edi. Nima bo'lganda ham, ular baxtiyor edilar. Zotan, ishbilarmon kishilar hayotda hamisha muvaffaqiyat qozona oladilar.

Mazkur voqealarni sizga, muhtaram kitobxon, men ishonchsizlik tug'ilmasligi uchungina erinmay hikoya qilib o'tdim, zero juda ko'plab sahna kishilari o'z orzu-istaklari yo'lida boshqa kasb kishilariga qaraganda ancha ilg'or bo'lishadi. Xoh u erkak aktyor bo'lsin va yoki aktrisami – buning ahamiyati yo'q, ularning hammasi o'ta qiziqqon va tirishqoq xalq hisoblanadi. Ammo boshqalardan ularning farqli jihati shundaki, sahna kishilari o'z orzularini ro'yobga chiqarishda eng sirli bo'lgan yo'ldan borishadi va murod-maqсадlariga ham mohirona tarzda yetishadilar.

Lekin bir daqiqa shoshmaylik. Yana bir narsaga e'tibor berib o'tsak. «Taqdir o'yini» spektaklining Nyu-Yorkdagi oxirgi tomoshalaridan keyin Cherri Vinona negadir biroz asabiy bo'lib qoldi. Spektakl namoyishlaridan birida u tasodifan to'pponcha o'qi sifatida foydalanilgan o'tkir tig'ni ro'parasidagi karton suratga otish o'rniga uning yoniga yaqinlashib kelayotgan Frenkka (ya'ni Bob Xart)ga qarab otib yubordi. Aktyor o'sha zahoti yiqilib, hushidan ketdi. Mohir ijrochi hatto shu yiqilishni-da g'aroyib aktyorlik usuli bilan ado etdi.

Tomoshabinlar bu lavhaga zarracha shubha bilan qaramadilar, ular xuddiki ushbu lavhani

ham tomosha qismlaridan biri, sifatida qabul qilishib gulduros qarsak chalib olqishlashdi. Teatr boshlig'i bunday vaziyatlarda darhol pardani tushirish lozimligini bilardi, ular zudlik bilan Bob va Cherrining ayni damdagi holatini tezroq ko'zdan pana qilishlari zarur edi. Biroq tomoshabinlar shod-u xurramlik ila aktyorlarning navbatdagi chiqishiga mahtal bo'lib o'tirardilar. Shunda sahnaga yoshgina doktor chiqib keldi. U sinchkovlik bilan Bobni tekshirib ko'rdi-da, baland va quvnoq ovozda kulib yubordi.

– Sevgi sharobidan mastlik bu, – deya hazil aralash tashxis qo'ydi u bemorga, so'ng biroz jiddiy tortib. – Agar o'sha tig' tanangizga yana ikki santimetrgina chuqurroq kirib ketganida bormidi, qon arteriyasi teshilib, hayotingiz xavf ostida qolgan bo'lardi. Ammo ortiqcha xavotirga o'rin yo'q bu yerda. Uch kun yaxshilab muolaja olsangiz, otdek bo'lib ketasiz. Meni ma'zur tutasizlar, tashqarida qarashim zarur bo'lgan jiddiy bir holat bo'shahimni kutib turibdi.

Doktor ketganidan keyin Bob Xart ko'zini dadil ochib, atrofga sog'lom kishilardek tetik nazar tashladi. U shu holatda yotarkan, uning yoniga Vinsent ismli qalin bir do'sti kelib o'tirdi. Vinsent Bratlboro degan joyning eng baobro' kishilaridan edi, uyida uni Sem Grigs deb chaqirishar, u xizmat safarida bo'lgan har bitta shahridan uyiga, ikki nafar jajji qizlariga deb shirinlik va o'yinchoqlar yuborib turishni sira kanda qilmasdi. Vinsent bir nechta pyesa tomoshalarida Bob va Cherri bilan birga yurgandi, u bu ikki san'atkorning eng qalbdosh do'stlari hisoblanardi.

– Bob, – dedi Vinsent doimgiday jiddiy ohangda. – Oxiri yaxshilik bilan tugaganidan xursandman. Yosh xoniming seni deb aqldan ozayozdi.

– Kim? – deb so'radi Bob ajablanib.

– Cherri, – deb javob berdi do'sti. – Biz sening bunchalik yomon jarohat olganingni bilmagan edik. Biz bechora Cherrini sirayam yoningga yaqinlashtirmadik. Uni tutib turish oson bo'lmadi. Direktor bilan uchta qiz arang eplab turishdi-ya.

– Bu shunchaki baxtsiz tasodif bo'ldi, – dedi Xart bee'tiborlik bilan. – Cherri ham xavotir olmasa bo'ladi. U juda qo'rqib ketgan ko'rinadi. Mana, sirayam tashvishli joyi yo'q ekan. Doktorning o'zi aytdi-ku, yana uch kundan keyin bemalol ishga chiqsam bo'laverarkan. Cherriga ayt, hecham xavotir olmasin.

– Hoy, erkak, – dedi Sem Grigs Bobga og'ir nazar solarkan, tanbeh aralash koyidi. – Sen ham odammisan o'zi? Yo temirdan yasalgan jonsiz mashinamisan, a? Seni deb Cherri sho'rlikning yurak-bag'ri kuyib ado bo'ldi. – Har soniyada Bob, Bob! deb tinmasdan oh tortdi. Boshqalar uni bazo'r tutib turishdi. Insofing bormi o'zi?!

– Nega unaqa qiladi u? – deb so'radi Xart tag'in hayratlanib, uning ko'zlari katta-katta bo'lib ochilib ketgandi. – Spektakl yana uch kundan keyin sahnaga qo'yilishda davom etaveradi. Sog'ligim unaqa xatarli holatda emas. Cherri bir haftalik o'sha maoshini oladi baribir ham. Bu shunchaki kutilmagan, omadsiz tasodif bo'ldi, xolos. Unga nima bo'lyapti o'zi? Bunaqa vahima ko'tarmasin hadebl!

– Sening yo ko'zing ko'r bo'lib qolibdi yoki g'irt jinni bo'lib qolibsana, – dedi Vinsent hafsalasi pir bo'lgan kishidek.

– Qiz seni sevadi, u olgan jarohating tufayli o'zidan ketib qolay, deyapti. Senga nima bo'ldi, a? Nahot Cherri senga hech kim bo'lmasa? Zig'ir-chalik ham qadri yo'qmi uning? Qaniydi, uning qanchalar nola qilib, nomingni takrorlayverганиni bir eshitganingda!

– U meni sevar ekanmi? – deb so'radi Xart yotgan yeridan turib o'tirarkan. – Cherri rostdanam meni yaxshi ko'rarkanmi? Bo'lishi mumkin emas!

– Aytyapman-ku, sen uni aqalli bir marotabagina yig'laganini ko'rib, hasratli so'zlarini eshitasaying!

– Sen shoshmay tur, og'ayni, to'xtagin, – deya o'rnidan turib ketdi Bob qiziqqonlik bilan. – Bu axir bo'lishi mumkin bo'lmagan holat, tushunyapsanmi meni? Bu sirayam, sirayam bo'lishi mumkin bo'lmaydigan holatdir, og'ayni! Men senga aytyapman, Vinsent, do'stim, bunaqa gap yetti uxlab tushimga ham kirmagan edi!

– Unda odam-podam emas ekansan! – dedi Vinsent undan astoydil jahli chiqib. – Mana shu qiz seni telbalaricha sevadi! Nega bunchalik ko'zlaring ko'r bo'lib qolgan ekan-a?!

– Lekin... O, Xudoyim! – dedi Bob Xart oyoqqa qalqib. – Bu juda kech. Nihoyatda kech endi, Sem, eshityapsanmi, nihoyatda kech. Bo'lishi mumkin emas. Sen adashayotgan bo'lishing kerak. Ha, aniq nimadir noto'g'ri bu yerda.

– Axir u seni deb yig'ladi-ku bo'lmasa, – dedi hamon undan norozi bo'lib turgan Vinsent. – Senga bo'lgan muhabbatini deb naq uchtasining qo'lidan chiqib ketish uchun kurashdi, ismingni shunaqayam qichqirib, nola bilan aytdiki, zaldagilar hattoki pardani ham tushirib qo'yishga

yuraklari dov bermadi. Bas qil endi, ko'zingni ochsang-chi bundoq, kallavaram!

– Meni sevgani uchun? – deya xayol bilan so'zlardi Bob o'ziga o'zi, uning nigohlarida cheksiz hayrat va ana endi adoqsiz baxtiyorlik ifodasi ham aks etib, hamon qotib turardi. – Axir bu hc'ning yuz berishi uchun judayam kech bo'lganligini aytmadimmi senga, do'stim! Buni qara, axir Cherri bilan men oz emas, ko'p emas, naq ikki yildan buyon turmush qurib, birga yashab kelyapmiz-ku! Nega endi u meni endi sevib qolarkan?! Yo'q-yo'q, sen adashyapsan, do'stim. Vinsent, og'aynijon, agar bilsang, Cherri bilan biz bir-birimizni birinchi ko'rgan kunimizdan beri sevib yashaymiz!

Rus tilidan
Hasanboy Teshaboyev
tarjimasi

QIZIL TANLILAR SARDORI

Ish xamirdan qil sug'urgandek bitadigan, cho'ntaklar nihoyat qappayadigandek edi go'yo. Lekin shoshmang, hammasini bir boshdan aytib berishimga ijozat bering. O'shanda biz, Bill Driskoll bilan men Janubda, Alabama shtatida edik. O'sha yerda xayolimizga ajoyib fikr kelib qoldi. Keyinchalik Bill gapirib yurganidek, aslida «miyamiz bir aynib qolgan» ekan-u, lekin buni o'zimiz ham ancha keyin fahmlab yetdik.

U yerda bir shaharcha bor ekan, o'zi kaftdek tep-tekis-u, negadir «Cho'qqi» deb atalardi. Unda esa dunyodagi eng beozor va hamma narsadan ko'ngli to'q to'pori odamlar yashardi, bunaqa odamlarning boshiga bir tushirsang, hatto uzr so'rab qo'yadi.

O'sha paytda Bill bilan birga jamg'arib kelayotgan pulimiz olti yuz dollarcha bo'lib, harbiy Illinoysda yer-suv oldi-sotdisi bilan bog'liq «ishbi-larmonligimiz»ni boshlab yuborish uchun naq ikki ming dollar yetmay turgandi. Mehmonxona oldida o'tirib, shu haqda obdan gaplashdik. Yarim qishloqi joylarning odamlari bolajon bo'ladi, shuning uchun, yana boshqa sabablarga ko'ra odam o'g'irlash rejamizni aynan shu yerda amalga oshirish osonroq bo'ladi, degan qarorga keldik. Boshqa joyda qilsak, gazetchilar e'tibori-

ni tortardik va ular buni darrov shov-shuv qilib, har tomonga ayg'oqchi muxbirlarini jo'natishardi. Bilardikki, «shaharchada ortimizdan quvlash uchun nari borsa konstebel, yana qandaydir qiziqqon izquvardan boshqa hech kim o'tlanmaydi, gazetada bu haqda yozishsa ham, «Fermerning haftalik byudjeti»da yo'l-yo'lakay tilga olib o'tishadi. Shunchaki keyin noqulay ahvolda qolmaslik uchun, albatta.

Kishi bilmas surishtirishdan so'ng, tez fursatda o'zimizga o'lja ham topa qoldik. Bu Ebenezer Dorset degan eng taniqli shaharlikning yakka-yu yolg'iz arzanda o'g'li edi.

Ota bo'lmishning shaharchada hurmati baland, o'zi mumsik, bay pulini kechiktirishni yoqtiradigan, lekin halol va vijdonli cherkov yig'imchisi edi. O'g'li o'n yashar atrofidagi butun yuzini sepkil bosgan bolakay bo'lib, sochlari o'qilaverganidan uniqib ketgan jurnal sahifalaridek sap-sariq edi. Bill bilan xomcho'timizga ko'ra, Ebenezer o'g'li uchun bizga oz emas, ko'p emas, naqd ikki ming dollarni shu zahoti qurtdek sanab berardi. Lekin shoshmang, hammasini bir boshdan aytib beray.

Shaharchadan ikki chaqirim narida o'rtamiyona tog' bo'lib, atrofini qalin kedr o'rmoni qoplab olgan. Shu tog'ning orqa nishabligida ajabtovur g'or ham bor. Biz shu yerga pakka qurdik. Yetarlicha oziq ham jamg'arib qo'ydik.

Bir kuni qosh qoraygan paytda ot-aravaga minib, qariya Dorsetning uyidan asta o'ta boshladik. Omadni qarangki, bolakay ko'chada o'ynar, hovli devorida o'tirgan mushukchaga qo'lidagi toshni otish uchun astoydil shaylanardi.

– Hoy, bolakay! – dedi Bill. – Obaki dandon yeysanmi? Xohlasang, sayr qildirib ham kelamiz.

Shu payt bolakay unga yovqarash qilib, qo'lidagi tosh – yo'q, g'isht bo'lagi ekan – o'sha g'isht bo'lagi bilan naq ko'zini mo'ljalga olsa bo'ladimi?!

– Buning uchun qariyadan qo'shimcha besh yuz dollar undiramiz, – dedi Bill, g'ildirakdan oshib tusharkan.

Bola emas, balo ekan. Mitti ayiqdek biz bilan rosa olishdi, lekin oxir-oqibat uni bir amal-lab arava tubiga tiqishtirdik-da, u yerdan jo'nab qoldik. Shu ketgancha to'g'ri tog'ga borib, bolani g'orga olib kirdik. Otni esa kedr daraxtiga bog'lab qo'ydim. Qorong'i tushganda, aravani bu yerdan uch chaqirim naridagi qishloqqa olib ketdim. Chunki uni o'sha yerdan ijaraga olib turgandik. Toqqa qaytishda esa asta piyoda keldim.

Kelganimda, Bill timdalangan yuzidagi moma-taloqlarga yelim plastir yopishtirayotgan ekan. Katta qoya ortida, g'orga kiraverishda gulxan yonib turar, bolakay esa malla sochlari orasiga ikki dona qirg'iy patini qistirib olgancha bilqillab qaynayotgan idishdan ko'z uzmasdi. Ularga ya-qinlasharkanman, bolakay qo'lidagi tayoqni men-ga o'qtalib, po'pisa qilishga tushdi:

– Voy, la'nati kelgindi, tekisliklar momaqal-dirog'i, Qizil tanlilar Sardori qarorgohiga qadam bosishga qanday jur'at qilding?

– Bunisi hech narsamas, – dedi Bill, boldi-ridagi shilingan joylarni ko'rish uchun ishtoni-ni shimararkan. – Hozir hindu-hindu o'ynayap-miz. Bizning oldimizda hatto sirk ham hech nar-sa bo'lmay qoldi. Men qari ovchi Xenkman, qizil tanlilar Sardoriga asir tushdim. Endi tongotarda

boshimdan terimni shilib olishadi. Yo, Parvardigor! Bu tirranchang biram tepong'ich ekan!

– Ha, ser, bolakay o'zida yo'q xursand ko'rinar-di. Unga g'orda yashash yoqib qoldi, bu yerda asir ekanini ham o'ylashni unutmadi. Menga shu zahoti Ilonko'z va Ayg'oqchi deb laqab qo'ydi. Aytishi-cha, jasur jangchilari ovdan qaytgach, quyosh chiqishi bilan meni gulxanda kuydirishar ekan.

Keyin ovqatlangani o'tirdik, og'zini go'sht va non bilan to'ldirib olgan bolakay tinimsiz bidir-lay boshladi. U taxminan shunday gaplarni aytdi:

– Menga bu yer juda yoqib tushdi. Hech qachon o'rmonda yashamagandim; lekin bitta qo'lga o'rgatilgan kalamushim bor edi, o'tgan tug'ilgan kunimda to'qqiz yoshga kirgandim. Maktabga borishni jinimdan battar yomon ko'raman. Kalamushlar bor-ku, Jimmi Talbot xolasi-ning kurka tovug'i bosib yotgan o'n oltita tuxumni kemirib tashlashibdi. O'rmonda haqiqiy hindular ham bormi? Yana qayla yegim kelyapti. Nimaga shamol esadi? Daraxtlar chayqalgani uchunmi? Bizning beshta kuchugimiz bor edi. Xenk, nimaga burning bunaqa qizil? Dadamni-chi, bir dunyo puli bor. Yulduzlar issiq bo'ladimi? Shanba kuni Ed Uokerni ikki marta do'pposladim. Qizlar-ni yaxshi ko'rmayman! Qurbaqani tutish qiyin, buning uchun arqon kerak. Buqalar o'kiradimi yo yo'qmi? Nima uchun apelsinlar dumaloq? G'orda karavotingiz bormi? Amos Merreyning oltita bar-mog'i bor. To'tiqush gapira oladi, maymun bilan baliq bo'lsa gapirishni bilmaydi. Chorakta nechta degani o'zi?

Bolakay har besh daqiqada qizil tanli ekani-ni eslab qolar, o'zi qurol deb aytayotgan tayoqni

qo'liga olib, oyoq uchida g'or og'ziga biqsinib borar, jirkanch kelgindilarning ayg'oqchilarini poylardi. O'qtin-o'qtin hindulardek na'ra tortardi. Bundan qari ovchi Xenkning badanini titroq borsardi, Bill bu bolakaydan boshidayoq yurak oldirib qo'yan edi.

– Qizil tanlilar Sardori, – dedim unga, – mabodo uyga qaytging kelmayaptimi?

– Qo'ysang-chi, uyda nima bor? – dedi u. – Uyda qiziq hech narsa yo'q. Maktabga borishni ham yomon ko'raman. Menga o'rmonda yashash yoqadi. Axir meni uyga qaytarib yubormaysan, to'g'rimi, Ilonko'z?

– Hozircha bunday niyatim yo'q, – dedim men. – Bir oz vaqt g'orda yashab turamiz.

– Unda yaxshi, – dedi u. – Juda ajoyib! Hech qachon bunchalik miriqib o'ynamagandim.

Soat o'n birlarda uxlashga yotdik. Jun va qavima choyshablarni yerga to'shab, o'rtasiga Qizil tanlilar Sardorini yotqizdik, o'zimiz esa ikki chetiga yonboshladik. Bola qochib ketadi deb ortiqcha xavotirga tushmadik. Aksincha, uning o'zi uch soatlarcha bizga uyqu bermay, nuqul sanchib o'rnidan turib, qo'liga qurolini olaverdi. Uning tasavvurida, nimadir qirsillashi yoki bargning shitirlashi bilan g'orga go'yo qaroqchilar to'dasi bostirib kirayotgandek tuyulardi. Bir mening qulog'imga, bir Billning qulog'iga asta pichirlardi: «Jim, og'ayni!» Nihoyat mudroq bosib uxlab qoldim. Lekin tushimda go'yo meni malla sochli vahshiy qaroqchi o'g'irlab ketgan emish-u, qandaydir daraxtga chirmab bog'layotganini ko'rdim.

Tong saharda Billning ayanchli chiyillashidan uyg'onib ketdim. Bu erkaklarning tovush pay-

chalaridan kutish mumkin bo'lgan qandaydir qichqiriq, faryod, uvlash yoki o'kirish emas, yo'q, aynan nogoh arvoq yoki qurtni ko'rib qolgan ayollarga xos noshoyon, vahimali va ayanch chinqiriq edi. Yangi kunni xo'ppasemiz, buqadek baquvvat erkakning g'orda umidsizlarcha chiyillashini eshittish bilan qarshi olish juda yoqimsiz.

Nima gapligini bilish uchun joyimdan sakrab turdim. Qizil tanlilar Sardori Billning ko'kragiga minib olgancha, bir qo'li bilan sochini mahkam ushlab turardi. Boshqa qo'lida esa o'tkir pichoq bor edi, biz u bilan odatda go'sht maydalardik, shu ko'yi jiddiy va astoydil Billning bosh terisini shilishga urinardi, aftidan, kecha kechqurun unga chiqargan hukmini ijro etishga kirishgandi.

Darrov bolaning qo'lidan pichoqni tortib oldim va uni yana uxlagani yotqizdim. Lekin xuddi shu lahzadan boshlab Billning ruhi sinib qoldi. U yengil tin olib, choyshabning o'ziga tegishli qismiga uzala tushib olgan bo'lsa-da, aminmanki, bola biz bilan birga paytlarda ko'zini yumish u yoqda tursin, aqalli bir marta ham kiprik qoqmadi. Biroz ko'zim ilingan ekan, lekin quyosh ufqdan endi bosh ko'tarayotgan paytda birdan eslab qoldim. Qizil tanlilar Sardori quyosh chiqishi bilan meni ham gulxanda kuydirishga ahd qilgan-ku. Bundan asabiylashdim yo qo'rqdim demayman-ku, har ehtimolga qarshi o'tirib oldim, mushtugimni tutatgancha qoyaga suyanib turaverdim.

– Namuncha erta turib olding, Sem? – so'radi Bill mendan.

– Menmi? – dedim. – Yelkam zirqirab og'riyapti. Biroz o'tirsam, yengil tortamanmi deb o'yladim.

– Yolg'on gapiryapsan, – dedi Bill. – Sen qo'rqyapsan. Tongda seni kuydiraman degandi, shunday bo'lishidan qo'rqyapsan. Agar gugurtni topib olsa, yondirib yuborgan ham bo'lardi. Axir dahshatning o'zi-ku, Sem. Rostdan ham, iblisning bolasidan ham battar bu zumrasha uyga qaytishi uchun kimdir bizga pul to'laydi deb o'ylaysanmi?

– O'ylashimcha, – dedim men. – Aynan shunday shumtakalarni ota-onalar ko'proq yaxshi ko'radi. Endi Qizil tanlilar Sardori bilan ikkalan-giz turinglar-da, nonushta tayyorlanglar. Men esa toqqa chiqib, atrofni kuzatib kelaman.

Mitti tog' cho'qqisiga chiqib, atrofga ko'z tash-ladim. Shahar tomonga boqib, qo'lida chalg'i va panshaxalar bilan yaramas o'g'rilarni qidirayot-gan bir gala fermerlarga ko'zim tushishini kut-gandim. Buning o'rniga sokin manzaraga guvoh bo'ldim. Kulrang xachir bilan omoch haydayot-gan yagona odamgina bu manzara jonli ekanini eslatib turardi. Daryo bo'ylab hech kim tentira-masdi, chavandozlar orqa-oldiga ot choptirib, jon hovuchlab turgan ota-onalarga hozircha hech gap yo'qlig'ini xabar qilmasdi. Alabamaning qar-shimda namoyon bo'lgan qismida hatto shamol ham go'yo erinayotgandek esib-esgisi kelmasdi.

– Kim bilsin, – dedim o'zimga-o'zim, – bo'ri qo'zichoqni orqalab ketganidan hali bexabardir-lar. Bo'rilarga o'zing madad ber, yo Tangrim! – Keyin nonushta qilish uchun tog'dan indim.

G'orga yaqinlasharkanman, bu gal Bill devorga qapishgancha arang nafas olayotganini ko'rdim, bolakay esa unga kattaligi kokos yong'og'icha keladigan toshni otishga chog'lanib turardi.

– Qo'ynimga cho'g'dek issiq kartoshkani solib qo'ydi, – tushuntirdi Bill, – keyin uni oyog'i bilan ezg'iladi, men esa qulog'idan cho'zib qo'ydim. Qurol yoningdami, Sem?

Bolakayning qo'lidan toshni olib qo'ydim-da, bu anglashilmovchilikni bir amallab tinchitdim.

– Senga ko'rsatib qo'yaman! – dedi bolakay Billga. – Hech kim Qizil tanlilar Sardoriga qo'l ko'tarishga jur'at qilolmaydi. Qo'l ko'tarsa ham, keyin attang qiladi. Endi o'zingdan ko'r!

Nonushtadan so'ng bolakay cho'ntagidan chilvirga o'ralgan teri parchasini olib, g'or tomonga kirib ketdi. Yo'l-yo'lakay chilvirni yecha boshladi.

– Endi nimani o'ylab topdi ekan? – xavotir aralash so'radi Bill. – Nima deysan, Sem, balki uyiga qochib ketmoqchidir-a?

– Qo'rqma, – dedim men, – nazarimda, u mutlaqo uy bolasiga o'xshamaydi. Lekin tovon masalasida qandaydir reja o'ylab topishimiz kerak. Bola g'oyib bo'lganidan shahardagilar tashvishga tushmagan ko'rinadi yoki odam o'g'irlanganini haliyam bilishmaydi. Qarindoshlari uni, ehtimol, Jeyn xolasi yoki birorta qo'shninikida tunab qolgan, deb o'ylayotgan chiqar. Nima bo'lgan taqdirda ham, bugun uni qidirib qolishadi. Kechqurun biz otasiga xat yuboramiz va undan ikki ming dollar tovon puli talab qilamiz.

Shu payt vahimali jangovar na'rani eshitdik. Axilles Gektorni jangga chorlaganda, xuddi shunga o'xshash na'ra tortgandir-ov. Ayon bo'lishicha, Qizil tanlilar Sardori cho'ntagidan chiqargan narsa palaxmon bo'lib, endi uni boshi uzra chirpirak aylantirardi.

Birdan o'zimni chetga oldim va avval qattiq «taq» etgan tovushni, keyin ot pishqirishiga o'xshash ovozni eshitdim. Kattaligi tuxumdek keladigan qora tosh uchib kelib, Billning chap qulog'i orqasiga tekkan edi. U birdan butunlay shalvirab qoldi va boshi bilan gulxan ustiga gursillab quladi. Gulxan ustidagi qaynoq suvli idishni ham ag'darib yubordi. Uni olovdan qutqarib, yarim soatcha ustidan sovuq suv quydim.

Bill asta-sekin o'ziga kelib, o'tirib oldi, qulog'ining orqasini paypasladi va gapira boshladi:

– Sem, Injildagi sevimli qahramonim kimligini bilasanmi?

– Shoshma, – dedim men. – Endi o'zingga kelyapsan.

– Sulton Irod, – dedi u. – Axir ketmaysan-a, Sem, meni yolg'iz qoldirmaysanmi?

G'ordan chiqib, bolani ushlab oldim. Keyin uni shunday silkita boshladimki, nazarimda, sepkilari bir-biriga tegib shildiray boshladi.

– Agar o'zingni yaxshi tutmasang, senga aytyapman, hoziroq uyingga jo'natib yuboraman. Xo'sh, gapimga quloq solasanmi yo yo'qmi?

– Axir shunchaki hazillashdim, – dedi u qovog'i osilib. – Qariya Xenkni xafa qilmoqchi emasdim. O'zi nega meni uradi? Mayli, endi quloq solaman. Ilonko'z, faqat meni uyimga jo'natib yuborma va bugun ayg'oqchi bo'lib o'ynashimga ruxsat ber.

– Men bu o'yinni bilmayman, – dedim men. – Buni janob Bill ikkingiz hal qilavering. Bugun sen bilan u o'ynaydi. Hozir ish yuzasidan bir joyga borib kelaman. Endi bor, u bilan yarashib ol, qilmishing uchun kechirim so'ra, aks holda hoziroq uyga ketasan.

Ularning bir-biriga qo'l berishga majburlab, keyin Billni bir chetga tortdim va g'ordan uch chaqirim naridagi Poplar-Kov qishlog'iga ketayotganimni, bola o'g'irlanganidan shahardagilar qay ahvolga tushganini bilib kelishimni aytdim. Bundan tashqari, shu bugunoq qariya Dorsetga xat yuborib, undan tovon talab qilishimizni, pulni aynan qanday to'lash kerakligini aytishimizni qo'shimcha qildim.

– O'zing bilasan, Sem, – dedi Bill, – sen uchun o'zimni o'tgayam, suvgayam urishga doim tayyor turardim. Zilzilami, poker o'yinimi, dinamit portlashimi, politsiya ta'qibimi, poyezdga hujummi, siklonmi baribir, hech biriga kiprik qoqmasdim. Anavi shayton bolasini o'g'irlamagunimizcha hech qachon hech narsadan qo'rqmaganman. Tinkamni quritdi. Axir meni u bilan ko'p yolg'iz qoldirmaysan-a, Sem?

– Kechga tomon qaytaman, – dedim men. – Sening ishing qaytib kelgunimcha bola bilan shug'ullanish, uni tinchlantirishdan iborat. Hozir esa ikkalamiz qariya Dorsetga kelishtirib bir xat yozib tashlaymiz.

Qo'limizga qog'oz-qalam olib, Bill bilan xat yozishga kirishdik, Qizil tanlilar Sardori esa bu vaqtda choyshabga o'ranib olganicha tinimsiz u yoqdan bu yoqqa borib kelar, g'or og'zini qo'riqlardi. Bill ko'zi to'la yosh bilan mendan tovon uchun ikki ming emas, bir yarim ming so'rashni iltimos qildi.

– Bu bilan ota-onalik mehrini kamsitmoqchi emasman, lekin odam baribir odamligiga boradi-da. Axir o'zing o'yla, sepkil toshgan shu yovvoyi mushuk uchun kim ham ikki ming dollar to'lashga rozi bo'lardi! Tavakkal qilishga roziman:

mayli, bir yarim ming dollar bo'la qolsin. Chiqarib tashlangan pulni mening hisobimga yozib qo'yishing ham mumkin.

Billga tasalli berish uchun, bunga rozi bo'ldim va quyidagi mazmunli bir xatni insho qildik:

«Eskvayr Ebenezer Dorsetga.

Biz o'g'lingizni shahardan olisdagi ishonchli joyga yashirib qo'ydik. Nafaqat siz, hatto eng mo-hir izquvarlar ham uni izlashi behuda ketadi. Uni qaytarib olishingiz uchun qat'iy va yagona shart shundan iboratkim, tovon sifatida bizga bir yarim ming dollar to'lashingiz lozim; pullar bugun yarim tunda javob xatingiz bilan xuddi o'sha joyda, xuddi o'sha qutida qoldirilishi lozim, aynan qayer ekanligi quyida aytilgan. Agar ushbu shartimizga rozi bo'lsangiz, soat sakkiz yarimgacha yozma ko'rinishdagi javobingizni birortasidan yolg'iz yuboring. Boyoqli irmog'ining kechuv joyidagi yo'l bo'yida bir-biridan yuz yard masofada uchta katta daraxt bor, o'ng tomoni esa bug'doyzor bo'ylab ketgan chakalak to'siqlar. Uchinchi daraxt qarshisidagi to'siqning qozig'i tagida siz yuborgan odam qog'oz qutini topadi.

U javobni o'sha qutiga solishi va shu zahoti shaharga qaytishi lozim.

Agar bizni ushlab berishga urinsangiz yoki talblarimizni bajarmasangiz, yuqorida aytilgani kabi, o'g'lingizni boshqa hech qachon ko'rolmaysiz.

Agar pulni to'lasangiz, boyagi gap, bolangiz uch soat ichida sog'-salomat, ziyon-zahmatsiz o'zingizga qaytariladi. Bu shartlar qat'iy, agar ularga rozi bo'lmasangiz, kelgusida har qanday aloqa uziladi.

Ikki yovuz».

Men Dorset manzilini ham yozib bo'lgach, xatni cho'ntagimga soldim. Endi ketmoqchi bo'lib turgandim, bolakay yonimga kelib shunday dedi:

– Ilonko'z, men kelguncha ayg'oqchi o'yinini o'ynashing mumkin, deganding.

– O'yna, albatta, – dedim men. – Mana janob Bill sen bilan o'ynaydi. O'zi qanaqa o'yin ekan?

– Men ayg'oqchiman, – dedi Qizil tanlilar Sardori, – istehkomga chopib borib, odamlarni hindular kelayotganidan ogohlantirishim kerak. Hindu bo'lish jonimga tegdi. Endi ayg'oqchi bo'lmoqchiman.

– Ha, mayli, – dedim men. – Menimcha, buning ziyon joyi yo'q. Janob Bill vahshiy yirtqichlar hujumini qaytarishingga yordam beradi.

– Men nima qilishim kerak? – so'radi Bill, bolakaydan shubhali nigohlarini uzmagan holda.

– Sen o'tim bo'lasan, – dedi ayg'oqchi. – Qani, to'rt oyoqlab tur-chi. Axir otsiz istehkomgacha qanday yetib olaman?

– Yaxshisi, uni shu bilan chalg'itib tur, – dedim men. – Ish bitguncha ozroq jon kuydirishga to'g'ri keladi.

Bill to'rt oyoqlab turdi, ko'zlari esa tuzoqqa tushib qolgan quyoning ko'klaridek har tomonga alang-jalang qilardi.

– Istehkomgacha uzoqmi, bola? – deb so'radi ancha bo'g'iq ovozda.

– To'qson chaqirim, – javob berdi ayg'oqchi. – U yerga vaqtida yetib borishimiz uchun yeldek uchishingga to'g'ri keladi. Qani, cho'!

Ayg'oqchi Billning yelkasiga sakrab mindi va tovoni bilan yonboshiga niqtay boshladi.

– Xudo haqi, – dedi Bill, – iloji boricha tez-roq qayt, Sem! Afsus, tovon pulini katta belgilab qo‘ydik, mingdan oshirmaslik kerak edi. Menga qara, tepishni hoziroq bas qil, yo‘qsa, o‘rnimdan turaman-u, qulog‘ingni tagida shavla qaynataman!

Men Poplar-Kovga yo‘l oldim, pochtaga va do‘konga kirdim, u yerda o‘tirdim, ul-bul olgani kelgan fermerlar bilan gaplashdim. Bir soqolli odam Ebenezer Dorsetning arzandasi yo‘qolgani yoki o‘g‘irlanganidan butun shahar sarosimaga tushib qolganini eshitibdi. Men ham aynan shuni bilmoqchi edim. Do‘kondan tamaki oldim, asta chiqib ketarkanman, yo‘l-yo‘lakay hech kimga sezdirmay pochta qutisiga xatni tashladim-da, darrov jo‘nab qoldim. Pochtmeysterning aytishi-cha, bu yerga pochtagi bir soatdan keyin keladi va shahar pochtasini olib ketadi.

G‘orga qaytib kelganimda, Bill ham, bolakay ham hech qayerda ko‘rinmasdi. G‘or atrofini sinchiklab ko‘zdan kechirdim, ikki marta hoyhoylashga ham jur‘at qildim, lekin menga hech kim javob bermadi. Tamaki tutatib, mox qoplagan to‘nkaga o‘tirdim-da, bu yog‘iga nima bo‘lishini kuta boshladim.

Taxminan yarim soatlardan so‘ng butalar orasi shitiray boshladi va g‘or oldidagi sayhonlikda gansiraklagan cha Bill paydo bo‘ldi. Uning ortidan esa bola ayg‘oqchidek sas chiqarmay ehtiyotkor yurib kelardi. Bill to‘xtadi, shlyapasini yechdi va yuzini qizil dastro‘mol bilan artdi. Bolakay ham undan sakkiz futcha narida to‘xtadi.

– Sem, – dedi Bill, – meni sotqinga chiqarsang ham mayli, lekin boshqa toqat qilolmasdim. Kap-katta odamman, shu paytgacha o‘zim-

ni birovga xafa qildirib qo'ymaganman, lekin endi tang ahvolda qoldim. Bola ketdi. Uyiga jo'natib yubordim. Hammasi tamom. Eski vaqtlarda sevimli kasbidan ajralgandan ko'ra o'limni afzal ko'rgan jabrdiydalar bo'lgan. Lekin ularning hech biri menchalik g'ayritabiiy azoblarga duch kelmagan. O'g'rilar qonuniga sodiq qolishni xohlagandim, lekin bunga kuchim yetmadi.

– Nima bo'ldi o'zi, Bill? – shoshib so'radim.

– Istehkomgacha to'qson chaqirim yo'lni bosib o'tdim, bir qarich ham kam emas, – javob berdi Bill. – Ko'chmanchilar qutqarilgandan keyin, menga suli berishdi. Suli o'rniga og'zimga qum tiqdi, deyarli farqi yo'q emish. Endi qulog'im tinchidi deganda esa, nima uchun teshikda hech narsa yo'qligi, nima uchun yo'l ikki tomonga ketishini va nega maysalar yashilligini tushuntirishimga to'g'ri keldi. Aytyapman-ku senga, Sem, sabrniyam chegarasi bo'ladi. Bolani yoqasidan ushladim-u, tog'dan pastga sudradim. Yo'l bo'yi meni tepdi, uni deb a'zoyi badanim momataloq bo'ldi, qo'llarimni tishlab tashladi, boshmaldog'imni uzib olay dedi. Har tugul ketdi, – davom etdi Bill, – uyiga ketdi. Shaharga yo'lni ko'rsatib qo'ydim, yana uni bir tepib sakkiz qadam joygacha uchirib yubordim. Afsus, tovon pulini qo'ldan chiqardik, lekin undan tezroq qutulmasak, bizni aqldan ozdirishi tayin edi.

Bill pishqirib, hansirab gapirar, lekin uning yuzida tushuntirib bo'lmas darajada huzur-halovat va to'liq qoniqish ifodasi zohir edi.

– Bill, – dedim men, – oilangizda yurak kasalligiga chalinganlar yo'q, to'g'rimi?

– Yo‘q, – dedi Bill, – bezgakni hisobga olmagan-da, boshqa hech narsa bo‘lishmagan. Nima edi?

– Unda o‘girilishing mumkin, – dedim men, – orqangda nima borligini ko‘rib qo‘ysang bo‘lardi.

Bill o‘girildi va bolakayni ko‘rgan zahoti rangi birdan oqarib ketdi, keyin yerga cho‘k tushdi-yu, negadir maysa o‘tlarni o‘z oldiga to‘play boshladi. Aqldan ozadimi deb, bir soatcha xavotir oldim. Shundan keyin unga ko‘pi ketib, ozi qolganini aytdim. Qariya Dorset taklifimizga rozi bo‘lsa, hali tovon pulini olishga ham, yarim tungacha bu yerdan juftakni rostlashga ham ulguramiz, dedim. Bu gaplardan Billning chehrasi biroz yo-rishgandek bo‘ldi, hatto bolakayga, zo‘rma-zo‘ra-ki bo‘lsa-da, kulib qarab qo‘ydi va ahvoli sal o‘nglangach, yaponlar bilan urush o‘yinida rus bo‘lib berishni va‘da qildi.

Bu orada qarshi tomon qo‘liga tushib qolmas-dan tovonni hech qanday tavakkalsiz olish yo‘lini o‘ylab topdim va bu rejamni har qaysi mohir o‘g‘ri albatta ma‘qullagan bo‘lardi. Javobni, keyin esa pulni shundoq yo‘l yuzidagi daraxt tagiga qo‘yish-lari kerak edi; yo‘l bo‘ylab chakalak to‘siqlar ket-gan, uning ikkala tomoni esa keng yaydoq da-lalar. Agar xatni qo‘yish uchun kelgan odamga konstebllar to‘dasi hamrohlik qilsa, ularni yo‘lda yoki dala o‘rtasida uzoqdan ko‘rishga oladi. Shun-day ekan, ovora bo‘lishadi! To‘qqiz yarimda men allaqachon o‘sha daraxtda yashirinib o‘tirardim va chopar paydo bo‘lishini kutardim.

Roppa-rosa belgilangan vaqtda velosipedda bir o‘smir bola yetib keldi, qoziq tagidagi qog‘oz qutini topdi, unga qo‘lidagi buklangan qog‘ozni

tashladi va yana shahar tomonga g'izillagancha jo'nab qoldi.

Birorta nayrang qilishmayotganiga ishonch hosil qilguncha bir soatcha kutib turdim. Keyin daraxtdan tushdim, qutidan xatni oldim, to'siq bo'ylab o'rmongacha sudralib keldim, qarabsizki, yana yarim soatdan keyin allaqachon g'orda o'tirardim. U yerda xatni ochib, chiroqqa yaqinroq o'tirib oldim-da, uni Billga o'qib berdim. Xat siyoh bilan, ancha aji-buji yozilgan edi. Sizlarga mazmunini aytib bera qolaman:

«Ikki yovuzga.

Jentlmenlar, bugungi pochtada o'g'limni o'zimga qaytarishingiz uchun tovon puli talab qilib yozgan xatingizni oldim. O'ylashimcha, ortiqcha narsani so'rayapsizlar, chunki men ham sizlarga bir taklif bilan chiqmoqchiman, taxminimcha, bunga rozi bo'lasizlar. Sizlar Jonnini uyga olib kelasizlar va menga naqd ikki yuz ellik dollar to'laysizlar, shundagina uni olib qolishga rozi bo'laman. Yaxshisi, tunda kelinglar, chunki qo'shnilar uni bedarak yo'qolgan deb o'ylashyapti. Jonnini uyga qaytarib olib kelgan odamni esa sog' qo'yishmasa kerak.

Kamoli ehtirom ila

Ebenezer Dorset».

– Ashaddiy qaroqchilar! – dedim men. – Axir bunday surbetlikka...

Shu gaplarni aytarkanman, Billga qaradim-u jimib qoldim. Uning ko'zlarida shunday yolvorishli iltijoni payqadimki, bunday qarashni avvallari na zamonli, na bezamon jonivorlarda ko'rganman.

– Sem, – dedi u, – o'sha ikki yuz ellik dollar nima bo'пти axir? Bizda hozir pul bor. Lekin bu

bola bilan yana bir kun qoladigan bo'lsam, keyin meni jinnixonaga eltib tashlashingga to'g'ri keladi. Bundan tashqari, janob Dorset haqiqiy jentlmen ekan, menimcha, u yana soddadil ekan, axir bizga shunday oliyjanob taklif qilyapti. Bunday imkonni qo'ldan boy bermaymiz, to'g'rimi?

– Rostini aytsam, Bill, – dedim men, – bu xazina negadir meniyam asabimga tegyapti! Uni uyiga olib boramiz, tovon pulini to'laymiz, keyin bu yerdan uzoqroqqa juftakni rostlaymiz.

O'sha tundayoq bolakayni uyiga olib bordik. Otang senga kumush qo'ndoqli haqiqiy miltig'-u, ajoyib ovchi etigi sotib olibdi, ertaga hammamiz birga ayiq oviga boramiz, degan yolg'on-yashiq gaplar bilan uni arang ko'ndirdik.

Ebenezer uyining old eshigini taqillatganimizda, soat roppa-rosa o'n ikkiga bong urdi. Daraxt tagidagi qutidan bir yarim ming dollarni olishim kerak bo'lgan xuddi o'sha lahzada Bill Dorsetning qo'liga ikki yuz ellik dollarni sanab berdi.

Uni uyga tashlab ketayotganimizni payqab qolgan bolakay shunday chinqira boshladiki, hatto kema sirenasi ham uning oldida ip esholmay qolardi. Xuddi chirmovuqdek Billning oyoqlariga yopishdi. Otasi uning oyoqlaridan bolani yelim qog'ozdek arang sug'urib oldi.

– Uni qancha vaqt ushlab tura olasiz? – shosh-pisha so'radi Bill.

– Yoshim o'tib, avvalgi kuchim qolmagan, – dedi qariya Dorset, – lekin o'n daqiqa ushlab tura olaman.

– Shuning o'zi yetarli, – dedi Bill. – O'n daqiqa da men Markaziy, Janubiy va harbiy shtatlarni

kesib o'tib, bema'lol Kanada chegarasigacha yetib olishga ulguraman.

Garchi zim-zimiston tun bo'lsa-da, Bill xo'p-pasemiz bo'lsa-da, men esa juda chopqir bo'lsam-da, uni faqat shahardan bir yarim chaqirim nari-da quvib yetoldim.

Ingliz tilidan
Qandilat Yusupova
tarjimasi

SODDADIL QIZGINA

To‘qqiz yuz oltmish ikkinchi xonaning yassi oynali eshigi ustiga zarhal harflar bilan: «Robbins va Xartli. Dallollar», – deb yozib qo‘yilgandi. Ammo ayni damda ichkarida hech kim yo‘q, xizmatchilar allaqachon ketib bo‘lishgandi. Soat beshdan o‘tib qolgan, ishdan so‘ng xonalarni yuvib-tozalab oluvchi farrosh ayollar yigirma besh qavatli binoning ichiga asta kirib kela boshlagandi.

Limon po‘chog‘i hidiga to‘yingan havoda sigara isi aralash g‘alati elvizak shamol derazalardan tashqari tomon uchib aylanar edi.

Robbins, ellik yoshlar chamasidagi baquvvat erkak, yonidagi sherigining tarallabedod ko‘cha kezishlaridan norozi holda to‘ng‘illar, tezroq ishga qattiq kirishishini talab qilgandek ohangda ming‘irlab o‘tirardi:

– Ish turganda hadeb qayoqdagi bo‘lmag‘ur yumushlar bilan band bo‘lib yuravergandan ko‘ra o‘z ishimizni qilsak yaxshi bo‘lardi. Tokaygacha birovlardan dakki eshitib yuramiz? «Bo‘rining yesa ham og‘zi qon, yemasa ham», – deb bekorga aytishmagan ekan-da. Mana, bu yerda ishlagan ham bir, ishlamagan ham bir bo‘lib turibdi endi.

Xartli, yigirma to‘qqiz yoshlardagi ancha o‘yin-qaroq yigit ro‘parasida ming‘ir-ming‘ir qilib o‘tir-

gan Robbinsning yuziga qarab, indamay chuqur xo'rsindi-da, qovog'ini solib oldi.

– To'g'ri-da, – dedi u birozdan so'ng qoshini ko'tarib Robbinsga qararkan. – Nima qilay endi? Muz bosib qolgandek dimiqib o'tiraveraymi?

Shu payt eshik oldida qandaydir sirli xabarni olib kelgandek qiyofadagi notanish bir kimsa paydo bo'ldi. U Xartlining imosi bilan ichkariga kirdi-da, unga juda yaqin keldi.

– Qizning qayerda yashashini bilib keldim, – deya ma'lum qildi u yarim shivirlagan ovozda. Bu odam o'zini xuddi biron jinoiy ish ortidan tushib olgan izquvarlarday o'ta maxfiy tutardi.

Xartli kelguvchining gaplariga quloq solishdan ko'ra ko'proq unga xo'mrayib qarashni afzal topdi, u sirli mehmoniga aksar jim bo'l, deganday nazar bilan qarab turaverdi. Uning baxtiga shu tobda gapira-gapira charchagan Robbins indamay qo'l tayog'ini qo'lga oldi-da, uni chaqqon aylantirgancha, har ikki erkakka ham yengil bosh irg'ab qo'yib, ko'chaga chiqib ketdi.

– Mana uning manzili, – dedi nihoyat so'zlashga ruxsat tekkan josus yana o'sha sirli ohangda.

Xartli epchillik bilan eskirib ketgan katta ish-xona daftari ichidan bir varaq qog'ozni tez yirtib oldi. Sirli josus qog'ozga – Vivien Arlington, Sharqiy 341-raqamli ko'cha, missis Mak Kulus xonimning qaramog'i ostida, deb shosha-pisha yozib berdi.

– Bir hafta avval mana shu yerga ko'chgan ekan, – izoh berdi josus. – Modomiki, sizga yana biron-bir yordamim kerak bo'lsa, janob Xartli, kamina xizmatigingizga hamisha tayyorman. Bu shaharchada men nihoyasiga yetkaza olmaydigan

ishning o'zi yo'q. Mehnatim evaziga kuniga bor-yo'g'i yetti dollar kifoya qiladi. Axir kuydi-pishdi, yugur-yugur qilish ham oson ish emas-da.

– Rahmat, menga endi keraging yo'q, – deya uning gapini cho'rt kesdi dallol o'sha zahoti. – Bu sen aytganday kuydi-pishdi yoki yugur-yugur qiladigan ish ham emas. Menga faqat manzil kerak edi, xolos. Xo'sh, senga qancha berishim kerak?

– Boya aytganimday, bir kunlik haqim, – deb javob berdi pusib qolgan josus. – Bizday bechoralarga shuyam yetib ortadi.

Xartli yollangan odamiga aytganini berdi-da, uni xonasidan chiqarib yubordi. So'ngra o'ziyam ofisidan ko'chaga chiqib, taksi to'xtatdi. Shaharning sharqiy tomoniga qarab yo'l olgan mashina nihoyat shunday katta shaharning bor fayzi va tarovatiga putur yetkazadigan holatdagi gadoytopmas va chirkin bir go'shasiga borib to'xtadi.

Hartlining unchalik ko'p yurishiga to'g'ri kelmadi, ozgina fursat o'tkach qidirib yurgan uyini topdi. Bu uy endigina yangi qurilgan, o'zining «Atirgul g'unchasi» degan jarangdor va nodir nomiga ayni damda u qadar mos tushavermaydigan tashlandiq makon edi. Bino atrofida hamma narsa aralash-quralash bo'lib yotardi: turli ro'zg'or buyumlari, dorga yoyilgan kiyim-kechaklar, bolalarning har xil o'yinchoqlari – bularning bari yoz haroratida yanayam o'zlaridan issiq hovu chiqarayotgandek suratda qotib turardi. U yer bu yerga ekib qo'yilgan nozik niholchalar suvsizlikdan qaqrab yotganday asta so'lib borar, ular xuddi sun'iy o'simliklar kabi jonsiz edi.

Xartli ustiga «Mak Kulus» deb yozib qo'yilgan eshik tugmasini ichki bir hayajon bilan bosdi.

Eshik lo'kidoni xuddi tomir tortishganday qiyinchilik bilan g'iyqillab ochildi-da, bamisoli mehmonnavozlik bilan ochiqyuzlilik qilishga azaldan o'rganib qolgan-u, biroq hozir andak shubha bilan qaraganday bazo'r ochildi. Xartli ichkari-da yuqoriga qarab ketgan zinalar uzra xuddi rosayam yegisi kelayotgan olmani deb daraxtga jon-jahdi bilan yopishgan bolakayday hovliqqan ko'yi zipillagancha chiqib ketdi.

To'rtinchi qavatga yetganda u bir eshik ostonasida turgan Viviennaga ko'zi tushdi. Qiz uni iltifot bilan kutib oldi-da, mayin tabassum bilan ichkariga taklif etdi. Deraza oldida turgan kursiga Xartlini taklif etarkan, o'zi ham ancha eskirib ketgan stullardan biriga cho'kdi.

Xartli so'zlashdan oldin qizga tez, oshiqlarday va ayni damning o'zida biroz o'pkalagannamo nazar bilan qarab qo'ydi va o'ziga-o'zi didi chakki emasligini, tanlagani chindanam benuqson ekanligini ich-ichidan his etib, mamnun iljayib qo'ydi.

Vivienna yigirma bir yoshlar chamasidagi durkungina qiz edi. U misoli hali qo'l tegmagan gul g'unchasidek yal-yal yashnab turar, chehrasidan nur yog'ilardi. Qizning sochlari ham tilladay yarqirab, qandildek yorqin nur sohib turar, Xartli uning sochlari jilolanishidan sira ko'z uzolmasdi. Viviennaning yuzi ham oftobda tovlanayotgan tonggi shudring singari benihoya g'uborsiz, to'q moviy, shahlo ko'zlari tevaragidagi olamga g'oyatda osoyishtalik hamda sehrli suv parisi yanglig' jozibakor nigoh tashlardi. Bu sohiraning fusunkorligi zinhor kashf etib bo'lmas ulkan jumboqdek Xartlining xayolini ayovsiz parmalar edi ayni soniyalarda. Qizning qomati ham

nihoyatda adl, u qaddini hamisha tik turar, bor tabiiylik hamda chinakam go'zallik aksi manaman deb barq urib yotardi. Ayni vaqtning o'zida qizdagi xotirjamlik ichida betayin bir sarosima qutqusi-da sezilib turar, mayin nigohlarining tub-tubida inja bir lohaslik ifodasi namoyon edi. Ammo Vivien shu turishida ham juda kamyob guldek g'oyatda ardoqli bo'lib tuyular, kahrabo ko'zlari atrofga baribir cheksiz zavq-u shavq va hayrat bilan to'ymay boqardi.

U egniga oppoq, harir kofta bilan tim qora, kalta yubka kiyib olgan, bunday kiyim odatda chiroyli qizlarni o'zlarini vazmin va ko'zdan pana holatda tutish uchun yaxshi vosita edi.

– Vivien, – dedi Xartli oxiri qizning jamolidan ko'z uzarkan, o'tinch bilan unga tikilganicha. – Oxirgi yuborgan maktubimga javob yo'llamabsan. Seni naq bir hafta deganda izlay-izlay, bazo'r topib oldim, negaki sen lom-mim demasdan, boshqa yoqqa ko'chib ketgan ekansan. Nega men seni qidirib, biron xat-xabar olarmikanman, deya jonim halak bo'lib qiynalayotgan bir paytda men ga bunaqa shubhali nazar bilan qaraysan? Nimga bunday qilding axir?

Vivien derazadan tashqariga xayolchan termulib o'tirardi.

– Janob Xartli, – dedi u biroz ikkilanib. – Sizga nima deyishga ham Bergan taklifning hamma imtiyozli taraflarini g'oyatda yaxshi tushunib turibman, hatto ba'zan sizga bemalol ishonsam ham bo'lar, deb quvonib ketdim. Biroq baribir tayinli bitta qarorga kela olmayapmar. Bilasiz, men shaharlik qizman, shunday ekan, shahar chetidagi hayotga birdan ko'nib ketishim amrimahol.

– Azizam, – dedi Xartli jo'shqinlik bilan qizga boqarkan. – Axir men senga istagan narsalaringni qudratim yetguncha muhayyo qilib qo'yishga va'da bermaganmidim?! Sen yana avvalgiday shaharga – teatrga tushish uchun, xarid qilish yoki dugonalaring bilan ko'rishish uchun istagan paytingda kelaverishing mumkin. Bunga qarshiligim yo'q. Faqatgina menga ishonsang bo'ldi, xo'sh, shunday qilish qo'lingdan keladimi, Vivienna?

– Chin yurakdan aytganda, – dedi qiz unga tabassum bilan samimiy porlab turgan ko'zlarini qadab. – Siz men bilgan eng mehribon insonsiz, siz ega bo'lgan qiz shubhasiz, albatta, baxtli bo'ladi. Montgomerilarning uyida ekanligimda siz to'g'ringizda ko'p eshitgandim.

– Eh! – deya xitob qildi Xartli ko'zlaridan o'tchaq nab. – Axir seni yaqindagina bo'lgan kechki ziyofat chog'ida Montgomerinikida ko'rgandim-ku. Butun oqshom Montgomeri xonim faqat sening ta'rifingni keltirib o'tirgandilar. U senga nihoyatda marhamatli ayol ekan. O'sha oqshom ziyofatini sira unutilmasam kerak. Kel, endi, Vivienna, menga so'z ber. Sen menga keraksan axir. Men bilan ketganingga aslo afsus qilmaysan. Senga mendan bo'lak boshqa hech kim tinch va obod bir boshpanani bera olmaydi.

Qiz yengil xo'rsinib, bukib olgan barmoqlariga xomush qaradi. Birdan Xartlining ko'nglidan rashk aralash bir gumon o'tdi.

– Menga roostingni gapir, Vivienna, – dedi u qizga sinovchan boqarkan. – Yo o'rtada yana biron kimsa bormi?

Bu so'zdan qizning yuzlariga qizillik yugurdi. U uyalib, boshini bukdi.

– Shu mavzu borasida so‘ramasligingiz lozim edi, janob Xartli, – dedi u kuchli xijolat ichida. – Ammo sizga ochig‘ini aytaman. Chindanam, o‘rtada birov bor. Lekin u ham hali aniq emas, negaki ungayam haligacha biron marta ishonchli bir so‘zimni aytgan emasman.

– Uning ismi? – deya talab qildi Xartli tuyqus jiddiy tortib.

– Taunsend.

– Raford Taunsend! – deb yubordi Xartli. Uning lablari alam bilan qimtildi. – U seni qayerdan topdi ekan? Men uni darhol bir yoqlik qilaman.

– Uning mashinasi hozirgina pastga kelib to‘xtadi, – dedi Viviennda derazadan ko‘cha tarafga tez qarab olarkan. – U ham javobimni olaman deb kelgan. Oh, Xudoyim-ey! O‘zing menga eng to‘g‘ri yo‘lni ko‘rsatgin! Nima qilishimniyam bilmay qoldim! Boshim qotdi juda!

Eshik qo‘ng‘irog‘i chalinishi bilan Viviennda diketib o‘rnidan turdi.

– Sen shu yerda qol, – deb buyurdi Xartli unga, – Men o‘zim kutib olaman o‘sha Taunsendni.

Boshiga Panama shlyapasini qo‘ndirib, egniga qattiq, dag‘al matodan tikilgan qandaydir libos kiyib olgan Taunsend negadir g‘alati kulgili qiyofada ko‘rinar, u hadeganda javob bo‘lavermagani uchun eshik oldiga tinmay uch marta borib keldi. U ro‘parasida to‘satdan paydo bo‘lib qolgan Xartlini ko‘rishi bilan yurgan joyida taqqa to‘xtadi va unga ahmoqona tarzda qarab qoldi.

– Qani, bolakay, kelgan joyingga qarab tezda jo‘nab qol-chi! – dedi Xartli qat‘iy ohangda Taunsendga ko‘rsatkich barmog‘i bilan pastki zinalarni ko‘rsatarkan.

– Eh-he! – dedi Taunsend o'zini go'llikka solib.
– Nimaga ekan? Siz o'zingiz-chi, a? O'zingizga bu yerlarda pishirib qo'yibdimi, a, qariya?

– Menga qara, hoy, men senga bu uydan tuyog'ingni shiqillat, deb aytdim! – deb takrorladi Xartli yana-da qat'iy ravishda. – Jungli qonuniga binoan buyuraman. Yo teringga somon tiqib qo'yishimni istaysanmi? O'ldirish qo'limdan keladi!

– Bu uyga vannaning suv buraydigan jo'mragini to'g'rilash uchungina kelgandim, – deb javob qildi Taunsend zarracha tap tortmasdan.

– Juda soz, – dedi Xartli, – unda bor asbob-angomingni yig'ishtirgin-u, tezda qorangni o'chir!

Taunsend endi rostdanam Xartlining vajo-hatidan qo'rqib ketdimi, yo o'zi shunday qilishni ma'qul deb topdimi, haytovur, ortiqcha qarshilik ko'rsatmasdan pastga tushib ketdi, liftdan tusharkan, so'kingancha binodan tashqariga chiqib ketdi. Xartli bo'lsa darhol qizning ko'nglini tag'in ovlash uchun uning huzuriga qaytdi.

– Vivien, – dedi u qat'iyat bilan. – Seni o'zim bilan olib ketishim shart! Hech bir raddiyasiz yo ortiqcha gap-so'zsiz seni bu yerdan olib ketmoqchiman.

– Qachon olib ketmoqchisiz? – deb so'radi qiz. U Xartlining qarshisida sokin alfozda turar va yigitning ko'zlariga endi tik boqmoqda edi.

– Siz biroz shoshmang, – dedi qiz shunda. – Muhim qarorga kelishdan avval yana bir o'ylab ko'ring. Modomiki, sizning uyingizda hozir Xelois xonim bor ekan, men qanday qilib o'sha xonadon ichiga qadam bosa olaman?

Hartlini bu gap xuddi xushomadgo'ylik davomida qo'qqis kelib urilgan zarbaday noxos esanki-

ratib qo'ydi. U qo'llarini bukib, gilamga ikki-uch marta uzoq-uzoq nazar tashladi.

– U ketadi, – deya e'lon qildi u jiddiy. Xartli shu tobda qizni ko'ndiraman, deb urinaverganidan anchagina terlab ketgandi. Peshonasiga tepchib chiqqan ter tomchilari qoshlari ustiga ham asta simillagancha oqib tushmoqdaydi.

– Nega men o'sha ayolning hayotimni jahannamga aylantirib yuborishiga toqat qilib yashashim kerak ekan? O'sha qiz kelgandan buyon biror kun ham halovat topmadim o'zi. Sen haqsan, Vivien-na. Menikiga borishingdan oldin o'sha Xelois uydan ketishi kerak. Xotirjam bo'l, u baribir ketadi. Men allaqachon bir qarorga kelib bo'lganman. Uni shu bugunoq uyimdan yo'qotaman.

– Bu ishni qachon qilmoqchisiz? – deb so'radi qiz umid bilan.

Xartli bir on tishlarini takillatib, qoshlarini chimirganча o'ychan turib qoldi.

– Shu bugun kechqurun, – dedi u keskin. – Uni shu tunning o'zidayoq haydab yuboraman.

– Unday bo'lsa, – dedi Vivien-na mamnun bo'lib. – Sizga beradigan javobim – Ha! Istagan paytingizda kelib, meni bu yerdan olib ketishingiz mumkin.

Vivien-na yigitning ko'zlariga shirin, suyumli qiyo bilan qaradi. Xartli qizning og'zidan chiqqan so'zlarga arang ishonch hosil qildi.

– Menga so'z ber, – dedi Xartli behad to'lqinlanib ketib. – Bergan va'damda qat'iy turaman, deb so'z ber menga.

– Ha, bergan va'damda qat'iy turaman, – deb qaytardi Vivien-na muloyimlik bilan jilmayarkan.

Xartli ketishga chog'lanib, eshik oldiga kelganida ortiga o'girilib, qizga baxtiyor chehra bilan ko'z tashladi, erishgan baxtining haqiqatan ham mavjud ekanligiga o'zini o'zi bazo'r ishontira oldi.

– Demak, ertaga, – dedi Viviennaga ko'rsatkich barmog'ini eslatma o'rnida ko'rsatarkan.

– Ha, demak, ertaga, – deb takrorladi qiz ham soddadillik bilan.

Oradan bir soat-u qirq daqiqachalik vaqt o'tgach, Xartli shahar chetidagi Floralhurst degan joyga yetib kelib, poyezddan yengilgina sakrab tushdi. O'n daqiqacha yurganidan so'ng bir zumda oldida yaxshilab qaralgan yam-yashil o'tzori bor ikki qavatli hashamdor uyi ostonasidan kirib keldi. Ichkariga kirgan zahoti tim qora sochli, egniga uzun etaklari yergacha osilib tushgan oppoq, yozgi xalat ilib olgan loabar bir ayol uning istiqboliga peshvoz chiqdi. Er-xotin mehmonxona eshigi oldida bir zum to'xtab, gaplashganicha turib qolishdi.

– Oyim shu yerdalar, – deb erini xabardor qilgan bo'ldi ayol. – Bir yarim soatdan keyin ularni olib ketgani mashina kelayapti. Sho'rlik ozib-yozib bir martagina uyimizga kechki taom ye-yish uchun kelgan ekan, ammo ovqat qiladigan odamning o'zi qolmabdi bu uyda!

– Senga aytadigan bitta zo'r yangiligim bor, – dedi Xartli xotiniga mamnun jilmayib qarab. – Basharti onang shu yerda ekan, senga ushbu xushxabarni zudlik bilan yetkazib, tashvishingni jindek bo'lsa-da aritib qo'yishni eng ma'qul ish deb o'ylayman, malikam.

Shunday dedi-da, Xartli egilib, xotining qu-log'iga nimadir deb shivirladi. Ayol quvonganidan

qattiq qichqirib yubordi. O'sha zahoti ayolning onasi mehmonxona eshigi oldiga yugurgancha, halloslab yetib chiqdi. Xartlining sochlari tim qora xotini tag'in baland ovozda qichqirib qo'ydi. Bu shodon qichqiriq o'z eriga erkalangan hamda sevilgan masrur ayolning erka kulgisi edi.

– Oh, oyijonim-ey! – deya battar suyungancha baqirardi Xartlining xotini, u o'zida yo'q o'ta shod edi shu tobda. – Qani toping-chi Xartlining menga topib kelgan gapini? Bilasizmi, u nima qilibdi? U biznikiga oqsochlik qilish uchun va ayniqsa, ovqat pishirgani Viviennani kelishga ko'ndiribdi! U qiz avval bir yilcha Montgomerilarnikida xizmatkor bo'lib ishlagan edi. Endi bo'lsa xizmatga bizning uyimizga o'tadi! Qoyil! Mana buni haqiqiy xushxabar desa bo'ladi! Ha-ya, esim qursin! Billi, azizim, menga qara, sen hoziroq pastga, oshxonaga tushgin-u tepsa-tebranmas anavi Xeloisni ishdan bo'shatib yuborgin. Toza jonimga tegdi o'sha ivirsiq xotin! Qachon qarasa, mast-alast bo'lib yurgani-yurgan! Mana bugun ham u kun bo'yi g'irt mast bo'lib tentib yurdi. Tezroq qutulsam qutula qolay o'sha aroqxo'rdan! Qani, shoshila qol, Billi! Oyoq-qo'li chaqqon yaxshigina oqsoch topib kelganingdan biram xursand bo'ldimki, azizim! Eh, Xudoyimga behad shukrlar bo'lsin!

Ingliz tilidan
Qandilat Yusupova
tarjimasi

KECHIRIM

Taniqli ro'znomalardan birining bosh muharriri, ya'ni barcha qog'oz ishlarini o'zi boshqaruvchi mohir mutaxassis to'satdan mazasi qochib, ehtimol gripp yoki qizamiq asorati natijasida qalin ko'rpaga burkanib olgancha yotib qoldi va shu vajdan ushbu ro'znomaning ikki haftalik soni o'z-o'zidan nashr etilmay qoldi.

«Dumaloq tosh» ro'znomasining intiq o'quvchilari esa mazkur kechikishning boisini bilolmay, juda hayron bo'lishdi, ular tahririyatga ketma-ket xat-xabar yo'llab, sira tinchishmadi.

Ustiga-ustak, obunachilar to'lovi ham yil oxirigacha to'liq to'lanib bo'lgan, ular har tomonlama o'z gazetalarini talab qilib olishga haqli edilar. Nima qilishini bilmay, boshi qotgan muxbirlar nihoyatda mushkul vaziyat ichida qoldilar. Ro'znomaning yuksak nufuziga shu noxush hodisa tufayli anchagina putur yetishi aniq edi. Vaholanki, bosh muharrir avvallari hech ham bunday kutilmagan vaqtda og'rib qolmagandi. Nima bo'lganda ham gazetani bosish nihoyatda zarur edi. Yo'qsa, chop etilmay qolajak uchinchi hafta bu gal tahririyatni so'zsiz halokatli jar yoqasiga olib borishi aniq bo'lib qolgandi. Eh! Sira kutilmagan boshog'riq bo'ldi-da bu hol! Qalami va qadami chaqqon muxbirlar bor aqllarini ishga solib, ikki

haftalik tanaffusdan so'ng ro'znomaning keyingi sonini butkul g'aroyib tarzda chiqarishga qaror qilishdi.

Shu boisdan ular gazetaning birinchi sahifasiga «Kechirim» deb nomlanuvchi, qizamiq, shamollash va yana boshqa-boshqa kasalliklar bilan xastalanib qolgan bosh muharrirlari nomidan uzr so'rash qabilidagi kattagina maqola berdilar. Ular bu uzrnomalarda jami kasalliklarning deyarli bariga to'xtalib o'tishgan, ayniqsa, boshliqlarining ayni damdagi holatiga alohida urg'u berib, maqola ta'sirchanligini o'zlaricha oshirgandek bo'lgandilar. Xullas, gazeta bosmadan chiqdi. Nihoyat, muxbirlar yelkalaridan tog' ag'darilgandek yengil nafas oldilar.

Ammo ertasi kuni g'aroyib hodisa ro'y berdi. «Dumaloq tosh» ro'znomasi tahririyatining eshigi oldida qo'llarida dori-darmon, oziq-ovqat, non, yaxna go'sht, sut-qatiq, boringki, shu jahondagi bor yemishlardan bir shingil bir shingildan ko'tarib kelgan kitobxonlar-u obunachilar galasi qator bo'lgancha tizilib turardi. Ular ro'znomaning o'sha ilk sahifasida berilgan «Kechirim» nomli maqoladan keyin jonkuyar bosh muharrirni shuncha tilga olib o'tilgan kasalliklar sababli mutlaqo nogiron bo'lib qolgandir, deb ishonishgan va biroz bo'lsa-da yordamimiz tegar, degan umidda bor topganlarini ana shunday tarzda ko'tarib kelishgandi.

Oqibatda bunday holat bo'lishini aslo kutmagan muxbirlar bir-birlariga angraygancha qarab qoldilar. Shunda ular birdan qattiq sevinib ketdilar. Muxbirlar gazetaning keyingi soniga «Haqiqiy mehnatkash odam ana shunday qadr topadi», deb nomlangan ajoyib maqolani tayyorlashdi.

MUNDARIJA

| | |
|--|-----|
| Ishbilarmon dallolning sevgi qissasi. <i>Ingliz tilidan Qandilat Yusupova tarjimasi</i> | 3 |
| Xiyobonda. <i>Ingliz tilidan Qandilat Yusupova tarjimasi</i> | 11 |
| Tomiringizni ushlab ko'rsam maylimi? <i>Ingliz tilidan Nodirabegim Ibrohimova tarjimasi</i> | 22 |
| Oktyabr va iyun. <i>Ingliz tilidan Qandilat Yusupova tarjimasi</i> | 38 |
| So'nggi yaproq. <i>Ingliz tilidan Ma'ruf Abdullayev tarjimasi</i> | 44 |
| G'ayrioddiy hikoya. <i>Ingliz tilidan Qandilat Yusupova tarjimasi</i> | 55 |
| Vaqt qiymati. <i>Ingliz tilidan Shahnoza Rahmonova tarjimasi</i> | 58 |
| Yo'l qidirib. <i>Ingliz tilidan Qandilat Yusupova tarjimasi</i> | 61 |
| Yigirma yildan so'ng. <i>Rus tilidan Amir Fayzulla tarjimasi</i> | 71 |
| Yashil eshik. <i>Ingliz tilidan Qandilat Yusupova tarjimasi</i> | 77 |
| Sevgi rejasi. <i>Ingliz tilidan Nodirabegim Ibrohimova tarjimasi</i> | 81 |
| Kaktus. <i>Ingliz tilidan Qandilat Yusupova tarjimasi</i> | 86 |
| Nomsiz hikoya. <i>Ingliz tilidan Qandilat Yusupova tarjimasi</i> | 92 |
| Askar va qo'shiq. <i>Ingliz tilidan Qandilat Yusupova tarjimasi</i> | 110 |
| Maktab ko'rmagan qiz. <i>Ingliz tilidan Qandilat Yusupova tarjimasi</i> | 122 |
| Hayot o'yini. <i>Ingliz tilidan Qandilat Yusupova tarjimasi</i> | 141 |
| San-rozariolik do'stlar. <i>Ingliz tilidan Qandilat Yusupova tarjimasi</i> | 154 |

Yashirin xazina.

Ingliz tilidan Qandilat Yusupova tarjimasida..... 180

Ishbilarmon kishilar.

Ingliz tilidan Qandilat Yusupova tarjimasida..... 199

Qizil tanlilar Sardori.

Rus tilidan Hasanboy Teshaboyev tarjimasida 223

Soddadil qizgina.

Ingliz tilidan Qandilat Yusupova tarjimasida..... 241

Kechirim.

Ingliz tilidan Qandilat Yusupova tarjimasida..... 252

Adabiy-badiiy nashr

O'GENRI

ISHBILARMON KISHILAR

(Hikoyalar)

Muharrir

Ma'mura QUTLIYEVA

Badiiy muharrir

Uyg'un SOLIHOV

Kompyuterda sahifalovchi

Sunnat MUSAMEDOV

Musahhah

Madina MAHMUDOVA

Texnik muharrir

Umidbek YAXSHIMOV

Litsenziya raqami: AI № 252, 2014-yil 2-oktabrda berilgan.

Bosishga 2015-yil 20.07. da ruxsat etildi.

Bichimi 84x108 1\32.

Bosma tobog'i 8.0. Shartli bosma tobog'i 13.44.

Garnitura «Bookman Old Style». Ofset qog'oz.

Adadi 5000 nusxa. Buyurtma № 141.

Bahosi kelishilgan narxda.

**«Yangi asr avlodi» NMMda tayyorlandi va chop etildi.
100113. Toshkent, Chilonzor-8, Qatortol ko'chasi, 60.**

Murojaat uchun telefonlar:

Nashr bo'limi – 278–30–52;

Marketing bo'limi – 128–78–43. faks – 273–00–14;

e-mail: yangiasravlodi@mail.ru



Uilyam Sidney Porter

(1862–1910)

Mashhur amerikalik yozuvchi. Dastlab sotuvchi, kitob bezakchisi, noshir va boshqa kasblarda ishlagan; asar, felyetonlar yozishni mashq qilgan. Qamoqdaligida (1897 – 1901) yozgan hikoyalarni O'Genri taxallusi bilan yashirin chop ettirgan.

1904 – 1910-yillarda adibning kichik-kichik hikoyalari «Yonayotgan sham», «G'arb qalbi», «Yoqimtoy o'g'ri» kabi nomlar bilan chop etilgan. «Qirollar va karam» (1904) romani ham sarguzasht-yumoristik ruhdagi hikoyalardan tashkil topgan.

O'Genri amerika hikoyachiligida o'ziga xos maktab yaratdi. Yumorning kuchliligi, kinoya, qiyos, parodiya kabi usullarning ko'p ishlatilganligi, eng muhimi, muallifning oddiy mehnatkash – «kichik inson»ga samimiy muhabbati, oliyjanoblik va sofdillikni madh etish kabi jihatlar O'Genri hikoyalari olamshumul shuhrat keltirdi.

Asarlari o'zbek tiliga tarjima qilingan.

Yosh ijodkorlar tarjimalaridan tarkib topgan hamda adabiyot ixlosmandlariga taqdim etilayotgan mazkur kitob, o'ylaymizki, o'zbek o'quvchisiga O'Genri ijodining yana yangi qirralarini ochib beradi.

ISBN 978-9943-27-563-8



9 789943 275638



YANGI ASR AVLODI